

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**JO‘RAYEV ABDUG‘AFFOR SAFAROVICH  
AMANOV AKRAM MIRZAYEVICH  
ZARIPOV XUSAN BAXODIROVICH**

# **SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH**

**(I QISM)**

**KASBIY FAOLIYAT ASOSLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
tomonidan oliy ta’lim muassasalarining 5230800-Soliqlar va  
soliqqa tortish bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan  
talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT– 2021

**UO‘K: 336.22(075)**

**KBK: 65.261.4ya7**

**A.S.Jo‘rayev, A.M.Amanov, X.B.Zaripov; Soliqlar va soliqqa tortish. (I qism). Kasbiy faoliyat asoslari. – T.: «Nihol print» OK. – 288 b.**

**ISBN 978–9943–7344-6-3**

Mazkur darslikda soliqlar va soliqqa tortish tizimini o‘rganish masalasini samarali tashkil etish vazifalari va funktsiyalari, soliq ma‘muriyatchiligining nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslari bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim va ko‘nikma hamda malakani talabalarda shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Darslik oliy ta‘limning 230000 - Iqtisod ta‘lim sohasidagi 5230800- Soliqlar va soliqqa tortish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari va iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishlari mavjud oliy ta‘lim muassasalarining talabalari, magistrantlari, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bank xodimlari, buxgalterlar va ilmiy izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

**UO‘K: 336.22(075)**

**KBK: 65.261.4ya7**

***Taqrizchilar:***

**Almardonov M.I.** – iqtisod fanlari doktori, professor;

**Ataniyazov J.H.** – iqtisod fanlari doktori, dotsent.

**ISBN 978–9943–7344-6-3**

**© «Nihol print» OK nashriyoti, 2021.**

## SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, soliq siyosati - davlatning iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning samarali vositalaridan biri sifatida soliqqa tortish sohasidagi istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy- nazorat tizimini takomillashtirishga asoslangan chora-tadbirlari yig'indisini o'zida ifodalaydi.

Talabalarni kasb-hunarga yo'naltirishdan ko'zlangan maqsad, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo'naltirish orqali, bo'lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb –hunarga yo'naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir talabani kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham iqtisodiyot tarmoqlari manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak.

“Muvaffaqiyatni – sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko'rdim”, deb bejiz aytmaganlar deya Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev buyuk alloma Najmiddin Kubro hazratlari so'zlaridan iqtibos keltirdilar.

“Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz”.<sup>1</sup>

Soliq siyosati nazariy jihatdan davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning bilvosita usuli hisoblanadi va davlat hamda soliq to'lovchilarning o'zaro moliyaviy manfaatdorligi muvozanati orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, jadal iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish maqsadlariga yo'naltiriladi. Aynan mana shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati, avvalo, soliq yukini qisqartirish, soliq ma'murchiligi samarali vositalarini keng qo'llash va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan islohotlarga qaratilmoqda.

Ayniqsa, “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”ning 3-ustuvor yo'nalishida “soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – 61 b.

ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish vazifalarini yaqin istiqbolda amalga oshirish" belgilab olindi.

2019 yildan boshlab joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Globalashuv jarayonlari shiddat bilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha ilm-fan hamda ishlab chiqarish integrasiyasini tizimli ravishda joriy etishni talab qilmoqda. Kasb tanlash uchun talaba o'z imkonoyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishi mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur.

Aynan shunday jihatlarni inobatga olib, 230000 - Iqtisod ta'lim sohasidagi 5230800-Soliqlar va soliqqa tortish bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan Kasbiy faoliyat asoslari darsligi talabalarga davlat soliq xizmati xodimining kasbiy etikasi hamda ish faoliyati, shuningdek, jamiyat hayotidagi o'rni xususidagi aniq ma'lumotlarga asoslangan umumiy ma'lumotlarni tizimli ravishda ifodalab berganligi bilan ahamiyatlidir.

***Toshkent Moliya instituti rektori***

***Teshabayev To'lqin Zakirovich***

**“Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas,  
uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor  
bo‘lishi kerak”.**

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat  
Mirziyoyev*

## **KIRISH**

Mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga daxldor qator muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish”<sup>1</sup> muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari hisoblanadi.

Hozirgi zamon sharoitida O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining muhim ustuvor vazifalaridan biri-ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish va soliq to‘lovchilar biri-ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish va soliq to‘lovchilar iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun imkon qadar ko‘proq qulay sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: «2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risi”dagi PF-5468-son Farmoni.

yoʻlidir. Shuning uchun bu borada taʼsirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur.

Maʼlumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan mablagʻ, albatta, kamayadi.

Buni samarali soliq maʼmuriyatchiligi orqali bartaraf etish va byudjet barqarorligini taʼminlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamizdir»<sup>1</sup>.

Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda OʻRQ-599-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda OʻRQ-589-sonli “2020 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-sonli Oʻzbekiston Respublikasining “2020 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonuni ijrosini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” hamda 2019 yil 10 iyulda PQ-4389-sonli “Soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorlari, shuningdek, konsepsiya doirasidagi soliq islohotlari davomida qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyulda PF-5468-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi 2018 yil 24 dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-508-sonli Qonuni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet moʻljallari toʻgʻrisida”gi PQ-4086-sonli Qarorlari, 2020 yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirda Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda “2021 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-657-son, Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda “2021 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti

---

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun moʻljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-659-son Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4938-son Qarori aynan davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tgan sodda hamda barqaror soliq tizimini qo'llashni amalda nazarda tutishini kafolatlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar ishtirokchisi sifatida asosan yuridik shaxslar maqomiga ega bo'lgan subyektlar faol ishtirok etadi. Tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma orqali iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar va soliqqa tortish tizimini o'rganish masalasini samarali tashkil etish vazifalari va funktsiyalari, soliq ma'muriyatchiligining nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim va ko'nikma hamda malakani talabalarda shakllantirishdan iborat bo'lib, u 5230800-Soliqlar va soliqqa tortish bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan oliy ta'lim muassasalari talabalariga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlar hamda internet tarmog'i ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

"Kasbiy faoliyat asoslari" darsligida fanning predmeti, vazifalari va maqsadi, "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat ta'lim yo'nalishiga umumiy tavsif, soliq tizimining tashkil etilishi, hududiy davlat soliq xizmati organlari va uning vazifalari, soliq tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rnini, davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi hamda soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar, soliq kontseptsiyasi bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilim berish kabi masalalar qamrab olingan.

## **“Kasbiy faoliyat asoslari” fanining predmeti va vazifalari**

**“Kasbiy faoliyat asoslari” fanini o‘qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.**

“Kasbiy faoliyat asoslari” fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o‘qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib

borayotganligidan kelib chiqadi.

“Kasbiy faoliyat asoslari” fani soliq voqe‘liklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

“Kasbiy faoliyat asoslari” fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqe‘liklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma‘qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va u amaliyotda kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

“Kasbiy faoliyat asoslari” fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo‘yicha o‘zgartishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

“Kasbiy faoliyat asoslari” fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liqdir, uning maxsus bo‘limi, ya‘ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiy iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, “Kasbiy faoliyat asoslari” fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liq. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish” fanining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlarini o‘rgatadi.

“Kasbiy faoliyat asoslari” fani davlat byudjeti fani bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo‘lmasa byudjet munosabatlarining



o‘zi bo‘lmaydi. Bu fan soliqlar va soliqqa tortish, soliq qonunchiligi asoslari, soliqlarni prognoz qilish fanlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

**“Kasbiy faoliyat asoslari”  
fanining predmeti,  
vazifasi va o‘rganish  
usullari**

Har qanday fan o‘zining predmetiga, ya’ni izlanish obyektiga ega bo‘ladi. Masalan, kimyo fanining predmeti bo‘lib kimyoviy moddalarning tarkibini o‘rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmi xarakteristikasi bo‘lsa, “Kasbiy faoliyat asoslari” fanining predmeti soliq xizmati xodimining kasbiy xarakteri, ularning soliq to‘lovchilar bilan munosabatlarini (harakatini), soliq tizimi va mexanizmini har tomonlama o‘rganishdan iboratdir.

Fanning predmeti soliq voqe‘liklari pul munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar (yuridik shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o‘rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o‘rtadagi munosabatni chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tashkil qilishni ta‘minlashdir. To‘g‘ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e‘tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to‘lovchilar bo‘yniga ortiqcha og‘irlik osmaslik, ularni o‘z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so‘ndirib qo‘ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o‘zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e‘tibor berish ko‘zda tutiladi. Bu erda tomonlarning do‘stona munosabatda bo‘lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo‘lishini o‘rgatadi.

Fanning predmetini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo‘ravonlik munosabati bo‘lguday bo‘lsa, ikkinchi tomon unga javoban o‘z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo‘llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi etmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o‘rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning vazifalari soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik

uchun yo‘l - yo‘riqlar ko‘rsatishdan iboratdir. Shuningdek, soliq solish sohasidagi dastlabki umumiy termin hamda tushunchalar mazmunini o‘rganishdan iborat.

Demak, fanning asosiy funksiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo‘llanmalar bilan ta‘minlashdir.

Har bir fanning shakllanishi fanning predmetini shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullarining qaror topishi bilan ham bog‘liq. Har qanday fanni o‘rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘z predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun, fanni o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o‘rganishning birdan-bir to‘g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun, ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan jismoniy shaxslarni soliqqa tortish fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun, ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduktsiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa - bu induktsiyadir. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu - deduktsiyadir.

Shu bilan, birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Kasbiy faoliyat asoslari» fanining ham o‘ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraktsiya usulidir. Ilmiy abstraktsiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida ob‘yektning faqat bir tomoniga, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e‘tibor qaratiladi va xalal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta‘siri e‘tiborga olinmaydi.

«Kasbiy faoliyat asoslari» fani shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - bu o‘rganilayotgan butun obyektни qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo‘lsa, sintez esa, o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo‘l bilan o‘rganiladi.

Fan o'z predmetini o'rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo'shib olib borish muhim o'rin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o'rganishda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar nuqtai-nazaridan, ular bilan davlat budjeti o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya'ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o'rganiladi.

Shuningdek, fan o'z predmetini o'rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, soliq turlarini tasniflash, soliq tol'ovchi subyektlarni tasniflash, davlat soliq idoralari faoliyatini o'rganish, ular faoliyatidagi o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, masalan yangi ishlab chiqilgan soliq konsepsiyasining mazmuni va ushbu konsepsiyadan ko'zlangan maqsad hamda amaliy ish jarayonlarini o'zgarishini ifodalash mumkin.

**“Kasbiy faoliyat asoslari” mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli**

Mehnatning maqsadi odam faoliyati mazmunining muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Mehnatning maqsadlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularni uchta katta gruppaga: bilish, o'zgartirish, oylab topish gruppalariga bo'lish mumkin. Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni uch turkumga ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Gnostik kasblar (G). Bu kasblarning nomi lotincha «gnosis» - bilim, bilish degan ma'noni anglatuvchi so'zdan olingan. Agar siz aqliy mehnat (ya'ni bilib olish, gnostik mehnat) bilan faqat ish stolida, xonada shug'ullanish mumkin deb o'zingizga odat bo'lib qolgan tarzda oylaydigan bo'lsangiz, u holda bunday fikrdan voz kechishga to'g'ri keladi. Bilish, o'rganish mehnati bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina kasblar mavjud bo'lib, ular bilan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayonida shug'ullanishga to'g'ri keladi. Masalan, nazoratchilar, sortga ajratuvchilar, pirometristlar ana shunday kasbdagi kishilardir.

2. O'zgartiruvchi kasblar (P). Juda ko'p kasblar mehnat predmetlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi. Odamning o'zgartiruvchi faoliyati faqat buyumlargagina qaratilib qolmay, shu bilan birga energiya turlariga, axborotlarga, jarayonlarga, ijtimoiy hayotning tuzilishiga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Mana, bunga faqat birgina misol keltiramiz. Etakchi o'quvchilarni uyushtirdi va ular ko'chat o'tqazishda faol ishtirok etdilar.

Mana shu misolda faqat tabiatning o'zgarganligi to'g'risida gapirish kifoya qilmaydi. Bu yerda eng muhimi bolalarning mehnatga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi va hokazo.

3. Tadqiqotchilik kasblari (I). Mazkur turkumning nomi izoh berishni talab qiladi. Bu nomga qarab, mazkur kasb qidiruv ishlari bilan (masalan, geologik qidiruv ishlari bilan) yoki ilmiy tadqiqotlar bilan, albatta, bog'liq kasb bo'lsa kerak, deb oylamaslik kerak. Bu yerda o'zgartiruvchi turkumga yaqin bo'lgan kasblar to'g'risida gap boradi.

Mazkur turkumdagi kasbda qilinadigan mehnatning maqsadi, qandaydir bir noma'lum narsani, buning ustiga ko'pincha cheklangan bir vaqt sharoitida qidirishdan iborat bo'ladi.

Mehnat vositalariga qarab kasblar bo'limlarga bo'linadi.

1. Qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (Q). Mazkur kasbda ishlovchi kishilar qo'l mehnatidan va mexanizatsiyalashtirilgan mehnat qurollaridan foydalanadilar. Masalan, otvyorka, skalpel (jarrohlik pichog'i), shtixel (yog'ochga yoki metallga oyib gul solish asbobi), reysfeder, tortsovka (boyoqchilar cho'tkasining bir xili), elektr drel, bo'yoq purkagich, pnevmatik otboyka bolg'asi va hokazolar ana shunday ish quroli hisoblanadi.

2. Qo'lda boshqariladigan mashinalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar (M). Boshqacha qilib aytganda, ularni ham mashinada, ham qo'lda ish bajariladigan kasblar deyish mumkin -tokar, frezerchi, kran mashinisti, keng profildagi traktorchi -mashinist, elektrovoz mashinisti va boshqalar ana shunday ham qo'l mehnati, ham mashinadan foydalaniladigan kasblar qatoriga kiradi. Bunday kasblarda ishlaydigan kishilardan faqat texnologik bilimlarga ega bo'lish talab qilinmasdan, shu bilan birga ulardan qo'l mehnati malakasiga ega bo'lish ham talab qilinadi.

3. Avtomatlashtirilgan va avtomatik sistemalardan, apparatlardan foydalanish bilan borliq bo'lgan kasblar (A). Avtomatlashtirish darajasiga qarab ishlayotgan kishining zimmasiga har xil vazifa tushishi mumkin. Bu vazifa umuman agregatni va uning ta'miri bilan bog'lik bo'lgan ishlarni boshqarishdan tortib o'sha agregat ishini kuzatib turish va agar zarurat tug'ilsa, kerakli mutaxassisni chaqirishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi. Mazkur kasb bo'limining vakillari prokat stanining operatori, energosistema dispetcheri, kimyo ishlab chiqarishi apparatchisi, avtomatik liniyalar operatori, po'lat quyuvchi va boshqalardir.

4. Funktsional vositalar, mehnat qurollari ko'proq talab qilinadigan kasblar (F). Bu yerda odam xulq-atvoridagi funktsional vositalar va uning

nutqidagi ana shunday vositalar, ya`ni imo-ishoralar, tovushlar, soʻzlar, jumalarning talaffuz qilinishi, ma`no tashuvchi va emotsional intonatsiyalar, pauzalar, yuz mimikasi mehnat quroli rolini bajaradi. Bu boʻlimga: oʻqituvchi, tarbiyachi, san`atkor, aktyor, xor yoki orkestr dirijyori singari kasblar kiradi.

Odam organizmi ham funktsional vosita rolini bajarishi mumkin (balet artisti; sport pedagog-murabbiyi, ashulachi, tsirk akrobati).

Mana shu kasblarni egallagan kishilar uchun oʻz xotirasida juda koʻp qoidalarni, ma`lumotlarni saqlab qolish qobiliyati, oʻz-oʻzini nazorat qilish va oʻz-oʻzini boshqarish qobiliyati xarakterli boʻladi.

Kasb guruhlari. Nihoyat, piramidaning oxiridan oldingi qavati, mehnat sharoitlari boyicha kasblar klassifikatsiyasiga toʻxtalib oʻtamiz. Kasblar toʻrtta guruhga boʻlinadi:

1. Odatdagi («maishiy») mikroiklim sharoitidagi mehnat (Mt). Hisobchi, iqtisodchi, chizmach, oʻqituvchi va boshqalarni mana shu kasb gruppasiga kiritish mumkin.

2. Harorat, namlik keskin oʻzgarib turuvchi ochiq havoda ishlash bilan bogʻliq boʻlgan mehnat (O). Quyidagi kasblar bunga misol boʻla oladi: quruvchi, oʻt oʻchiruvchi, sugʻoruvchi va boshqalar.

3. Odatdan tashqari mehnat: yer ostida, suv ostida, balandlikda, havoda, qaynoq tsexlarda, sogʻliq uchun muqarrar zararli ta`siri boʻlgan tsexlarda ishlash (G). Bunday kasbga misollar: uchuvchi, shaxtyor, gʻavvos va hokazo.

4. Odamlarning sogʻligi, hayoti uchun, katta-katta jamoat boyliklari, moddiy ne`matlar uchun oshirilgan ma`naviy mas`uliyat bilan bogʻliq boʻlgan mehnat (M). Oʻqituvchi, shifokor, militsiya noziri, texnika xavfsizligi muhandisi va boshqa kasblarni mana shu mehnat guruhiga kiritish mumkin.

Kasb tanlash formulasi. Piramidaning toʻrtta-qavati toʻldirilgan Beshinchisi hozircha boʻsh qoldirilgan. Bu yerga siz oʻzingiz tanlagan kasbning bir necha harfdan iborat boʻlgan formulasi shartli belgisini yozib qoyishingiz kerak. Bu harflar siz yoqtirgan kasbning tipiga, turkumiga, boʻlimiga, guruhiga muvofiq keladi.

Masalan, siz oʻsimliklar bilan ish olib borishni xohlaysiz, deylik. Siz qoʻl mehnatini yengillashtiradigan ish qurollaridan foydalanib faol ravishda oʻzgartiruvchilik faoliyati bilan mashgʻul boʻlasiz. Lekin bunda oʻz mehnatingiz kundalik, oddiy, maishiy sharoitlarga yaqin boʻlgan bir vaziyatda kechishini istaysiz. Bunday vaqtda siz tanlagan kasbning

formulasi shunday bo‘ladi: PPRB («Odam-tabiati» tipidagi kasb, o‘zgartiruvchi kasblar guruhidan, qo‘l mehnati ishlatiladigan kasblardan, mehnat sharoiti — maishiy). Mana shu yo‘nalishda olib borilgan aniq maqsadni ko‘zlovchi izlanishlar mashg‘ulotning konkret turini topishga yordam beradi: masalan, ushbu formulaga tevarak-atrofdagi iqlimdan himoya qilingan tuproq sharoitida (teplitsa xo‘jaligida) ishlovchi mevasabzavotchilari (gulchi) kasbi to‘g‘ri keladi.

Siz endi yaxshi bilasizki, har qanday kasbni muayyan klassifikatsiya turiga faqat shartli ravishdagina kiritish mumkin. Amalda esa bir kasbning o‘sha klassifikatsiyaning bir necha turiga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi misollar juda ko‘p. Axir, bir tipga mansub bo‘lgan har qanday kasbda albatta, boshqa kasbga xos bo‘lgan belgilar ham uchraydi. Hamma gap shundaki, mana shu o‘xshash jihatlarning qaysilari asosiy belgilar - u, qaysi biri ikkinchi rejaga olinishini, lekin baribir muhim belgi bo‘lib qolishini aniqlab olish kerak. Shularning hammasini formulada hisobga olish mumkin. Buning uchun unga qo‘shimcha harfli indekslar kiritish lozim. Masalan, siz o‘zingiz xohlagan bo‘lg‘usi kasbingizda tipiga xos belgilar bo‘lishini istaysiz, deylik (buni biz tablisada, boshqarish obekti deb belgilaymiz). Bunda sizga yoqadigan kasblarning biri gulchilik-dekorsizlik bo‘lib chiqadi.

Shunday ham bo‘lishi mumkinki, hosil qilingan formulaga hozircha hech bir kasb to‘g‘ri kelmaydi, ya‘ni hali hayotda bunday kasbning o‘zi yo‘q. U holda formulani boshqatdan tuzishga to‘g‘ri keladi, uni real hayotga yaqinlashtiriladi. Bunday qilinayotgan vaqtda kasb tanlashga: «kerak, qo‘limdan keladi, xohlayman» degan shior asos qilib olinmog‘i kerak.

**Kasblarning tiplari.** Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar beshta tipga bo‘linadi.

1. «Odam - tabiat». Bu yerda mehnatning asosiy, etakchi predmeti jonli tabiatdir. Bu tipga, masalan, quyidagi kasblar kiradi: urug‘shunos, mevasabzavotchilari, davlat urug‘chilik inspeksiyasining laboranti, chorvador-usta, ximik-bakteriologik analiz laboranti, zootexnik, agronom.

2. «Odam - texnika». Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy etakchi predmeti texnika ob`ektlari (mashinalar, mexanizmlar va boshqa shunga o‘xshashlar), materiallar, energiya turlaridan iborat bo‘ladi. Jonsiz tabiat ob`ektlari (yer osti boyliklari, tuproq, suv, o‘rmon va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari) ham ko‘p jihatdan shularga o‘xshagan bo‘ladi.

3. «Odam-odam». Bu yerda asosiy mehnat predmeti odamlardir. Mazkur mehnat sohasida mayllar, qiziqishlar qay darajada ekanini aniqlashda o'quv predmetlaridan tashqari, siz shaxsan o'zingiz jamoa bo'lib o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etib orttirgan tajribangiz ham yordam beradi. Makzur tipga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko'rsatish mumkin: - Radioelektron apparatlar va asboblarning montajchisi elektr va radiotexnika sohasida chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak.

4. «Odam-belgilar tizimi». Kasblarning bu tipida shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun'iy tillar asosiy etakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon kishisi belgilar va belgi tizimlari dunyosida tekstlar, chizmalar, sxemalar, kartalar, jadvallar, formulalar, yo'l belgilari ichida yashaydi. Binobarin, bularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.

«Odam - belgilar tizimi» tipidagi kasblar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

hujjatlarni (ona tilida yoki chet tilida) rasmiylashtirish, ish yuritish, matnlar va ularning qayta yozilishi, qayta kodlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan kasblar: tarjimon, sekretar-mashinistka, telegrafchi, texnik redaktor va boshqalar;

5. «Odam badiiy obraz». Kasblarning bu tipida badiiy obrazlar, ularning tuzilish usullari etakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Bu yerda quyidagi kasblarni ajratib ko'rsatish mumkin:

tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan kasblar: badiiy mebellar ishlab chiqarish boyicha duradgor, toshga oyib gul soluvchi, yoritish elektrotexnigi (teatrda), poyabzal konstruktor-modelyeri, dizayner-rassom va boshqalar.

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uning tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma-xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi.

Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday

faoliyatini o'rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo'lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarning iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tadbiiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

Soliq xizmati xodimlari o'zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning obyektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: «Nazariya qo'mondon, amaliyot askarlardir» Nazariya amaliyotni to'g'ri yo'lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo'lishlari zarur.

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlar va soliqqa tortish jarayonini o'rganishda va ularni hayotga to'g'ri hamda to'liq tadbiiq etishda adashmaydi. Shunday ekan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o'zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy faoliyat asoslari fanining tadqiqot usullari soliq munosabatlarini boshqarishning barcha jihatlarini ilmiy-amaliy asosda o'rganish, tahlil qilishga qaratilgandir. Mazkur fan voqelikni bilishga qaratilgan tadqiqot jarayonida umumiy iqtisodiy usullarni qo'llaydi (1-jadval). Mazkur tadqiqotning boshlang'ich bosqichida soliq ma'murchiligi




obyektini har tomonlama aks ettiruvchi va uni imkoni boricha to‘liqroq tahlil etishga yordam beruvchi ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda u baholanadi. Bu turkum munosabatlar soliq ma’urchiligining turli darajadagi voqeliklarga daxldor bo‘lishi ham mumkin.

1-jadval

### Kasbiy faoliyat asoslari fanining tahlil usullari

<b>№</b>	<b>TAHLIL USULLARI</b>	<b>ULARNING MAZMUNI</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
<b>1</b>	Tizilmali yondashuv	* menejment obyekti yaxlit tizim tarzida o‘rganiladi. Bu yondashuv turlicha bo‘lishi mumkin: * tizilmali-majmualiy * tizilmali-funksional * tizilmali-tarkibiy * tizilmali-kommunikatsion
<b>2</b>	Majmualiy (kompleksli) yondashuv	* menejment obyekti boshqa obyektlar bilan o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda o‘rganiladi.
<b>3</b>	Tarkibiy yondashuv	*menejment obyekti tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganiladi.
<b>4</b>	Integratsion yondashuv	* menejment obyekti usullar (vaziyatli, majmualiy, tarkibiy yondashuvlar)ni yaxlit qo‘llash yordamida boshqariladi
<b>5</b>	Iqtisodiy matematik yondashuv	* eng ma’qul qarorni qabul qilish maqsadida matematik usul va hisoblash texnologiyalaridan keng foydalaniladi.
<b>6</b>	Kuzatish usuli	* menejment obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rejali, ilmiy asosda to‘plash orqali baza yaratiladi. Ular sifat va son jihatdan tahlil etiladi.
<b>7</b>	Sotsiologik kuzatuv usuli	* soliq munosabatlarini samarali boshqarish maqsadida turli anketali so‘rov, test va boshqa baholashlar o‘tkaziladi.

## Kasbiy faoliyat asoslari fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi



Kasbiy faoliyat asoslari fani barcha fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘z mavzui darajasida tadqiqotni amalga oshiruvchi, shuningdek, boshqa fanlarning xulosalariga tayanib, bozor munosabatlari sharoitida soliq munosabatlarini boshqarishni yuqori saviyada va yanada samarali olib borishga oid nazariy - amaliy bilimlarni beruvchi fandır.

Mazkur fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik iqtisodiy demokratik tamoyillarga asoslangan sog‘lom raqobatni rivojlantirish, eng muhimi, tashkiliy faoliyatning huquqiy jihatlariga doir bir qator mas’uliyat-majburiyatlarini belgilaydi. Soliq ma’murchiligi jarayonida ularga to‘liq amal qilish soliq munosabatlari ma’murchiligi samarali bo‘lishini ta’minlaydi va uning muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. “Kasbiy faoliyat asoslari” fanining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. “Kasbiy faoliyat asoslari” fanining predmeti va o‘rganish usullarini tushuntirib bering ?
3. “Kasbiy faoliyat asoslari” fanining boshqa fanlar bilan qanday bog‘liqligi mavjud ?
4. Kasb, hunar deganda nimani tushunasiz?
5. Kasblarning turkumlanishi va tiplari qanday?

## **“Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga umumiy tavsif**

### **Toshkent Moliya instituti tarixidan**

Biz «Kasbiy faoliyat asoslari» fanini o‘rganishni dastlab, Toshkent moliya instituti haqidagi ma’lumotlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Toshkent moliya instituti 1991 yil 13 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (PF-207-sonli) Farmoniga ko‘ra Toshkent xalq xo‘jaligi institutining Moliya-kredit va Hisob-iqtisod fakultetlari negizida tashkil etildi. Institut rektori lavozimiga iqtisod fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi Murod Sharifxo‘jayev tayinlandi.

2005 yilda Murod Sharifxo‘jayevning Oliy Majlis Senatida o‘z vakolatlarini boshlashi munosabati bilan o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor lavozimida ishlab kelgan iqtisod fanlari doktori, professor Alisher Vosiqovich Vahobovga rektorlik vazifasi yuklatildi.

2012 yilda professor Alisher Vosiqovich Vahobov O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri etib tayinlandi. 2013 yilning yanvar oyidan boshlab institutga iqtidorli olim-amaliyotchi iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Azizov Ulug‘bek O‘ktamovich rektor etib tayinlandi.

Ulug‘bek Azizovning 2016 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas’ul lavozimiga o‘tishi munosabati bilan institutga ilgari O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritgan iqtisod fanlari doktori, professor Begalov Bahodir Abdusalomovich rektor etib tayinlandi.

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan institut rektori vazifasida faoliyat yuritgan Begalov Bahodir Abdusalomovich O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi raisi lavozimiga ishga o‘tishi munosabati bilan Toshkent moliya institutiga oliy o‘quv yurti boshqaruv tizimining barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli ishlagan olim, iqtisod fanlari doktori, professor Haydarov Nizomiddin Hamroyevich rektor etib tayinlandi.

2018-yilning 3-sentyabridan 2020 yilning 3 iyuliga qadar Toshkent moliya instituti rektori lavozimida Azizov Ulug‘bek O‘ktamovich faoliyat ko‘rsatib keldi.

Azizov Ulug‘bek O‘ktamovich boshqa ishga o‘tganligi munosabati

bilan 2020 yilning 3 iyulidan 2020 yilning 9 oktyabrga qadar Toshkent moliya instituti rektori vazifasini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Mehmonov Sultonali Umaraliyevich bajarib keldi.

Toshkent moliya institutida 1991 yil sentyabr oyidan boshlab 3 ta kunduzgi - Moliya-iqtisod, Kredit-iqtisod va Hisob-iqtisod, 2 ta sirtqi - "Kredit-iqtisod" va "Moliya-hisob iqtisod" fakultetlari tarkibida tegishli yo'nalishlar hamda 20 ga yaqin kafedralar o'z ish faoliyatini boshladi. 1993 yildan boshlab "Soliqlar va soliqqa tortish", "Sug'urta ishi", "Qimmatli qog'ozlar va birja ishi" yo'nalishlari bo'yicha ham kadrlar tayyorlashga kirishildi. 1998-1999 o'quv yilidan boshlab Toshkent moliya institutida "Loyihalarni moliyalashtirish" yo'nalishi bo'yicha "Investitsion loyihalarni moliyalashtirish" kafedrasini tashkil etildi.

1999 yildan e'tiboran Kasb ta'limi "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilish yo'lga qo'yildi. 2004 yilga kelib, institutning "Hisob-iqtisod" va "Kredit-iqtisod" fakultetlari negizida "Boshqaruv" fakulteti barpo etildi.

Boshqaruv fakulteti "Kasb ta'limi", "Statistika" va "Menejment" yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlay boshladi. Institut rektorining 2005 yil 27 avgustdagi (137-sonli) buyrug'iga asosan Moliya-iqtisod fakultetida tayyorlanayotgan "Soliqlar va soliqqa tortish" va "Sug'urta ishi" ta'lim yo'nalishlari negizida Soliq va sug'urta ishi fakulteti tashkil qilindi. 2011-2012 o'quv yilidan e'tiboran fakultetning nomi Sug'urta fakulteti, deb o'zgartirildi.

2007 yil 19 oktyabrda "Moliya" kafedrasini negizida institut rektorining (153-sonli) buyrug'i bilan "G'aznachilik ishi" kafedrasiga asos solindi. 2007 yil "Bank ishi" kafedrasini negizida "Bank hisobi va audit" kafedrasini tashkil topdi va o'z faoliyatini boshladi.

2005 yilda "Makro va Mikroiqtisodiyot" kafedrasini "Biznes va iqtisodiyot" kafedrasini, deb nomlandi va mutaxassis tayyorlaydigan kafedralar safiga kiritildi.

2007 yil 5 noyabrda "Moliya injiniringi" va "Bozordagi faoliyat va operatsiyalar", "Investitsiyalarni moliyalashtirish" yo'nalishlari negizida "Loyihalarni moliyalashtirish" fakulteti tashkil topdi.

2007 yil 30 noyabrda ikkita yangi ta'lim yo'nalishi - "Moliya injiniringi" va "Bozordagi faoliyat va operatsiyalar" ochilganligi munosabati bilan "Moliya injiniringi va bozorlar" kafedrasini ochildi va 2010 yildan "Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar", deb nomlandi.

2009 yil 30 mayda “Umumiqtisodiy nazariya va iqtisodiy pedagogika” kafedrası “Iqtisodiyot nazariyasi” va “Pedagogika va psixologiya” kafedralariga ajratildi. Institut rektorining 2010 yil 10 fevraldagi (44-sonli) buyrug‘iga asosan institutning “Buxgalteriya hisobi” kafedrası negizida “Byudjet hisobi” kafedrası tashkil etildi. 2009 yilda “Umumiqtisod” fakultetining nomi davr talabiga mos ravishda “Byudjet hisobi va g‘aznachilik” fakulteti, deb o‘zgartirildi. 2009 yil sentyabr oyidan fakultet nomi Byudjet hisobi va davlat jamg‘armalari fakulteti, deb nomlandi. 2017 yil iyun oyida “Falsafa va O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” va “O‘zbekiston tarixi” kafedralari birlashtirilib, kafedraning rasmiy nomi “Ijtimoiy fanlar”, deb nomlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi “Respublika aholisining axborot-kutubxona ta‘minotini tashkil etish to‘g‘risida”gi (PQ-381) sonli qaroriga binoan Toshkent moliya instituti axborot-resurs markazida zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etildi. Bugungi kunda ARM fondida jami 650 mingdan ortiq ilmiy adabiyot va boshqa turdagi yordamchi adabiyotlar mavjud.

Mutaxassis kadrlar tayyorlash modelini hayotga tatbiq qilish, ularni zamon talablari va jahon andozalariga mos bo‘lishi uchun institutning 6 ta fakulteti tasarrufidagi 24 ta kafedrada 453 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan 40 nafari fan doktori va professorlar, 132 nafari fan nomzodi va dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 1995 yil 18 dekabrda (277-sonli) buyrug‘iga binoan Toshkent moliya institutiga tayanch oliy o‘quv yurti vakolati berildi va unga 6 ta oliy o‘quv yurtlari (AndMII, QQDU, QarDU, NamMII, TermDU, FarPI) birlashtirildi.

Xalqaro hamkorlik borasida institut Abersvift universiteti (Angliya), Vusong Xalqaro Solbrij universiteti (Janubiy Koreya), Hindiston moliya instituti (Hindiston), Hankuk Xorijiy Tillar universiteti (Janubiy Koreya), Yodju texnologiya instituti (Janubiy Koreya), Sinszyan universiteti (Xitoy), Kembridj mintaqaviy maktabi (Buyuk Britaniya), Sanderland universiteti (Buyuk Britaniya), Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Bayneri universiteti (Malayziya), Latviya universiteti (Latviya), Mikolas Romeris universitetlari (Litva) bilan aloqalar o‘rnatgan. 2008 yilda Toshkent moliya instituti Yevropa milliy qo‘mitasi tomonidan “Yeurorean quality” (Yevropa sifat belgisi) belgisi bilan taqdirlangan.

**Toshkent  
institutini  
strukturasi  
va uni  
boshqarish**

**Moliya  
tarkibiy  
va uni**

2020-yilning 10-oktyabridan Toshkent moliya instituti rektori lavozimida Teshabayev To‘lqin Zakirovich faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.



**Teshabayev To‘lqin  
Zakirovich**

Iqtisod fanlari doktori,  
professor

Bog‘lanish uchun  
ma’lumotlar:

**Qabul vaqti:**

Chorshanba: 10:00-13:00

**Tel:** (99871) 234-46-26

**E-mail:** [rector@tfi.uz](mailto:rector@tfi.uz) ,  
[@tfi\\_news](mailto:@tfi_news)

**Teshabayev To‘lqin Zakirovichning mehnat  
faoliyati**

1984-1985 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti avtomatlashtirilgan elektr aloqa kafedrasida laborant

1985-1987 yy. - Harbiy xizmatda

1987-1988 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari kafedrasida texnigi

1988-1994 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti telekommunikatsiya tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari kafedrasida ishlab chiqarish ustasi

1994-2003 yy. - Toshkent elektrotexnika aloqa instituti birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi raisi

2003-2009 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti moliya va iqtisod masalalari bo‘yicha prorektori

2009-2012 yy. - O‘zbekiston aloqa xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy kengashi raisi

2012-2014 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori

2014-2016 yy. - O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rais o‘rinbosari

2016 y.-2020 - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori

2020 y.-h.v. - Toshkent moliya instituti rektori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 martdagi AI № 058 litsenziyasiga muvofiq “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti o‘z faoliyatini boshladi. 2008 yildan boshlab, “Moliya” ilmiy-iqtisodiy jurnali ta’sis etildi va hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) Prezidiumining qaroriga ko‘ra u doktorlik ilmiy ishlanmalarini chop etish belgilangan ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritildi. ”Moliya“ jurnali dastlab, bir yilda to‘rt marotaba. 2011 yildan boshlab esa yilda olti marotaba nashr etilmoqda.

O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, bozor munosabatlarini shakllantirish, demokratik jamiyat asoslarini barpo qilish asosida moliya institutining mavqei yanada oshdi. U moliya, kredit, hisob-iqtisod va boshqa mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi asosiy dargohga aylandi.

Institut Nizomi va tarkibiy tuzilishiga asosan institut kasaba uyushmasi qo‘mitasi 1991 yilda tashkil etilgan. Kasaba uyushmasining bosh maqsadi - kasaba uyushmasi a‘zolarining mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, intellektual huquq va manfaatlarini himoya qilishdir. Hozirgi kunda institut kasaba uyushmasi a‘zolarining umumiy soni 5244 nafar bo‘lib, ulardan 453 nafari professor-o‘qituvchi va 405 nafari ishchi-xodim va 4386 nafar talabalar hisoblanadi.

1991-2006 yillar mobaynida S.X. Ablyatifov, M. Erkaboyev va I.A. Navruzovlar kasaba uyushmasi a‘zolarining huquq va manfaatlarini ta‘minlash borasida muayyan ishlarni amalga oshirib keldilar. 2007 yildan hozirgi kungacha O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq maorifi xodimi, professor 3. Yuldashev kasaba uyushma qo‘mitasi raisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Toshkent Moliya instituti Kengashining maqsadi – institut jamoasining intellektual salohiyati va boshqa barcha imkoniyatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash, oliy ta’limning davlat ta’lim standarti talablari darajasida mukammal bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lgan professional mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirishdan iborat.

Institut Kengashi:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarining qat’iy bajarilishini o‘rganib chiqadi hamda ustivor masalalar bo‘yicha tavsiya va topshiriqlar belgilaydi;



- fakultetlarning o‘quv, ilmiy tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy ishlari to‘g‘risidagi, akademik litseylar, oliy ta’lim muassasasi qoshidagi ilmiy jamiyatlarning faoliyati to‘g‘risidagi, qabul komissiyasining qabul natijalari to‘g‘risidagi, shuningdek, marketing xizmatining xalq xo‘jaligining bitiruvchi mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoji, buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;

Ilmiy tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejalarining ijrosi, professor-o‘qituvchilar tarkibining malaka oshirish va qayta tayyorlash masalalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi;

- institut rivojlanishining yillik va istiqboliy rejalarini tasdiqlaydi, moddiy-texnik ta’minot va moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi;

- fakultet va kafedralarni ochish, tugatish, o‘zgartirish, shuningdek, marketing xizmati takliflarini hisobga olgan holda yangi bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish yoki to‘xtatish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha qaror qabul qiladi;

- “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog-xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq professor-o‘qituvchilar lavozimlarini egallashi uchun tanlovlar o‘tkazadi;

- professor, dotsent ilmiy unvonini olishga intilayotgan izlanuvchilarning hujjatlarini ko‘rib chiqadi va belgilangan tartibda ilmiy unvonga tasdiqlashga taqdim etadi;

- ta’lim muassasasi bitiruvchilari hamda professor-o‘qituvchilarining ingliz tilini bilishlarini ta’minlash va komputer texnologiyalari, internetdan foydalana olishlari bo‘yicha tayanch ko‘nikmalarni shakllantirish masalalarini muhokama qiladi va chora-tadbirlarini belgilaydi;

- ta’lim jarayonining o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganligi, yangi avlod darsliklari, shuningdek innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga asoslangan o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash va nashr etish masalalarini muhokama qiladi;

- mustaqil-tadqiqotchi-izlanuvchi va katta ilmiy xodim-izlanuvchi institutlariga nomzodlarni tavsiya etadi, ularning shaxsiy rejalarini va dissertatsiyalari mavzularini tasdiqlaydi;

- iqtidorli talabalar va professor-o‘qituvchilarni “El-yurt” jamg‘armasi orqali xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tishga tavsiya etadi;

- institutning iqtidorli talabalari va tadqiqotchi-izlanuvchilaridan munosiblarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va boshqa nomdor davlat stipendiyalar tanlovida ishtirok etishga nomzodlarni tavsiya etadi;

- “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi bilan hamkorlikda talabalarning jismoniy tarbiyasi va ularning sog‘liqlarini yanada yaxshilash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqadi;

-asosiy buyurtmachi tashkilot, korxonalar va muassasalar bilan korporativ hamkorlikni rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda talabalarning malakaviy amaliyoti samaradorligini oshirish masalalarini muhokama qiladi va ularni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

-xorijiy mamlakatlarning oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

- Ta‘lim xizmatlari bilan shug‘ullanuvchi kichik korxonalar, firma va kurslar faoliyati haqida rahbarlarning hisobotlarini eshitadi hamda tegishli qaror qabul qiladi;

- Institut talabalari va xodimlarining texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlarni belgilaydi;

- institut faoliyatiga oid boshqa vazifalarni hal qiladi.

Kengash tarkibi institut rektori, prorektorlari, dekanlari, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari, shuningdek institut Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi, institut Xotin-qizlar qo‘mitasi Kengashi raisi hamda «Yoshlar ittifoqi» BT raisidan iborat.

Ayni kunda institutda 7 ta fakultet: 6 ta kunduzgi va 1 ta sirtqi fakultetlar bor. Jumladan: Moliya fakulteti, Bank ishi fakulteti, Soliqlar va sug‘urta fakulteti, menejment fakulteti, Buxgalteriya hisobi va audit fakulteti, G‘aznachilik va davlat jamg‘armalari fakulteti hamda Sirtqi fakultet faoliyat yuritib kelmoqda. Bundan tashqari Magistratura bo‘limi ham mavjud.

Soliq tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash markazi va magistratura bqlimi hamda 16 ta kafedra faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Hozirda institutda ta‘lim olayotgan 9 ming nafardan ortiq talabaga 500 ga yaqin professor-o‘qituvchilar saboq berishadi.

Bular barobarida institutda kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini ta‘minlovchi akademik litseyi, malaka oshirish instituti ham bor.


Shuningdek, institutda ta‘lim haqidagi, qonun talablariga xizmat qiluvchi kompyuter, nashr ishlari, ilmiy o‘quv axborot texnologiyasi, kutubxona, bosmaxona mavjud.

Institut rivojlangan chet el turdosh universitetlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Hozirgi kunda institut AQSh, Angliya, Frantsiya, Germaniya,

Italiya, Janubiy Koreya, Malayziya va boshqa ko'pgina oliy o'quv yurtlari bilan aloqa qiladi. Bu oliy dargohning olimlari tez-tez mehmonimiz bo'ladilar. Ellikka yaqin talaba, o'nlab professor-o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi «El-yurt umidi» jamg'armasi bo'yicha xorijiy mamlakatlarda ta'lim olmoqdalar.

## 2-chizma

### Toshkent moliya instituti tuzilmasi





Toshkent Moliya Instituti va Polosk Davlat Universiteti Tmi-Pdu Qo'shma fakulteti tashkil etilib, 2019/2020 o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga qabul e'lon qildi.

2019/2020 o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga qabul e'lon qiladi				
№	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	Jami	To'lov-kontrakt asosida
<b>Bakalavriat, kunduzgi ta'lim shakli</b>			<b>150</b>	<b>Ta'lim tili: Rus tili</b>
1	5230600	Moliya	100	
2	5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	50	
<b>Hujjatlar joriy yilning 25-iyulidan 25-avgustiga qadar qabul qilinadi.</b>				

Institut tarkibida talabalar uchun jihozlangan 3 ta talabalar uyi mavjud. Bu dargohlarda sport bilan shug'ullanish, dars tayyorlash uchun tegishli sharoitlar yaratilgan.

Yana bir narsa haqida aytib o'tish kerak, institut professor-qituvchilari va talabalar katta tezlik bilan ishlaydigan internet tarmog'i bilan bog'langanlar. Bundan tashqari, institutda masofaviy o'qitish tizimi o'zining dastlabki faoliyatlari asosida o'quv sifatini oshirishga yaqindan yordam bermoqda.

Bozor iqtisodiga o'qitishning muhim 2 talablaridan biri: tayyorlanayotgan mutaxassislarning ishchanligi, sifatini yanada yaxshilash; ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga erishishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda institutda o'quv jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, o'quv

**“Soliqlar va soliqlar tortish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari, ob'ektlari va turlari**

jarayoni tashkiliy va uslubiy shakllargagina ega bo'lmasdan u ko'p qirralidir. Bu qirralarga o'quv rejalari, o'quv dasturlari, dars jadvallari, sinovlar, maslahatlar, turli xil tajribalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 3-

fevraldagi (21-sonli) buyrug‘i, shuningdek, institut rektorining 2005-yil 27 avgustdagi (137-sonli) buyrug‘iga asosan moliya-iqtisod fakultetida tayyorlanayotgan “Soliqlar va soliqqa tortish” va “Sug‘urta ishi” ta’lim yo‘nalishlari negizida “Soliq va sug‘urta ishi” fakulteti tashkil qilindi.

2011-2018 o‘quv yillarda fakultetning nomi “Sug‘urta” fakulteti deb nomlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan 2018 yil 25-oktyabrda kelishilgan Toshkent Moliya instituti tarkibiy tuzilmasi va institut rektorining 2018 yil 3-noyabrdagi (754-sonli) buyrug‘iga asosan “Sug‘urta” fakulteti “Soliqlar va sug‘urta” fakulteti deb o‘zgartirildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri talablaridan kelib chiqib, soliq va sug‘urta tashkilotlarida mutaxassislariga bo‘lgan talabni hisobga olib, 1991-yil 13- maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 3-iyundagi qaroriga muvofiq Toshkent moliya instituti tashkil etilgandan so‘ng 1993-yilda “Moliya” kafedrasida negizida yangi “Soliq va sug‘urta” kafedrasida tashkil qilindi.



**1-rasm. Soliqlar va sug‘urta fakulteti shiori**





**2-rasm. Soliqlar va sug'urta fakulteti tarkibiy tuzilishi**



**3-rasm. Soliqlar va sug'urta fakulteti talabalarining kontingenti**

Hozirgi kunda “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida 2 ta fan doktori, professor, 9 ta fan nomzodi, dotsent, 3 ta katta o‘qituvchi faoliyat olib bormoqda. Kafedraning ilmiy salohiyati 78% ni tashkil qiladi.

Kafedraga biriktirilgan ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar 5230800 – Soliqlar va soliqqa tortish;

Kafedra professor-o‘qituvchilari ta’lim beradigan yo‘nalishlar va mutaxassisliklar (bakalavriat kesimida):

- 5230600 – Moliya;
- 5230700 – Bank ishi;
- 5230800 – Soliqlar va soliqqa tortish;
- 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (real sektor bo‘yicha);
- 5231200 – Sug‘urta ishi;
- 5231300 – Pensiya ishi;
- 5231500 – Baholash ishi.
- 5111000 – Kasb ta’limi (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit);
- 5111000 – Kasb ta’limi (5230600-Moliya);
- 5111000 – Kasb ta’limi (5230700 Bank ishi);

Kafedrada hozirgi kunda bakalavriat 8 ta fandan dars mashg‘ulotlari olib boriladi. Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ushbu fanlardan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv va ishchi dasturlar, o‘quv-uslubiy majmualar, ishchi daftarlar va boshqa turdagi uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlangan.

Kafedra professor-o‘qituvchilar tomonidan Respublikamizning moliya-soliq tizimini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq keng fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari amalga oshirilib borilmoqda. Kafedrada 6 nafar mustaqil izlanuvchilar doktorlik dissertatsiyalari ustida, 4 nafar mustaqil izlanuvchilar nomzodlik dissertatsiyalar ustida ilmiy ishlar olib borayotgan bo‘lsa, 1 ta yirik innovatsion real muammoli mavzular doirasida xo‘jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Kafedra tomonidan Respublikamiz soliq sohasining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ilmiy konferensiyalar, davra suhbatlari va ilmiy-nazariy seminarlar o‘tkazilib kelinmoqda. Oxirgi yillarda kafedra jamoasi tomonidan 6 ta monografiya, 3 ta darslik, 8 ta o‘quv qo‘llanma, xalqaro ilmiy jurnallarda 100 dan ortiq maqola va tezislar e‘lon qilingan.

Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan talaba yoshlarning yuksak ma’naviy-axloqiy, ona-vatanga sadoqat ruhda tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish hamda talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan keng

qamrovli manaviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, talabalar turar-joylarida turli xil manaviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda. Ustoz-shogird tizimi ana'nalariga ko'ra, talabalarga professor-o'qituvchilar birlashtirilgan hamda kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan Respublikamizning turli joylarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy bunyodkorlik ishlarining mazmun-mohiyati keng targ'ib qilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan 27.08.2018 yil sanasida 5230800 - "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan o'quv rejaga muvofiq o'quv bloklari bo'yicha umumiy yukalama quyidagicha belgilandi:

**2-jadval**

**5230800 - "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan o'quv reja**

№	O'quv bloklari nomi	Umumiy yuklama hajmi	
		soat	%
1	2	3	4
1	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	968	12,99
2	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	1000	13,42
3	Umumkasbiy fanlar	3764	50,51
4	Ixtisoslik fanlari	1340	17,98
5	Qo'shimcha fanlar	380	5,10
	JAMI	7452	100,00
	Malakaviy amaliyot	918	
	Bitiruv malakaviy ishi	216	
	Attestasiyalar	918	
	JAMI	2052	
	<b>HAMMASI</b>	<b>9504</b>	

O'quv bloklari 5 ta bolimdan iborat bo'lib, jami: 7452 soatni tashkil etadi. Ulardan, 3764 soati, ya'ni: 50,51 foizi umumkasbiy fanlarga ajratilgan.

5230800 - "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan o'quv rejaga muvofiq quyidagi mutaxassislik fanlari fan sifatida o'tilishi belgilab berildi:

1. "Kasbiy faoliyat asoslari."
2. "Soliq nazariyasi."



3. “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish.”
4. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish.”
5. “Soliq ma’urchiligi.”
6. “Soliq tushumlari hisobi va prognozi.”
7. “Soliq sohasida axborot tizimlari.”

Bundan tashqari, malakaviy amaliyot uchun 918 soat, bitiruv malakaviy ishi uchun 216 soat, attestasiyalar uchun 918 soat belgilandi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida ilmiy-tadqiqot, o‘quv uslubiy sohada qator mamlakatlar nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Xususan Amerika Qo‘shma Shtatlarining Davlat departamenti granti asosida kafedraning katta o‘qituvchilari A.Inoyatov (2004 yilda) va O.Shodievlar (2005 yilda) Texas A&M Universitetida, kafedra dotsenti M.Usmanova (2010 yilda) va kafedra katta o‘qituvchisi N.Yakubova (2011 va 2012 yillar) Chexiya Respublikasining Iqtisodiyot va menejment oliy maktabida, kafedra mudiri, prof. A.Jo‘raev va katta o‘qituvchi A.Artikovlar (2014 yil) Chexiyaning Sentral Bogemiya universiteti (CENTRAL BOHEMIA UNIVERSITY)da tajriba almashinuvida bo‘ldilar. Mazkur tashriflar natijasida Chexiyaning Iqtisodiyot va menejment Oliy maktabi bilan Tempus hamda Erasmus Mundus dasturlari doirasida loyihalar yaratilishi mumkin bo‘lgan sohalar xususida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Ko‘rsatilgan fanlarning ayrimlari bo‘yicha nazariy masalalar bilan malakaviy amaliyot turlari ham ko‘zda tutiladi.

Biz institutda 4 yil davomida o‘qitiladigan ixtisoslikka doir fanlar bilan tanishtirdik. Bu fanlar bir semestrda o‘qitilmasdan 4 yil davomida semestrlar bo‘yicha taqsimlanadi va fan bo‘yicha alohida daftar tutishi kerak. Bunda ma’ruza uchun alohida, seminar va amaliy mashg‘ulot uchun alohida daftar tutiladi. Har bir daftarga talabanning familiyasi, dars olib boruvchi o‘qituvchining ismi va sharifi ko‘rsatiladi. Agarda o‘qituvchi tomonidan uyga vazifa berilsa, bu vazifa alohida qog‘ozda hal qilinib, keyin amaliy mashg‘ulot daftariga ko‘chiriladi.

### **O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Toshkent moliya instituti qachon tashkil topgan?
2. Toshkent moliya instituti qanaqa yo‘nalishlar bo‘yicha kadrlar tayyorlaydi?

3. “Soliqlar va soliqqa tortish” ta’lim yonalishining iqtisodiyot tarmoqlaridagi o‘rni?
4. Toshkent moliya institutining xalqaro aloqalari qanday yo‘lga qo‘yilgan?
5. “Soliqlar va sug‘urta” fakulteti tarkibiy strukturasi qanday?
6. “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasining o‘quv-uslubiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

## 1. Soliq tizimining tashkil etilishi

### Soliqlarning yuridik mazmun-mohiyati

Umuman olganda soliq hamma davrda ham davlat xazinasini to'ldirish hamda amaldorlar yoki davlat vazifa va funksiyalarini amalga oshirish hamda jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida yig'ilgan. Shuningdek, davlat daromadining asosiy manbai bo'lgan.

Hozirgi vaqtda davlatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida eng dolzarb muammolardan biri - bu soliq munosabatlarini tartibga solish masalasidir. Biron bir davlat soliqlarsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Soliqlar, ma'lum bir ma'noda, davlatning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerak. 2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda "yashirin" iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish "yashirin" iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur. Bundan tashqari, o'zimizda ishlab chiqarilgan va import qilinayotgan yuqori likvidli mahsulotlar markirovkasini joriy etish bo'yicha jadal ish olib borish talab etiladi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko'zda tutilishi shart".<sup>1</sup>

Iqtisodiy nuqtai nazardan soliqlar pul munosabatlari tizimidan iborat bo'lib, ular vositasida, bir tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, ikkinchi tomondan, davlat bilan davlat mablag'larini shakllantirish bo'yicha munosabatlar amalga oshirilgan. Soliqlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarining asosiy qismi shakllantiriladi, ular davlat

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 61 b.

budjetiga kelib tushadi va jamiyat ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Soliqlar – davlat budjetining daromad qismiga o‘tkaziladigan, yuqori qonunchilik hokimiyat organlarining hujjatlariga asosan yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan beg‘araz, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun to‘lanadigan majburiy to‘lovdir.<sup>1</sup> Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi eng muhim xususiyatlar soliq to‘lovlarining beg‘arazligi, bu to‘lovlarning majburiyligi, ularni joriy etish va undirib olish tartibi, soliqning aniq miqdorini hamda uni amalga kiritishning aniq muddatini belgilashdan iborat.<sup>2</sup>

Soliq to‘lovlarining beg‘arazligi shuni anglatadiki, soliqlar shaklida budjetga kiritiladigan pul mablag‘lari maqsadli yo‘nalishga ega emas. Ular yuridik va jismoniy shaxslardan davlat mulkiga beg‘araz o‘tkaziladi hamda davlat tomonidan iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, mudofaani moliyalashtirish, davlat apparatini saqlash uchun yo‘naltiriladi. Davlat soliq to‘lovchilarga ular tomonidan budjetga kiritilgan mablag‘lar uchun hech qanday bevosita kompensatsiyalarni bermaydi, ya’ni soliq to‘lovchi davlatga soliq to‘laganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri hech qanday manfaat kutmaydi. Ammo soliq to‘lovlarining beg‘arazlik xususiyati davlat soliqlarni olib, ularni to‘lovchilarga muayyan moddiy ne‘matlarni bermaydi, degan ma’noni anglatmaydi. Soliqlar boshqa shaklda insonlarni o‘zlariga qaytariladi. Masalan, bepul ta’lim olish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy ta’minlash va h.k. uchun mablag‘lar asosan davlat budjetining soliqlar hisobidan shakllantiriladigan daromad qismidan ajratiladi. Har bir soliq to‘lovchi uchun davlatga to‘lanadigan soliqlar hajmi bilan undan olinadigan moddiy ne‘matlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ko‘zga ko‘rinadigan aloqaning yo‘qligi uning soliqqa go‘yoki zimmasiga tushadigan bir yuk sifatida qarashi uchun sabab bo‘ladi, zeroki soliq to‘lovchilar ushbu mablag‘lar hisobidan moliyalanadigan davlat xarajatlari yo‘nalishini ma’qullashlari ham mumkin. Ayrim to‘lovchilarning soliq to‘lashdan qochishi, o‘z daromadlarini kamaytirib ko‘rsatishga intilishi mana shundandir.

Pol Mari Godmening fikriga ko‘ra, “soliq tushunchasida majburiylik elementi shunchalik buyukki, bu majburiylik xususiyatiga ega bo‘lmagan

---

<sup>1</sup> A.Li O‘zbekiston Respublikasining moliya huquqi. Darslik. / Mas’ul muharrir: M.H.Rustamboev. – T.: TDYUI, 2004. – 398 b.

<sup>2</sup> Химичева Н.И. Финансовое право: учебно-методический комплекс – М. Норма, 2007.

tushumlarning soliq sohasidan istisno etilishiga olib keladi”. Ayrim mamlakatlarning hozirgi zamon soliq tizimida qonun kuchi bilan majburiy bo‘lmagan soliqlar ham mavjud bo‘lib, bu - cherkov solig‘i hisoblanadi. Ularni ijro etish diniy me‘yorlar bilan ta‘minlanadi. 25 Masalan, musulmon davlatlari (Yaman, Saudiya Arabistoni, Pokiston va boshqalar) da davlat dini yetarlicha rivojlangan bo‘lib, davlat tomonidan sanksiyalangan diniy soliq me‘yorlari umumdavlat me‘yorlari bo‘lib qolmoqda. Xususan, bunday to‘lovlardan bo‘lgan islom soliqlari (zakot, zakot al fitr, ushr) Qur’onga muvofiq ravishda undirib olinadi va ular chet ellardagi musulmon jamoalarini qo‘llab-quvvatlash, kam ta‘minlanganlarga yordam berish va boshqa maqsadlarga yo‘naltiriladi.<sup>1</sup> Soliqlarning muhim yuridik belgisi ularni belgilash va joriy etish tartibi hisoblanadi. Soliqlarni belgilash hamda ularni undirib olish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan qonunchilikda nazarda tutilmagan har qanday majburiy to‘lovlar soliq hisoblanishi mumkin emas. Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi yana bir belgisi shundan iboratki, ularni to‘lash orqali oldindan qonunchilikda belgilangan tartibda daromadning bir qismi davlat foydasiga undirib olinadi. Davlat davlatning budjet tizimi daromad qismiga o‘tkaziladigan soliqlar miqdori va ularni to‘lash muddatlarini belgilaydi, qonunda belgilangan ko‘rsatmalarni buzgan soliq munosabatlari subyektlariga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llaydi. Ko‘pgina mamlakatlar qonunchiligida, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham, soliqlarni va ularning miqdorlarini belgilash vakolati faqat yuqori qonunchilik hokimiyatiga tegishli ekanligi belgilangan. Hech kim qonunda belgilanmagan tartibda o‘z xohishiga ko‘ra soliqlarni yoki boshqa majburiy to‘lovlarni o‘rnatishi, ularning miqdorini belgilashi mumkin emas. Mamalakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish zarurligi muhim ustuvor vazivalardan biri sifatida e‘tirof etiladi.

### 3-jadval

Soliqlarning xususiyatlari			
Soliq to‘lovlarining beg‘arazligi	Soliq to‘lovlarining majburiyiligi	Soliq to‘lovlarining aniq miqdori va amalga kiritishning aniq muddatlari	Soliq to‘lovlarini joriy etish va undirib olishning aniq tartibi

<sup>1</sup> А.Козырин Налоговое право зарубежных стран: вопросы теории и практики.- М.: Манускрипт, 1993.-20- стр.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, soliq tushunchasiga 2007 yil 25 dekabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida quyidagicha ta'rif berilgan.

Soliqlar deganda – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Shu bilan bir qatorda Soliq kodeksida boshqa majburiy to'lovlarning tushunchasi ham mustahkamlab qo'yildi: Boshqa majburiy to'lovlar deganda esa - Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq funksiyalari. Har qanday davlatda soliqlarning roli ular bajaradigan funksiyalar bilan belgilanadi. Soliq funksiyasi deganda, uning mohiyatining harakatda namoyon bo'lishi, uning xususiyatlarini ifodalash uslubi tushuniladi. Funksiya ushbu iqtisodiy kategoriyaning qiymatni taqsimlash va daromadlarni qayta taqsimlash vositasi sifatidagi ijtimoiy vazifasi qay tarzda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Soliqlarga fiskal, rag'batlantirish, tartibga solish va qayta taqsimlash funksiyalari xosdir. Soliqlarning fiskal funksiyasi ular tabiatining o'zi bilan belgilanadi, ular majburiy tartibda va beg'araz davlat daromadiga kelib tushadi hamda davlat tomonidan o'z xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi. Fiskal funksiya vositasida soliqlarning bosh ijtimoiy vazifasi amalga oshiriladi - budjet tizimi va budjetdan tashqari jamg'armalarda to'planadigan davlat moliyaviy resurslari shakllantiriladi hamda ular davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun foydalaniladi. Soliqlarning fiskal funksiyasi davlatga moliyaviy mablag'larning asosiy qismini yo'naltirish uchun imkon beradi. Fiskal funksiya davlat budjetini shakllantirishda soliqlarni rolini belgilaydi. Lekin soliq siyosatining vazifasi faqat budjetni to'ldirish bo'lishi kerak emas.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan mablag' albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma'muriyatchiligi orqali bartaraf etish va byudjet barqarorligini ta'minlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamizdir.

Soliq ma'muriyatchiligi shunday bo'lishi kerakki, qo'shilgan qiymat solig'i keng joriy qilinsa ham bu holat iste'mol tovarlarining narxi o'sishiga

olib kelmasligi shart va zarur. Moliya vaziri va Davlat soliq qo‘mitasi raisi soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligi hamda byudjet va iste‘mol mahsulotlari narxining barqarorligini ta‘minlashga shaxsan mas‘ul etib belgilanadi.

Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim.”<sup>1</sup>

Davlat ayrim sohalarni, tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish maqsadida ma‘lum bir yengilliklar, soliq imtiyozlarini berish orqali rag‘batlantirish funksiyasini amalga oshiradi. Masalan, Soliq kodeksining 158-moddasiga asosan yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi: protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko‘rsatishdan, nogironlar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta‘mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatishdan olingan foydasi; shahar yo‘lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foydasi; tarix va madaniyat yodgorliklarini ta‘mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi. Shuningdek mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

#### 4-jadval

<b>Soliqlarning funksiyalari</b>			
Fiskal	Rag‘batlantirish	Tartibga solish	Qayta taqsimlash

Soliqlarning tartibga solish funksiyasi shundan iboratki, ular ijtimoiy ishlab chiqarish, uning tuzilmasi va dinamikasiga, fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishga iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliqlar vositasida ishchanlik faolligini rag‘batlantirish yoki, aksincha, uni cheklash mumkin. Soliqlar yordamida proteksionistik iqtisodiy siyosatni olib borish yoki tovar bozoriga erkinlikni ta‘minlash mumkin. Soliqlarni tartibga solish funksiyasi orqali iqtisodiyot, ishlab chiqarish va aholining daromadlari tartibga solinadi.

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 61 b.

Masalan, aksiz solig'ini belgilash orqali ayrim iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilishni tartibga solish; iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish maqsadida soddalashtirilgan soliq tizimini joriy qilish; aholining daromadlarini muntazam ravishda oshirib borish maqsadida 2019 yil 1-yanvardan progressiv shkalani hamda fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallarini o'rniga yagona 12 foizli stavkani belgilanish va h.k.

Tub iqtisodiy islohotlar sharoitida soliqlarning tartibga soluvchilik roli kuchayib boradi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining o'z modelini tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvidan chetga chiqish, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zlariga, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqqan holda, qanday faoliyat bilan shug'ullanish va qanday mahsulot ishlab chiqarishni belgilashda erkinlik berish hisoblanadi. Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyatining tartibga soluvchi bosh dastaklaridan biri soliqlar bo'lib qoladi.

Shuni aytish kerakki, soliqlardan iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita sifatida foydalanish konsepsiyasi dastlab 1936 yili ingliz iqtisodchisi J.Keyns tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq soliqlar jamiyatda iqtisodiy munosabatlarni faqat tartibga solish uchun mavjud. Biroq ushbu konsepsiya iqtisodiyotni ma'muriybuyruqbozlik uslublariga asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarish sharoitlarida o'z ifodasini topa olmas edi va tabiiyki, u fanga qarshi burjua nazariyasi sifatida keskin tanqidga uchradi. Soliqlardan tadbirkorlikni tartibga solishning samarali vositasi sifatida foydalanish qayishqoq soliq siyosatini olib borishni talab qiladi, uning mohiyati, bir tomondan, budget daromadlari to'ldirilishini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirish, korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, tadbirkorik va investitsion faoliyatni rivojlantirishdan iborat. Soliqlarning tartibga soluvchilik funksiyasi iqtisodiyotni rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatilishi uchun muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. Bu tadbirlar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasiga va davlat budjeti daromadlari o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Soliq chora-tadbirlari investitsion faoliyatni rag'batlantirish (masalan, foydaning investitsiyalarga ajratiladigan qismiga soliq solinmaydi), mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda keng qo'llanadi. Jumladan, soliqlar yordamida ishlab chiqarish, masalan ma'lum bir ishlab chiqaruvchilarga nisbatan imtyozlarni belgilash, iste'mol masalan, aksiz solig'ini joriy qilish, aholining daromadlari esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga nisbatan o'zgaruvchan stavkani, ya'ni jismoniy



shaxslarning daromadi oshib borishi bilan soliq stavkasini oshib borishi orqali tartibga solinadi.

Davlatning soliqlarni oshirish yo‘li bilan keyinchalik ularni budjet orqali iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani rivojlantirishga ta’sir etish uchun o‘z qo‘lida imkon qadar ko‘proq moliyaviy mablag‘larni to‘plashga bo‘lgan intilishi ularning fiskal funksiyasini kuchaytirishga olib keladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan soliqlar yordamida qancha ko‘p mablag‘ olinsa, foyda (daromad) olish maqsadidagi faol ish-faoliyatga bo‘lgan qiziqish shunchalik kamayadi, ya’ni tartibga soluvchi funksiya samaradorligi pasayadi. Demak, soliqlarning fiskal va rag‘batlantiruvchi mohiyati o‘rtasida muvozanat bo‘lishiga rioya qilinishi shart. Bir tomondan, ular budjetga moliyaviy mablag‘larning eng ko‘p darajada kelib tushishini ta’minlashi, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yordam berishi lozim.

### **Soliq tushunchasi hamda soliqlarning tasniflanishi tizimi hamda**

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi soliqlar tizimi deb tushuniladi. Soliq kodeksining 17-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlarning va yig‘imlarning quyidagi turlari amal qiladi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- 1) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 2) aksiz solig‘i;
- 3) foyda solig‘i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 5) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig‘i;
- 8) yer solig‘i;
- 9) ijtimoiy soliq.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yig‘imlar belgilanishi mumkin. Yig‘imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq Kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Avtotransport yig‘imini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi Soliq Kodeksi bilan tartibga solinadi.

Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Mol-mulk solig'i va yer solig'i O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Soliq kodeksining 18-moddasi Maxsus soliq rejimlari deb nomlanib, unda quyidagilar ifodalangan.

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

1) aylanmadan olinadigan soliq;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig'imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni umumiy, qat'iy stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalari soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan budjet bilan hisob-kitoblar hisobi budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarning hisobi hisobvaraqlarida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar har bir turi bo'yicha yuritiladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Mahalliy soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lanishining tasdig'i bo'lib amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank muassasasi yoki vakolatli organ bergan hujjat hisoblanadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to'lovlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog'liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning budjeti ham soliqlari ham salmoqli bo'lishni talab etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, yer qo'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika budjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Bordi-yu, ajratma etmasa subventsiya yoki subsidiya beriladi. Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, ular budjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hokimiyat organlari asosan fuqarolarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ularning budjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos.

Shuning uchun ham mahalliy budjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu hududning budjetiga tushadi va ulardan boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy budjetlarning soliq va boshqa majburiy to'lovlari kam bo'lganligidan bu budjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar beriladi. (masalan, qo'shilgan qiymat solig'idan, aksiz solig'idan va boshqalar).


O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir necha guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar
2. Daromaddan olinadigan soliqlar
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgari mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlari kiradi.



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari**

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir necha guruhlariga ajratib o'rganish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

Oborotdan olinadigan soliqlar

Daromaddan olinadigan soliqlar

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona boji va er qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgari dek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona er solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning er soliqlarini kiritish mumkin.

### **Mamlakatimiz soliq tizimining huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq Kodeksi,

O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solib turiladi.


Ushbu jarayonda soliq tizimini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, uning asosini - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 8 dekabrda bo‘lib o‘tgan o‘n ikkinchi chaqiriq o‘n birinchi sessiyasida qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – soliq huquqining asosiy manbasi sifatida, soliq tizimining boshlang‘ich huquqiy asoslarini va asosiy prinsiplarini belgilab bergan. 43 Jumladan, Konstitutsiyaning 51-moddasiga binoan, «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar». Konstitutsiyaning 78-modda 9-bandi va 123-moddalariga binoan esa, «O‘zbekiston Respublikasi hududida Yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli».

Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy soliqlar va yig‘imlarni belgilash bo‘yicha vakolati ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya bilan barcha sohalarga, shu jumladan soliq tizimiga bevosita taalluqli bo‘lgan asosiy prinsiplar – davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas’uliyatini (2-modda), demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishini (13-modda), qonuniylikni (15- modda), fuqarolarning tengligini (18-modda) va boshqa asoslarni belgilab bergan.



**5-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,  
51- modda**

Soliq huquqining manbasi sifatida xalqaro shartnomalar ham namoyon bo‘ladi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4-moddasiga binoan agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq Kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.



### **6-rasm. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 123-modda**

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat printsiplariga rioya etilishi kerak.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha



tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat printsiplariga rioya etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi-so'mda hisoblab chiqariladi.

Amaldagi soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo'yicha axborot va maslahatlar olish.

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari ro'yxatdan o'tgan quyi Davlat soliq xizmati organlariga borib, byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslahatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda va asoslarda soliq imtiyozlaridan foydalanish.

Soliq to'lovchilar nafaqat Soliq kodeksida balki, Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qaror va Farmonlarida ko'zda tutilgan imtiyozlardan ham foydalanish huquqlariga egadirlar.

Byudjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilish.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, gohida soliq to'lovchilarning o'zlari, gohida esa soliq idoralarining ongli harakatlari tufayli soliqlar va yig'implardan ortiqcha to'lovlarni undirish amalga oshiriladi, ayniqsa, chorak yakuni yoki moliyaviy yil yakunlanayotgan vaqtda ayrim soliq turlaridan prognoz-rejalarni bajarish maqsadida korxonalarining bankdagi hisob-raqamlaridan inkassa topshiriqnomasi orqali qonunchilikka zid ravishda majburiy undirish holatlari ko'p uchrashi mumkin. Byudjetga ortiqcha undirilgan soliqlar 30 kun muddat ichida soliq to'lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig'implardan qarzi mavjud bo'lgan holda o'sha qarzni qoplash imkoniyati paydo bo'ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet oldidagi o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan tanishish.

Ushbu bandga muvofiq soliq to'lovchilar quyi soliq idoralariga berilgan soliq turlari bo'yicha belgilangan prognoz-reja va shu kabi xo'jalik va moliyaviy faoliyatlariga tegishli bo'lgan soliqqa tortish masalalari bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatlariga egadirlar.

Soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish.

Soliq to'lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, hisoblangan moliyaviy jarimalar to'g'risida tuzilgan dalolatnoma korxonalar mansabdor shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxonalar rahbariyati nohaq deb hisoblashi hamda e'tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda, soliq to'lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishlari mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo'lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to'lovchilarning yozma e'tirozlari bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida soliq to'lovchiga nisbatan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda moliyaviy jarimalarni byudjetga undirish to'xtatilmaydi.

Soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining hatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish.

Soliq organlari o'zlariga berilgan vakolat doiralarida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to'lovchilarning e'tirozlarini keltirib chiqarishi mumkin yoki ular mansabdor shaxslarining xatti-xarakatlarini soliq to'lovchi qonunga zid deb hisoblashlari va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari (Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo'mitasi)ga yoxud sudga shikoyat bilan da'vo qilishlari mumkin. Bunday holat amaliyotda ba'zida uchraydi.

Soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to'lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so'ng, xato va kamchiliklarni aniqlashsa uni qayta tuzatib darhol soliq idoralariga qayta soliq hisob-kitoblarini topshirishlari lozim bo'ladi. Aks holda, qonun oldida javob berishga to'g'ri keladi.

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, pochta manzili o'zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o'n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish.

Soliq to'lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, albatta quyi soliq idoralaridan ham ro'yxatdan o'tishi va tegishli ravishda soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR) ni olishi shart. STIR Davlat soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ro'yxatga olinadi va soliq to'lovchilarga quyi soliq idoralari tomonidan etkaziladi.

Soliq kodeksining 110-moddasiga muvofiq, har bir kechiktirilgan kun uchun penyalar soliqning to'lanmagan summasidan kelib chiqib foizlarda belgilanadi.

Penyaning foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu davrda amalda bo'lgan qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Penyalar tegishli soliq to'lanadigan budjetga (davlat maqsadli jamg'armasiga) to'lanadi.

Buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish. Korxonada o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi hujjatlarini yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

Moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilar har bir soliq turi bo'yicha hisob-kitoblarini belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda, korxonaga va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilarga soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun hujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun hujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishi shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish obyektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining tekshiruv rejasiga asosan Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliqqa tortish obyekti bilan bog'liq bo'lgan barcha obyektlarini ko'zdan kechirishga va bundan tashqari tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda, soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan tegishli jazo choralari qo'llaniladi.

Soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

Soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularning boshqa vakolat doirasidagi qonuniy talablari soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi majburdir. Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida o'z zimmalariga yuklatilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliqlarning iqtisodiy mohiatini ochib bering?
2. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi deganda nimalarni tushunasiz?
4. Soliqsiz to'lovlar qaysilar?
5. Kichik biznes subyektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi?

#### 4. Hududiy davlat soliq xizmati organlari va uning vazifalari

**Davlat  
Qo'mitasining  
vazifalari, huquq va  
majburiyatlari**

Soliq organlari faoliyati davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida majmuali tarzda amalga oshiriladi .

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq ma'murchiligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo'lgan qonunlar qabul qilinadi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat tomonidan qabul qilinadi.

Ijro hokimiyati bo'lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo'linmalari, Davlat Soliq qo'mitasi, Moliya, Adliya, Iqtisodiyot vazirliklari, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan huquqiy me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlaydi.



**7-rasm. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga, boshqa

qonun hujjatlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq qo‘mitasining yuqori turuvchi organi - O‘zbekiston Respublikasi hukumati, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi - O‘zbekiston Respublikasining Hukumati - iqtisodiyot, ijtimoiy va ma‘naviy sohalarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta‘minlovchi O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining 6 may 1993 yildagi (N818-XII sonli) “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga oid bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va mazkur Qonunga muvofiq o‘zining vakolatiga kiruvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvining barcha masalalarini hal etishga haqlidir. Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasining barcha hududidagi fuqaro, rahbar xodim, korxonalar, tashkilot, birlashma va barcha organlar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qaror va farmoyishlar chiqaradi.

Me‘yoriy xarakterdagi Vazirlar Mahkamasining qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plamida nashr etiladi. Zudlik bilan keng ommaga yetkazilishi zaruratida esa ommaviy axborot vositalaridan foydalaniladi.

Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi. Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra davlat soliq xizmati organlari – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning budjetga to‘liq va o‘z

vaqtida tushishini ta'minlash maqsadlarida tashkil etilgan. Qonunga binoan davlat soliq xizmati organlariga - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari kiradi. Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat boshqaruv organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun va boshqa qonun osti hujjatlari belgilab beradi. Jumladan, Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi qonun osti xujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 martdagi "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5690-sonli Farmoni (mazkur Farmon bilan PQ-3802 sonli Prezident qaroriga o'zgartirish kiritilgan), 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni, 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli, 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257-sonli qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 10 dekabrda 631-sonli "O'zbekiston Respublikasi soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari va sug'urta tariflari miqdori to'g'risida"gi, 2012 yil 31 oktyabrda "Sudyalarga, sud organlari xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, prokuratura organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Davlat soliq xizmati va Davlat bojxona xizmati organlari xodimlariga imtiyozli shartlarda uy-joy sotib olishga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berish tartibi to'g'risidagi nizomni hamda sudyalarga, sud organlari xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, prokuratura organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Davlat soliq xizmati va Davlat bojxona xizmati organlari xodimlariga uy-joylarni ijaraga olganlik (ijaraga turganlik) uchun har oylik



pul kompensatsiyasi to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 312-sonli, 2019 yil 17 apreldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining tegishli buyruq va qarorlarini kiritish mumkin.



**8-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi**

**Quyidagilar Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- ✚ davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;
- ✚ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash;
- ✚ soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularni soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etgan holda to'liq qamrab olish mexanizmlarini takomillashtirish;
- ✚ soliq solinadigan bazani tahlil qilish va kengaytirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy usullarni joriy etish, soliqqa oid



- huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
- + pul mablag'larining g'ayrinoqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;
  - + soliq to'lovchilarga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish, ularga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirish;
  - + xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
  - + bozorlar va savdo komplekslarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish va ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlar o'tkazish, jinoiy ishlarni tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berish;
  - + xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha respublika nazorat qiluvchi organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishlarni amalga oshirishda bir-birini takrorlash va suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslik;
  - + yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalari amalga oshirilganda qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish;
  - + kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, davlat soliq xizmati organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish holatlariga keskin barham berish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Davlat soliq qo'mitasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri

hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash sohasida:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi;
- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini, shu jumladan, tabiiy resurslardan ehtiyotlab va samarali foydalanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni birxillashtirish, soliq yukini qisqartirish, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi topshiriqlariga hamda o'zining tashabbusiga muvofiq qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun kiritadi;
- belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;
- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlarini nashr qiladi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan ma'lumotlarni almashish va soliq sohasida hamkorlik qilish masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi hamda ularning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlaydi;
- soliq to'lovchilar faoliyatining soliq tekshiruvlarini belgilangan tartibda o'tkazadi, shuningdek soliq to'lovchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida kiritilishini tekshiradi;

- davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;
- soliq to‘lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirish xatlari oladi, soliq to‘lovchining mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek hududlarni, ishlab chiqarish, omborxonalar, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan, soliq to‘lovchilar tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog‘liq joylarni ko‘zdan kechiradi (tekshiradi);
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u yerdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;
- soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) jarayonida hisobotdagi ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarida faktlarning buzib ko‘rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun buxgalteriya hisoblarini va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;
- hujjatli tekshiruvlar davomida xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va tayyor buyumlarni tartib ko‘radi va o‘lchaydi, ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va taqdim etilgan soliq hisob-kitoblarning to‘g‘riligini aniqlash uchun xom ashyo va materiallar sarfi normalari, ularning mahsulot ishlab chiqarish uchun to‘g‘ri hisobdan chiqarilishini, tayyor mahsulotning to‘liq kirim qilinishini, mahsulot chiqishi normalari hamda moddiy boyliklarni saqlash va tashishda tabiiy yo‘qotishlar normalari to‘g‘ri belgilanishini aniqlash uchun xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishda nazorat tariqasida ishlatib ko‘radi, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni nazorat tariqasida tekshiradi;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

- jismoniy va yuridik shaxslardan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradi;
  - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlarini tahlil qiladi hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga takliflar kiritadi;
  - huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning uzoq muddatli hamda joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
  - xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha respublika nazorat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi;
- b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash sohasida:
- soliq to'lovchilarning majburiyatlari paydo bo'lishi (to'xtatilishi) to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;
  - belgilangan tartibda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliya va soliq hisobotlarini, shuningdek soliq to'lovchilarning faoliyati to'g'risida soliq organlari yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida yig'ilgan boshqa hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida kameral nazoratni amalga oshiradi;
  - davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishini, shuningdek davlat organlariga berilgan mol-mulk hisobini nazorat qiladi;
  - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushumini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirliklar va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qiladi;
- v) soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarining o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularni soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va ilg'or

avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etgan holda to'liq qamrab olish mexanizmlarini takomillashtirish sohasida:

- soliq to'lovchilar, soliq solinadigan baza, shuningdek, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarning to'liq, o'z vaqtida va ishonchli hisobga olinishini ta'minlaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga, ularni identifikatsiya raqamlari berilgan holda soliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yish to'g'risida hujjatlar berilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qiladi;
- O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestrini shakllantiradi va yuritadi;
- soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida soliq to'lovchilar bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;
- banklar tomonidan tegishli axborot taqdim etilishiga ko'ra bank hisobvaraqlari bo'yicha olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik faoliyati bo'yicha - uch oy mobaynida) pul operatsiyalarini amalga oshirgan holda moliya-xo'jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarini aniqlaydi;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo'yin tovlash mexanizmlarini o'rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi;
- axborot xavfsizligi ta'minlanishini hisobga olgan holda, barcha soliq to'lovchilar va soliq tushumlari bo'yicha soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini yaratadi;
- soliq axborotlarini qabul qilib olish, ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;
- davlat soliq xizmati organlarida, axborot xavfsizligini ta'minlashni hisobga olgan holda, yagona axborot, dasturiy-texnik va telekommunikatsiya tizimi joriy etilishini tashkil qiladi;
- soliq ma'murchiligi jarayonida davlat soliq xizmati organlari ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi hamda xarajatlarni maqbullashtirish va resurs ta'minotini rivojlantirish uchun ularni texnologik jarayonlarni yuritishning

zamonaviy tizimlari va boshqarishning tezkor vositalari bilan jihazlaydi;

g) soliq solinadigan bazani tahlil qilish va kengaytirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish sohasida:

- soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash faktlarini aniqlaydi va tegishli choralar ko'radi, soliqlar va tegishli boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga qarshi mexanizmlarni ishlab chiqadi;
- soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy usullarni qo'llaydi;
- Davlat soliq qo'mitasining texnik bazasini modernizatsiya qilish, mustahkamlash va yangilash bilan tashqi va ichki manbalardan kelib tushadigan ma'lumotlarni tahlil qilishning ilg'or avtomatlashtirilgan usullarini joriy etadi;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq qarzini undirishni belgilaydigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning tashkillashtirilishini va qo'llanishini ta'minlaydi;
- aksizosti tovarlarini ishlab chiqarishda va aylanmasida huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etilishini belgilangan tartibda tashkillashtiradi va amalga oshiradi;
- ishlab chiqarish va daromadlar miqdorlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmlarini kamaytirib ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish va aniqlashni tashkillashtiradi va amalga oshiradi, ko'rsatib o'tilgan mexanizmlarning qo'llanishini bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga

belgilangan tartibda beradi, davlatga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirishni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

- ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni yuritadi;
- soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilishi holatlarini aniqlash uchun, surishtiruv, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish uchun ommaviy-axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi;

d) pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumini o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash sohasida:

- savdo va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishning qonunchilikka muvofiqligi, shu jumladan, nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- tovarlarni ulgurji sotishda qonun hujjatlarida belgilangan talablarning bajarilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladi;
- naqd pul mablag'lari muomalada bo'lishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul aylanmasiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;
- tadbirkorlik subyektlarida, shuningdek bozorlar va savdo komplekslarida, bir martalik yig'imlar, bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun ijara to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq undirilishi, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari bajarilishi, naqd pul mablag'lari yoki plastik kartochkalar bo'yicha to'lov shakliga qarab narxlarning sun'iy ravishda oshirilishi yoki pasaytirilishi, nazorat-kassa mashinalarining, to'lov terminallarining qo'llanilishi, shuningdek belgilangan tartibda talon va cheklarning berilishi, naqd pul tushumining o'z vaqtida va to'liq hajmda inkassatsiya qilinishi masalalari bo'yicha belgilangan tartibda qisqa muddatli tekshirishlarni amalga oshiradi;

e) soliq to'lovchilarga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish, ularga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama

ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlari va aholining huquqiy madaniyatini oshirish sohasida:

- soliq to'lovchilar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishini ta'minlaydi;
- soliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko'paytirish va davlat soliq xizmati hududiy organlariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, soliq to'lovchilarning soliqlarni o'z vaqtida hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o'qitish uchun servis-markazlar tashkil qiladi;
- soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to'lovchilarga va aholiga o'z vaqtida tanishtirish va yetkazish ishlarini tashkil etadi;
- soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida keng ko'lamli interaktiv xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etadi;
- soliq to'lovchilarga soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali, shuningdek Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari himoyalanihini ta'minlaydi;
- davlat soliq xizmati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi;
- soliq majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishi uchun soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish choralarini amalga oshiradi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning soliq solish va soliq qonunchiligi buzilishi masalalari bo'yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;
- soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlarning qonun hujjatlariga muvofiq sir tutilishiga rioya etish ishlarini tashkil qiladi;

j) bozorlar va savdo komplekslarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish va ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlar o'tkazish, jinoiy ishlarni tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berish sohasida:



- bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlaydi, oldini oladi va bartaraf etadi;
- bozorlar va savdo komplekslari hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashadi;
- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtomobil vositalarining to‘xtash joylari, shuningdek ular hududida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari harakati monitoringini va mablag‘lar tushumi hisobining to‘liqligini ta‘minlaydi;
- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari pul mablag‘lari tushumlari va tovar aylanmasi to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlariga tushadigan ma‘lumotlarning ishonchliligini tekshirish uchun banklar hamda statistika organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;
- bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo‘lgan avtomobil vositalarining to‘xtash joylarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo‘yicha tergovdan tergovga qadar tekshiruvlarni tashkil etadi va olib boradi, jinoiy ishlar qo‘zg‘aydi, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga beradi;
- soliqqa oid huquqbuzarliklar natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda undirilishini ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘radi;

z) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, davlat soliq xizmati soliq organlarini ma‘naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish holatlariga keskin barham berish, shuningdek xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish sohasida:

- qo‘yilgan talablarga muvofiq davlat soliq xizmati organlariga ma‘naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlarni tanlash va to‘ldirish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

- belgilangan tartibda ta'lim muassasalari tashkil etish yo'li bilan, davlat oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarining tizimli asosda tashkil etilishini ta'minlaydi, shuningdek rivojlangan xorijiy mamlakatlarning soliq organlari va o'quv muassasalari bilan tajriba almashishning kengaytirilishini amalga oshiradi;
- davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining malaka tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazadi, ularga o'z vakolatlari doirasida maxsus unvonlar beradi;
- kadrlarni O'zbekiston Respublikasiga vatanparvarlik, halollik hamda huquqiy davlat g'oyalari va asoslarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ishlarni amalga oshiradi;
- tegishli tanlovdan o'tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo'shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;
- davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan g'arazli maqsadlarda noqonuniy ta'sir ko'rsatish holatlarini aniqlaydi va ularga barham beradi;
- davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga, qarshi kurashishga va bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;
- davlat soliq xizmati organlarining xodimlari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- xizmat vazifalarini bajarayotganda davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- har ikki yilda ko'pi bilan bir marta davlat soliq xizmati hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlarining byudjet va xo'jalik faoliyati bo'yicha xarajatlar smetalari ijrosi yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Juda zarur bo'lganda va moliya-xo'jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo'l qo'yilgan holatlar to'g'risida ishonchli

axborot mavjud bo'lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o'tkazilishi mumkin;

- davlat soliq xizmatining hududiy organlari va tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta'minlaydi, xo'jasizlik, isrofgarchilik, davlat mablag'larini va byudjetdan tashqari mablag'larni asossiz ravishda sarflash, smeta intizomini buzish hollariga barham beradi.

### 3-chizma

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mita tashkiliy tuzilmasi



Ayrim davlatlarda esa soliq organlari ishini tashkil qilishning boshqacha uslublari mavjud. Jumladan, Daniyada har bir korxonaga soliq xizmati xodimlari guruhi biriktirilib, u korxonaning vujudga kelishidan to tugatilishiga qadar bo'lgan davrda nazorat ishlarini amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqa boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradilar.

Mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko'maklashishlari shart. Jumladan, Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar o'zaro kelishib belgilangan tartibda soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar, o'tkazilayotgan tekshiruvlar to'g'risida bir-birlarini xabardor qiladilar, shuningdek zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotlarni almashib turadilar.

Soliq to'lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida banklar bilan hamkorlikni amalga oshiradilar.

Jumladan, banklar xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar; xo'jalik yurituvchi subyektlar budget oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, bunday subyektlarning hisob-kitob raqamlari va boshqa hisobvaraqlarini sudning qaroriga binoan yopadilar; davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi mijozlardan belgilangan muddatda to'lanmagan soliqlar va jarimalarni so'zsiz undirish to'g'risidagi farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lashga doir, shuningdek hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag'lari o'tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo'yicha mutanosib ravishda bajaradilar; soliq to'lovchi mijozning mablag'lari bo'lsa, uning hisobkitob yoki boshqa hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini budget daromadiga o'tkazadilar; soliq to'lovchi — mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag'lari berish, o'tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir operatsiyalarni sudning qaroriga binoan to'xtatib qo'yadi.

Bunda, albatta, ijro hokimiyatining bir bo'g'ini hisoblangan Davlat Soliq qo'mitasi soliq siyosati ijrosini ta'minlashda alohida o'ringa ega ekanligini qayd etish lozim.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bo'g'inlari bilan birga sud hokimiyatining bo'g'inlari ham alohida ahamiyatga ega.

Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar vasoliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning o'z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o'rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanadi.

### **Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiya vazifalari va funksiyalari**

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiya (Hududlararo inspeksiya)ga joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat'iy nazar, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining (Qo'mita) mustaqil tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va bevosita Qo'mita raisiga bo'ysunadi.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiya to'g'risida Nizom Hududlararo inspeksiya faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Hududlararo inspeksiya tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriyatchiligi Hududlararo inspeksiya tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'lovchilar uchun bajarish majburiy hisoblanadi.

Hududlararo inspeksiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

yirik soliq to'lovchilar hisobini tashkil etish va ulardan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishini ta'minlash;

yirik soliq to'lovchilar faoliyatida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi bo'yicha soliq nazoratini tashkil etish;

yirik soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko'rsatilishini amalga oshirish;

yirik soliq to'lovchilar ma'muriyatchiligi doirasida soliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va oldini olish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

Hududlararo inspeksiya o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) yirik soliq to'lovchilar hisobini tashkil etish va ulardan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishini ta'minlash sohasida:

qonun hujjatlarida belgilangan yirik soliq to'lovchilar mezonlariga mos keladigan yuridik shaxslarni aniqlash va hisobga qo'yish ishlarini yuritadi;

yuridik shaxslargaular yirik soliq to'lovchilar jumlasiga kiritilganligi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga qo'yilganligi to'g'risida xabarnomalar yuboradi;

yirik soliq to'lovchilar reestrini shakllantiradi va yuritadi;

yirik soliq to'lovchilar hisobotlarining qabul qilinishi va qayta ishlanishini amalga oshiradi;

yirik soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalari yuritilishini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanishi lozim bo'lgan va haqiqatda to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summolari, shu jumladan ular bo'yicha imtiyozlar, shuningdek, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha moliyaviy jarimalar summolari hisobini yuritadi;

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumi prognozining ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;


makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasining tizimli tahlili asosida soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali tadbirlarni amalga oshiradi;

b) yirik soliq to'lovchilar faoliyatida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi bo'yicha soliq nazoratini tashkil etish sohasida:

kameral nazorat, shuningdek, yirik soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ishonchliligini hamda soliq to'lovchining hisobotlarida aks ettirilgan soliq va bojxona imtiyozlari qo'llanilishining qonuniyligini tasdiqlash uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joyiga chiqqan holda mavzuli ekspres-o'rganishlarni amalga oshiradi;

hisobotlarda ko'rsatilgan ishchilar soni bilan haqiqatda ishlovchilar soni, shuningdek, ishlab chiqarish hajmlarining mos kelishi masalalari bo'yicha yirik soliq to'lovchilar faoliyati monitoringini olib boradi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan holatlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni oldini olish va bartaraf etish choralari ko'radi.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining tuzilmasi





eksport-import operatsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi yuzasidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshiradi;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilishining asosliliigi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

soliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy usullarni qo'llaydi hamda tashqi va ichki manbalardan kelib tushadigan ma'lumotlarni tahlil qilishning ilg'or avtomatlashtirilgan usullarini joriy etadi;

yirik soliq to'lovchilar faoliyatining soliq tekshiruvlarini belgilangan tartibda o'tkazadi

soliq to'lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirishlar oladi, yirik soliq to'lovchilarning mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek, hududlarni, ishlab chiqarish, omborxonalar, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan, yirik soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechiradi yoki tekshiradi;

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u erdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;

yirik soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) jarayonida hisobotdagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarida faktlarning buzib ko'rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun buxgalteriya hisoblarini va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;

moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davomida xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va tayyor buyumlarni tartib ko'radi va o'lchaydi, ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va taqdim etilgan soliq hisob-kitoblarining to'g'riligini aniqlash uchun xom ashyo va materiallar sarfi normalari, ularning mahsulot ishlab chiqarish uchun to'g'ri hisobdan chiqarilishini, tayyor mahsulotning to'liq kirim qilinishini, mahsulot chiqishi normalari hamda moddiy boyliklarni saqlash va tashishda tabiiy yo'qotishlar normalari to'g'ri belgilanishini aniqlash uchun xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishda nazorat tariqasida ishlatib ko'radi, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni nazorat tariqasida tekshiradi;



v) yirik soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko'rsatilishini amalga oshirish sohasida:

soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini, shu jumladan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yirik soliq to'lovchilarga elektron xizmatlar ko'rsatilishini amalga oshiradi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zaro tuzilgan kelishuv asosida, soliq monitoringida ishtirok etayotgan yirik soliq to'lovchi tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan soliq monitoringini amalga oshiradi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari, shuningdek, elektron hisobvaraqa-fakturalarni shakllantirishning axborot tizimlarini qo'llash bo'yicha yirik soliq to'lovchilarga maslahat xizmatlari ko'rsatadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ayrim turlarini hisoblab chiqarishda yirik soliq to'lovchilarga servis xizmatlari ko'rsatadi;

soliq to'lovchilar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'llanilishini ta'minlaydi;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, moliyaviy jarimalar bo'yicha yirik soliq to'lovchilarning ortiqcha to'langan yoki ortiqcha undirilgan summalarini (nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi bundan mustasno) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarilishi yoki hisobga olinishini amalga oshiradi;

yirik soliq to'lovchilarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoyasini ta'minlaydi;

yirik soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning qonun hujjatlariga muvofiq saqlanishi bo'yicha ishlarni tashkil qiladi;

g) yirik soliq to'lovchilarning ma'muriyatchiligi doirasida soliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va oldini olish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish sohasida:

hududiy davlat soliq xizmati organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali yirik soliq to'lovchilarning soliq solish bazasini, shuningdek, soliq solinadigan obyektlar va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning o'z vaqtida, to'liq va ishonchli hisobga olinishini ta'minlaydi;

soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan, ushbu huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarini aniqlaydi va

bartaraf etadi, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiradigan va ishtirok etadigan boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni yuritadi;

soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan yirik soliq to'lovchilar hisobini yuritadi, ushbu ma'lumotlarni tahlil qiladi;

yirik soliq to'lovchilarning soliq qarzini undirish bo'yicha majburiy choralar qo'llanilishini amalga oshiradi;

yirik soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi (bekor bo'lganligi) to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda yirik soliq to'lovchilarning moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan tahliliy o'rganish o'tkazadi va ushbu o'rganish doirasida soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan kurashish bo'yicha uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

yirik soliq to'lovchilarning soliq solish masalalari va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

soliq solishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ommaviy axborot vositalari va seminarlar, brifinglar, matbuot - konferensiyalar, "davra suhbatlari" va boshqa tadbirlarni tashkil etish orqali yirik soliq to'lovchilarga etkazish va tanishtirish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi.

Hududlararo inspeksiya o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

1) yirik soliq to'lovchilardan Hududlararo inspeksiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va materiallarni so'rash va olish;

2) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yirik soliq to'lovchilarning buxgalteriya va soliq hisobi axborot tizimlaridan, shuningdek, hisob hujjatlaridan foydalanish;

3) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlardan Hududlararo inspeksiya vakolatiga kiruvchi masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axborotlar, ma'lumotlar va ma'lumotnomalarni so'rash va bepul olish;

4) yirik soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ishonchliligini hamda yirik soliq to'lovchining hisobotlarida aks ettirilgan soliq va bojxona imtiyozlari qo'llanilishining qonuniyligini tasdiqlash

uchun kameral nazorat natijasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joyiga chiqqan holda mavzuli ekspress-o'rganishlarniamalga oshirish;

5) hisobotlarda ko'rsatilgan ishchilar soni bilan haqiqatda ishlovchilar soni, shuningdek, ishlab chiqarish hajmlari va ishlab chiqarish faoliyatida aktivlardan foydalanishning mos kelishi masalalari bo'yicha yirik soliq to'lovchilar faoliyati monitoringini amalga oshirish;

6) soliq monitoringini amalga oshirishda soliq to'lovchidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z muddatida to'lanishi bilan bog'liq bo'lgan zarur hujjatlar, ma'lumotlar, tushuntirishlarni talab qilib olish;

7) yirik soliq to'lovchilarga faoliyatida o'tkazilgan xronometraj ko'zdan kechirish natijalariga ko'ra tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasidan kamaytirib ko'rsatilgan tushumni qayta hisob-kitob qilgan holda soliqlarni hisoblashni amalga oshirish haqida belgilangan tartibda talabnoma yuborish;

8) hududiy davlat soliq xizmati organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash uchun asos bo'luvchi kuzatuv dalolatnomalarini tuzgan holda yirik soliq to'lovchilar hisobini yuritish;

9) belgilangan tartibda quyidagilarni olish:

vakolatli organlardan - yirik soliq to'lovchilarga litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar berilganligi, shuningdek, ularning bekor qilinganligi, amal qilishi to'xtatilganligi yoki tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

qurilish sohasida nazorat qiluvchi davlat organlaridan - er maydonlari va obyektlarni qurishga ruxsat beruvchi hujjatlarning mavjudligi, jumladan, loyiha-smeta hujjatlari va qurilishni yakunlash muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlardan - tegishli hududda joylashgan er maydoni yoki boshqa ko'chmas mulkdan foydalanish huquqi to'g'risidagi ma'lumotlar;

suv resurslari hisobini yurituvchi organlardan - yirik soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilgan suv hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

notarial idoralardan - "Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasiga binoan yirik soliq to'lovchilar bo'yicha amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

foydalanishga berilgan er qa'ri maydonlarining davlat hisobi va (yoki) er qa'ri maydonlaridan foydalanish huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan - er qa'ri maydoni joylashgan joy va mazkur er qa'ri maydonidan foydalanish huquqi berilgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar;

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan - u va investitsion vositachilar tomonidan ro'yxatga olingan aksiyalar bilan bitimlar to'g'risida axborot;

bank va boshqa kredit-moliya muassasalaridan - yirik soliq to'lovchilarning hisob va boshqa raqamlarida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

bojxona va boshqa vakolatli organlardan - import-eksport operatsiyalari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar va yirik soliq to'lovchilar to'g'risidagi boshqa zarur axborot;

tegishli vazirlik va idoralardan - Hududlararo inspeksiya vakolati doirasida yuklangan vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va boshqa turdagi axborotlar;

soliq ma'muriyatchiligi sohasidagi xorijiy davlatning vakolatli organidan - Qo'mita bilan kelishilgan holda yirik soliq to'lovchilar va ularning o'zaro aloqador yuridik shaxslari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

10) huquqbuzarlik holatlari aniqlanganda mansabdor shaxslar hamda fuqarolarni tushuntirish berish uchun Hududlararo inspeksiyaga belgilangan tartibda taklif qilish;

11) soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati mobaynida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilgan summasini hisoblab chiqarish yoki qayta ko'rib chiqish;

12) yirik soliq to'lovchilar qayd etilgan manzilda bo'lmaganda, shuningdek, soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo'yicha tafovutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmaganda ularning bankdagi hisobraqamlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatish;

13) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish hamda yirik soliq to'lovchilarga nisbatan moliyaviy jarimalar qo'llash;

ma'muriy huquqbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqish hamda ma'muriy choralar ko'rish;

14) yirik soliq to'lovchilar tomonidan noqonuniy olingan mablag'larni davlat daromadiga undirish bo'yicha sudga da'vo kiritish;

15) yirik soliq to'lovchilar tomonidan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlarning asoslari taqdim etilmagan taqdirda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni sud tartibida undirish;

16) davlat ulushlari bo'yicha dividendlarni va yirik soliq to'lovchi hisoblangan davlat unitar korxonalarining sof foydasidan Davlat byudjetiga ajratmalarni undirish;

17) yirik soliq to'lovchilarga ularning majburiyatlari bajarilishi lozimligi hamda soliq qarzdorligini majburiy undirish bo'yicha qo'llanilayotgan choralar to'g'risidagi talabnomani qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuborish;

18) yirik soliq to'lovchi tomonidan soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n kun mobaynida yozma ariza berilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini soliq qarzini, shu jumladan, ular bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olishni amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga mustaqil ravishda xulosa taqdim etish;

19) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan xolatlarda chet tilida tuzilgan hujjatlarning davlat tiliga tarjimasini notarial tasdiqlangan holda talab qilish;

20) foyda solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitob bo'yicha byudjetga to'lanadigan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, joriy to'lovlarni soliqlarning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qayta hisoblash;

21) Hududlararo inspeksiya vakolatlari doirasida masalalarni ishlab chiqish uchun belgilangan tartibda shartnoma asosida ekspertiza tayinlash, shuningdek, soliq nazoratining shakllarini amalga oshirish uchun ilmiy va boshqa tashkilotlar, mutaxassislar, shu jumladan, tarjimonlar va ekspertlarni jalb qilish;

22) yirik soliq to'lovchilarga nisbatan soliq nazoratining shakllarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun Qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmalarining xodimlarini jalb qilish, shu maqsadda ekspert hamda ishchi guruhlar tashkil etish;

23) nazorat tadbirlari natijasida nazorat obyektlari mansabdor shaxslari harakatlarida jinoyat alomatlarini mavjud huquqbuzarlik holatlari

aniqlanganda, hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish;

24) davlat soliq xizmati organlarining tizimidagi mavjud hujjatlardan foydalanish huquqini olish;

25) davlat soliq xizmati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ma'lumotlar bazasidan foydalanish huquqini olish;

26) foydalanish huquqi faqat Hududlararo inspeksiya xodimlariga beriladigan lokal axborot tarmoqlardan foydalanish, o'zining dasturiy mahsulotlari va axborot tizimlarini yaratish;

27) faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha parametrlar bajarilishini hisobga olib, Hududlararo inspeksiya xodimlarini Qo'mita bilan kelishilgan holda moddiy rag'batlantirish, individual ustamalarni belgilash;

28) qonun hujjatlariga asosan davlat soliq xizmati organlarining vakolat doirasiga kiradigan boshqa huquqlaridan foydalanish.

Hududlararo inspeksiya quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

Hududlararo inspeksiyaga yuklangan funksiya va vazifalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

yirik soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga tushishini ta'minlash, shuningdek, ularning soliq solinadigan bazasini kengaytirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish;

Qo'mitaga kiritiladigan hujjat loyihalari hamda takliflar, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning sifati, natijalari va oqibati;

davlat soliq xizmati organlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejaları, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi, muammoli masalalar hal etilishi;

yirik soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularga rioya qilishlarini ta'minlash.

**Davlat  
Boshqarmalari  
faoliyatining  
xos xususiyatlari**

**Soliq  
o'ziga**

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi muvofiqlashtirilganlikka bog'liq.

Vakolat har bir organning o'ziga xos rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida, uning boshqa organlar faoliyati bilan muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birining hal etilishi, masalan, byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik hatti-

harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatining muvofiqlashtiruvizisiz amalga oshmaydi.

Mamlakatimizda 14 ta hududiy davlat soliq boshqarmalari faoliyat yuritadi. Ular quyidagilardir:

**5-jadval**

**Davlat soliq boshqarmalari to'g'risida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Hududiy soliq boshqarmalari nomi</b>	<b>Yuridik manzil va rekvizitlari</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasi	742000, Nukus shahri, T.Kaypbergenov ko'chasi, 23-uy <a href="mailto:qoraqalpogiston@solliq.uz">qoraqalpogiston@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-361) 222-00-33
2.	Andijon viloyati Davlat soliq boshqarmasi	170104, Andijon shahar, Oltinko'l ko'chasi, 1-uy <a href="mailto:andijon@solliq.uz">andijon@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-374) 223-95-23
3.	Buxoro viloyati Davlat soliq boshqarmasi	200100, Buxoro shahar, M.Iqbol ko'chasi, 14 uy <a href="mailto:buxoro@solliq.uz">buxoro@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-365) 221-26-89
4.	Jizzax viloyati Davlat soliq boshqarmasi	708000, Jizzax shahar, Sh.Rashidov ko'chasi, 116 uy <a href="mailto:jizzax@solliq.uz">jizzax@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-372) 222-07-00
5.	Navoiy viloyati Davlat soliq boshqarmasi	210100, Navoiy shahar, Pavlov ko'chasi, 6 uy <a href="mailto:navoiy@solliq.uz">navoiy@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-436) 223-53-71
6.	Namangan viloyati Davlat soliq boshqarmasi	160108, Namangan shahri, Marg'ilon ko'chasi, 14-uy <a href="mailto:namangan@solliq.uz">namangan@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-369) 227-91-96
7.	Samarqand viloyati Davlat soliq boshqarmasi	140103, Samarqand shahar, Gagarin ko'chasi, 85 A-uy <a href="mailto:samarqand@solliq.uz">samarqand@solliq.uz</a> Ishonch tel: (0-366) 234-06-16



8.	Sirdaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi	120100, Guliston shahar, Islom Karimov ko'chasi, 41-uy <a href="mailto:sirdaryo@soliq.uz">sirdaryo@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-367) 235-03-42
9.	Surxondaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi	732008, Termiz shahar, M.Kahhor ko'chasi, 23-uy <a href="mailto:surxondaryo@soliq.uz">surxondaryo@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-376) 223-29-64
10.	Toshkent viloyati Davlat soliq boshqarmasi	100090, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 7-uy <a href="mailto:toshkent_v@soliq.uz">toshkent_v@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-371) 200-20-21
11.	Farg'ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi	712000, Farg'ona shahar, Sayilgoh ko'chasi, 31-uy <a href="mailto:fargona@soliq.uz">fargona@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-373) 241-70-61
12.	Xorazm viloyati Davlat soliq boshqarmasi	220100, Urganch shahar, Yangi Urganch ko'chasi, 1-uy <a href="mailto:xorazm@soliq.uz">xorazm@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-362) 223-10-10
13.	Qashqadaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi	180100, Qarshi shahar, O'zbekiston ko'chasi, 805-uy <a href="mailto:qashqadaryo@soliq.uz">qashqadaryo@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-375) 225-10-82
14.	Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi	100011, Shayxontohur tuman, Abay ko'chasi, 4 A-uy <b>E-mail:</b> <a href="mailto:toshkent@soliq.uz">toshkent@soliq.uz</a> Ishonch tel: (0-371) 244-54-86

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 646-sonli buyrug'iga asosan barcha hududiy soliq boshqarmalari tegishli tartibda Nizom ishlab chiqdilar va shu nizom asosida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Jumladan, Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi to'g'risida Nizom mazmuni bilan tanishtirib o'tmoqdamiz:

## **Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi to‘g‘risida**

### **N I Z O M**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

Ushbu Nizom “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-sonli Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2010 yil 8 yanvardagi PQ-1257-son va “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 1 avgustdagi PQ-3168-son qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagi 677-son “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” qaroriga hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga va boshqa qonun hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasining maqomi, vazifalari, funksiyalari, huquqlarini va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash sohasida nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomning 3-bandiga muvofiq Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, shuningdek Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar barcha soliq to‘lovchilar-yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

4. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek Davlat soliq qo'mitasi Hay'atining qarorlariga, Davlat soliq qo'mitasining buyruqlari, farmoyishlari va boshqa ichki idoraviy hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

5. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi o'ziga yuklangan vazifalarni boshqa davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, banklar hamda boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning 6-bandiga muvofiq Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasining moddiy-texnika ta'minoti, shu jumladan xodimlar mehnatiga haq to'lash byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari, Davlat soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

7. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

8. Quyidagilar Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash;

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar DSB  
larning namunaviy tuzilmasi**



**2-bob. Davlat soliq boshqarmasining asosiy vazifalari**

- soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularni soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etgan holda to'liq qamrab olish mexanizmlarini takomillashtirish;
- soliq solinadigan bazasini tahlil qilish va kengaytirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish borasida Davlat soliq qo'mitasiga takliflar kiritish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
- pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;
- soliq to'lovchilarga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish, ularga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlari va aholining huquqiy madaniyatini oshirish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
- bozorlar va savdo komplekslarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish va ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlar o'tkazish, jinoiy ishlarni tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlariga berish;
- soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar,

shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish;

- nazorat qiluvchi organlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha muvofiqlashtirilishini ta‘minlash, ushbu ishlarni o‘tkazishda bir-birini takrorlashga va suiiste‘molchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda o‘z vakolatlari doirasida qonunchilikka qat‘iy rioya etilishi yuzasidan ta‘sirchan nazoratni amalga oshirish;
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, davlat soliq xizmati organlarini ma‘naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to‘ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish holatlariga keskin barham berish, shuningdek xodimlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash va ular uchun xizmatni o‘tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

### **3-bob. Davlat soliq boshqarmasining funksiyalari**

9. Davlat soliq boshqarmasi o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan ta‘sirchan nazoratni ta‘minlash sohasida:

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg‘armalariga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi, bu borada Davlat soliq qo‘mitasiga tegishli takliflar kiritadi;

soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini, shu jumladan, tabiiy resurslardan ehtiyotlab va samarali foydalanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarni birxillashtirish, soliq yukini qisqartirish, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag‘batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo‘yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo‘yicha idoraviy normativ huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ishlab chiqish yuzasidan Davlat soliq qo‘mitasiga takliflar kiritadi;

Davlat soliq qo'mitasiga soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash bo'yicha takliflar kiritadi;

soliq qonunchiligi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlarini nashr qilishda ishtirok etadi, Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

soliq to'lovchilar faoliyati yuzasidan belgilangan tartibda soliq tekshiruvi o'tkazadi, shuningdek soliq to'lovchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida kiritilishini tekshiradi;

Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

belgilangan tartibda soliq to'lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirish xatlari oladi, soliq to'lovchining mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek hududlarni, ishlab chiqarish, omborxonalar, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to'lovchilar tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyekti saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechiradi (tekshiradi);

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u yerdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;

soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davomida hisobotdagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisobkitoblarida faktlarning buzib ko'rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf qilish uchun buxgalteriya hisoblari va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;

hujjatli tekshiruvlar davomida xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va tayyor buyumlarni tartib ko'radi va o'lchaydi, ishlab



chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va taqdim etilgan soliq hisob-kitoblarning to'g'riligini aniqlash uchun xom ashyo va materiallar sarfi normalari, ularning mahsulot ishlab chiqarish uchun to'g'ri hisobdan chiqarilishini, tayyor mahsulot to'liq kirim qilinishini, mahsulot chiqishi normalari hamda moddiy boyliklarni saqlash va tashishdan tabiiy yo'qotishlar normalari to'g'ri belgilanishini aniqlash uchun xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishda nazorat tariqasida ishlatib ko'radi, xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni nazorat tariqasida tekshiradi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

jismoniy va yuridik shaxslardan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlarini tahlil qiladi hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga takliflar kiritadi;

huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda soliqqa oid huquq buzilishlariga qarshi kurashishning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha Toshkent shahar nazorat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi;

b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash sohasida:

soliq to'lovchilarning majburiyatlari paydo bo'lishi (to'xtatilishi) to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

belgilangan tartibda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliya va soliq hisobotlarini, shuningdek soliq to'lovchilarning faoliyati to'g'risida soliq organlari yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida yig'ilgan boshqa hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida kameral nazoratni amalga oshiradi;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishini, shuningdek davlat organlariga berilgan mol-mulk hisobini nazorat qiladi;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushumini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirliklar va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qiladi;

v) soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularni soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etgan holda to'liq qamrab olish mexanizmlarini takomillashtirish sohasida:

soliq to'lovchilar, soliq solinadigan baza, shuningdek, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarning to'liq, o'z vaqtida va ishonchli hisobga olinishini ta'minlaydi;

yuridik va jismoniy shaxslarga, ularni identifikatsiya raqamlari berilgan holda soliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yish to'g'risida hujjatlar berilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qiladi;

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestrini shakllantirishida va yuritilishida ishtirok etadi;

soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida soliq to'lovchilar bo'yicha solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;

banklar tomonidan tegishli axborot taqdim etilishiga ko'ra bank hisobvaraqlari bo'yicha olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik faoliyati bo'yicha - uch oy mobaynida) pul operatsiyalarini amalga oshirgan holda moliyaxo'jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni aniqlaydi;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bosh tortishi mexanizmlarini o'rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi;

axborot xavfsizligi ta'minlanishini hisobga olgan holda, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan barcha soliq to'lovchilar va soliq tushumlari bo'yicha yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini Toshkent shahar hududida to'liq yuritilishini ta'minlaydi;

solliq axborotlarini qabul qilib olish, ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish chora-tadbirlarini ko‘radi;

davlat solliq xizmati organlarida, axborot xavfsizligini ta‘minlashni hisobga olgan holda joriy etilgan yagona axborot, dasturiy-texnik va telekommunikatsiya tizimini Toshkent shahar hududida to‘liq yuritilishini ta‘minlaydi;

solliq ma‘muriyatchiligi jarayonida davlat solliq xizmati organlari ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xarajatlarni maqbullashtirish va resurs ta‘minotini rivojlantirish uchun ularni texnologik jarayonlarni yuritishning zamonaviy tizimlari va boshqarishning tezkor vositalari bilan jihozlash bo‘yicha Davlat solliq qo‘mitasiga takliflar kiritadi;

g) solliq solinadigan bazasini tahlil qilish va kengaytirish bo‘yicha ta‘sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning solliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali, solliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, solliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish, solliqqa oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish sohasida:

solliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash faktlarini aniqlaydi va tegishli choralarni ko‘radi, solliqlar va tegishli boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlariga qarshi mexanizmlarni ishlab chiqadi;

solliq nazoratini amalga oshirishda zamonaviy usullarni qo‘llaydi; davlat solliq xizmati organlarining texnik bazasini modernizatsiya qilish, mustahkamlash va yangilash bilan tashqi va ichki manbalardan kelib tushadigan ma‘lumotlarni tahlil qilishning ilg‘or avtomatlashtirilgan usullarini joriy etish yuzasidan Davlat solliq qo‘mitasiga takliflar kiritadi;

makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning solliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali solliq solinadigan bazani kengaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasining Solliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg‘armalariga solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha solliq qarzini undirishni belgilaydigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning tashkillashtirilishini va qo‘llanilishini ta‘minlaydi;

aksizosti tovarlarini ishlab chiqarishda va aylanmasida huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etilishini belgilangan tartibda tashkillashtiradi va amalga oshiradi;

ishlab chiqarish va daromadlar miqdorlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmlarini kamaytirib ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish va aniqlashni tashkillashtiradi va amalga oshiradi, ko'rsatib o'tilgan mexanizmlarning qo'llanishini bartaraf etish bo'yicha Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tadbirlarni Toshkent shahrida amalga oshirilishini ta'minlaydi;

soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlariga belgilangan tartibda beradi, davlatga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirish chora-tadbirlarini ko'radi;

ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni yuritadi;

soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilishi holatlarini aniqlash uchun, surishtiruv, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish uchun ommaviy-axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi;

d) pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumini o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash sohasida:

savdo va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishning qonunchilikka muvofiqligi, shu jumladan, nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

tovarlarni ulgurji sotishda qonun hujjatlarida belgilangan talablarning bajarilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladi;

naqd pul mablag'lari muomalada bo'lishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul aylanmasiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

tadbirkorlik subyektlarida, shuningdek, bozorlar va savdo komplekslarida, bir martalik yig'imlar, bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun ijara to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq undirilishi, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari bajarilishi, naqd pul mablag'lari yoki plastik kartochkalar bo'yicha to'lov shakliga qarab narxlarni sun'iy ravishda oshirilishi yoki pasaytirilishi, nazorat-kassa mashinalarini, to'lov terminallarini qo'llanilishi, shuningdek belgilangan tartibda talon va cheklarni berilishi, naqd pul tushumining o'z

vaqtida va to'liq hajmda inkassatsiya qilinishi masalalari bo'yicha belgilangan tartibda qisqa muddatli tekshirishlarni amalga oshiradi;

e) soliq to'lovchilarga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish yo'li orqali soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish, ularga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik subyektlari va aholining huquqiy madaniyatini oshirish sohasida:

soliq to'lovchilar bilan ishlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishini ta'minlaydi;

soliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko'paytirish va Toshkent shaharning tuman davlat soliq inspeksiyalariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, soliq to'lovchilarni soliqlarni o'z vaqtida hisoblab chiqish, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o'qitish uchun servis-markazlar tashkil qiladi;

soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to'lovchilarga va aholiga o'z vaqtida tanishtirish va yetkazish ishlarini tashkil etadi;

soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida keng ko'lamli interaktiv xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etadi;

soliq to'lovchilarga soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali, shuningdek Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi;

yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoyalashini ta'minlaydi;

Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi;

soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishi uchun soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish choralarini amalga oshiradi;

yuridik va jismoniy shaxslarning soliq solish va soliq qonunchiligi buzilishi masalalari bo'yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar qonun hujjatlariga muvofiq sir tutilishiga rioya etish ishlarini tashkil qiladi;

j) bozorlar va savdo komplekslarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish va ularning hududida aniqlangan

huquqbuzarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlar o'tkazish, jinoiy ishlarni tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlariga berish sohasida:

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlaydi, oldini oladi va bartaraf etadi;

bozorlar va savdo komplekslari hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashadi;

bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylari, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari harakatini monitoringini va mablag'lar tushumi hisobining to'liqligini ta'minlaydi;

bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari pul mablag'lari tushumlari va tovar aylanmasi to'g'risida davlat soliq xizmati organlariga tushadigan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish uchun banklar hamda statistika organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylaridan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv ishlarini amalga oshiradi, jinoiy ishlar qo'zg'aydi, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga beradi;

soliqqa oid huquqbuzarliklar natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda undirilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

z) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, davlat soliq xizmati organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish holatlariga keskin barham berish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish sohasida:

qo'yilgan talablarga muvofiq davlat soliq xizmati organlariga ma'naviyaxloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlarni tanlash va to'ldirish ishlarini Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlarida tashkil etadi;

Davlat soliq qo'mitasining ta'lim muassasalarida, shuningdek davlat oliy ta'lim muassasalarida Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini doimiy asosda amalga oshiradi;

Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining malaka tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazadi (Davlat soliq qo'mitasi tomonidan attestatsiyadan o'tkaziladigan rahbarlar va mutaxassislar bundan mustasno), ularga o'z vakolatlari doirasida maxsus unvonlar beradi;

kadrlarni O'zbekiston Respublikasiga sodiqlik, vatanparvarlik, halollik hamda huquqiy davlat g'oyalari va asoslarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ishlarni amalga oshiradi;

tegishli tanlovdan o'tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo'shatilgan shaxslarning Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlariga ishga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;

Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan g'arazli maqsadlarda noqonuniy ta'sir ko'rsatish holatlarini aniqlaydi va ularga barham beradi;

davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga va ularga barham berishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, bu borada Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning ijrosini tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;

davlat soliq xizmati organlarining xodimlari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xizmat vazifalarini bajarayotganda davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash choralarini ko'radi, bu borada Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirishda qatnashadi;

har ikki yilda ko'pi bilan bir marta Toshkent shahar davlat soliq inspeksiyalarining byudjet va xo'jalik faoliyati bo'yicha xarajatlar smetalari ijrosi yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Zarur bo'lganda va



moliya-xo'jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo'l qo'yilgan holatlar to'g'risida ishonchli axborot mavjud bo'lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o'tkazilishi mumkin;

Toshkent shahar davlat soliq inspeksiyalari tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta'minlaydi, xo'jasizlik, isrofgarchilik, davlat mablag'larini va byudjetdan tashqari mablag'larni asossiz ravishda sarflash, smeta intizomini buzish hollariga barham beradi.

#### **4-bob. Davlat soliq boshqarmasining vakolatlari**

10. Davlat soliq boshqarmasi o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

1) soliq to'lovchilarning moliyaviy hujjatlarini, shartnomalarini (kontraktlarini), rejalarini, smetalarini, daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyalarini hamda soliqlarni, boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash, fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlarini, shu jumladan, elektron hujjatlarini, shuningdek eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq hujjatlarini tekshirish;

2) soliq tekshiruvlarini amalga oshirishda:

hududni, ishlab chiqarish, omborxonani, savdo binolarini va boshqa binolarni (shuningdek, alohida rejimda ishlaydigan korxonalarini), shu jumladan, soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektlarini saqlash bilan bog'liq joylarni, ularning joylashgan joyidan qati nazar, tekshirish;

mol-mulklarni xatlash va bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni nazorat tartibida o'lchash;

kassalarni hamda tovar-moddiy boyliklar va hujjatlarni (shu jumladan elektron tarzidagi hujjatlarni) saqlash joylarini muhrlab qo'yish;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash bilan bog'liq hujjatlarni talab qilib olish;

hujjatlarni (nusxalarini, shuningdek asl nusxalarini), shu jumladan elektron hujjatlarni, shuningdek predmetlarni (tovarlar, buyumlar, xom ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar namunalari) olib qo'yish, olib qo'yilishi soliq to'lovchi faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladigan hujjatlar bundan mustasno. Soliq to'lovchi faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi;

soliq to'lovchidan, shuningdek rahbarlik funksiyalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish funksiyalarini amalga oshiradigan shaxslardan, soliq to'lovchining boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirish xatlari, axborotlar, ma'lumotlar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

tekshirilayotgan soliq to'lovchilarning rahbarlaridan asosiy vositalar, tovarmoddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o'tkazishni talab qilish;

tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash; soliq qonunchiligining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilish;

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish;

3) savdo, tovarlar sotish va pulli xizmatlar ko'rsatish qoidalariga rioya etilishi, shuningdek naqd pul tushumining bankka o'z vaqtida topshirilishini, shu bilan birga naqd pul mablag'lari yoki plastik kartochkalar bo'yicha to'lov shakliga qarab narxlarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, nazorat-kassa mashinalaridan, hisob-kitob terminallaridan foydalanish, belgilangan tartibda talonlar va cheklarni berish, naqd tushumni o'z vaqtida va to'la hajmda inkassatsiya qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlarni belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirish;

4) soliq tekshiruvlarini o'tkazishda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanish;

5) belgilangan tartibda quyidagilarni olish: banklardan va boshqa kredit-moliya tashkilotlaridan soliq to'lovchilarning hisob-kitob hisobvaraqlarida yoki boshqa hisobvaraqlarida amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi, shuningdek ushbu hisobvaraqlarda mavjud pul mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarni;

bojxona organlaridan va boshqa vakolatli organlardan import-eksport operatsiyalari amalga oshirilganligi va soliq to'lovchilar to'g'risidagi boshqa zarur ma'lumotlarni;

vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlardan davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining xizmat vazifalari masalalari bo'yicha ma'lumotlarni;

6) belgilangan tartibda: qurilish, montaj, ta'mirlash va boshqa ishlarni nazorat o'lchovidan o'tkazish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;

iqtisodiy jinoyatlar bilan kurashishda ilmiy-texnik vositalaridan va usullaridan foydalanish;

o'tkaziladigan tekshirishlarda boshqa nazorat qiluvchi organlar, vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik qilish;

mansabdor shaxslarni, fuqarolarni aniqlangan huquqbuzarlik faktlari bo'yicha tushuntirishlar berish uchun soliq xizmati organlariga taklif etish;

7) soliq to'lovchi tomonidan hisobga olish hujjatlari yo'qotib qo'yilgan yoki yo'q qilingan hollarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar summasini soliq to'lovchi to'g'risida o'zida mavjud bo'lgan axborotlar, shuningdek boshqa ana shunday soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilish yo'li bilan mustaqil ravishda belgilash;

8) soliq majburiyati bo'yicha da'vo bildirilgan muddat mobaynida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilgan summasini hisoblab chiqish yoki qayta ko'rib chiqish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlarini va tashkilotlarni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqilganligi, to'liq undirilganligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga hamda davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilganligi yuzasidan nazorat qilish;

10) soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilinganda yoki hududlarni, binolarni, shu jumladan, soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq joylarni tekshirish uchun davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarini kiritish rad etilganda, soliq to'lovchi ma'lum qilingan manzilda bo'lmaganda, shuningdek soliq to'lovchi tomonidan soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo'yicha tafovutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmagan holatlarda bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish bo'yicha sud tartibida chora-tadbirlar ko'rish (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishning aniqlangan holatlari bundan mustasno).

11) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda: soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar sud tartibda qo'llanadi, ular sodir etilgan huquqbuzarliklardagi aybini e'tirof etgan va

moliyaviy sanksiyalar summasini ixtiyoriy ravishda to'lagan holatlar bundan mustasno;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazolar qo'llash;

12) aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va tartibda davlat daromadiga o'tkazish. Soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o'tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

13) soliq to'lovchilar tomonidan noqonuniy olingan mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risida soliq to'lovchilarga nisbatan sudga da'volar taqdim etish;

14) soliq to'lovchi majburiyatlarining bajarilishi zarurligi to'g'risida va soliq bo'yicha qarzlarni majburiy tartibda undirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida soliq to'lovchiga talabnoma yuborish;

15) soliq to'lovchi soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n kun mobaynida yozma ariza bermagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini soliq qarzini, shu jumladan ular bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olishni amalga oshirish to'g'risida tegishli moliya organlariga mustaqil ravishda xulosa taqdim etish;

16) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan holatlarda hujjatlarni, agar ular chet tilda tuzilgan bo'lsa, notarial tasdiqlagan holda davlat tiliga tarjima qilishni talab qilish;

17) yuridik shaxslarning foyda solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitob bo'yicha byudjetga to'lanadigan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, joriy to'lovlarni soliqlarning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qayta hisoblash;

18) bozorlarda, savdo komplekslarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylarida bir martalik yig'imning to'liq tushganligini va uni topshirish hisobini, ijara to'lovini, nazorat-kassa mashinalaridan foydalanilishini, hisob-kitob terminallarini, savdo va xizmatlar ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini belgilangan tartibda qisqa muddatli tekshirishlarni amalga oshirish, shu jumladan, naqd pul mablag'lari yoki plastik kartochkalar bo'yicha to'lov shakliga qarab narxlarni sun'iy ravishda oshirish yoki pasaytirish, shuningdek belgilangan

tartibda talonlar va cheklarni berish, naqd tushumni o'z vaqtida va to'la hajmda inkassatsiya qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlarni o'tkazish;

19) bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylarida aniqlangan moliyaiqtisodiy va soliq sohalaridagi buzilishlar sodir etilganligi faktlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruvlarni o'tkazish, ular bo'yicha jinoiy ishlar qo'zg'ash, keyinchalik ishlarni tergovga tegishliligiga qarab qonun hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlariga berish. Davlat soliq boshqarmasi ushbu Nizomda va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

11. Ushbu Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan huquqlar belgilangan vakolatlar doirasida:

1-9, 17-19-kichik bandlari – Toshkent shahar soliq boshqarmasining mansabdor shaxslariga beriladi;

10-16-kichik bandlari – Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshliqlari va ularning o'rinbosarlariga beriladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida Nizomning 12-bandiga muvofiq Davlat soliq xizmati organlariga davlat statistika, axborot, arxiv, ma'lumotnoma tashkilotlari va boshqa tashkilotlar tomonidan soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar berish yuzasidan xizmatlar (ishlar) bepul amalga oshiriladi.

### **5-Bob. Davlat soliq boshqarmasi mansabdor shaxslarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

13. Davlat soliq boshqarmasi mansabdor shaxslarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizom, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risidagi Nizom, shuningdek mazkur Nizom bilan tartibga solinadi.

14. Davlat soliq boshqarmasining mansabdor shaxslari: o'zlarining funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi, ijro intizomini buzganligi;

mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaganligi; noqonuniy xatti-harakatlar (harakatsizlik) tufayli soliq to'lovchilarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazganligi;

o'zlarining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) tufayli xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish hajmlarini pasaytirganligi va soliq solish bazasini kamaytirganligi;

amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlar qabul qilganligi;

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq buzilishlari uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javob beradilar.

15. Davlat soliq boshqarmasi xodimlari tomonidan o'z xizmat vakolatlari doirasidan chetga chiqqanligi, shuningdek zimmasiga yuklangan xizmat vazifalarini bajarmaganligi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

16. Soliq nazoratini amalga oshirishda davlat soliq boshqarmasi mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlar qonunda belgilangan tartibda qoplanishi kerak.

### **6-bob. Moddiy ta'minot**

17. Davlat soliq boshqarmasi mansabdor shaxslarining ish haqi lavozim maoshidan, maxsus unvonlar, uzoq xizmat muddati uchun ustamalardan, dam olish va bayram kunlari uchun to'lovlar, boshqa ustama, qo'shimcha haqlardan iborat bo'ladi hamda u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

18. Nazorat-taftish bo'limining hamda Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bo'limining xodimlariga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ular lavozim maoshining 20 foizi miqdorida maxsus ustamalar belgilanadi.

19. Quyidagilar davlat soliq boshqarmasi xodimlarini moddiy rag'batlantirishning asosiy turlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga to'lovlar tushumlari prognozi bajarilganligi va ortig'i bilan bajarilganligi hamda soliq bo'yicha qarzar miqdori pasaytirilganligi uchun oy, chorak, yarim yillik ish yakunlari bo'yicha mukofotlash;

alohida muhim topshiriqlar bajarilganligi uchun yakka tartibda mukofotlash; xodimlarning lavozim maoshiga ish uchastkasining murakkabligi va muhimligi hamda mehnatda yuqori natijalarga erishganligi uchun ustamalar to'lash;

xizmat vazifalarini bajarish chog'idagi alohida xizmatlari uchun va pensiyaga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash;

davlat soliq xizmati organlari xodimlarining lavozim maoshlariga ularning funksional vazifalarini bajarishlarini, bilimlari darajasini, soliq to'lovchilar bilan ish olib borish kasbiy qobiliyatlarini har yili test sinovlaridan o'tkazish asosida belgilanadigan maxsus rag'batlantiruvchi ustamalar.

20. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi xodimlarini bir oy, chorak, yarim yildagi ish yakunlari bo'yicha mukofotlash respublika va mahalliy byudjetlarga, davlat maqsadli jamg'armalarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari prognozi bajarilganligi va ortig'i bilan bajarilganligi uchun hamda ular faoliyatini tavsiflovchi boshqa asosiy ko'rsatkichlar bajarilganligi uchun davlat soliq boshqarmasi boshlig'ining qarori bilan, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21. Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga shakllantiriladigan mehnatga haq to'lash fondi mablag'lari, shuningdek Davlat soliq qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy muhofaza, soliq organlarini rivojlantirish hamda ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi mablag'lari davlat soliq xizmati organlari xodimlariga to'lovlar, shu jumladan mukofotlar manbalari hisoblanadi.

### **7-bob. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi faoliyatini tashkil qilish**

22. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi.

23. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshlig'i:

davlat soliq boshqarmasining faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda davlat soliq boshqarmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun javob beradi;

o'ziga yuklangan vazifalar amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'ziga bo'ysunuvchi bo'linmalar faoliyatini tashkil etadi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

boshqarma tarkibiy tuzilmalari, o'ziga bo'ysunuvchi hududiy davlat soliq xizmati organlari rahbarlari va xodimlarining javobgarlik darajasini belgilaydi;

belgilangan vakolatlar doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Davlat soliq

qo‘mitasining ichki idoraviy hujjatlari asosida va ularni bajarish yuzasidan Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi, topshiriqlar va ko‘rsatmalar beradi; Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi va davlat soliq inspeksiyalarining shtatlar jadvalini boshqaruv xodimlarining belgilangan soni hamda yordamchi xodimlarning amaldagi hisob normativlari va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida tasdiqlanadi.

xodimlarning cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi va davlat soliq inspeksiyalari tuzilmasiga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo‘ladi;

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat soliq inspeksiyasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida Toshkent shahrining davlat soliq inspeksiyalari to‘g‘risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;

Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi hamda inspeksiyalari xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni respublika davlat mukofotlarini va davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari uchun O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan maxsus unvonlarni berish uchun Davlat soliq qo‘mitasiga tavsiya qiladi; O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi nomidan ish olib boradi. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i unga berilgan vakolatlar doirasida boshqa huquqlarga ham egadir.

24. Soliqqa oid qonun hujjatlarini qo‘llashning eng murakkab va munozarali masalalari bo‘yicha qarorlar tayyorlash, yuqori malakali maslahatlashuvlar o‘tkazish uchun Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasida maslahat-ekspert kengashi tashkil etiladi. Davlat soliq boshqarmasining maslahat-ekspert kengashi to‘g‘risidagi Nizom Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi. Maslahat ekspert kengashiga davlat soliq boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari rahbarlik qiladi.

25. Davlat soliq boshqarmasiga aholi o‘rtasida tushuntirish va profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun o‘zining bosma organini ta’sis etish va nashr qilish huquqi berilgan.

26. Davlat soliq boshqarmasida ajratilgan byudjet mablag‘lari limiti hamda Davlat soliq qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy muhofaza,



soliq organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda ajratilgan mablag'lar doirasida, davlat soliq xizmati organlari faoliyatining izchilligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan foydalanish, avtotransport, axborot-hisoblash va boshqa bo'linmalar tashkil etishi mumkin.

### **8-bob. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi kengashi**

27. Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasida davlat soliq qo'mitasining boshlig'i, boshliqning birinchi o'rinbosari, boshliq o'rinbosarlari va davlat soliq boshqarmasining davlat soliq boshqarmasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda kengash tashkil etiladi. Kengashning soni va shaxsiy tarkibi davlat soliq boshqarmasi boshlig'ining taqdimiga binoan Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

28. Davlat soliq boshqarmasining kengashi:

Toshkent shahar davlat soliq xizmati organlari faoliyatining, shu jumladan Davlat soliq qo'mitasi hay'ati qarorlarini va Davlat soliq qo'mitasi topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq eng muhim masalalarni hal etadi;

davlat soliq boshqarmasi faoliyatining soliq qonunchiligiga rioya etilishini yanada ta'minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha belgilab berilgan hamda ushbu Nizomda nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi;

davlat soliq boshqarmasi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash masalalarini hal etadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, davlat soliq boshqarmasi rahbarlari va xodimlarining ularni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarligini oshirish masalalarini hal etadi. Kengash shuningdek davlat soliq boshqarmasi vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

29. Kengash majlisiga davlat soliq boshqarmasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar

vakillari taklif etilishi mumkin. Kengash agar uning majlisida tarkibining yarmidan ko‘pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha qarorlar oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

30. Kengash qarorlari davlat soliq boshqarmasi boshlig‘ining buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Kengash raisi va a‘zolari o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan taqdirda Kengash raisi paydo bo‘lgan kelishmovchiliklar to‘g‘risida Davlat soliq qo‘mitasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Kengash a‘zolari ham o‘z fikr-mulohazalarini Davlat soliq qo‘mitasiga xabar qilishlari mumkin. Kengash faoliyati tartibi uning kengash tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

### **9-bob. Davlat soliq inspeksiyalari**

31. Davlat soliq inspeksiyalariga Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

32. Davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishini ta‘minlaydi, o‘zlariga bo‘ysunuvchi bo‘linmalar faoliyatini tashkil etadi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

### **10-bob. Yakuniy qoidalar**

33. Davlat soliq boshqarmasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to‘lovchilarning erkinligini ta‘minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi.

### **Mamlakatimizda Davlat Soliq inspeksiyasining vazifalari**

Davlat Soliq qo‘mitasi va boshqa soliqlar bo‘yicha bevosita hamda bilvosita vakolatga ega bo‘lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog‘liq huquqlarni ta‘minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo‘lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o‘zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va «O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasiga asosan hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilaydi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 14 hududiy soliq boshqarmalariga bo'ysunuvchi tuman hamda shahar davlat soliq inspeksiyalari faoliyat yuritib, ular davlat soliq qo'mitasining eng quyi organi hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash maqsadlarida tuziladi. Davlat soliq xizmati organlari faoliyati davomida davlat tomonidan vakolati doirasida soliq nazoratini olib boradi. Soliq nazorati soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat.

Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat boshqaruv organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslar bo'lib, respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bitilgan muhrga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasi, uning xodimlari cheklangan soni bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalarining namunaviy tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilish va lavozimga tayinlash va xizmatni o‘tash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi NIZOM da belgilab qo‘yilgan.

### **Xizmatga qabul qilish**

Soliq organlarida xizmatga o‘zlarining kasb malakasi, ishchanlik, shaxsiy va ma’naviy-axloqiy sifatlariga, ma’lumoti darajasiga va salomatligiga ko‘ra soliq organlariga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta’minlashga qodir bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadilar.

Soliq organlarining inspektorlar tarkibi lavozimlari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi darajasidan kam bo‘lmagan iqtisodiyot, huquq, kompyuter texnologiyalari va informatika ta’limi sohasidagi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan tanlov asosida egallanadi.


Ayrim hollarda soliq organlariga xizmatga boshqa sohalarda oliy ma’lumotga ega bo‘lgan, korxonalar va alohida tarmoqlarga soliq solish va ularning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish sohasida zaruriy bilimlarga, shuningdek, ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlar qabul qilinishi mumkin.

Soliq organlariga yangi ishga qabul qilinadigan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazida kasbiy tayyorgarlik kurslaridan o‘tadilar.

Soliq organlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadiganlardan tashqari, rahbarlik lavozimlari tanlov asosida iqtisodiyot, huquq, kompyuter texnologiyalari va informatika ta’limi sohasidagi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan egallanadi.

Tanlovlar o‘tkazish, xizmatga qabul qilish va boshqa doimiy ishga o‘tkazish tartibi mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq Qo‘mita tomonidan belgilanadi.

## Shaharlar (tumanlar) DSI larning namunaviy tuzilmasi



Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi: birlamchi suhbatlashish va hujjatlarni o'rganish; maxsus tekshiruv; suhbatlashish.

Qo'mitaning Soliq tekshiruvlari va mavzuli ekspress-o'rganishlar boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari xodimlari tarkibi ta'limning iqtisodiyot sohasidagi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ma'lumotga hamda soliq organlarida Qo'mita markaziy apparat xodimlari uchun - kamida 5 yil va hududiy bo'linmalar xodimlari uchun - kamida 3 yil umumiy ish stajiga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan butlanadi.

Quyidagi shaxslar:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan;

jinoyat sodir etganligi uchun ilgari sudlangan fuqarolar ularga nisbatan jazo qo'llanilganligidan, sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan va amnistiya akti qo'llanilganligidan qat'i nazar,

belgilangan tartibda huquqiy layoqatsiz yoki huquqiy layoqati cheklangan deb e'tirof etilgan;

mehnat haqidagi qonunlarga muvofiq ilgari ish beruvchining tashabbusi bilan davlat soliq xizmati organlaridan bo'shatilgan (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismining 1) texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi; 2) xodimning malakasi etarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noloyiq bo'lib qolishi; 5) o'rindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi munosabati bilan, shuningdek mehnat shartlariga ko'ra o'rindoshlik ishi cheklanishi sababli o'rindoshlar bilan mehnat shartnomasining bekor qilinganligi hollari bundan mustasno), shuningdek boshqa organ va tashkilotlardan obro'sini to'kadigan xatti-harakat sodir etganlik uchun bo'shatilgan shaxslar davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilinmaydilar.

Xizmatga qabul qilayotgan shaxs bilan tegishli davlat soliq xizmati organi mehnat shartnomasi tuzadi. Davlat soliq xizmati organlarida xizmat qilish to'g'risidagi namunaviy mehnat shartnomasi shakli Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan belgilanadi. Davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilinayotgan shaxslar shtatdagi lavozimga mehnat shartnomasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 84-moddasi (Ishga qabul qilishda dastlabki sinov) talablariga muvofiq uch oy

sinov muddati bilan tayinlanadilar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan shaxslar bundan mustasno. Davlat soliq xizmati organiga xizmatga qabul qilingan shaxsga butun xizmat davri uchun shaxsiy tabel tartib raqami beriladi.

**Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari**

Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslariga davlat soliq xizmati organlarida shtatdagi lavozimlarni egallab turgan shaxslar kiradi. Davlat soliq xizmati organlarining rahbarlik lavozimlari - davlat soliq xizmati organlarining boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, tegishli qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, soliq organlari faoliyati jarayonlarini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi, qo‘yilgan maqsadga erishish hamda soliq organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur tashkiliy-texnik shart-sharoitlar bilan ta‘minlovchi xodimlari lavozimlari hisoblanadi. Inspektorlar tarkibi lavozimlari esa- yuqorida qayd etilgan vakolatlar berilmagan holda soliq organlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajaruvchi soliq xizmati xodimlari lavozimlari hisoblanadi.

### **Lavozimga tayinlash**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadi va egallab turgan lavozimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod qilinadi.

Qo‘mita raisining birinchi o‘rinbosari, rais o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

Qo‘mita markaziy apparatining yuqorida sanab o‘tilmagan mansabdor shaxslari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bo‘limlari boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari Ichki audit boshkarmasi va O‘z xavfsizligi boshqarmasi bo‘limlari mansabdor shaxslari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i va boshliq o‘rinbosarlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo‘limlari boshliqlari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi O‘z xavfsizligi boshqarmasi

bo'limlari mansabdor shaxslari, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari belgilangan tartibda Qo'mita raisining buyrug'i bilan tayinlanadilar.

Davlat soliq xizmati organlarining boshqa qolgan mansabdor shaxslari tegishli davlat soliq xizmati organi rahbari tomonidan tayinlanadilar.

Davlat soliq xizmati organlarida shtatdagi lavozimga tayinlashda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

mansabdor shaxs vazifasini asosiy yoki turdosh ixtisos bo'yicha olingan ma'lumotga muvofiq yoxud mavjud ish tajribasiga muvofiq bajarishi kerak. Boshqa ixtisos bo'yicha vazifalarni bajarish zarurati bo'lganda ular qayta tayyorlash va tajriba orttirishdan o'tadilar;

mansabdor shaxslar yanada yuqori rahbarlik lavozimiga tasdiqlanguncha ushbu lavozimni bajarib turuvchi etib tayinlanishlari mumkin, bunda ularning vazifalarni bajarib turishi uzluksiz muddati uch oydan oshmasligi kerak;

yaqin qarindosh bo'lgan yoki yaqin qarindoshligi bo'lgan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) mansabdor shaxslarning, agar ularning xizmati bir-biriga bevosita bo'ysunish yoki nazoratda bo'lish bilan bog'liq bo'lsa, aynan bir davlat soliq xizmati organida xizmatni o'tashiga ruxsat etilmaydi.

Mansabdor shaxslarni xizmat bo'yicha ko'tarish ularning amaliy ishda namoyon qilgan kasbiy, ma'naviy va ishchanlik sifatlariga qarab amalga oshiriladi. Ishchanlik va ma'naviy sifatlarini, kasb bo'yicha xizmatga layoqatini baholash hamda shaxsiy qobiliyati va ish tajribasiga muvofiq oqilona joylashtirish uchun mansabdor shaxslar har uch yilda kamida bir marta attestatsiyadan o'tkaziladi. Navbatdan tashqari attestatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan o'tkaziladi. Mansabdor shaxslarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi Qo'mita raisi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq belgilanadi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish chog'ida davlat hokimiyati vakili hisoblanadilar. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilish xususidagi talablari barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart.



Hech kim davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga aralashishga haqli emas. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining o'z xizmat vazifalarini bajarishlariga to'sqinlik qilinish, ularning o'z xizmat vazifalarini bajarishlari munosabati bilan ularning sha'ni va qadr-qimmatini haqoratlash, ularga qarshilik ko'rsatish, tahdid qilish, zo'ravonlik qilish yoki ularning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga tajovuz qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mansabdor shaxslarning va ular oila a'zolarining hayoti, salomatligi, sha'ni va qadr-qimmatini ushbu shaxslar tomonidan xizmat burchi bajarilishi munosabati bilan jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish amaldagi qonun hujjatlari bilan kafolatlanadi.

Mansabdor shaxslarga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin. Jumladan, rag'batlantirish choralari quyidagilar hisoblanadi:

tashakkurnoma;

pul mukofoti;

faxriy yorliq;

qimmatbaho sovg'a;

muddatidan oldin yoxud egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, navbatdan tashqari yoki navbatdagi maxsus unvon berish;

idoraviy mukofotlar (ko'krak nishonlari) bilan taqdirlash.

Xizmat vazifasini bajarishda ko'rsatilgan mardlik va jasorati, xizmat vazifasini namunali bajarganligi uchun mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat mukofotlariga, taqdirlashga taqdim etilishi mumkin.

Intizomiy jazo choralari mehnat haqidagi qonunlarda belgilangan tartibda qo'llaniladi.

Rag'batlantirish va intizomiy jazolash choralarini qo'llash tartibi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan Davlat soliq xizmati organlarining ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi.

Korrupsiya va boshqa suiiste'molchiliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va oldini olish, xodimning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini, uning faoliyati samaradorligini tizimli o'rganish, shuningdek, soliq organlari faoliyatining turli yo'nalishlarida bilim va tajribaga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida xodimlar rotatsiya qilinadi.

Soliq organlari xodimlarini rotatsiya qilish tartibi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Mansabdor shaxslarni boshqa lavozimlarga o‘tkazish mehnat haqida qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi. Mansabdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazida, "Soliq-servis" DUK da yoki boshqa ta‘lim muassasalarida, kurslarda, seminarlarda, Qo‘mita raisi tomonidan belgilanadigan tartibda tayyorgarlik, qayta tayyorgarlik hamda malaka oshirishdan o‘tadilar. Mansabdor shaxslarni jismoniy tarbiya-sport bo‘yicha tayyorlash ularning xizmat joylarida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazida va Qo‘mitaning ta‘lim muassasalarida Qo‘mita tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxslar O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilinadilar. Sug‘urtalash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 10 dekabrda 631-sonli “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari xodimlarining majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta summalari va sug‘urta tariflari miqdori to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995 yil 27 fevralda 126-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Soliq idoralari xodimlarini majburiy davlat shaxsiy sug‘urtasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Qoidalar” asosida amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxslarga mehnat ta‘illari berish tartibi mehnat haqidagi qonunlar bilan belgilanadi. Mukofotlar, kompensatsiyalar, moddiy yordam berish tartibi va ularning manbalari Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi. Mansabdor shaxslar xizmat faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan tan jarohatlari olganda yoki halok bo‘lganda bir yo‘la beriladigan nafaqalar to‘lash tartibi va miqdorlari qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Mansabdor shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash bilan bog‘liq huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Mansabdor shaxslar boshliqlarining qasddan berilgan noqonuniy tUSDagi buyruqlarini bajarmaslik huquqiga egadirlar, bunda ular yuqori turuvchi boshliqlar buyrug‘ini bajarmaganlik sabablari haqida yuqori turuvchi organlarni xabardor qilishga majburdirlar. Mansabdor shaxslar ularga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo‘llash, shu jumladan, lavozimidan chetlatish

yoki bo'shatish to'g'risida qabul qilgan qarorlar yuzasidan yuqori tashkilotlarga va sudlarga shikoyat berishga haqlidirlar.

Mansabdor shaxslar:

Davlat soliq xizmati organlari ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishga;

formali kiyim-bosh kiyib yurishga majburdirlar.

Mansabdor shaxslarga:

biron-bir tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish;

o'rindoshlik bo'yicha ishlash (ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish bundan mustasno);

o'z xizmat vazifalarini bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun mukofotlar yoki xizmatlarni qabul qilish;

qarindoshlar, tanishlar va boshqa begona shaxslarning iltimosiga ko'ra qonun hujjatlariga rioya etmaslik;

ish tashlashlar, siyosiy manifestatsiyalar va yurishlarni tashkil etish va ularda qatnashish;

xizmat vazifalarini bajarish chog'ida spirtli ichimliklar iste'mol qilish;

soliq organlari sha'niga dog' tushiruvchi shaxslar bilan munosabat o'rnatish;

soliq organlarida uchinchi shaxslar ishi bo'yicha ishonchli vakillar yoki vakillar bo'lish;

moddiy-texnika va axborot bilan ta'minlash, moliya vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan, shuningdek, xizmat axborotlaridan lavozim vazifalari bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

Mansabdor shaxslar tomonidan xalqaro va davlatlararo simpoziumlarda, konferensiyalarda hamda ish (xizmat) tusidagi boshqa uchrashuvlarda olingan 200 AQSH dollariga teng miqdordan ortiq qimmatbaho sovg'alar belgilangan tartibda byudjet daromadiga o'tkaziladi, ularning sport musobaqalarida, ijodiy va kasb bo'yicha tanlovlarda olgan shaxsiy sovrinlari bundan mustasno.

Davlat soliq xizmatining mansabdor shaxslari quyidagilar uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladilar:

o'z vazifalarini bajarmaganligi yoxud zarur darajada bajarmaganligi, ijro intizomini buzganligi uchun;

Davlat soliq xizmati to'g'risidagi Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaganligi uchun;

g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolarga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga moddiy va ma'naviy zarar etkazganligi uchun;

o'zining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish hajmlarini pasaytirib yuborganligi va soliq solish bazasini kamaytirib yuborganligi uchun;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlar qabul qilganligi uchun;

boshqa huquqbuzarliklari uchun.

Soliq organlari mansabdor shaxslarining soliq tekshiruvini amalga oshirish chog'idagi g'ayriqonuniy harakatlari bilan etkazilgan zararlar qonunda belgilangan tartibda qoplanishi kerak.

Davlat soliq organlari xodimlarining o'z xizmat vakolatlari doirasidan chetga chiqqanligi, shuningdek zimmasiga yuklangan xizmat vazifalarini bajarmaganligi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mansabdor shaxslarning va ular oila a'zolarining hayoti, salomatligi, sha'ni va qadr-qimmatini ushbu shaxslar tomonidan xizmat burchi bajarilishi munosabati bilan jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish qonun hujjatlari bilan kafolatlanadi.

Xizmat vazifalarini yoki xizmat burchini bajarish munosabati bilan mansabdor shaxs mol-mulkiga etkazilgan zarar O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'laridan to'lanadi, ushbu summa keyinchalik aybdor shaxslardan undiriladi. Mansabdor shaxslar qonun hujjatlari, shuningdek, Qo'mitaning xizmatni o'tash va kadrlar bilan ishlash masalalari bo'yicha hujjatlari talablariga aniq rioya etilishi yuzasidan shaxsan javob beradilar.

Soliq organlari rahbarlari o'zlariga bo'ysunuvchi xodimlarni xizmati uchun xavfsiz, maqbul shart-sharoitlar bilan ta'minlashga, ularning qonun hujjatlarida, shuningdek, Qo'mita hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlarini muhofaza qilishga, ularga xizmat bo'yicha ko'tarilish va madaniy hordiq uchun imkoniyatlar yaratishga majburdirlar.

## **6. Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga maxsus unvonlarni berish va mahrum qilish tartibi**

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga egallab turgan lavozimi va ish stajiga muvofiq quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

- solix xizmatining bosh davlat maslahatchisi;
- solix xizmatining I darajali davlat maslahatchisi;
- solix xizmatining II darajali davlat maslahatchisi;
- solix xizmatining III darajali davlat maslahatchisi;
- solix xizmatining I darajali maslahatchisi;
- solix xizmatining II darajali maslahatchisi;
- solix xizmatining III darajali maslahatchisi;
- solix xizmatining I darajali inspektori;
- solix xizmatining II darajali inspektori;
- solix xizmatining III darajali inspektori;
- solix xizmatining inspektori.

Malaka tavsifnomalari talablariga javob beradigan mansabdor shaxslarga, attestatsiyadan ijobiy o'tgan taqdirda, shtatlar ro'yxati bo'yicha egallab turgan lavozimini hisobga olgan holda hamda oldingi unvonida xizmat qilish muddati tugagach, izchil tartibda quyidagi navbatdagi maxsus unvonlar beriladi:

### **6-jadval**

#### **Qo'mita markaziy apparati, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi va Qo'mitaga idoraviy mansub ta'lim muassasalarida shtatdagi lavozim**

<b>SHTATDAGI LAVOZIM*</b>	<b>MAXSUS UNVON</b>
O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi	Solix xizmatining bosh davlat maslahatchisi
O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari	Solix xizmatining I darajali davlat maslahatchisi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining o‘rinbosari	Soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi
Boshqarma boshlig‘i, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i va uning birinchi o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazi direktori, soliq kollejlari direktorlari	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, mustaqil bo‘lim boshlig‘i, rais kotibiyati mudiri, navbatchi qism va idoraviy qo‘riqlash boshlig‘i, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazi direktorining o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari va dotsentlari, soliq kollejlari direktorlarining o‘rinbosarlari	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
Boshqarma bo‘limi boshlig‘i, boshqarmada bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari, rais yordamchisi va raisning birinchi o‘rinbosari yordamchisi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazi bo‘lim boshliqlari, davlat soliq bosh inspektori, shu‘ba boshliqlari, bosh yuriskonsult, bosh iqtisodchi, bosh mutaxassis	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi
Etakchi mutaxassis, davlat soliq katta inspektori, navbatchi qism va idoraviy qo‘riqlash navbatchisi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazi va uning hududiy filiallari, shuningdek, soliq kollejlari o‘quv kengashi kotibi, professorlari va dotsentlari, bosh buxgalteri, bosh iqtisodchisi, bosh muhandisi, bosh mutaxassisi, metodisti (shu jumladan, filiallar metodistlari), o‘qituvchilari	Soliq xizmatining III darajali maslahatchisi
Davlat soliq inspektori, I toifali mutaxassis, I toifali buxgalter	Soliq xizmatining I darajali inspektori

## 7-jadval

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalarida, shtatdagi lavozim**

<b>SHTATDAGI LAVOZIM*</b>	<b>MAXSUS UNVON</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlari, o‘rinbosarlari, viloyatlar markazlari shaharlari davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo‘lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari mustaqil bo‘limlari va shu‘balari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, viloyatlar markazlaridagi shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o‘rinbosarlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo‘lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining bosh buxgalterlari, navbatchi qismlari boshliqlari	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi
Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshqarmalarining bo‘lim boshliqlari o‘rinbosarlari, bo‘limdagi shu‘ba boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq bosh inspektorlari, bosh mutaxassislari, bosh yuriskonsultlari, Qoraqalpog‘iston	Soliq xizmatining III darajali maslahatchisi

Respublikasi va viloyatlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari o‘rinbosarlari, davlat soliq inspeksiyalari bo‘limlari boshliqlari	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq katta inspektorlari, etakchi mutaxassislari, navbatchi qism navbatchilari, davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq bosh inspektorlari, bosh mutaxassislari, bosh yuriskonsultlari	Soliq xizmatining I darajali inspektori
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq inspektorlari, mutaxassislari, davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq katta inspektorlari	Soliq xizmatining II darajali inspektori
Davlat soliq inspeksiyalarining etakchi mutaxassislar	Soliq xizmatining III darajali inspektori
Davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq inspektorlari, I darajali mutaxassislari	Soliq xizmatining inspektori

**Mansabdor shaxslarga:**

soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi, soliq xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi maxsus unvonlari - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

soliq xizmatining I, II, III darajali maslahatchisi, soliq xizmatining I darajali inspektori maxsus unvonlari - Qo‘mita raisi tomonidan;

soliq xizmatining II va III darajali inspektori, soliq xizmatining inspektori maxsus unvonlari - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari tomonidan beriladi.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, idoraviy mansub ta’lim muassasalari va tashkilotlari xodimlariga maxsus unvonlar Qo‘mita raisi tomonidan beriladi.

Mansabdor shaxslar maxsus unvonda xizmat qilishining quyidagi muddatlari belgilanadi:

- soliq xizmatining inspektori - 1 yil;
- soliq xizmatining III darajali inspektori - 2 yil;
- soliq xizmatining II darajali inspektori - 2 yil;
- soliq xizmatining I darajali inspektori - 3 yil;



solliq xizmatining III darajali maslahatchisi - 3 yil;  
solliq xizmatining II darajali maslahatchisi - 4 yil;  
solliq xizmatining I darajali maslahatchisi - 4 yil.

Solliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi, solliq xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi uchun maxsus unvonlarda xizmat qilish muddatlari belgilanmaydi.

Maxsus unvonda xizmat qilish muddati maxsus unvon berish to'g'risidagi buyruq chiqqan kundan boshlab hisoblanadi. Mansabdor shaxslarning pasaytirilgan maxsus unvonda bo'lgan vaqti tiklangan unvondagi xizmat muddatiga qo'shilmaydi.

Rahbarlik lavozimiga yangi qabul qilingan mansabdor shaxslarga maxsus unvon egallab turilgan shtatdagi lavozimi bo'yicha sinov muddati tugagandan keyin beriladi, solliq xizmatining inspektori maxsus unvoni bundan mustasno. Mansabdor shaxslarga, yanada yuqoriroq unvon beriladigan lavozimga o'tkazilganda va tayinlanganda, unga navbatdagi maxsus unvonni, yangi lavozimda bo'lish muddatidan qat'iy nazar, va navbatda va muddatlarga rioya qilmasdan olish huquqi beriladi, biroq mazkur unvon uning maxsus unvonidan ikki darajadan yuqori bo'lmasligi kerak. Intizomiy jazo olgan yoxud unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki qonunchilikni yoki xizmat intizomini buzganlik fakti bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan mansabdor shaxslarni navbatdagi maxsus unvonlarni berishga yoki rag'batlantirishga tavsiya etish intizomiy jazo olib tashlangungacha yoxud jinoiy ish ozod qiluvchi asoslar bo'yicha to'xtatilgungacha yoki xizmat tekshiruvi tugagungacha amalga oshirilmaydi. Istisno tartibida, vakolatli mansabdor shaxslar navbatdagi maxsus unvonlarni muddatidan oldin yoki egallab turilgan shtatdagi lavozim bo'yicha belgilangandan bir daraja yuqori unvonni quyidagi mezonlar bo'yicha olishlari mumkin:

xizmat burchini bajarish vaqtida ko'rsatgan qahramonligi, jasorati va mardligi uchun - egallab turilgan maxsus unvondagi xizmat muddatidan qat'i nazar;

xizmat vazifalarini vijdonan bajargani va ishdagi yuksak yutuqlari uchun - maxsus unvon bo'yicha belgilangan xizmat muddatining kamida yarmi o'tgandan keyin.

Mansabdor shaxslarga maxsus unvon egallab turilgan shtatdagi lavozim bo'yicha belgilangandan bir daraja yuqori unvon solliq organlaridagi xizmatning butun davri mobaynida faqat bir marta berilishi mumkin.

Qo‘mita markaziy apparati mas‘ul tarkibiy tuzilmasi, hududiy soliq organi va idoraviy mansub ta‘lim muassasasi rahbari o‘z xodimlarining maxsus unvondagi xizmat muddati tugagach bir oy muddatda navbatdagi unvon berish bo‘yicha taqdimnomani taqdim etishga majburdir. Mansabdor shaxslarni navbatdagi maxsus unvon berishga taqdim etish asossiz ravishda kechiktirilgan taqdirda yuqorida keltirilgan shaxslar mehnatga oid qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi yoki maxsus unvon va martaba darajasi bo‘lishi nazarda tutilgan boshqa organlardan xizmatga qabul qilingan yoki o‘tkazilgan shaxslarga maxsus unvonlar, egallab turgan lavozimidan qat‘iy nazar, Qo‘mita raisi tomonidan “Davlat soliq xizmati organlari maxsus unvonlarining boshqa davlat organlarining unvon va martaba darajalariga nisbatan taqqoslanmasi”ga muvofiq beriladi.

Mansabdor shaxslarga berilgan maxsus unvonlar ularda umrbod saqlanib qoladi. Soliq organlariga xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ilgari berilgan maxsus unvonlar saqlanadi. Bunda, agar egallab turilgan lavozim yanada yuqoriroq unvonni taqozo etsa, u holda ushbu unvon sinov muddati tugagach beriladi va u ilgarigi maxsus unvondan ko‘pi bilan ikki daraja yuqori bo‘lishi kerak. Agar egallab turilgan lavozim pastroq maxsus unvonni taqozo etsa, u holda xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ularning ilgari berilgan maxsus unvoni saqlanib qoladi. Mansabdor shaxslarga navbatdagi maxsus unvon berishga tavsiya etishni kechiktirish, maxsus unvonni bir darajaga pasaytirish Qo‘mita raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida, tegishli darajalardagi boshqarma rahbarlari taqdimnomasiga (xizmat tekshiruvi yoki o‘rganish xulosasiga) binoan xizmat burchini buzganlik, xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun amalga oshiriladi. Maxsus unvoni pasaytirilgan mansabdor shaxslar ilgarigi maxsus unvoniga Qo‘mita raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari tomonidan tegishli darajalardagi boshqarmalar rahbarlarining taqdimnomasiga binoan tiklanadilar. Mansabdor shaxslar ilgarigi maxsus unvonga tiklangunlarigacha ularga navbatdagi unvon berilishiga yoki ularning maxsus unvoni takroran pasaytirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mansabdor shaxslar maxsus unvondan:

o‘z nomiga isnod keltiruvchi qilmishlari uchun soliq organlaridan bo‘shatilganda;

jinoyat sodir etganlik uchun - sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan mahrum etilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining ish haqi — mansab maoshi, maxsus unvon, ko'p yil xizmat qilganligi uchun to'lanadigan ustama haqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda to'lanadigan boshqa qo'shimcha haqlardan iborat bo'ladi.

### 8-jadval

#### DSQ markaziy apparati xodimlarining Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlari

LAVOZIM NOMI	RAZRYADLAR
Boshqarma boshlig'i	16
Kotibiyat mudiri, Boshqarma boshlig'i o'rinbosari	15
Rais yordamchisi va raisning birinchi o'rinbosari yordamchisi, Bo'lim boshlig'i, Protokol xizmati boshlig'i, Navbatchi qism va idoraviy qo'riqlash boshlig'i	14
Bo'lim boshlig'i o'rinbosari*	
SHu'ba va kanselyariya boshlig'i**	
Davlat soliq bosh inspektori, Davlat soliq bosh inspektori-taftishchi, Bosh surishtiruvchi, Katta referent	13
Davlat soliq katta inspektori, Davlat soliq katta inspektori-taftishchi, Katta surishtiruvchi, Katta buxgalter, Bosh iqtisodchi, Bosh mutaxassis, Navbatchi	12
Davlat soliq inspektori, Davlat soliq inspektori-taftishchi, Etakchi mutaxassis, Etakchi buxgalter, Navbatchi yordamchisi	11
I toifali mutaxassis	10
II toifali mutaxassis	9
Mutaxassis	8
Rahbar kotibi	6

\*) *Bo'lim boshlig'i o'rinbosariga bo'lim boshlig'i stavkasidan 3% kam miqdorda.*

\*\*) *SHu'ba va kanselyariya boshlig'iga bo'lim boshlig'i stavkasidan 5% kam miqdorda.*

9-jadval

**Hududlararo inspeksiya xodimlarining Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlari**

LAVOZIM NOMI	RAZRYADLAR
Inspeksiya boshlig'i	16
Inspeksiya boshlig'ining birinchi o'rinbosari*	
Inspeksiya boshlig'i o'rinbosari*	
Bo'lim boshlig'i, Bosh hisobchi, Navbatchi qism va idoraviy qo'riqlash boshlig'i	14
Bo'lim boshlig'i o'rinbosari**	
SHu'ba va kanselyariya boshlig'i**	
Davlat soliq bosh inspektori, Davlat soliq bosh inspektori-taftishchi	13
Davlat soliq katta inspektori, Davlat soliq katta inspektori-taftishchi, Katta buxgalter, Bosh iqtisodchi, Bosh mutaxassis, Navbatchi	12
Davlat soliq inspektori, Davlat soliq inspektori-taftishchi, Etakchi mutaxassis, Etakchi buxgalter, Navbatchi yordamchisi	11
I toifali mutaxassis	10
II toifali mutaxassis	9
Mutaxassis	8
Rahbar kotibi	6

\*) *Inspeksiya boshlig'ining birinchi o'rinbosariga inspeksiya boshlig'i stavkasidan 3 %, inspeksiya boshlig'i o'rinbosariga - 5% kam miqdorda.*

\*\*\*) *Bo'lim boshlig'i o'rinbosariga bo'lim boshlig'i stavkasidan 3%, shu'ba va kanselyariya boshlig'iga - 5% kam miqdorda.*

10-jadval

**DSBlar xodimlarining yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlari**

LAVOZIM NOMI	Guruhlar bo'yicha razryadlar		
	Guruhdan	1-	2-

	<b>tashqari</b>	<b>guruh</b>	<b>guruh</b>	<b>guruh</b>
Boshqarma boshlig'i	16	15	14	13
Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari*				
Boshqarma boshlig'i o'rinbosari*				
Bo'lim boshlig'i, Bosh hisobchi	14	13	12	11
Bo'lim boshlig'i o'rinbosari**				
SHu'ba boshlig'i**, Navbatchi qism va idoraviy qo'riqlash boshlig'i**				
Davlat soliq bosh inspektori, Davlat soliq bosh inspektori-taftishchi, Bosh surishtiruvchi	13	12	11	10
Davlat soliq katta inspektori, Davlat soliq katta inspektori-taftishchi, Katta surishtiruvchi, Bosh iqtisodchi, Bosh mutaxassis, Navbatchi	12	11	10	9
Davlat soliq inspektori, Davlat soliq inspektori-taftishchi, Etakchi mutaxassis, Etakchi buxgalter, Surishtiruvchi, Navbatchi yordamchisi	11	10	9	8
I toifali mutaxassis	10	9	8	7
II toifali mutaxassis	9	8	7	6
Mutaxassis	8	7	6	5
Rahbar kotibi	6	6	5	5

*\*) Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosariga boshqarma boshlig'i stavkasidan 3%, boshqarma boshlig'i o'rinbosariga - 5% kam miqdorda.*

*\*\*\*) Bo'lim boshlig'i o'rinbosariga bo'lim boshlig'i stavkasidan 3%, shu'ba boshlig'iga - 5% kam miqdorda.*

<b>Guruhdan tashqari</b>	<b>1-guruh</b>	<b>2-guruh</b>	<b>3-guruh</b>
Toshkent shahri	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati
	Andijon viloyati	Navoiy viloyati	Sirdaryo viloyati
	Qashqadaryo viloyati	Namangan viloyati	
	Samarqand viloyati	Surxondaryo viloyati	

	Toshkent viloyati	Xorazm viloyati	
	Farg‘ona viloyati		

**11-jadval**

**Tuman(shahar)lar DSIlari xodimlarining Yagona tarif setkasi  
bo‘yicha mehnatga haq to‘lash razryadlari**

LAVOZIM NOMI	Toshkent shahar tumanlari	Tumanlar (shaharlar) guruhlari bo‘yicha razryadlar	
		1-guruh	2-guruh
Inspeksiya boshlig‘i	12	13	12
Inspeksiya boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari*			
Inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosari*			
Bo‘lim boshlig‘i, Bosh hisobchi	11	11	10
Bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari**			
SHu‘ba boshlig‘i**			
Davlat soliq bosh inspektori, Davlat soliq bosh inspektori-taftishchi	10	10	9
Davlat soliq katta inspektori***, Davlat soliq katta inspektor-taftishchi***, Bosh mutaxassis***, Navbatchi***			
Davlat soliq inspektori, Davlat soliq inspektori-taftishchi, Etakchi mutaxassis, Etakchi buxgalter	9	9	8
I toifali mutaxassis	8	8	7
II toifali mutaxassis	7	7	6
Rahbar kotibi	5	5	5

*\*) Inspeksiya boshlig‘ining birinchi o‘rinbosariga inspeksiya boshlig‘i stavkasidan 3%, inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosariga - 5% kam miqdorda.*

*\*\*\*) Bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosariga bo‘lim boshlig‘i stavkasidan 3%, shu‘ba boshlig‘iga - 5% kam miqdorda.*

\*\*\*) Davlat soliq katta inspektori, davlat soliq katta inspektori-taftishchi, bosh mutaxassis va navbatchiga davlat soliq bosh inspektori, davlat soliq bosh inspektori-taftishchi stavkasidan 3% kam miqdorda.

1-GURUH		2-GURUH	
1. Nukus shahri	51.	1. Shumanay tumani	51. Qo'shrabot tumani
2. Qo'ng'irot tumani	Kattaqo'rg'on shahri	2. Qonliko'l tumani	52. Toyloq tumani
3. Xo'jayli tumani	52. Urgut tumani	3. Kegeyli tumani	53. Guliston shahri
4. Beruniy tumani	53. Narpay tumani	4. Mo'ynoq tumani	54. Shirin shahri
5. To'rtko'l tumani	54. Jomboy tumani	5. Qorao'zak tumani	55. Yangier shahri
6. Chimboy tumani	55. Samarqand tumani	6. Taxtako'pir tumani	56. Sardoba tumani
7. Ellikqal'a tumani	56. Ishtixon tumani	7. Nukus tumani	57. Oqoltin tumani
8. Amudaryo tumani	57. Payariq tumani	8. Xonabod shahri	58. Guliston tumani
9. Taxiatosh tumani	58. Pstdarg'om tumani	9. Asaka tumani	59. Mirzaobod tumani
10. Andijon shahri	59.	10. Baliqchi tumani	60. Termiz shahri
11. Qo'rg'on tepa tumani	Kattaqo'rg'on tumani	11. Bo'z tumani	61. Qumqo'rg'on tumani
12. Shahrixon tumani	60. Sirdaryo tumani	12. Buloqboshi tumani	62. Uzun tumani
13. Andijon tumani	61. Boyovut tumani	13. Paxtaobod tumani	63. Angor tumani
14. Jalaquduq tumani	62. Sayxunobod tumani	14. Oltinko'l tumani	64. Boysun tumani
15. Izboskan tumani	63. Xovos tumani	15. Xo'jaobod tumani	65. Qiziriq tumani
16. Marhamat tumani	64. Denov tumani	16. Ulug'nor tumani	66. Oltinsoy tumani
	65. Sho'rchi tumani	17. Kogon shahri	67. Termiz tumani
		18. Jondor tumani	68. Nurafshon shahri
		19. Peshku tumani	

17. Buxoro shahri	66. Sherobod tumani	20. Olot tumani	69. Oxangaron shahri
18. G'ijduvon tumani	67. Jarqo'rg'on tumani	21. Buxoro tumani	70. Yangiyo'l shahri
19. Romitan tumani	68. Sariosiyo tumani	22. Vobkent tumani	71. Oxangaron tumani
20. Qorako'l tumani	69. Muzrobod tumani	23. Kogon tumani	72. Oqqo'rg'on tumani
21. Shofirkon tumani	70. Olmaliq shahri	24. Qorovulbozor tumani	73. Bekobod tumani
22. Zomin tumani	71. Angren shahri	25. Jizzax shahri	74. Bo'ka tumani
23. Do'stlik tumani	72. Bekobod shahri	26. Baxmal tumani	75. Quyichirchiq tumani
24. G'allaorol tumani	73. Chirchiq shahri	27. Sh.Rashidov tumani	76. Parkent tumani
25. Forish tumani	74. Bo'stonliq tumani	28. Paxtakor tumani	77. Piskent tumani
26. Qarshi shahri	75. Qibray tumani	29. Mirzacho'l tumani	78. Chinoz tumani
27. Shahrisabz shahri	76. Zangiota tumani	30. Arnasoy tumani	79. Yuqorichirchiq tumani
28. Shahrisabz tumani	77. O'rtachirchiq tumani	31. Zarbdor tumani	80. Toshkent tumani
29. Nishon tumani	78. Yangiyo'l tumani	32. Zafarobod tumani	81. Quvasoy shahri
30. Muborak tumani	79. Farg'ona shahri	33. Yangiobod tumani	82. Buvayda tumani
31. Mirishkor tumani	80. Qo'qon shahri	34. Qarshi tumani	83. Dang'ara tumani
32. Chiroqchi tumani	81. Marg'ilon shahri	35. Kitob tumani	84. Oltiariq tumani
33. G'uzor tumani	82. Quva tumani	36. Dehqonobod tumani	85. Qo'shtepa tumani
34. Yakkabog' tumani	83. Bog'dod tumani	37. Kasbi tumani	86. Rishton tumani
35. Koson tumani	84. Beshariq tumani	38. Konimex tumani	87. Farg'ona tumani
		39. Navbahor tumani	
		40. Nurota tumani	
		41. Tomdi tumani	
		42. Chortoq tumani	



36. Qamashi tumani	85. O‘zbekiston tumani	43. Mingbuloq tumani	88. Yozyovon tumani
37. Navoiy shahri	86. Toshloq tumani	44. Namangan tumani	89. So‘x tumani
38. Zarafshon shahri	87. Uchko‘prik tumani	45. Uychi tumani	90. Furqat tumani
39. Uchquduq tumani	88. Xiva shahri	46. Yangiqo‘rg‘on tumani	91. Urganch shahri
40. Qiziltepa tumani	89. Hazorasp tumani	47. Bulung‘ur tumani	92. Urganch tumani
41. Xatirchi tumani	90. Xiva tumani	48. Nurobod tumani	93. Qo‘shko‘pir tumani
42. Karmana tumani	91. Xonqa tumani	49. Paxtachi tumani	94. Gurlan tumani
43. Namangan shahri	92. Bog‘ot tumani	50. Oqdaryo tumani	95. Yangiariq tumani
44. Kosonsoy tumani	93. Shovot tumani		96. Yangibozor tumani
45. Norin tumani			
46. Uchqo‘rg‘on tumani			
47. Chust tumani			
48. Pop tumani			
49. To‘raqo‘rg‘on tumani			
50. Samarqand shahri			

Maxsus unvonlarga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarga har oyda maxsus unvon va ko‘p yil xizmat qilganligi uchun Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan ustama haq to‘lanadi.

Maxsus unvon uchun (maxsus unvon berilgan vaqtdan boshlab to‘lanadigan) va ko‘p yil xizmat qilganligi uchun (ish stajiga ko‘ra) ustama haq miqdorlari lavozim maoshiga nisbatan koeffitsientlar bilan belgilanadi.

Ko‘p yil xizmat qilganlik uchun ustama haq olish huquqini beruvchi ish staji Qo‘mita raisi tomonidan kasaba uyushmasi organi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan tartibga muvofiq hisoblab chiqiladi.

**12-jadval**

**Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga maxsus unvon uchun har oylik ustama haq MIQDORLARI**

<b>MAXSUS UNVON NOMI</b>	<b>LAVOZIM MAOSHIGA QO‘SHIMCHA HAQ MIQDORI (KOEFFITSIENT HISOBIDA)</b>
Soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi	0,65
Soliq xizmatining I darajali davlat maslahatchisi	0,60
Soliq xizmatining II darajali davlat maslahatchisi	0,55
Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi	0,50
Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi	0,45
Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi	0,40
Soliq xizmatining III darajali maslahatchisi	0,35
Soliq xizmatining I darajali inspektori	0,30
Soliq xizmatining II darajali inspektori	0,25
Soliq xizmatining III darajali inspektori	0,20
Soliq xizmatining inspektori	0,15

**13-jadval**

**Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga ko‘p yil xizmat qilganlik uchun har oylik ustama haq**

## MIQDORLARI

<b>ISH STAJI</b>	<b>LAVOZIM MAOSHIGA USTAMA HAQ MIQDORI (KOEFFITSIENT HISOBIDA)</b>
3 yildan 5 yilgacha	0,05
5 yildan 7 yilgacha	0,15
7 yildan 10 yilgacha	0,20
10 yildan 12 yilgacha	0,25
12 yildan 15 yilgacha	0,30
15 yildan 20 yilgacha	0,35
20 yildan ortiq	0,40

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markaziga va soliq kollejlari ishga qabul qilingan va o‘tkazilgan mansabdor shaxslarda ularning ilgarigi maxsus unvoni, shuningdek, maxsus unvon va ko‘p yil xizmat qilganlik uchun ustamalar to‘lash tartibi saqlanib qoladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Malaka oshirish markazida va soliq kollejlari ishlagan vaqt davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qaytib kelinganda maxsus unvondagi xizmat muddatiga qo‘shiladi.

Davlat soliq xizmati organlarida maxsus fond tashkil etilishi mumkin, uni hosil qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi. Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga davomiyligi o‘ttiz kalendar kun bo‘lgan haq to‘lanadigan har yilgi ta‘tillar beriladi. Davlat soliq xizmati organlarining o‘n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslariga davomiyligi besh kalendar kun, yigirma besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslariga esa davomiyligi o‘n kalendar kun bo‘lgan qo‘shimcha haq to‘lanadigan ta‘tillar beriladi.

Davlat soliq xizmati organlarining uy-joy olishga va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj deb topilgan mansabdor shaxslari belgilangan tartibda uy-joy maydoni olish huquqiga ega.

Davlat soliq xizmati organlari xizmat uy-joy fondiga ega bo‘lishi mumkin. Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga turar joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 31 oktyabrdagi 312-son qarori bilan tasdiqlangan “Sudyalarga, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi sud organlari xodimlariga, prokuratura organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi

kurashish departamenti, davlat soliq xizmati va davlat bojxona xizmati organlari xodimlariga uy-joylarni ijaraga olganlik (ijaraga turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasi to'lash tartibi to'g'risida NIZOM"da belgilangan tartibda va miqdorlarda pullik kompensatsiya to'lanadi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 31 oktyabrdagi 312-son qarori bilan tasdiqlangan "Sudyalarga, sud organlari xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, prokuratura organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, davlat soliq xizmati va davlat bojxona xizmati organlari xodimlariga imtiyozli shartlarda uy-joy sotib olishga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berish tartibi to'g'risida NIZOM"da belgilangan tartibda uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda yakka tartibda uylar yoki kvartiralar olish huquqi beriladi.

Davlat Soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi, uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumat ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik mamlakatda olib boriladigan yagona soliq siyosatini yuritish, soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlarning hududlar byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtiroki orqali namoyon bo'ladi.

Davlat soliq boshqaruvida etakchilik Davlat Soliq qo'mitasiga berilgan bo'lib, uning quyi bo'limlari nisbatan mustaqil bo'lsada, ierarxiyali bo'ysinish tartibotida faoliyat yuritadi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishning markaziy subyeksi - O'zbekiston soliq xizmati soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlaydigan organlar tizimidan tashkil topgan.

## **O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliq sohasidagi vakolatlari qanday?

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi vazifalari nimalardan iborat?

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi huzuridagi yirik soliq to‘lovchilar bilan ishlash vazifalari nimalardan boshqarmasining vazifalari nimalardan iborat?

4. Davlat Soliq Boshqarmasi hamda soliq inspeksiyalarining funksional majburiyatlari nimalardan iborat?

5. Davlat soliq organlari tarkibiy strukturasi ga izoh bering?

## 5. Soliq tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni

### Davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridan oq Davlat soliq xizmati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratila boshlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq idoralarida ma‘lumotlarni qayta ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to‘g‘risida”gi 388-sonli qarori bilan davlat soliq xizmati organlarida axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini o‘z ichiga olgan axborot tizimlarining shakllanishiga asos solingan va ushbu tizim orqali soliq ma‘lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 14 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va uning xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 359-sonli qarori bilan Davlat soliq qo‘mitasi qoshida xo‘jalik hisobidagi “Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi” (YaTIAM) tashkil etilgan va soliq ma‘lumotlarini qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan maxsus dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini yaratish ishlarini tizimli ravishda tashkil etish imkoni yaratilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi bilan boshqa tashkilotlar o‘rtasida axborot almashishni avtomatlashtirish maqsadida Davlat soliq qo‘mitasining 1996 yil 8 avgustdagi 168-sonli buyrug‘iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va Davlat soliq qo‘mitasi o‘rtasida ma‘lumotlar almashishni avtomatlashtirilgan holda elektron ko‘rinishda qabul qilish ishlari amalga oshirildi. Shu yili Davlat soliq qo‘mitasining 9 oktabrdagi 223-sonli buyrug‘iga asosan, jismoniy shaxslar bo‘yicha bank hujjatlarini kiritish, boqimanda va ortiqcha to‘lovlarni tahlil qilish va hisobotlarni hosil qilish dasturlarini tajribaviy ishlatish uchun joriy qilindi va 1997 yilning 1 yanvaridan boshlab to‘liq qo‘llashga o‘tildi.

Yuqoridagilarga asoslanib, Davlat soliq qo‘mitasining 1996 yil 18 oktabrdagi “Qog‘ozsiz ish yuritish texnologiyasiga to‘liqligicha o‘tish

to'g'risida"gi 229-sonli buyrug'i qabul qilindi va 1997 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslarning hisob varaqalari, boqimanda bo'yicha 1-NN hamda soliq va tushumlar bo'yicha 1-N ko'rinishdagi hisobotlarni maxsus yo'riqnomalarga asosan faqatgina kompyuterda yuritish belgilandi.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi "O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilarga identifikatsion raqamlar berish va qo'llash tizimi to'g'risida"gi 130-sonli qaroriga, hamda Davlat soliq qo'mitasining 1997 yil 25 martdagi 78-sonli buyrug'iga asosan ro'yxatdan o'tkazilgan ma'lumotlarni kompyuterga kiritish, identifikatsion raqam berish va bekor qilish tartiblari belgilandi va bu o'z navbatida Respublika soliq to'lovchilarining elektron bazasini yaratishga olib keldi. "

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 31 dekabrda "Davlat soliq qo'mitasining global axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 580-sonli qarori qabul qilindi va ushbu qarorga asosan Davlat soliq qo'mitasi va MicroMax Computer Intelligence firmasi (AQSh) bilan Davlat soliq qo'mitasining global axborot tarmog'ini tashkil etish bo'yicha shartnoma tuzildi. Natijada Respublikamiz soliq organlarida yo'ldosh aloqa tizimidan foydalanish yo'lga qo'yildi.'

1999 yil 7 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llash sohasini kengaytirish to'g'risida"gi 7-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga asosan soliq qonunchiligiga rioya qilinishi ustidan nazorat mexanizmini takomillashtirish, soliq organlari ishi samaradorligini oshirish, ularning yangi axborot texnologiyalarini qo'llashlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi uchun barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar 1999 yil 1 aprelgacha identifikatsiya raqami olishlari va uni xizmat ko'rsatuvchi banklarga yetkazishlari hamda 1 apreldan boshlab identifikatsiya raqami olmagan xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun bankda hech qanday operatsiyalar amalga oshirmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash soliq xizmati organlariga yangi axborot texnologiyalarini qo'llash va ularning uzluksiz ravishda ishlashini ta'minlash bo'yicha katta mas'uliyat yukladi.

Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan, internetdan foydalanishni kengaytirish, yuqori malakali dasturchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi

“2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, internetning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi va unda 2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, respublikada kompyuter va axborot texnologiyalarini tashkil etish va rivojlantirish, kompyuter asbob-uskunalari va axborot tarmoqlari sohasida kadrlar tayyorlash, internetning xalqaro axborot tarmoqlariga kirib borishi holatini va uning amaliy qo’llanilish darajasini chuqur va batafsil o’rganib chiqish topshirilgan.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to’liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo’lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to’g’risida”gi farmoni chiqdi. Unda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda ularning zamonaviy tizimlarini joriy etishning birinchi galdagi eng muhim vazifalari belgilandi.”

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 avgustdagi “Soliq to’lovchilarga axborot xizmati ko’rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qabul qilingan 157-sonli qaroriga ko’ra davlat soliq xizmati organlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llagan holda soliq to’lovchilarga axborot xizmatlari ko’rsatishni yanada takomillashtirish, xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlar va hisob-kitoblar taqdim etishda elektron hujjat aylanishini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to’g’risida”gi va “Davlat sirlarini saqlash to’g’risida”gi qonunlariga muvofiq, shuningdek axborotni muhofaza qilishning kriptografik vositalari hamda kriptografiya tizimlaridan foydalangan holda maxfiy yoki davlat sirlaridan iborat bo’lgan ma’lumotlar bayon etilgan axborotni muhofaza qilish faoliyatini tartibga solish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007



yil 3 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 614-sonli qarori qabul qilindi. Shu tariqa soliq tizimida axborot xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy bazasi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 4 avgustdagi “Soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatish va davlat soliq xizmati organlarining axborot tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 157-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 2 maydagi “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga axborot xizmatlarini ko‘rsatishni yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlarga ko‘ra davlat soliq xizmati organlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda soliq to‘lovchilarga axborot xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, davlat soliq xizmati organlarining yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish, moliyaviy, soliq hisobotlari va soliq majburiyatlari bilan bog‘liq boshqa ma‘lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga elektron hujjat ko‘rinishida taqdim etish tizimini takomillashtirish, moliyaviy va soliq hisobotlarini elektron ko‘rinishda taqdim etish va qabul qilish bo‘yicha dasturiy mahsulotlar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ni takomillashtirish, avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni elektron hujjat ko‘rinishida taqdim etishning afzalliklarini keng yoritish hamda davlat soliq xizmati xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi va “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq, shuningdek axborotni muhofaza qilishning kriptografik vositalari hamda kriptografiya tizimlaridan foydalangan holda maxfiy yoki davlat sirlaridan iborat bo‘lgan ma‘lumotlar bayon etilgan axborotni muhofaza qilish faoliyatini tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 3 aprelda “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 614-sonli qarori qabul qilindi. Shu tariqa soliq tizimida axborot xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy bazasi yaratildi. ”

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq xizmati idoralarini byudjetga tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta‘minlashga xizmat qiluvchi fiskal organdan, faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali soliq to‘lovchilarning soliqlarni

to'lash bo'yicha konstitutsiyaviy burchlarini bajarishda ular bilan o'zaro ishonchli munosabatlarni tashkil etishga qodir davlat organiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanmay turib ko'zlangan natijaga erishish mushkul. Aynan shu sababli, sohani axborotlashtirish masalasiga davlat soliq xizmati organlari faoliyatini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 apreldagi "Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan sug'urta badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni yakka tartibda hisobga olishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 90-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan soliq hisobotlariga muvofiq shakllantiriladigan Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan sug'urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestri tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan sug'urta badallarini hisobga olish reyestrini yuritish bo'yicha dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, u soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasiga joriy etildi, shuningdek, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'tkazilgan sug'urta badallarini yakka tartibda hisobga olishning markazlashtirilgan elektron reyestrini shakllantirish va yuritish to'g'risidagi nizom ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlandi.

Xuddi shu kabi, Davlat soliq qo'mitasi pog'onasida naqd pul tushumiga ega bo'lgan savdo nuqtalari tomonidan topshirilgan kunlik savdo tushumlari haqidagi tezkor axborotlarga ega bo'lish maqsadida, Markaziy bank ma'lumotlar bazasidan elektron ma'lumotlar olish va ularni qayta ishlash jarayonlari avtomatlashtirildi. Bugungi kunda ushbu ishlar "Naqd pul tushumlari hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, soliqqa oid ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash bo'yicha kompyuter dasturiy mahsullarini amalga joriy etish maqsadida Davlat soliq qo'mitasining 2005 yil 5 avgustda "Davlat soliq

xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to‘g‘risida’gi 148-sonli buyrug‘i chiqdi. Buyruqda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida ishlab chiqilayotgan dasturiy mahsullar bo‘yicha tuzilgan mas‘ul ishchi guruh a‘zolarining ro‘yxati hamda dasturiy mahsullar texnik topshiriqlarini ishlab chiqish, dasturiy mahsullarni ishlab chiqish va dasturiy mahsullarni tajribaviy ishga tushirish muddatlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida’gi 2009 yil 22 dekabrda PQ 1245-son qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 dekabrda O‘RQ 241-son qonuni bilan Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar talablaridan kelib chiqib davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlarga o‘zgartirishlar kiritilayotganligini inobatga olib, shu bilan birga dasturiy mahsulotlarning nomlanishini qisqa, lo‘nda va qulay ko‘rinishga keltirish hamda yangi ishlab chiqilayotgan yoki o‘zgartirish kiritilayotgan dasturiy mahsulotlarning yozilish matnlarini saqlanishini ta‘minlash maqsadida, Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlarning yangi nomlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlandi. 2010 yil 1 fevraldan boshlab barcha hujjatlarda dasturiy mahsulotlar yangi nom bilan yuritish belgilandi. Davlat soliq qo‘mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markaziga bir oy muddatda davlat soliq xizmati organlarida mavjud bo‘lgan barcha dasturiy mahsulotlarning kirish sahifasida yangi nom aks ettirilishini ta‘minlash belgilandi. Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan barcha dasturiy mahsulotlarning yozilish matni matritsalarining to‘liq arxivini shakllantirish va ishonchli saqlanishini hamda xavfsizligini ta‘minlash yuklatildi.

Soliq to‘lovchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ular uchun har tomonlama qulay, zamon talablariga mos va zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan, shuningdek, amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlardagi mavjud kamchiliklarning yechimini ko‘zda tutadigan avtomatlashtirilgan “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi-5” (SIAIJ-5) dasturiy mahsulotini yaratish bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasining 2017 yil 23 martdagi 161-sonli buyrug‘i bilan qo‘mitaning ishchi guruh tasdiqlanib, guruh tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Chora-tadbirlar rejasiga ko'ra, hududiy davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish, soliq to'lovlarini hisoblash, to'lovlarni shaxsiy kartochkalarga o'tkazish, soliq qarzlari uchun inkasso topshiriqnomalarini shakllantirish, soliq qarzlari va ortiqcha to'lov summalarini yildan-yilga o'tkazish, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari va tugatilgan korxonalariga penya hisoblash, tekshirish natijalariga ko'ra qo'shimcha hisoblangan soliq to'lovlarini shaxsiy kartochkalarga o'tkazishda yuzaga kelayotgan kamchiliklarni yechimini ko'zda tutadigan texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, 2017 yil 1 iyulga qadar "Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi"ga taqdim etildi.

Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etiladigan axborot tizimlarini, shu jumladan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, ularning toifasini aniqlash, sifati hamda foydalanish samaradorligini oshirish, takroriy texnik topshiriqlar ishlab chiqilishini oldini olish, dasturiy mahsulotlarda bir-birini takrorlovchi funksiyalarni bartaraf etish, shuningdek amaliyotdagi ehtiyojlardan kelib chiqib, dasturiy mahsulotlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish, ishlab chiqilgan axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartib-qoidalarini takomillashtirish maqsadida Davlat soliq qo'mitasining 2015 yil 12 iyuldagi 226-sonli buyrug'iga asosan "Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan.

Nizomda axborot tizimining toifasini belgilash tartibi, axborot tizimlariga qo'yiladigan umumiy talablar, yangi axborot tizimini ishlab chiqish uchun buyurtma berish, axborot tizimini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish uchun taqdim etiladigan axborot tizimlarining hujjatlar to'plamiga qo'yiladigan umumiy talablar, axborot tizimini test-sinovidan o'tkazish tartib-qoidalari, yangi ishlab chiqilgan axborot tizimini qabul qilish va amaliyotga joriy etish tartiblari yoritilgan. 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tashkil etilishi munosabati bilan Respublikamizda soliq tizimi shakllana boshlandi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirish jarayonida soliq organlariga soliq qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi yuklatildi. O'tgan davr mobaynida soliq organlari davlat budjetining daromad qismini uzluksiz va to'liq to'ldirishni ta'minlaydigan muntazam tizimga aylandi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining qonunda belgilab berilgan vazifalarini hisobga olgan holda va Respublikamiz

iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tayotganligi sababli soliq to'lovchilarning obyektlari va subyektlari sonining oshib borishi natijasida soliq organlari idoralariga kelib tushadigan axborotlar hajmining ortib borishi, ularni saqlash va qisqa muddatlarda qayta ishlash, ma'lumotlarni yuqori organlarga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yuborish, yuqori organlardan quyi organlarga ko'rsatma va topshiriqlar berish hamda tegishli soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarga ma'lumotlar jo'natish soliq tizimiga kompyuter va kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Bu sohada rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga joriy etish hamda ularni amaliyotda qo'llash jarayoni bugungi axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan zamonamizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli soliq tizimlari, ularning mehnatni rag'batlantirish va soliq majburiyatlariga rioya qilishlariga ta'siri zamonaviy siyosiy va iqtisodiy munozaralarda muhim masalalardir. To'g'ri soliq tizimining mutanosibliigi yuqoriroq natijalarga olib keladi, shuningdek, qayta taqsimlanadigan progressiv soliq tizimining adolatliliigi esa soliqqa tortishning yuqori darajasini belgilaydi.

20 xil dizayndagi turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, progressiv soliq tizimidan tekis tizimga o'tish soliqqa tortishning oshishiga olib keldi.<sup>5</sup>

O'z navbatida Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, malakali xodimlarni tayyorlash, kompyuter jihozlari, dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bilan ta'minlash hamda zamon talabidan kelib chiqib soliq idoralarida jamlangan hisobotlarni elektron ko'rinishda quyi soliq xizmati organlaridan Davlat soliq qo'mitasiga uzatish, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan beriladigan operativ topshiriqlarni davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga to'g'ridan-to'g'ri uzatish masalalari, shu bilan birga soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish, ularning davlat budjeti oldidagi majburiyatlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni yagona soliq to'lovchilar bazasida saqlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

---

<sup>5</sup> Jozsef Pantya, Judit Kovacs, Christoph Kogler, Erich Kirchler. "Work performance and tax compliance in flat and progressive tax systems", [Journal of Economic Psychology](https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0047272718302147) Volume 56, October 2016, Pages 262-273, <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0047272718302147>

Mazkur masalalarni yechishda avvalo Davlat soliq qo‘mitasi soliq idoralarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali bir-biri bilan bog‘lash va yagona axborotlar bazasini takomillashtirish maqsadida ma‘lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini ishlab chiqish va Davlat soliq qo‘mitasining barcha bo‘linmalarida lokal axborot-hisoblash tarmoqlarini barpo etishni maqsad qilib qo‘ydi. Shu boisdan Davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida axborot tizimini yaratishga asos solindi va uning huquqiy bazasi yaratildi.

Soliq tizimini axborotlashtirish natijasida:

soliq tizimini axborotlashtirish darajasining rivojlanishi soliq tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq va tez bajarish uchun imkoniyat yaratdi;

soliq tizimida axborot almashinuvi tezlashdi va buning natijasida sarf-xarajatlar keskin qisqardi hamda ish samaradorligi oshib, tizim faoliyati yaxshilandi;

soliq tizimida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning faollashuvi mamlakat bo‘yicha yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning bir qismi hisoblanadi, shuning uchun bu jarayonda soliq tizimining faol ishtirok etishi barcha iqtisodiy jihatdan bog‘liq jarayonlar uchun katta samara berdi;

soliqlarni hisoblash, to‘plash jarayoni soddalashdi va davlat budjetini to‘ldirish yanada tezlashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq idoralarida ma‘lumotlarni ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to‘g‘risida”gi 388-sonli qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, davlat soliq xizmati idoralari faoliyatiga tegishli bo‘lgan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

Shu o‘rinda “dasturiy mahsulot o‘zi nima?” “dasturiy mahsulot va avtomatlashtirilgan axborot tizimi o‘rtasida qanday farqli jihatlar bor?” mazmunidagi savollar tug‘uladi. Davlat soliq qo‘mitasining 2015 yil 12 iyuldagi 226-sonli buyrug‘iga asosan “Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan bo‘lib, ushbu nizomga ko‘ra, “Dasturiy mahsulot - soliq solish bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq obyektlarini aniqlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliqlarni

yashirish, soliqdan qochish va shu kabi qo‘shimcha manbalarni aniqlash vazifalarini bajaruvchi dasturiy vosita” hisoblanadi.

Axborot tizimi agarda soliq solish bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq obyektlarini aniqlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliqlarni yashirish, soliqdan qochish va shu kabi qo‘shimcha manbalarni aniqlash vazifalarini bajargan taqdirda dasturiy mahsulot toifasiga kiritiladi. Axborot tizimini dasturiy mahsulot toifasiga kiritish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak bo‘ladi:


- kerakli ma’lumotlarning turli xil manbalardan olinishi;
- ma’lumotlarni aks ettirish shakllarining xilma-xilligi;
- tahlil va taqqoslash funksiyalarining mavjudligi;
- ma’lumotlarning matematik modellar asosida va strategik tahlil qilish usullarining qo‘llanilganligi;
- samaradorlik ko‘rsatkichlarining aniq aks ettirilganligi;
- tahlikalar, imkoniyatlar va oqibatlarni aniqlash, prognoz qilish
- imkoniyatlarining yaratilganligi;
- qaror qabul qilish jarayonida ko‘makchi vazifasini bajara olishi.

Axborot tizimi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ro‘yxatga olish, soliq to‘lovchilarga soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma’lumotlarni tayyorlash, ish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qilgan taqdirda avtomatlashtirilgan axborot tizimi toifasiga kiritiladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga o‘zgartirishlar kiritilib, dasturiy mahsulot toifasiga kiritilgan taqdirda, Davlat soliq qo‘mitasining 2015 yil 18 apreldagi 117-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan Davlat soliq xizmati organlarida dasturiy mahsullardan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhining qaroriga asosan avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturiy mahsulot deb topilishi mumkin. Ushbu ishchi guruh tomonidan har bir ishlab chiqariladigan yangi axborot tizimlari uchun avvalo texnik topshiriq ishlab chiqiladi. Ushbu texnik topshiriq bir necha bo‘limlardan tarkib topgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- umumiy ma’lumotlar;
- tizimning vazifasi va yaratish maqsadlari;
- tizimda foydalaniladigan ma’lumotlar;
- tizimdan olinadigan ma’lumotlar;
- tizimning ishlash algoritmi;
- tizimga talab;
- tizim hujjatlariga talab;
- texnik topshiriqda ilovalar.

## Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimi faoliyatini ta'minlovchi jarayonlar<sup>7</sup>



Davlat soliq xizmati organlarida maxsus axborot tizimidan foydalaniladi. Davlat soliq qo‘mitasining 2015 yil 12 iyuldagi 226-sonli buyrug‘iga asosan “Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga ko‘ra “Axborot tizimi bu - axborotlarni to‘plash, saqlash, izlash, ularga ishlov berish hamda ulardan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridir.”<sup>8</sup>


Soliqqa oid ma‘lumotlarni yig‘ishda, soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tahlil qilish va idoralararo ma‘lumot almashish jarayonlarida maxsus axborot tizimlaridan foydalaniladi va quyidagi rasmda aks ettirilgan bir necha jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

<sup>7</sup> Davlat soliq xizmati organlarida foydalanilayotgan axborot tizimi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>8</sup> Davlat soliq qo‘mitasining 2015-yil 12-iyuldagi 226-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan “Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom



Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimining asosiy qismini dasturiy mahsulotlar tashkil etadi. Ushbu dasturiy mahsulotlarning ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi bir necha bosqichdan iborat bo'lib quyidagi rasmda ushbu jarayon aks ettirilgan.



### **8-rasm. Dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi<sup>9</sup>**

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan va etilayotgan dasturiy mahsulotlar yuqoridagi jarayonlardan birma-bir o'tib, soliq tizimida foydalanish uchun joriy etiladi.

Yuqoridagilar asosid davlat soliq xizmati organlarida axborot texnologiyalari joriy qilinib, axborot tizimlariga asos solindi va ular muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

<sup>9</sup> Davlat soliq qo'mitasining 2015-yil 12-iyuldagi 226-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan "Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to'g'risida»gi nizom ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

**Soliq xizmati organlaridagi axborot tizimlari va texnologiyalarining tarkibi va tuzilishi**

O‘zbekiston Respublikasi «Soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonunga binoan soliq xizmati xodimlarining asosiy funksiyalari deb yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni ro‘yxatga olish (identifikatsiya) raqamlarini bergan holda soliq to‘lovchilar sifatida ularni ro‘yxatga

qo‘yish haqida hujjatlarni berish qayd qilib o‘tilgan.

Soliq to‘lovchining identifikatsionraqami(STIR)– bu soliq to‘lovchilarga markazlashtirilgan tartibda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan beriladigan tartib raqami bo‘lib, soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish va ularning soliq tushumlarini hisobga olish uchun qo‘llaniladigan maxsus raqamdir. Ro‘yxatga olish va soliq tushumlarini hisobga olish kompyuter tizimi yordamida olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlash, soliq to‘lovchilarni hisobga olishni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi «O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarga identifikatsion raqamlari berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risida»gi 130-sonli qarori qabul qilindi va unga ko‘ra:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi 1997 yil 1 apreldan boshlab soliq to‘lovchilarning identifikatsiyaraqamlarini berish va qo‘llash tizimi joriy etildi;

O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga 1997 yil 1 aprelgacha soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini bank hujjatlarining barcha shakllariga majburiy kiritish to‘g‘risidagi masalani hal qilish tavsiya etildi.

Ushbu qarorga asosan, DSQning 1997 yil 25 martda chiqqan 78-sonli buyrug‘ida ko‘rsatilishi bo‘yicha, ro‘yxatdan o‘tkazilgan ma‘lumotlarni kompyuterga kiritish, identifikatsion raqam olganligihaqidagi guvohnomani tuman (shahar) DSIIlarida 5 ish kuni mobaynida(hozirda 2 ish kuni) berish belgilab qo‘yilgan.

Soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo‘llash tizimi to‘g‘risidagi Nizomni joriy etishdan maqsad soliqlar to‘liq to‘lanishini va maxsus jamg‘armalarga mablag‘lar ajratilishini hamda ham soliq organlarining, ham soliq to‘lovchilarning davlatning iqtisodiy

manfaatlari va mulkiy huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining barcha vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, bankmuassasalari hamda boshqa muassasalar, tashkilotlar va korxonalar bilan o'zaro hamkorligini ta'minlovchi soliq to'lovchilarni kodlashtirishning yagona tizimini shakllantirishdan iborat.

Identifikatsiya raqami soliq to'lovchilarning quyidagi toifalariga beriladi:

yuridik shaxslarga; jismoniy shaxslarga, xorijiy fuqarolarga vafuqaroligi bo'lmagan shaxslarga;

asosiy yashash joyi bo'yicha fuqarolarga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga; doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan, biroq soliq majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi hududida paydo bo'lgan fuqarolarga.

Soliq solishmaqsadida hisobga olinadigan fuqarolarga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan fuqarolar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtincha yashab faoliyat ko'rsatadigan fuqarolar;

"O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, xorijiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida kalendar yilda 183 kundan ko'proq turgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Soliq majburiyatlari deganda jismoniy yoki yuridik shaxsda daromad olish manbaimavjudligi yoki soliq solishning boshqa obyekt tushuniladi.

Soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqamlarini berish quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

- O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining identifikatsiya raqamlari yagona reestrini shakllantirish;
- soliq to'lovchilarni hisobga olishni tartibgasolish;
- soliqlarning budjetga tushishini hisobga olish va soliq organlarining o'zarohamkorligi bo'yicha ma'lumotlarni kompyuterda ishlashni joriyetish;
- soliq qonunchiligarioya etilishi bo'yicha axborotlarning yaxlitligi va ishonchliligi ko'p tomonlama tekshirilishi, nazorat qilinishini tashkil etish;
- soliq organlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari bank muassasalari va moliyaviy tisdagi, shuningdek

ko'char va ko'chmas mulk bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar o'rtasida axborot ayirboshlashni birxillashtirish;

- daromadlarni, to'langan soliqlarni va xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy va boshqa sug'urta bo'yicha davlat jamg'armalariga to'lovlarni hisobga olishni birxillashtirish.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami soliq majburiyatlari va barcha ijtimoiy huquqlari bo'yicha yagona hisoblanib, davlat ijtimoiy sug'urtasi va boshqa sug'urtalar bo'yicha to'lovlar (mablag'lar) olish bo'yicha davlat hokimiyati va nazorat organlari o'rtasidagi aloqalarda qo'llaniladi va o'zgartirilmaydi.

Identifikatsiya raqami bir marta beriladi va faqat yuridik shaxsning tugatilishi, jismoniy shaxsning vafoti yoki boshqa mamlakatga ko'chib ketishi munosabati bilan, ushbu voqealar ro'y bergandan keyin uch yil o'tgach, bekor qilinishi mumkin. Shundan keyin ushbu kod boshqa soliq to'lovchiga beriladi.

Soliq to'lovchiga identifikatsion raqam berish orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- soliq to'lovchiyuridikva jismoniy shaxslarni to'liq va sifatli ro'yxatga olish;
- soliq to'lovchilarga identifikatsion raqam berish orqali tuman, viloyat, respublika miqyosida soliq to'lovchilarning yagona bazasini tashkil qilish va soliq to'lovchilarning hamma ma'lumotlarini jamlash;
- soliq to'lovchilarning budjet bilan munosabatlarini nazorat qilish, to'lagan soliq va to'lovlarni hisobga olish va kompyuter dasturlari orqali yuritish;
- soliq to'lovchilarga berilgan identifikatsion raqam davlat, ijtimoiy ta'minot, sug'urta bo'yicha majburiyatlarini bajarishda va hamma to'lov hujjatlarida ishlatish imkonini beradi.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami to'qqizta raqamli belgidan iborat bo'lib, dastlabki 8 raqam soliq to'lovchining o'z raqamini, oxirgi raqam esa nazorat sonini bildiradi.

Shunday qilib, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi.

-----  
1-soliq to'lovchining raqami

2- nazorat soni

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini kodlashtirish uchun seriyali tartib usulidan foydalaniladi.

Bunda soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlari barcha to'plami soliq to'lovchilarning tiplarini aniqlashtiruvchi ikki turkumlash guruhiga jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan.

Ushbu maqsadlarda quyidagi kodlardan foydalaniladi:

20 000 000X dan 39 999 999X gacha- yuridik shaxslar uchun;

40 000 000X dan 79 999 999X gacha- jismoniy shaxslar uchun;

bunda

X soliq to'lovchining identifikatsiya raqami sonlari izchilligi to'g'riligini nazorat qiluvchi son, ushbu son O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasida kompyuter tomonidan soliq to'lovchiga identifikatsiya raqami berish jarayonida muayyan algoritm bo'yicha shakllantiriladi.

Zarurat bo'lganda, kodlashtirish tizimi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida quyidagi kodlar zahira qilingan:

00 000 000X dan 19 999 999X gacha;

80 000 000X dan 99 999 99X gacha

Kodlashtirishning mazkur tuzilishi o'zgarmas va universal hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va ularni qo'llash tizimida foydalaniladi.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqami soliq to'lovchi tomonidan tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tkazish shaklini to'ldirishda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida beriladi. Soliq organlari bilan davlat hokimiyati boshqaruvi boshqa organlari o'rtasida axborot ayirboshlashni birxillashtirish maqsadida soliq to'lovchining ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarida unga O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida berilgan kodi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 maydagi «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilishtartibini joriy etish to'g'risida»gi 357-sonli Qaroriga ko'ra quyidagilar belgilangan:

- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish, tegishli ravishda, yustitsiya organlari yoki tuman(shahar)lar hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari tomonidan bir vaqtning o'zida ularni soliq va statistika organlarida hisobga qo'ygan holda amalga oshirilishi;
- ariza xabarnomani bergan paytdan boshlab tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatiga olib, unga davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi guvohnomani berishgacha o'tadigan muddat ko'pi bilan ikki ish kunini tashkil etishi.

Qarorga asosan, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi 2006 yilning 1 sentabrigacha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda tuman (shahar)lar davlat soliq inspeksiyalari bilan ro'yxatga oluvchi organlar o'rtasida soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlari berilganligi to'g'risidagi tegishli so'rovnomalarni qabul qilish va ushbu axborotni ro'yxatga oluvchi organlarga uzatish uchun elektron pochta aloqasini tashkil etishni ta'minlash topshirilgan.

**Davlat soliq xizmati idoralarida amalga joriy etilgan dasturiy mahsullar haqida umumiy tushuncha**

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish, ularning ro'yxatga olish ma'lumotlaridagi o'zgarish va qo'shimchalarni kiritish, soliq to'lovchi jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga olish, soliq to'lovchi yuridik shaxslarning tekshirish dalolatnomalarini qayd qilish, soliq vama'jburiy to'lovlar bo'yicha moliyaviy sanksiyalarni yuritish va boshqa ma'lumotlarni kompyuter tizimiga kiritib, tahlil

qilish uchun Davlat soliq qo'mitasi tomonidan bir qancha shakllar ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda DSQMIYAKTda asosan quyidagi shakllardan foydalaniladi:

01-shakl. Soliq to'lovchi jismoniy shaxsni ro'yxatga olish varaqasi.

02-shakl. Soliq to'lovchi yuridik shaxsni ro'yxatga olish varaqasi.

03-shakl. Soliq to'lovchi jismoniy shaxsning ro'yxatga olish ma'lumotlaridagi o'zgarishlar.

Ushbu shakl soliq inspeksiyasida ilgari 01- shakl bilan ro'yxatdan o'tkazilgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning ro'yxatga olish

ma'lumotlarini o'zgartirishda (famiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi va hokazolar o'zgarganda) to'ldiriladi.

04-shakl. Soliq to'lovchi yuridik shaxsning ro'yxatga olish ma'lumotlaridagi o'zgarishlar. Ushbu shakl faqat STYuSh to'g'risidagi quyidagi ro'yxat ma'lumotlari o'zgarganda to'ldiriladi (hech qanday o'zgarishlar bo'lmagan hollarda 04-shakl biror marta ham to'ldirilmasligi mumkin):

- korxonaning nomi yoki manzili;
- faoliyat turi;
- mulkchilik shakli;
- soliq to'lovchining holati.

Korxonaga joylashgan hudud o'zgarganda oldingi hudud DSIsida 04-shaklni to'ldirib, undagi "Soliq to'lovchi holati" grafasida "Ko'chib ketgan" deb ko'rsatilishi shart, keyingi hududdagi DSIda 04 va 08-shakllarni to'ldirish kerak bo'ladi. 02-shakl esa to'ldirilmaydi.

06 - shakl. Soliq to'lovchi Davlat soliq qo'mitasida ro'yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risida 07- shakl. Xabarnoma. Tashkilotro'yxatdan o'tib, STIR olgandan so'ng, unga xabarnoma jo'natiladi.

08- shakl. Soliq to'lovchi yuridik (yuridik) shaxs to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar. 08 - shakl soliq to'lovchi yuridik shaxs to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni qayd qilish varaqasi yuridik shaxslarni birlamchi ro'yxatga olishda yoki korxonaga rahbari, bosh hisobchisining ismi- shariflari, nizom jamg'armasi, hisob raqami, MFO, bank, tobelik yoki vazirlik nomlari o'zgarganda to'ldiriladi. Lekin ba'zi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda faqat talab qilinganda qayta to'ldirilishi mumkin.

09- shakl. Soliq to'lovchi jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga olish varaqasi. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning soliqlarini hisobga olish varaqasidan soliqlarini qayd qilish va ularni kompyuterda hisoblash uchun foydalanilib soliqlarni to'laydigan har bir fuqaro uchun to'ldiriladi.

10-shakl. Soliq to'lovchilarning tekshirish dalolatnomalarini qayd qilish varag'i.

15-shakl. Xo'jalik yuritayotgan subyektlarni korxonaga va tashkilotlarning davlatregistriga kiritilganligi haqida guvohnoma.

16-shakl. Yakka tartibda tadbirkorlikfaoliyati bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilarning ma'lumotlari va soliqlarini hisobga olish varaqasi (16A- shakl import bilan shug'ullanuvchilar uchun).

Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ishlov berishning yagona kompyuter tizimida hujjatlarni saqlash DSQMIYaKTda hujjatlar hujjat turgan joy raqami (HTJR) usuli yordamida saqlanadi. DSQma’lumotlarini ishlashning yagona kompyuter tizimida STIR tizimini kiritishdan tashqari, hujjatlarga raqam qo‘yish, ya’ni HTJR uslubini qo‘llash boshqa bir muhim qismi bo‘lib hisoblanadi. Bunda hujjatlarni qayta ishlashning 1- bosqichida har bir hujjatga uning tartibi bo‘yicha raqam beriladi.

HTJR- har bir hujjat uchun doimiy va o‘ziga xos raqamdir. Undan ma’lum bir hujjatni tez topish uchun foydalaniladi. Shakl va hujjatlarni alfavit bo‘yicha saralashning odatiy va unumdorligi past bo‘lgan uslublariga taqqoslaganda, qo‘lda qayta ishlashning hajmini sezilarli darajada kamaytiradi.

HTJRdan foydalanish ma’lumotlarni kompyuterga kiritish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi, chunki hujjatlarning bir xil to‘plamlari (partiyalari) birgalikda qayta ishlanadi.

Jildlarga quyidagi raqamlardan iborat sonlar qo‘yiladi va bu sonlar quyidagilarni bildiradi:

1-2- belgi : shakl(hujjat)ning shaxsiy raqami(01-,02-,03-, ... shakllar).

Misol uchun (hujjat turgan joy raqami ko‘rinishlari):

0209031112

0409031112

0809031112

3-4- belgi: yilning oxirgi ikkita raqami(2008 yil bo‘lsa 08ga teng, 2009 yil

bo‘lsa 09ga teng).

Misol uchun (hujjat turgan joy raqami ko‘rinishlari):

0207031112

0408033112

0809365112

5-6-7 – belgi: kunning yil boshidan ketma-ketlik soni.

Masalan, 2 yanvar yilning 2-kuni, ya’ni 002 shaklida yoziladi; 2-fevral yilning 33- kuni, ya’ni 033 shaklida yoziladi; 31-dekabr yilning 365 kuni, ya’ni 365 shaklida yoziladi.

Misol uchun (hujjat turgan joy raqami ko‘rinishlari):

020900210104090331010809365101

020900210204090331020809365102

.....

020900219904090331990809365199



8 –belgi: hujjatlar saqlanadigan jildning shaxsiy raqami(1 dan 9 gacha bo‘lishi mumkin).

DSQning 2005 yil 5 avgustdagi «Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to‘g‘risida»gi 148-sonli buyrug‘iga asosan joriy qilingan dasturiy mahsullar Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, soliqqa oid ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash bo‘yicha kompyuter dasturiy mahsullarini amalga joriy etish maqsadida DSQ ning 2005 yil 5 avgustda «Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to‘g‘risida»gi 148-sonli buyrug‘i chiqdi.

Buyruqda O‘zbekiston Respublikasi DSQ da ishlab chiqilayotgan dasturiy mahsullar bo‘yicha tuzilgan mas’ul ishchi guruh a’zolarining ro‘yxati hamda dasturiy mahsullar texnik topshiriqlarini ishlab chiqish, dasturiy mahsullarni ishlab chiqish va quyida keltirilgan dasturiy mahsullarni tajribaviy ishga tushirish muddatlari belgilab berildi.

#### 14-jadval

#### Dasturiy mahsullar nomi

	<b>Dasturiy mahsul nomi</b>	<b>Mazmuni</b>
	KADR	O‘zbekiston Respublikasi DSQning hodimlarining yagona restri (DSI, DSB, DSQ)
	Koord_GNI	Respublik tekshiruvlar reja jadvali ijrosini shakllantirish va nazorat qilish dasturi(DSI, DSB, DSQ).
	AdmPrac	«Ma’muriy amaliyotni hisobga olish» dasturiy majmuasi
	Apray	«Davlat soliq organlari tomonidan tekshirishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladigan baza, mavjud ma’lumotlar asosida hisobotlarni yuritish va tahlil qilish» dasturiy mahsuli
	NED_GNI	«Budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga qarzdorliklar hisobini yuritish» dasturiy mahsuli.
	N1Ray, N1RayPF, N1RayDF, N1RayShF	«1-N: Budjet va budjetdan tashqari Davlat maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi hisobi» dasturiy majmuasi

ELEKTR	«Yuridik shaxslar tomonidan isteʼmol qilingan elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni amalga oshirilishini nazorat qilish va toʻlov muddati oʻtgan qarzlarni qisqartirish natijalari tahlilini olib borish» dasturiy mahsuli.
CARN 3	«Soliq toʻlovchi yuridik shaxslar varaqasi» dasturiy majmuasi
YER SOLIGʻI	«Yuridik shaxslar yer (yagona yer) soligʻi boʻyicha hisobotini yuritish» dasturiy majmuasi
Musodara 2005	«Davlat daromadiga oʻtkaziladigan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotishdan tushgan pul mablagʻlarni toʻliq va oʻz vaqtida budjetga tushishini nazorat qilish » dasturiy mahsuli
EReports 2006	Davlat soliq organlarida soliq toʻlovchilarning soliq va moliyaviy hisobotlarini elektron shaklda qabul qilish va statistik maʼlumotlarni shakllantirish dasturiy majmuasi

DSQ ning 2010 yil 22 yanvarda “Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarning nomini oʻzgartirish toʻgʻrisida”gi 13-sonli buyrugʻiga muvofiq Davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarning yangi nomlari roʻyxati

## Dasturiy mahsullarning yangi nomlari ro'yxati

Dasturiy mahsulning amaldagi nomi	Dasturiy mahsulning yangilangan nomi
«Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni va ularning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy majmuasi	«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy majmuasi
«Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotishdan tushgan pul mablag'larini to'liq va o'z vaqtida budjetga tushishini nazorat qilishni avtomatlashtirish» dasturiy mahsuli	«Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli	«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli
«Jismoniy shaxs soliq to'lovchilarning ma'lumotlar bazasini avtomatik inventarizatsiya qilish» dasturiy mahsuli	«Jismoniy shaxslar ma'lumotlar Bazasini inventarizatsiya qilish» dasturiy mahsuli
«Jismoniy shaxslar egaligidagi mol-mulk va yer solig'i obyektlarini hisobga olish» dasturiy mahsuli	«Jismoniy shaxslarning soliq solish obyektlarini hisobga olish» dasturiy mahsuli
«Jismoniy shaxslarga pasport berilganligi, shu jumladan yo'qotilgan yoki amal qilish muddati o'tgan pasportlar o'rniga berilgan pasportlar, bekor qilingan pasportlar to'g'risida elektron fayl ko'rinishida IIV dan olinadigan ma'lumotlar asosida jismoniy	«Fuqarolarning Pasport va STIR ma'lumotlarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli

Jismoniy shaxslarning STIR ma'lumotlariga DSQ bazasida markazlashgan holda avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish» dasturiy mahsuli	
«Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiyani elektron tarzda topshirish» dasturiy mahsuli	«Soliq deklaratsiyalarini elektron tarzda topshirish» dasturiy mahsuli.
O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki tomonidan Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etilayotgan Jamg'arib boriladigan pensiya badallari bo'yicha kunlik tushumlarni qayta ishlanishini avtomatlashtirish dasturiy mahsuli	«Jamg'arib boriladigan pensiya badallari tushumlarini
«Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun debitorlik qarzini tulay olmagan yuridik shaxslardan qarzlarni majburiy undirish bo'yicha soliq idoralarida tezkor hisobotlarni yuritish» dasturiy mahsuli	«Elektr energiyasi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Yuridik shaxslar yer (yagona yer) solig'i bo'yicha hisobotini yuritish» dasturiy majmuasi	«Yuridik shaxslar yer solig'i hisobini yuritish» dasturiy majmuasi
«Yer fondi va yer solig'ini hisobini yuritish» dasturiy mahsuli	«Yer fondi va yer solig'i hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlarini elektron ko'rinishda yuborish» (On Line) dasturiy mahsuli	«Soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda yuborish» (Online) dasturiy mahsuli
«Interaktiv xizmatlar» dasturiy mahsuli	«Interaktiv xizmatlar» dasturiy mahsuli

«Yuridik shaxslarning imtiyozining hisobini olib borish» dasturiy mahsuli	«Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlarini elektron ko‘rinishda yuborish» dasturiy mahsuli (Off Line)	«Soliq hisobotlarini elektron ko‘rinishda yuborish» (Offline) dasturiy mahsuli
«Avval xususiylashtirilgan korxonalar – yagona soliq to‘lovi to‘lovchilarini umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazish» dasturiy mahsuli	«Avval xususiylashtirilgan va yagona soliq to‘lovi to‘lovchi korxonalar tahlili» dasturiy mahsuli
«Kameral tekshiruv» dasturiy mahsuli	«Kameral
«Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan hujjatli, qisqa muddatli, reydlar va boshqa tekshirishlar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini yaratish va mavjud ma’lumotlar asosida hisobotlarni tayyorlab beruvchi» dasturiy mahsuli	«Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Ma’muriy amaliyotni hisobga olish» dasturiy mahsuli	«Ma’muriy amaliyotni hisobga olish» dasturiy mahsuli
«Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi yuridik SIAIJ-3)» dasturiy majmuasi	«Yuridik shaxslar hisobini va shaxsiy kartochkalarini yuritish»
«1-N budjet va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobi» dasturiy majmuasi	«Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish» dasturiy

«Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning budjet va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga qarzdorliklarni hisobini yuritish va undirilishini nazorat qilish» dasturiy mahsuli.	«Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Bank-DSI» dasturiy mahsuli	«Bank-DSI» dasturiy mahsuli
«Davlat soliq xizmati xodimlarining yagona hisobini olib borish» dasturiy mahsuli	«Xodimlar hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Respublika t ekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish va bajarilishini nazorat qilish» dasturiy mahsuli	«Tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish» dasturiy mahsuli
6 «Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatida o‘tkaziladigan rejadan tashqari tekshirishlar hisobini yuritish» dasturiy mahsuli.	«Yakka tadbirkorlarda tekshirishlar hisobini yuritish» dasturiy mahsuli.
7 «Yagona elektron tarmoq orqali qo‘mita tomonidan olinadigan kundalik tezkor axborotlarni qabul qilish, olingan ma’lumotlarni hududlar va tushumlar manbasi asosida saralab xududlarga avtomatik ravishda jo‘natish» (PQ-726 bo‘yicha) dasturiy mahsuli	«Naqd pul tushumlari hisobini yuritish» dasturiy mahsuli
«Hujjatlar	«Hujjatlar

«Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish» dasturiy majmuasini joriy qilinishidan maqsad. Dasturiy majmuaning imkoniyatlari.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va Soliq xizmati to‘g‘risidagi Qonunga asosan Davlat soliq organlariga budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘arialarga tushumlarning tezkor buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifani bajarishda soliq

organlarida “Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi hisobi” dasturiy majmuasidan ham foydalaniladi.

Amaliyotda foydalanib kelinayotgan dasturiy majmuada soliq turlari va hududlar bo‘yicha hisobot shakllantirilgan bo‘lib, unda bugungi kundagi yangi axborot texnologiyalardan to‘liq foydalanish imkoniyatlari mavjud emas edi. Soliq organlarida tezkor axborot almashinishi muhim rol kasb etishidan kelibchiqib Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan “Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi hisobi” dasturiy majmuasining yangi tahriri yaratildi va 2006 yilning 1 noyabridan amaliyotga tadbiq etildi. Dasturiy majmuaning amaliyotgajoriy qilinishi Respublika bo‘yicha barcha soliq organlarida kunlik soliq to‘lovlari bo‘yicha tushumlar miqdorini tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatini yaratdi.

Shu bilan birgalikda vazirliklar, korxonalar, faoliyat turlari va korxonalarholati kesimida soliq va to‘lovlar turlari bo‘yicha tushumlar yuzasidan tezkor hisobotlarni shakllantirish hamda tahlillar o‘tkazish, tushumlar dinamikasini shakllantirish imkoniyatlari yaratildi.

Dasturiy majmuani joriy qilinishidan maqsad

Dasturiy majmuani joriy qilish orqali budjet va budjetdan tashqari Davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsad qilib qo‘yilgan:

Budjet va budjetdan tashqari Davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaryatish;

Vazirliklar hamda korxonalar kesimida tushumlarni tahlil qilish va nazorat o‘rnatish;

Vazirliklar, sohalar, faoliyatturlari va hududlar bo‘yicha tushumlar dinamikasini shakllantirish;

Maxsus hisob raqamlari orqali mablag‘lar tushumini vazirliklar va korxonalar kesimida hisobini yuritish hamda nazorat qilish.

“Davlat budjeti va maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi hisobi” dasturiy majmuasining imkoniyatlari:

Budjet va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga soliq va yig‘imlar bo‘yicha kunlik, oylik, choraklik va yillik tushumlar hisobini yuritish;

Korxonalar va vazirliklar kesimida budjetga tushumlar bo‘yicha ma’lumotlarni soliq turlari va davlat soliq inspeksiyalari kesimida kunlik, oy, chorak, yilboshidan hisobot davrlari uchun olish;

Vazirliklar (idoralar) kesimida ma’lumotlarni davlat soliq inspeksiyalari (DSB, DSQ) kesimida olish;

Budjet va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga maxsus hisob raqamlar orqali o'tkazilgan mablag'lar tushumi bo'yicha ma'lumotlarni olish;

Belgilangan bashorat ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha ma'lumotni olish;

Bank muassasasidan olingan to'lov hujjatlaridan ko'chirmalarning to'g'rikiritilishini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. "Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalariga mablag'lar tushumi hisobi" dasturiy majmuasining ustunliklari:

Budjet va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga kunlik, oylik, choraklik va yillik o'sib boruvchi tartibda mablag'lar tushumi hisobini nazorat qilish;

Vazirliklar (idoralar) va korxonalar bo'yicha to'lov turlari kesimida hisobot kuniga budjet va budjetdan tashqari Davlat maqsadli jamg'armalariga tushgan mablag'lar tushumi nazoratini olib borish;

Vazirliklar (idoralar) va korxonalar bo'yicha to'lov turlari kesimida hisobotkuniga maxsus hisob raqamlari orqali o'tkazilgan mablag'lar hisobi nazoratini olib borishdan iborat.

«Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish» dasturiy mahsulini joriy qilish maqsadlari. Dasturiy mahsul ma'lumotlar bazasida shakllanadigan ma'lumotlar

«Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish» dasturiy mahsuli DSQ ning 2005-yil 5-avgustdagi 148-sonli buyrug'iga asosan ishlab chiqilgan. Bu dastur orqali soliq to'lovchi yuridik shaxslarning budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, shuningdek, soliq idoralarini rivojlantirish jamg'armalari bo'yicha boqimandalari, ortiqcha to'langan summalari, hisoblangan hamda to'langan summalari haqidagi ma'lumotlarni korxonalar, vazirliklar, statuslar, faoliyat turlari, korxonalar holati, mulkchilik shakli, DSI inspektorlariga biriktirilishi va xizmat ko'rsatuvchi banklar bo'yicha jamlangan holda yoki alohida-alohida shakllantirish mumkin.

Dasturiy mahsulning asosiy maqsadlaridan birinchisi, soliqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan hisoblangan, to'langan summalari, qarzdorliklari va ortiqcha to'lovlari to'g'risida vazirliklar va idoralar, alohida korxonalar, soliq turlari (yagona soliq to'lovi), soliq to'lovchining faoliyat yuritish holati, yuridik mavqei (statuslar), faoliyat turlari bo'yicha hamda unga xizmat ko'rsatuvchi banklar kesimida ma'lumotlar olish. Ikkinchisi, belgilangan muddatlarda to'lanmagan qarzlarni majburiy undirish ustidan nazorat tizimini takomillashtirish va



avtomatlashtirish, ya'ni, boqimandaga ega korxonalarining asosiy hisobraqamlari va debitorlariga qo'yilgan inkasso talabnomalari ro'yxatini shakllantirish hamda ularning ijrosini nazorat qilish; ogohlantirish talabnomalari berilishi lozim korxonalarni aniqlash, talabnomalarni shakllantirish vareyestrini yuritish, ularni nazorat qilish, to'lanmagan qarzdorliklar bo'yicha xo'jalik sudlariga da'vo arizalarini shakllantirish; xo'jalik sudlariga kiritilgan da'vo arizalari monitoringini yuritish; sud ijrochilariga berilgan ijro hujjatlarini pul mablag'lari tushumiga qarab tahlil qilib borish, ijro hujjatlarini o'zaro solishtirishdan iborat.

Dasturiy majmuani joriy qilish orqali quyidagi ishlarniamalga oshirish imkoniyatlari yaratilgan:

- yuridik shaxslarning soliq qarzi uchun Soliq kodeksining 61-moddasiga asosan ogohlantirish talabnomalarini shakllantirish;

- qarzdorning muddatida to'lanmagan soliq qarzini mol-mulkidan undirish maqsadida Soliq kodeksining 65-moddasiga asosan xo'jalik sudiga taqdim etish uchunarizalarni chopetish;

- soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish bo'yicha xo'jalik sudiga kiritilgan arizalar yuzasidan sudda ko'riladigan ish uchun ma'lumotlarni shakllantirish;

- xo'jalik sudining soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish bo'yicha ijro hujjatlarini dasturiy mahsulga kiritib, belgilangan muddatda sud ijro bo'limlariga kuzatuvxatiorqali yuborish;

- dasturiy mahsulning «41-grafa» nazorat jadvali orqali soliq qarzini majburiyundiruvga qaratishda amalga oshirilgan ishlarni nazorat etish.

Dasturiy mahsul ma'lumotlar bazasida quyidagi ma'lumotlar shakllanadi:

- budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar uchun hisoblangan va to'langan to'lovlar, shuningdek, mavjud soliq qarzi va ortiqcha to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni korxonalar, faoliyat turlari, vazirliklar, statuslar, mulkchilik shakli, banklar hamda hududlar kesimidagi jadval shakli;

- to'lov muddati uzaytirilgan soliq qarzlari to'g'risidagi hisobotlarning jadval shakli;

- ogohlantirish talabnomalari, qarzdor korxonalar va debitorlar hisobiga qo'yilgan inkasso topshiriqnomalari, debitor korxonalar hisobidan undirilgan summalar, ho'jalik sudiga rasmiylashtirilgan (da'vo) arizalar hamda qanoatlantirilgan da'vo arizalar bo'yicha dasturiy mahsulga kiritilgan sud buyruqlari to'g'risidagi reyestr ma'lumotlarining jadval shakli;

- soliq qarzini majburiy undiruvga qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish maqsadida, «41-grafa» jadvali shakli;

Dasturiy mahsulning joriy etilishi va undan foydalanish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsuldan foydalanuvchilar uchun elektron qo'llanma yaratilgan bo'lib, unda dasturiy mahsulni o'rnatishdan boshlab barcha jarayonlar to'liq yoritilgan. Shuningdek, boqimandalar bilan ishlashga doir qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlardan ko'chirmalar kiritilgan hamda foydalanuvchilar tomonidan berilayotgan savollarga javoblar kiritilgan.

Dasturiy mahsul asosida nazorat ishlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda soliq to'lovchilar tomonidan to'langan summalar bo'yicha ma'lumotlar shakllantiriladi. Bunda soliq to'lovchiga ogohlantirish talabnomasi berilgandan keyin jami undirilgan (shuningdek, debitorlari orqali va valyuta mablag'larini sottirish hisobiga) mablag'lar aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda ogohlantirish talabnomalari berilishi lozim, ya'ni, boqimandalar bilan ishlash uchun nomzod korxonalar ro'yxati shakllantiriladi.

Uchinchi bosqichda nomzod korxonalarga ogohlantirish talabnomalari va (qonunchilikda belgilangan muddatlarda) da'vo arizalari (yoki arizalar) shakllantiriladi, hamda ularning ijrosi nazoratga qo'yiladi.

To'rtinchi bosqichda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, tegishli choralar belgilanadi hamda yangi hosil bo'lgan boqimandalar bilan ishlash birinchi bosqichdan qayta davom ettiriladi.

Budjet va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalardan bo'lgan qarzdorlikka «Soliq bo'yicha qarzlarni majburiy undirish» bo'lim (sho'ba)lari tomonidan ogohlantirish talabnomalari, ijrosi bajarilmagan talabnomalar bo'yicha sudga da'vo arizalar, mazkur ariza bo'yicha sudda ko'riladigan ish yuzasidan ma'lumotlarni dasturiy mahsul orqali to'g'ri shakllantirish uchun, «Axborot tizimlari» bo'lim (sho'ba)lari tomonidan yuqoridagi har bir amal bajariladigan kun holatiga shaxsiyhisob varaqalarda saldo hisoblanishini amalga oshiradi.

Dasturiy mahsul joriy etilishi natijasida davlat budjeti oldidagi qarzdorliklar bo'yicha ma'lumot shakllari birxillashtirildi. Dasturiy mahsuldagi tahliliy jadvallar soni 1000 dan ziyod. Qarzdorlik summalarini vazirlik (uyushma)lar, hududlar, xizmat ko'rsatuvchi banklar, manbalar, mulk shakli va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha doimiy ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lib, qarzdor yuridik shaxslarga inkassa topshiriqnomasi

qo'yishdan boshlab sud ijrochisiga ijro hujjatini topshirishgacha bo'lgan ish jarayoni avtomatlashtirildi. Dasturiy mahsul orqali boqimanda summalarini majburiy undirishga qaratish bo'yicha ko'rilgan choralar monitoringi jadvalini to'ldirish uchun har bir korxonaga o'rtacha 10-15 minut talab qilingan bo'lsa, dasturiy mahsul orqali endilikda yiliga o'rtacha 33,8 mingish kuni miqdorida mehnat tejalishiga erishildi.

Soliq to'lovchining budget bilan o'zaro hisob-kitoblari jarayonini avtomatlashtirishda yangilik sifatida quyidagilar kiritilgan:

Boqimanda va peniyani hisobdan chiqarish, shuningdek, boqimanda va penyalar to'lov muddatini uzaytirishni o'z ichiga olgan ShHVni avtomatik yuritish;

Bank muassasidan electron ko'rinishda olingan bank hujjatlarni avtomatik tarqatish;

Inkasso topshiriqnomalarini qo'yish uchun nomzodlar ro'yxatini shakllantirish va mablag'larni bir soliqdan boshqasiga o'tkazish uchun xulosa tayyorlash imkoniyati;

Istalgan sanaga boqimandasi mavjud korxonalar bo'yicha penyani hisobgaolgan holda hisobot shakllantirish;

Quyidagilar bo'yicha to'liq statistic ma'lumotlarni olishim koni bo'ladi: korxonani ro'yxatga olish;

Boshlang'ich hujjatlar asosida ma'lumot kiritish; Shaxsiy hisob varaqalarini yuritish;

Tekshirish dalolatnomalari;

10% jarimalarni;

inkasso topshiriqnomalarini;

xulosalarni.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchi yuridik shaxslar hisobi va ularning soliq majburiyatlarini yuritilishi 1995 yildan buyon avtomatlashtirilgan bo'lib, SIAIJ dasturiymajmuasi hozirgi kunga qadar takomillashtirib kelinmoqda. Jumladan:

SIAIJ- 1 – 1995 yildan SIAIJ- 2 – 2000 yildan SIAIJ- 3 – 2004 yildan

SIAIJ- 4 – 2010-11 yillardan amaliyotga joriyetilgan.

SIAIJ dasturiymajmua yordamida soliq organlari oldiga qo'yilgan quyidagi bir qator vazifalar soliq to'lovchining elektron ko'rinishdagi shaxsiy kartochkalarida avtomatik tarzda amalga oshirib kelingan:

- soliq to'lovchini hisobga olish va uningrekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisobini yuritish;
- soliq majburiyatlari, ya'ni hisoblangan va to'langan soliqlar

- hisobi;
- soliq qarzi, shuningdek to'lov muddati uzaytirilgan soliq qarzi va hisoblangan penya summaları va ularni undirish maqsadida qo'yilgan inkasso talabnomalarini hisobi;
- Respublika komissiyasi bayonnomalari va boshqa qonun hujjatlariga asosan to'lov muddati uzaytirilgan va hisobdan chiqarilgan soliq qarzlari hamda penyalar hisobi;
- ortiqcha to'langan mablag'lar va ularni boshqa soliq turidagi soliq qarzi hisobiga o'tkazish yoki soliq to'lovchiga qaytarish yuzasidan hisob-kitoblar;
- tekshiruvlar natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar, moliyaviy jarimalar va penyalar hisobi;
- boshqa moliyaviy sanksiyalar hamda hisoblangan penyalar hisobi.

Lekin, SIAIJ-3 dasturiy majmuasi hozirgi zamon talabiga to'liq javob bermasligi, ya'nima'lumotlar bazasi tashqi ta'sirlardan to'liq himoyalanganligi, dasturiy majmuaning imkoniyatlari chegaralanganligi, majmua yaratilgan dasturlash tilima'naneskirganligi, ma'lumotlar almashish qo'shimcha vaqt va ishchi kuchi talab qilinayotganligi sababli, dasturiy majmuani qayta ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1257-sonli Qarorida belgilangan vazifalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida, yangi zamonaviy ORACLE platformasi ma'lumotlar bazasiga tayangan holda WEB texnologiyalari asosida ishlovchi SIAIJ-4 dasturiy majmuasi ishlab chiqildi.

DSQning 2012 yil 15 sentabrdagi 350-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish» Tartibda soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi to'liq keltirilgan.

SIAIJ-4 dasturiy majmuasining oldingi dasturiy majmuaga nisbatan farqi va qulayliklari:

- eski dasturdagi barcha operatsiyalar yangi dasturiy mahsulda saqlanib qolindi va yanada takomillashtirildi;
- ma'lumotlar bazasi strukturasi modernizatsiyalashtirildi;
- ma'lumotlar bazasi xavfsizligi ta'minlanib, tashqi ta'sirlardan to'liq himoyalandi;
- dizayn va ishlash texnologiyasi zamonaviylashtirildi;

- DSI ma'lumotlar bazasiga vama'lumotnomasiga, shuningdek dasturiy majmuasiga kiritiladigan o'zgartirishlar Davlat soliq qo'mitasidan turibmarkazlashgan holdaavtomatik tarzda yangilanib borilishi ta'minlandi;
- noaniq ma'lumotlar kiritilishini oldini olish maqsadida
- qonunchilikkamuvofiq cheklashlar o'rnatildi;
- soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar turi va tezligi yanada oshirildi.

Yangi dasturiy majmuaning hozirgi kundagi imkoniyatlari:

- DSIlar ma'lumotlar bazasini DSQdan vertikal nazorat hamda tahlil qilishva tekshirib borish;
- DSIlar ma'lumotlar bazasini DSQga jamlash uchun zamin yaratildi;
- DSQdan turib har bir DSIning ma'lumotlar bazasiga bog'langan holda hududlar, vazirliklar, soliq to'lovchilar, ularning faoliyat turlari, soliq turlari va boshqa parametrlari kesimida hisoblangan, to'langan, joriy va muddati uzaytirilgan soliq qarzdorligi, ortiqcha to'lovlari, hisobdanchiqarilgan summalari, tekshiruvlar bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq va moliyaviy jarimalar, shuningdek hisoblangan penyalar to'g'risidagima'lumotlarni tezkorshakllantirish;
- soliq to'lovchilar tomonidanelektron ko'rinishda topshirilgan
- hisobotlarniavtomatiktarzda shaxsiy kartochkalarida aksetirish;
- DSIlarga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklaridan kunlik tushumlarni qabul qilib, avtomat tarzda soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalariga o'tkazish;
- soliqmajburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan soliq to'lovchilarning hisobraqamlariga elektron ko'rinishda inkasso talabnomalari yuborilishi yo'lga qo'yildi.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchi yuridik shaxslar hisobi va ularning soliq majburiyatlarini yuritilishi 1995 yildan buyon avtomatlashtirilgan bo'lib, "Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi" dasturiy mahsuloti hozirgi kunga qadar takomillashtirib kelinmoqda. Jumladan:

- SIAIJ - 1 – 1995 yildan
- SIAIJ - 2 – 2000 yildan
- SIAIJ - 3 – 2004 yildan

SIAIJ - 4 – 2010-2011 yillardan

SIAIJ - 5 – Davlat soliq qo‘mitasining 2017 yil 30 dekabrda 812-sonli buyrugi bilan tajribaviy sinov tariqasida amaliyotga joriy etilgan.

Soliq to‘lovchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ular uchun har tomonlama qulay, zamon talablariga mos va zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan, shuningdek, amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullardagi mavjud kamchiliklarning yechimini ko‘zda tutadigan avtomatlashtirilgan “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi-5” (SIAIJ-5) dasturiy mahsulotini yaratish bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasining 2017 yil 23 martdagi 161-sonli buyrug‘i bilan qo‘mitaning ishchi guruh tasdiqlanib, guruh tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi.

Chora-tadbirlar rejasiga ko‘ra, hududiy davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish, soliq to‘lovlarini hisoblash, to‘lovlarni shaxsiy kartochkalarga o‘tkazish, soliq qarzlari uchun inkasso topshiriqnomalarini shakllantirish, soliq qarzlari va ortiqcha to‘lov summalarni yildan-yilga o‘tkazish, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari va tugatilgan korxonalariga penya hisoblash, tekshirish natijalariga ko‘ra qo‘shimcha hisoblangan soliq to‘lovlarini shaxsiy kartochkalarga o‘tkazishda yuzaga kelayotgan kamchiliklarni yechimini ko‘zda tutadigan texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, 2017 yil 1 iyulga qadar Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markaziga taqdim etildi.

Shaxsiy kompyuterda shaxsiy hisob varaqni yuritish veb texnologiya asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ma‘lumotlar bazasi bilan ishlovchi Oracle muhitida ishlatiladi. Shaxsiy kompyuter Windows XP operatsion muhitida ishlaydi.

ORACLE ma‘lumotlar bazasini ishlatilishi yuqori darajali ma‘lumotlarga kirish imkonini berib, himoyasini ham yuqori saviyada ta‘minlaydi.

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuridik shaxslar faoliyatida doir amaliyotga joriy qilingan dasturiy mahsulotlar quyidagilar:

- “Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-5)”
- “Soliq to‘lovchilar egaligidagi yer fondi (STEYEF)”
- “Kichik biznes subyektlarini monitoring qilish”

**16-jadval**

**Yuridik shaxlar faoliyatiga doir dasturiy mahsulotlar<sup>21</sup>**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Maqsad va vazifalari</b>	<b>Amaliyotga joriy etilgan buyruqlari</b>	<b>Mas'ul tuzilma nomi</b>	<b>Dasturlash tili</b>
<b>1</b>	“Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-5)”	Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar va ularning soliq majburiyatlari hisobini hamda shaxsiy kartochkalarini yuritish.	Buyruq № 161 23.03.2017 yil	Axborot-tahlil bosh boshqarmasi	PHP
<b>2</b>	“Soliq to‘lovchilar egaligidagi yer fondi (STEYEF)”	Soliq organlari bilan “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi o‘rtasida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar birxilligini ta’minlash hamda ular tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i hisobini hisobga olish.	Buyruq № 257 30.06.2013 yil	Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi	Java
<b>3</b>	“Kichik biznes subyektlarini monitoring qilish”	Vazirlar Maxkamasining 439-sonli qarorida belgilangan “Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasi” bo‘yicha alohida hisoblab chiqilgan va	Buyruq № 276 18.08.2015 yil	Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi	PHP

<sup>21</sup> “Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari” to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

	amalda tushgan soliqlar hisobini dasturiy mahsulot yordamida avtomatlashtirilgan yagona tizimda yuritilishini ta'minlash.			
--	---	--	--	--

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yuridik shaxslar faoliyatida doir amaliyotga joriy qilingan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari quyidagilar:

- “Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalari tushumlari hisobini yuritish”
- “Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish”
- “Soliq qarzini yuritish hisoboti”
- “Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish”
- “Bank-DSQ”

17-jadval

**Yuridik shaxslar faoliyatiga doir avtomatlashtirilgan axborot tizimlari<sup>22</sup>**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Maqsad va vazifalari</b>	<b>Amaliyotga joriy etilgan buyruqlari</b>	<b>Mas'ul tuzilma nomi</b>	<b>Dasturlash tili</b>
1	“Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalari tushumlari hisobini yuritish”	Budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga manbalar kesimida tushumlar hisobini yuritish.	Buyruq № 28 24.01.2014 yil	Axborot-tahlil bosh boshqarmasi	PHP
2	“Yuridik shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish”	Yuridik shaxslarning soliq qarzdorligi bo'yicha belgilangan tartibda majburiy undiruvga qaratish.	Buyruq № 2 03.01.2006 yil	Soliq bo'yicha qarzlarni majburiy undirish bosh boshqarmasi	PHP

<sup>22</sup> “Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari” to'g'risidagi yo'riq-noma ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



3	“Soliq qarzini yuritish hisoboti”	Yuridik shaxslarning soliq qarzdorligi undirilishini nazorat qilib borish bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish.	03.10.2012 yil	Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bosh boshqarmasi	PHP
4	“Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish”	Soliqdan ozod etilgan mablag‘lar miqdori to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni, soliq tushumlarini bashorat qilishda, qo‘llanilgan soliq imtiyozlari natijasida budjetga tushmaydigan summani aniqlash bilan soliq imtiyozini qo‘llash muddati tugagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq hisobotlarini to‘liq taqdim etilishi yuzasidan to‘liq nazorat o‘rnatish.	Buyruq № 12 14.01.2009 yil	Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi	PHP
5	“Bank-DSQ”	Budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalardan kunlik tushumlarni onlayn rejimdan monitoring qilish	03.03.2009 yil	Axborot-tahlil bosh boshqarmasi	Java

“Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-5)” dasturiy mahsulotining funksional imkoniyatlariga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslarni ro‘yxatga olish;

- tashkilotlarni yagona reestrini yuritish;
- shaxsiy hisob varaqalarini yuritish;
- bank hujjatlarini qayta ishlash;
- turli ko‘rinishdagi statistik ma’lumotlarni olish;
- tekshirish dalolatnomalarini hisobga olish;
- byudjet bilan soliq to‘lovchilarni hisob kitob munosabatlarini tahlil qilish;

- soliq to‘lovchilar bilan taqqoslash ishlarini amalga oshirish;
- ro‘yxatga olish ma’lumotlari bo‘yicha turli ko‘rinishdagi statistik axborotlarni olish;

➤ inkassa va xulosalar(zaklyucheniya) bilan ishlash.

SIAIJ-5 dasturiy mahsuloti amaliyotga joriy etilganidan so‘ng, soliq inspeksiyalarida yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish sifati yanada oshdi.

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan jismoniy shaxslar faoliyatida doir amaliyotga joriy qilingan dasturiy mahsulotlar quyidagilar:

- “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish”
- “Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash”

### 18-jadval

#### Jismoniy shaxslar faoliyatida doir amaliyotga joriy qilingan dasturiy mahsulotlar<sup>26</sup>

№	Nomi	Maqsad va vazifalari	Amaliyotga joriy etilgan buyruqlari	Mas’ul tuzilma nomi	Dasturlash tili
1	“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish”	Soliq to‘lovchini jismoniy shaxsni ro‘yxatga olish, uning soliq majburiyatlarini aniqlash, avtomatlashtirilgan holda soliq va to‘lovlar bo‘yicha shaxsiy kartochkalarini	Buyruq № 270 24.09.2012 yil	Jismoniy shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi	PHP

<sup>26</sup> “Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari” to‘g‘risidagi yo‘riqnoma ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

		yuritish.			
2	“Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash”	Asosiy ish joyi bo‘lmagan manbadan daromad oladigan fuqarolarni soliqqa tortishni avtomatlashtirish jarayonini to‘liq qamrab olish, ulardan jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni qabul qilish tartibini joriy etishdan iborat.	Buyruq № 12 10.01.2014 yil	Jismoniy shaxslarga soliq solish bosh boshqarmasi	PHP

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi jismoniy shaxslar faoliyatida doir avtomatlashtirilgan axborot tizimi bolib, uning maqsadi davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulknini hisobga olish, baholash, ekspertizadan o‘tkazish va sotishdan tushgan pul mablag‘larini budjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini nazorat qilishni, davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulklarni sotilishidan tushgan pul mablag‘larini davlat budjetiga undirilganligi to‘g‘risida viloyat va respublika miqyosida tezkor ma‘lumotga ega bo‘lishni va davlat organlariga tekinga berilgan mol-mulklar haqidagi ma‘lumotlarning avtomatik hisobini yuritishdan iborat. Ushbu avtomatlashtirilgan axborot tizimi Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 14 iyuldagi 65-sonli buyrug‘iga asosan amaliyotga joriy qilingan.

Davlat soliq qo‘mitasining 2011 yil 24 sentabrdagi “Web texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan “Jismoniy shaxslarning soliq solish obyektlarini hisobga olish” hamda “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy majmualarini davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 270-sonli buyrug‘iga asosan dasturiy mahsulot joriy etilgan.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” va “Jismoniy shaxslarning soliq solish obyektlarini hisobga olish” dasturiy mahsulotlarining mazmun-mohiyati bir ekanligi, farqi esa faqat Toshkent shahrida obyektlarga tayanganligi, qolgan barcha Davlat soliq inspeksiyalarida fuqarolar soliq to‘lovchining identifikatsion raqamlariga

bog‘langanligini inobatga olib, ularni bir nom bilan, ya’ni “Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlari” dasturiy mahsuloti deb yuritish maqsadga muvofiq deb topildi.

“Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish” dasturiy mahsulotini yaratishdan maqsad:

- mol-mulk, yer va yakka tartibdagi soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar to‘g‘risida (yashash manzili, soliq to‘lov obyekti, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va hokazo) to‘liq ma’lumotlar bazasini yaratish;

- mol-mulk va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarni to‘liq hisobga olishni, soliqlarni hisoblanishi va budjetga o‘z vaqtida to‘liq undirilishini nazorat qilish;

- yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat’iy belgilangan solig‘idan, pesiya badallaridan hisoblangan va to‘langan to‘lovlar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish va nazoratini olib borish;

- uchastka soliq inspektorlarining ish samaradorligini oshirish, ro‘yxatga olish bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘z hududidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha dasturiy mahsulotda soliq to‘lovchilarning ro‘yxatini olib, nazorat ishlarini amalga oshirish;

- Davlat soliq xizmati organlarida shakllantirilgan ma’lumotlar bazasini mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘limlari, yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlari, harbiy komissariyatlar, hokimiyatlar huzuridagi ro‘yxatga olish organlari, fuqarolik holatlariga dalolatnoma yozish bo‘limlari, notarial idoralariidagi mavjud ma’lumotlar bilan doimiy bir xil bo‘lishiga erishishdan iborat.

Dasturiy mahsulot foydalanuvchilar uchun qator afzalliklarni yaratdi:

- tuman (shahar) Davlat soliq inspeksiyalarida mol-mulk, yer va suv solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarning hisobga olinishini va to‘lovlarini to‘liq nazoratga olishni ta’minlash;

- yakka tadbirkorlarga hisoblangan soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida undirilishi hamda vaqtinchalik faoliyatini to‘xtatganlik holatlarini qayd etilishi yuzasidan nazoratni kuchaytirish;

- soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning kitoblarda yuritilayotgan shaxsiy hisob varaqalarini ishlatmasdan dasturiy mahsulda yuritish evaziga soliq inspektorlarini qo‘shimcha soliq obyektlarini aniqlashga jalb qilish;

- muddatida to‘lanmagan soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq to‘lovchilarning ro‘yxatini olish hamda undirish choralarini ko‘rish;

- soliq to‘lovchilarga belgilangan imtiyozlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llanilishini ta’minlash.

Dasturiy mahsulot ma'lumotlar bazasidan jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan barcha axborotlarni olish mumkin. Ya'ni:

- davlat soliq inspeksiyalarida hisobga olingan soliq to'lovchilar, ularga tegishli bo'lgan soliq obyektlari, hisoblangan soliqlar, to'langan to'lovlar, boqimanda va ortiqcha to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- viloyat hududidagi soliq inspeksiyalari miqyosida hisobga olingan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni, hisoblangan soliq summalari, undirilgan soliq summalari, qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar;

- soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga berilgan soliq imtiyozlari, berilgan imtiyoz turlari, imtiyoz berilgan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- soliq to'lovchi jismoniy shaxsning varaqasi (alohida har bir jismoniy shaxsning pasport ma'lumotlari, yashash manzili, egalik huquqi berilgan mol-mulk obyektining inventar bahosi, yer maydoni, tadbirkorlik faoliyatiga tegishliligi hamda soliq majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar) kabi ma'lumotlarni olish mumkin.

Inspektorlarning ma'lumotlar bazasi bilan ishlash vakolatlari to'liq takomillashtirilib, vazifalar qayta taqsimlandi. Natijada uchastka soliq inspektorlari uchun ham dasturiy mahsulotdan foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

Dasturiy mahsulot ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir o'zgartirishlar kim tomondan amalga oshirilganligini elektron tarixini avtomatik ravishda saqlab qoluvchi tizim yaratildi.

Ma'lumotlar bazasi to'liq shifrlandi va soliq qarzi yoki ortiqcha to'lovlarni hisobotlarda yashirib ko'rsatish holatlarining oldi olindi.

Dasturiy mahsulotning ishlash tezligi oshirildi, soliq hisoblash va saldolarni yildan-yilga o'tkazish uchun ilgari qariyb 12 soat vaqt sarflangan bo'lsa, hozirda ushbu operasiyalar o'rtacha 2-3 soat vaqt mobaynida amalga oshirilmoqda.

Ma'lumotlar bazasining daxlsizligini ta'minlash va unga asossiz aralashuvni cheklash maqsadida, har 15 kunda "parollar" avtomatik ravishda o'zgarib turuvchi tizim yaratildi.

Soliq imtiyozlari bekor qilinganda imtiyoz muddati tugagan kundan boshlab dasturda avtomatik ravishda soliq hisoblanishi yo'lga qo'yildi.

"Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash" dasturiy mahsuloti O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentabrdagi "Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini

deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 3127-sonli Farmoni hamda Adliya vazirligida 2008 yil 21 yanvarda 1760-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining "Soliq deklaratsiyasining shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan hamda Davlat soliq qo'mitasining 2012 yil 11 fevraldagi 64-sonli buyrug'ga asosan tasdiqlangan.

Davlat soliq qo'mitasining 2014 yil 10 yanvardagi "Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash dasturiy mahsulotini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 12-sonli buyrug'iga asosan, Davlat soliq qo'mitasining Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash" dasturiy mahsulotining zamonaviy veb texnologiyasi asosida takomillastirilgan varianti tajribaviy sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazilganligi munosabati bilan davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan. "Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash" dasturiy mahsuloti davlat soliq inspeksiyalarida jismoniy shaxslarning asosiy va asosiy bo'lmagan ish joylaridan olgan daromadlari haqidagi ma'lumotlarni kompyuter bazasiga kiritish, qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan natijalarni shaxsiy hisob varaqlarga o'tkazish, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya blankalarini, shuningdek barcha zaruriy hujjatlarni chop etish uchun mo'ljallangan.

Dasturiy mahsulot texnik soz holatda bo'lishini ta'minlash "Axborot tizimi" sho'basi xodimlari hamda soliq deklaratsiyalarini qabul qilish va mazkur ma'lumotlarni dasturga kiritish va ularning tahlilini olib borish va dasturiy mahsulotga kiritilgan ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasining yagona ma'lumotlar bazasiga yuklash jismoniy shaxslarga soliq solish bo'limi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Dasturiy mahsulotdagi soliq deklaratsiyalarining himoyasini ta'minlash maqsadida kriptografiya himoya vositalari qo'llaniladi.

Soliq deklaratsiyasini dasturiy mahsulotga kiritilgan bekor qilib bo'lmaydigan vaqt soliq deklaratsiyasini taqdim etish sanasi va vaqti hisoblanadi.

Soliq deklaratsiyasining dasturiy mahsulotga kiritilgan vaqti, Davlat soliq qo'mitasining dasturiy-apparat vositalari mazkur ma'lumot dasturiy mahsulotga kiritilgan sana va vaqtni ko'rsatgan holda avtomatik tarzda tasdiqlanishini ta'minlaydi.


Soliq deklaratsiyalarini dasturiy mahsulotga kirituvchi mas'ul xodimlar soliq to'lovchilardan qabul qilingan ma'lumotda quyidagilarning mavjudligini tekshiradilar:

- ma'lumotlar to'liqligini;
- ma'lumotning barcha majburiy rekvizitlari (soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari, yuridik manzili, sanalar va shu kabilarni) to'ldirilganligini;
- ma'lumotdagi shakllarda nazarda tutilgan barcha ko'rsatkichlarni to'ldirishini, agarda mavjud bo'lmagan holda bu modda ("X" belgi bilan) qo'yilganligini.

Ushbu avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilishning asosiy maqsadlari:

- davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni hisobga olish, baholash, ekspertizadan o'tkazish va sotishdan tushgan mablag'larini budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini nazorat qilish;
- sotuvdan tushgan mablag'larning davlat budjetiga undirilishi to'g'risidagi tezkor ma'lumotga ega bo'lishdan iborat bo'lib, dastur bo'yicha maqsadga erishish mexanizmi 2-rasmda keltirilgan.

**9-rasm. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining ishlash tuzilmasi<sup>29</sup>**



<sup>29</sup> Davlat soliq qo'mitasining 2012-yil 14-iyuldagi 65-sonli buyrug'iga asosan amaliyotga joriy etilgan "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi yo'riqnomasiga asosan muallif tomonidan tayyorlandi

Ma'lumotga doir e'tirozlar bo'lmagan taqdirda mas'ul shaxs hisobot kuniga hisoblangan soliq to'lovlari summasini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasiga o'tkazadi.

“Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi Davlat soliq qo'mitasining 2012 yil 14 iyuldagi 65-sonli buyrug'iga asosan amaliyotga joriy etilgan.

Web texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan “Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 15 iyuldagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulknini olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida”gi Nizom, Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining 2011 yilgi strategik yo'nalishlari dasturining 4.3-bandining ijrosi hamda 2011 yil “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soliq organlarini yanada modernizatsiya qilish yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan dasturiy mahsulotdan foydalanish jarayonida davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulklarning harakatini to'liq nazoratini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida hujjat aylanishi uchun ichki kompyuter tarmog'i joriy etilgan bo'lib, ushbu tarmoq hujjatlarni kirituvchilar, tizimdan foydalanuvchilar va server bilan o'zaro ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi. Serverni maxsus xodimlar ya'ni “administrator”lar nazorat qiladi.

Yuqoridagi jismoniy shaxslar faoliyatida doir dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan texnik topshiriqlar asosida yo'nalishlar bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, amaliyotga joriy qilindi. Shunga ko'ra:

- Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'i bo'yicha soliq qarzlarni ortiqcha to'lovlar hisobidan bir biriga avtomatik singdirish (Заклучения moduli orqali kandidatlarini va переброска moduli orqali xulosalarni avtomatik shakllantirish) imkoniyati yaratilib, ushbu tizim orqali dekabr oyining 15 kuni 210,1 mingta holatda 3,6 mlrd.so'mlik xulosalar avtomatik tarzda tayyorlanib, moliya organlariga yuborildi. Natijada soliq inspektorining ushbu xulosalarni tayyorlash uchun oylab ketadigan vaqti tejalib, ish samaradorligi oshirildi;
- Soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalardagi qoldiq summalarini (yil oxiridagi soliq qarzlari va ortiqcha to'lov



summalar) yildan-yilga avtomatik o'tkazish tizimi joriy etildi va ushbu tizim orqali qoldiq summalar yildan-yilga avtomatik o'tkazildi;

- Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va Davlat soliq qo'mitasi o'rtasida imzolangan texnologik yo'riqnomaga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 12,14,15-moddalari bo'yicha fuqarolarga to'lab berilgan to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida shaxsiy kartochkalarda to'lovlarni avtomatik hisoblash tizimi yaratilib, ushbu tizim orqali 2017 yilning aprel-noyabr oylarida 4103 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarning shaxsiy kartochkalarida 83,4 mlrd.so'mlik to'lovlar hisoblandi. Bir yilda o'rtacha 5 mingdan ziyod xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilishi lozim bo'lgan 20 mingga yaqin hisobotlar qisqartirildi.

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq nazoratiga oid amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar quyidagilar:

- "Qayta ishlash va tahlil"
- "Tahlilka tahlil" (Риск анализ)

### 19-jadval

#### Soliq nazoratiga oid amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar<sup>30</sup>

№	Nomi	Maqsad va vazifalari	Amaliyotga joriy etilgan buyruqlari	Mas'ul tuzilma nomi	Dasturlash tili
1	"Qayta ishlash va tahlil"	Soliq kodeksining 84-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 oktabrdagi PQ 1843-sonli qaroriga muvofiq, tegishli organ va idoralar	Buyruq № 241 15.06.2014 yil	Axborot-tahlil bosh boshqarmasi	Java

<sup>30</sup> "Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari" to'g'risidagi yo'riqnomaga ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

		<p>tomonidan web tizimi orqali elektron tartibda taqdim etilgan soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risidagi axborotlarni DSQ bazasidagi ma'lumotlar bilan solishtirish orqali qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.</p>			
2	<p>“Tahlika tahlil” (Риск анализ)</p>	<p>Soliq to'lovchi yuridik shaxslar faoliyatida Riskli mezonlarni aniqlash. Rejali soliq tekshiruvlari o'tkazish uchun soliq qonunchiligini buzayotgan korxonalarni aniqlash.</p>	<p>Buyruq № 534 25.12.2013 yil</p>	<p>Yuridik shaxslarga soliq solish bosh boshqar masi</p>	<p>Java</p>

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq nazoratiga oid amaliyotga joriy etilgan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari quyidagilar:

- “Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish”
- “Ma'muriy amaliyotni hisobga olish”
- “Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining murojatlari va ularning natijalari hisobini yuritish”
- “Nazorat kassa mashinalarini ro'yxati va nazoratini olish”
- “Naqd pul tushumlari hisobini yuritish”

**Soliq nazoratiga oid amaliyotga joriy etilgan avtomatlashtirilgan  
axborot tizimlari<sup>31</sup>**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Maqsad va vazifalari</b>	<b>Amaliyotga joriy etilgan buyruqlari</b>	<b>Mas'ul tuzilma nomi</b>	<b>Dasturlash tili</b>
<b>1</b>	“Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish”	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmon, farmoyishlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga rioya etilishi yuzasidan o‘tkazilgan tekshirishlar natijasida qo‘shimcha hisoblangan soliq va majburiy to‘lovlarni vazirliklar, hududlar va tarmoqlar kesimida tahlil qilib, Respublika miqiyosida ma’lumotlarga ega bo‘lish.	Buyruq № 63 11.02.20 12 yil	Nazorat-taftish bosh boshqarmasi	PHP
<b>2</b>	“Ma’muriy amaliyotni hisobga olish”	Soliq sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar, ko‘rilgan ma’muriy, jinoiy va boshqa	Buyruq № 288 15.10.20 11 yil	Ma’muriy amaliyot bo‘limi	PHP

<sup>31</sup> “Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari” to‘g‘risidagi yo‘riqnoma ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

		huquqiy choralar, qo'zg'atilgan jinoiy ishlarning tergov va sud natijalarini xududlar va tarmoqlar kesimida tahlil qilib, mansabdor shaxslar yoki fuqarolarning muqaddam ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilganligi haqidagi ma'lumotlarni olish.			
3	“Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmat organlarining murojatlari va ularning natijalari hisobini yuritish”	Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudlariga murojaat qilish, ularni sudlarda ko'rib chiqish jarayonlarida soliq organlari ishtirokida protsessual normalar buzilishini oldini olish hamda hisobot tizimini yaratish.	Ko'rsatma 62-K 06.07.20 15 yil	Ma'muriy amaliyot bo'limi	PHP
4	“Nazorat kassa mashinalarini ro'yxatini va nazoratini olish”	Nazorat mashina kassalarini ro'yxatga olish va hisobini yuritish	Buyruq № 213 01.08.20 11 yil	Chakana savdo va xizmat sohasida naqd xorijiy valyuta muomalasig	PHP
5	“Naqd pul tushumlari	Naqd pul tushumlarini nazorat	Buyruq №213	a yo'l qo'ymaslik	PHP

hisobini yuritish”	qilish dasturi orqali, choraklik naqd pul tushumini xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan chorak davomida to‘lagan soliqlar bilan solishtirish orqali nazorat qilish mexanizmini yaratish.	01.08.2011 yil	ustidan nazorat qilish, qisqa muddatli tekshirishlar ni tashkil etish bo‘yicha maxsus boshqarmas i
--------------------	---	----------------	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 oktabrdagi PQ-1843 sonli qaroriga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasiga boshqa vazirliklar va idoralar o‘rtasida aloqa kanallari yordamida o‘zaro elektron axborot almashinuvini tashkil etish orqali soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish, soliq tushumlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olish vazifalari yuklatilgan.

2016 yilning 1 fevral holatiga mazkur qarorga muvofiq 53 ta vazirlik va idoralar bilan 128 ta yo‘nalishda o‘zaro axborot almashinuvi yuzasidan bitimlar imzolanib, 112 ta yo‘nalishdagi axborotlar Davlat soliq qo‘mitasining Yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida jamlangan. Shundan qarorda ko‘zda tutilmagan 14 ta vazirlik va idoralar bilan 32 ta yo‘nalishdagi bitimlar imzolangan.

Vazirlik va idoralar tomonidan 2015 yilda yuridik va jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi 646,5 mingta, 2013 yil 1 yanvardan 2016 yil 1 yanvarga qadar 346,2 mingta yuridik va 687,5 mingta jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlari paydo bo‘lishi (tugatilishi) to‘g‘risidagi 1 649,7 mingdan ziyod axborotlar Davlat soliq qo‘mitasining axborot resurs bazasida jamlangan.

Bundan tashqari, Moliya vazirligi G‘aznachiligi ma‘lumotlari, Ichki ishlar vazirligining “Jismoniy shaxslarga pasport berilishi, pasportni yo‘qotish va bekor qilinishi holatlari to‘g‘risida”gi ma‘lumotlari, Bojxona qo‘mitasining “Eksport-import operatsiyalari, shuningdek tovarlar harakati to‘g‘risida”gi ma‘lumotlari, Avtomobil va daryo transporti agentligining “Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyati bilan

shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyalarni berilganligi toʻgʻrisida”gi maʼlumotlari, “Oʻztransgaz” aksiyadorlik kompaniyasining “Aholiga yetkazib berilgan tabiiy gaz isteʼmoli toʻgʻrisida”gi maʼlumotlari, “Oʻzbekenergo” aksiyadorlik kompaniyasining “Xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi boʻyicha qarzdorliklari toʻgʻrisida”gi maʼlumotlari Davlat soliq qoʻmitasining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida alohida dasturiy mahsulotlarda shakllanmoqda.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi PQ 726-sonli qaroriga asosan Markaziy bank bilan naqd pul tushumiga doir kunlik axborot almashinuvi joriy qilingan.

Vakolatli idoralar tomonidan shakllantirilayotgan maʼlumotlardan foydalanish natijadorligini oshirish, maʼlumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, yoʻl qoʻyilayotgan xato va kamchiliklarni aniqlash maqsadida, Davlat soliq qoʻmitasining 2013 yil 30 noyabrdagi 500-sonli buyrugʻi bilan “Toʻlovlar monitoringi” dasturiy mahsuloti amaliyotga joriy qilinib, 48 ta yoʻnalishda tahliliy hisobotlar shakllantirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, Davlat soliq qoʻmitasining 2014 yil 15 iyundagi 241-sonli buyrugʻi bilan “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuloti amaliyotga joriy qilinib, 16 ta yoʻnalishdagi 25 ta tahliliy hisobotlar shakllantirilgan hamda 2015 yil dekabr oyida dasturiy mahsulotning tarkibida “Qarzdorlar” moduli yaratilib, 2016 yil yanvar oyidan amaliyotga joriy qilingan.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasining 2014 yil 15 iyundagi “Qayta ishlash va tahlil dasturiy mahsulotini amaliyotga joriy qilish toʻgʻrisida”gi 241-sonli buyrugʻiga asosan Davlat soliq qoʻmitasining yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuloti 2014 yilning 15 iyunidan davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy qilingan.

“Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsulotida shakllantirilayotgan maʼlumotlardan samarali foydalanish va ushbu maʼlumotlar asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini oʻtkazish hamda uning natijadorligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasining 2014 yil 17 iyuldagi “Qayta ishlash va tahlil dasturiy mahsuloti maʼlumotlari asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini oʻtkazish Reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 284-sonli buyrugʻiga asosan “Qayta ishlash va tahlil” dasturiy mahsuloti maʼlumotlari

asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat tadbirlarini o'tkazish reglamenti tasdiqlangan.

Reglament "Qayta ishlash va tahlil" dasturiy mahsuloti tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bilan munosabatlarini nazorat qilish mexanizmini belgilab beradi.

Dasturiy mahsulot O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 84-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 726-sonli, 2012 yil 30 oktabrdagi PQ-1843-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 225-sonli qarorlari asosida vazirlik va idoralar tomonidan Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etib kelinayotgan ma'lumotlarni qayta ishlagan holda soliq to'lovchilarning budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar bilan munosabatlarini tahlil qiladi.

Dasturiy mahsulotda "Kredit", "Yer qa'ri", "AV 2342-sonli Yo'riqnoma", "AV 2065-sonli Nizom", "Naqd pul tushumlari", "O'zbeknavo" va "Alkogol yig'imi" modullari vositasida ma'lumotlar avtomatik ravishda qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

Dasturiy mahsulotning ma'lumotlar bazasi vazirlik va idoralardan taqdim etib kelinayotgan elektron ma'lumotlar hamda davlat soliq xizmati organlarida amaliyotda foydalanib kelinayotgan dasturiy mahsulotlar ma'lumotlar bazasi bilan bog'langan holda avtomatik tarzda shakllanadi.

Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq nazoratida tavakkalchiliklarni baholash tizimini yaratish va joriy etish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2013 yil 25 dekabrdagi "Tahlil tahlil dasturiy mahsulotini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 534-sonli buyrug'iga asosan, Davlat soliq qo'mitasining yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Tahlil tahlil" dasturiy mahsulotini davlat soliq xizmati organlarida 2013 yilning 26 dekabridan boshlab joriy etish belgilandi. Mazkur buyruq asosida dasturiy mahsulotni respublikaning barcha hududiy davlat soliq xizmati organlarining "Kameral nazorat" va "Soliq tekshiruvlari" bo'limlari kompyuterlariga bog'lash ishlari amalga oshirildi.

“Tahlil tahlil” dasturiy mahsuloti tekshiruvlarni o‘tkazish uchun soliq qonunchiligi buzilishlarining xavfi mavjudligini aniqlashga imkon beruvchi mezonlar asosida soliq to‘lovchilarni tanlash maqsadida yaratilgan. Dasturiy mahsulot orqali soliq to‘lovchilar ma’lumotlari avtomatik tarzda tahlil etiladi va eng tavakkallilari identifikatsiya qilinadi. Bu o‘z navbatida soliq organlarining cheklangan resurslarini maqbullashtirish, qonunga itoatkor soliq to‘lovchilar uchun ma’muriy bosimni pasaytirish imkoniyatini beradi.

“Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2005 yil 5 avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan kompyuter dasturiy mahsullarini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 148-sonli buyrug‘iga asosan ishlab chiqilgan.

Dasturning so‘nggi yangilangan varianti Davlat soliq qo‘mitasining 2012 yil 11 fevraldagi “Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish dasturiy mahsulining yangi variantini davlat soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 63-sonli buyrug‘i bilan amaliyotga joriy etilgan.

“Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilish maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilgan barcha turdagi tekshirishlar bo‘yicha yagona va qat’iy ma’lumotlar bazasini yaratish;

2. Tekshirish natijalari bo‘yicha hisobotlarning avtomatlashtirilgan mexanizmi va tezkorlik omilini vujudga keltirish;

3. Quyi soliq organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv natijalari va qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda qo‘llanilgan moliyaviy jarimalarning budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalarga undirilishi yuzasidan muntazam ravishda nazorat olib borish;

4. O‘tkazilgan tekshiruv natijalariga tegishli davlat organlari tomonidan kiritilgan o‘zgartirishlar, o‘zgartirilish asoslari va ularning bajarilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish;

5. Vazirliklar, xo‘jalikning tarmoq turlari, hududlar, shuningdek, ma’lum bir muddat oralig‘idagi tekshiruv natijalari kesimida tahlil ishlarini olib borish;

6. Soliq sohasidagi qonunbuzilish holatlari dinamikasini aniqlash va shu orqali O‘zbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida taklif va mulohazalar berib borish;

7. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda o‘tkazilgan tekshiruv natijalarini tahlil va taxmin qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga omil yaratish.



Yuqoridagilardan tashqari, avtomatlashtirilgan axborot tizimi soliq xizmati organlari ish faoliyatini yengillashtirishga, ishchi kuchini kam sarflagan holda yuqori samaradorlikka erishishga va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar asosida tezkor qaror qabul qilishga imkoniyat yaratadi.

Davlat soliq xizmati organlarida "Ma'muriy amaliyotni hisobga olish" avtomatlashtirilgan axborot tizimining ma'lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini yanada oshirish maqsadida bosqichma-bosqich takomillashtirilib kelinmoqda.

Xususan, avtomatlashtirilgan axborot tizimi ning veb texnologiyasi asosida qayta ishlab chiqilgan shakli Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 15 oktabrdagi 288-sonli buyrug'iga asosan amaliyotga joriy qilindi.

Bu bilan avtomatlashtirilgan axborot tizimi ning ma'lumotlar bazasini Davlat soliq inspeksiyasi→Davlat soliq boshqarmasi→Davlat soliq qo'mitasi pog'onalarida jamlanmasdan to'g'ridan-to'g'ri Davlat soliq qo'mitasi yagona bazasiga jamlanilishiga erishildi.

"Ma'muriy amaliyotni hisobga olish" avtomatlashtirilgan axborot tizimi davlat soliq xizmati organlari tomonidan mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jazo choralar, sud va huquqni muhofaza qilish organlariga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan tekshirish hujjatlarining yagona reyestrini yuritadi va hisobotlarini tayyorlaydi, shuningdek soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning takroriyligini aniqlaydi.

"Ma'muriy amaliyotni hisobga olish" avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy qilishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Davlat soliq organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan huquqbuzarliklar (ma'muriy, jinoiy) bo'yicha yagona va qat'iy ma'lumotlar jamlanishi;

- soliq organlari tomonidan huquqbuzarlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarning belgilangan muddatlarda va to'liq undirilishi yuzasidan muntazam ravishda olib borilayotgan nazorat ishlari;

- sud va nazorat qiluvchi organlarga yuborilgan ma'muriy ishlarning yakunlari, qo'llanilgan jarimalar hamda muddatida to'lanmagan ma'muriy jarimalarni sud ijrochilari tomonidan majburiy tartibda undirilishi yuzasidan kuzatuv natijalari;

- soliq sohasida sodir etilgan jinoiy harakatlar, ular yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti hamda boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan

qo'zg'atilgan jinoiy ishlar, ular yuzasidan olib borilgan surishtiruv va tergov harakatlari, sud qarorlari yuzasidan solishtiruv dalolatnomalari ma'lumotlari;

- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning belgilangan moddalari asosida ma'muriy jazoga tortilgan mansabdor shaxslar va fuqarolarning takroriy huquqbuzarliklari bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar;

- soliq sohasidagi qonunbuzilish holatlari dinamikasini aniqlash va shu orqali O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida taklif va mulohazalar berib borish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining murojaatlari va ularning natijalari hisobini yuritish bo'yicha yaratilgan avtomatlashtirilgan axborot tizimi Davlat soliq qo'mitasining 2015 yil 6 iyuldagi 62-K ko'rsatmasiga asosan 2015 yil 10 iyuldan amaliyotga joriy qilingan.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida, o'tgan davrda (shu jumladan o'tgan yildan qoldiq bo'lib o'tgan) xo'jalik sudlariga kiritilgan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi arizalar va ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq kiritilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 112-moddasida moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibi keltirilgan. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

“Nazorat kassa mashinalari ro'yxati va nazoratini olish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi Davlat soliq qo'mitasining 2010 yil 1 fevraldagi texnik topshiriq asosida ishlab chiqilib, tajribaviy sinov tariqasida amaliyotga joriy etilgan. Tajriba sinovlari yakunlari bo'yicha 2011 yilning 1 avgustidan Davlat soliq qo'mitasining ushbu sanadagi 213-sonli buyrug'iga asosan davlat soliq xizmati organlarida to'liq joriy etilgan.

“Nazorat kassa mashinalari ro'yxati va nazoratini olish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlarning foydalanishdagi nazorat kassa mashinalarini soliq idoralarida ro'yxatga olish va hisobini yuritishga mo'ljallangan. Nazorat kassa mashinalarini ro'yxatga olish Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq

boshqarmasi, Davlat soliq qo‘mitasi dasturdan kuzatuvchi sifatida foydalanish huquqiga ega.

“Nazorat kassa mashinalarini ro‘yxatga olish va hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi ma’lumotlar bazasiga quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

- nazorat kassa mashinasi ro‘yxatga olinayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektning soliq to‘lovchining identifikatsion raqami;

- subyektning to‘liq nomi;

- subyektning holati (faoliyat ko‘rsatayotgan yoki ko‘rsatmayotganligi);

- subyektning mulkchilik shakli;

- subyektning maqomi;

- subyektning davlat ro‘yxatidan o‘tgan manzili (viloyat, shahar, tuman);

- subyektning davlat ro‘yxatidan o‘tgan raqami;

- subyektning davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanasi;

- subyektning asosiy va qo‘shimcha faoliyat turi;

- subyektga qarashli savdo nuqtasining va savdo uyushmasining nomi;

- subyektga qarashli savdo nuqtasining faoliyat ko‘rsatish manzili;

- subyektning yoki subyekt rahbarining telefon raqami;

- subyekt rahbarining familiyasi, ism-sharifi;

- subyektning asosiy hisob raqami ochilgan bank MFO va nomi;

- subyektning inkassatsiya shartnomasi raqami va shartnoma tuzilgan sanasi;

- subyektning inkassatsiya qilinadigan banki MFO va nomi;

- subyektning nazorat-kassa mashinasi turi (nomi);

- subyektning nazorat-kassa mashinasi zavod raqami;

- nazorat-kassa mashinasining ro‘yxatdan o‘tkazilayotgandagi hisob

- ko‘rsatkichi;

- nazorat-kassa mashinasining davlat soliq inspeksiyasidan ro‘yxatdan

- o‘tkazilgan raqami va sanasi;

- nazorat-kassa mashinasining ro‘yxatdan o‘tkazilganligi holati;

- nazorat-kassa mashinasining davlat soliq inspeksiyasidan ro‘yxatdan yechilgan sanasi;

- nazorat-kassa mashinasining davlat soliq inspeksiyasidan ro‘yxatdan yechilishi uchun asos;

- nazorat-kassa mashinasining ro‘yxatdan yechilayotgandagi hisob ko‘rsatkichi;

- nazorat-kassa mashinasining mavjud sertifikatini raqami.

“Nazorat kassa mashinalarini ro‘yxatga olish va hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma’lumotlar nazorat kassa mashinasining davlat soliq inspeksiyalarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinayotgan paytda Davlat soliq inspeksiyasining mas’ul inspektori tomonidan kiritiladi.

“Naqd pul tushumlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratishdan asosiy maqsad - Markaziy bankdan olingan kunlik ma’lumotlarni yuklash asosida, to‘langan naqd pul tushumlari haqida kunlik ma’lumotlarni shakllantirish bo‘lib hisoblanadi.

“Naqd pul tushumlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi Davlat soliq qo‘mitasining 2011 yil 1 avgustidagi 213-sonli buyrug‘iga asosan davlat soliq xizmati organlarida joriy etilgan.

Viloyat va tuman foydalanuvchilari bu avtomatlashtirilgan axborot tizimidan faqatgina hisobotlarni shakllantirish uchungina foydalanadilar. Ma’lumotlarni tezkor holda shakllantirish uchun viloyat tumanlari prognoz ma’lumotlarini kiritish lozim bo‘ladi. Viloyat bo‘yicha hisobotlar tumanlar miqyosida shakllanadi.

Hisobotda naqd puldagi savdo tushumi va hisob kitob terminallari orqali tushgan tushum shakllanadigan ma’lumotlar aks etadi. Naqd puldagi savdo tushumi quyidagilar orqali shakllanadi:

- yakka tadbirkorlardan tushgan tushumlar;
- iste’mol tovarlari sotishdan tushgan tushumlar;
- alkogolli ichimliklarni sotishdan tushgan tushum;
- tamaki mahsulotlarini sotishdan tushgan tushum;
- o‘simlik yog‘ini sotishdan tushgan tushum;
- neft mahsulotlari va gaz yoqilgisini sotishdan tushgan tushum;
- umumiy ovqatlanish korxonalaridan tushgan tushum;
- avtotransport vositalarini sotishdan tushgan tushum.

Bu shakllangan ma’lumotlarni tumandagi banklar kesimida yoki subyektlar kesimida ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi soliq nazoratiga oid va Davlat soliq xizmati organlarida foydalaniladigan boshqa dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan texnik topshiriqlar asosida yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, amaliyotga joriy qilindi. Shunga ko‘ra:

➤ “Yagona darcha” markazi ma’lumotlari asosida 2017 yil 1 iyuldan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat’iy soliq va sug’urta badallarini avtomatik tarzda hisoblash tizimi joriy etilib, ushbu tizim orqali 145 mingta tadbirkorlarga soliq inspektorining aralashuvisiz 254,4 mlrd.so‘mlik soliq to‘lovlari hisoblandi. Shu bilan birga faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan tadbirkorlarning davlat soliq xizmati organlaridagi soliq majburiyatlari avtomatik to‘xtatildi;

➤ “Yagona darcha” markazi ma’lumotlari asosida 2017 yil 1 apreldan boshlab har bir ro‘yxatdan o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni, shuningdek, faoliyat ko‘rsatmayotgan yoki faoliyatini ixtiyoriy tugatishga bergan subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar bazasiga avtomatik yozib borish tizimi ishga tushirilib, ushbu tizim orqali 72,9 mingta subyektning rekvizitlar ma’lumotlar bazasiga avtomatik yozildi. Shu bilan birga korxonaning shaxsiy kartochkalarni bir hududdan boshqa bir hududga avtomatik ko‘chirib o‘tkazish imkoniyati yaratildi;

➤ Soliq qarzlarini inkasso topshiriqnomalari orqali undirish bo‘yicha quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

- nomzodlar ro‘yxati shakllangandan keyin soliq qarziga inkasso topshiriqnomalarini avtomatik tarzda shakllantirish;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tijorat banklariga yuborilgan to‘lov topshiriqnomalarini shaxsiy kartochkalarda aks ettirish.

Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustdagi 181-sonli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to‘g‘risidagi Nizom, bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri tasdiqlangan.


Interaktiv xizmatlar ko‘rsatishdan maqsad, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish vositasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan tezkor o‘zaro hamkorligini ta’minlash, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan keng foydalanishini ta’minlashdan iboratdir.




Hozirgi kunda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmat turlari joriy etilgan va ular rasmiy [www.my.soliq.uz](http://www.my.soliq.uz) web portalida joylashtirilgan.



Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan joriy etilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish uchun barcha soliq to‘lovchilarga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan.

## 21-jadval


### Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari turlari




	<p><b><u>Soliq organlari haqida</u></b>          Davlat soliq qo‘mitasining maqomini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat soliq qo‘mitasi tuzilmasi, rahbarlar tarkibi, funksiyalari, vazifalari, vakolatlari hamda asosiy faoliyati</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Davlat soliq xizmati organlarining tuzilmasi, tarkibi, funksiyalari va asosiy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etish</li> <li>-Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari to‘g‘risida ma’lumot taqdim etish</li> <li>-Davlat soliq xizmati organlariga ishga kirish uchun elektron rezyume qabul qilish</li> </ul>
	<p><b><u>Jismoniy va Yuridik shaxslarning murojaatlari</u></b>          Mazkur xizmat jismoniy va yuridik shaxslarni davlat soliq xizmati organlariga murojaatlarini jo‘natish uchun mo‘ljallangan. Xat yozish va jo‘natish uchun elektron raqamli imzoga ega bo‘lish kerak. Mazkur xizmat yordamida yuborilgan murojaat soliq organlari tomonidan rasmiy deb qabul qilinadi va belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan murojaatni yuborish</li> <li>-Yagona portal orqali murojaatni yuborish</li> <li>-Kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish ahvoli yuzasidan ma’lumot taqdim etish</li> </ul>
	<p><b><u>Elektron qabulxona</u></b> O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Raisi, Rais o‘rinbosarlari, markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, h‘ududiy davlat soliq xizmati organlari rah‘barlari qabuliga yozilish</p>




	<p>imkoniyatini taqdim etish. -Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari qabuliga yozilish. -Davlat soliq xizmati organlari rahbarlari qabuliga Yagona portal orqali yozilish</p>
	<p><b><u>Normativ-huquqiy hujjatlar</u></b> Soliqqa tortish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar, soliqqa tortish masalalariga taaalluqli O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan ma‘muriy hujjatlar, soliq organlari tomonidan boshqa vazirliklar bilan birga ishlab chiqilgan ma‘muriy hujjatlar, soliqqa tortish bo‘yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida ommabop ma‘lumot taqdim etiladi.</p>
	<p><b><u>Soliq organlarining rasmiy tushuntirishlari</u></b> Ushbu xizmat orqali soliq to‘lovchilarning soliq solish masalalariga oid murojaatlari va ularga davlat soliq xizmati xodimlari tomonidan beriladigan rasmiy javoblari taqdim etiladi. -Soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning murojaatlari asosida berilgan rasmiy tushuntirishlarini taqdim etish -Ko‘p uchraydigan savollarga javob berish -Soliq nizolari yuzasidan qabul qilingan Ekspert kengashi qarorlarini taqdim etish</p>
	<p><b><u>Tekshirish reja-jadvalidan ko‘chirmalar</u></b> <u>Yuridik shaxslar uchun.</u> Yuridik shaxs-soliq to‘lovchining «Shaxsiy kabinetida» ERI mavjud bo‘lgan taqdirda, mazkur yuridik shaxs uchun so‘rov bo‘yicha nazorat qiluvchi organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tekshiruv reja-jadvalidan tegishli davr uchun ko‘chirma taqdim etiladi. Ushbu ko‘chirmada belgilab berilgan davrda tekshiruvlar reja-jadvalida tashkilotning mavjudligi (yoki mavjud emasligi), tekshiruvni o‘tkazish muddatlari hamda tekshiruvda ishtirok etayotgan nazorat qiluvchi organlar ro‘yxati haqida ma‘lumot beriladi. -Yuridik shaxs uchun tekshirish reja-jadvalidan</p>





	<p>ko'chirmalar taqdim etish -Nazorat qiluvchi organ uchun tekshirish reja-jadvalidan ko'chirmalar taqdim etish</p>
	<p><b><u>Byudjet bilan o'zaro hisob-kitoblar Soliq qarzi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma berish</u></b> <b><u>Yuridik shaxslar uchun.</u></b> Yuridik shaxs-soliq to'lovchining «Shaxsiy kabinetida» ERI mavjud bo'lgan taqdirda, belgilab berilgan davrda shakllantirilgan solishtirish dalolatnomalari, shuningdek mazkur yuridik shaxs uchun istalgan hisobot davriga soliq va to'lovlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqa kartochkalaridan nusxa ko'rinishida byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan o'zaro hisob-kitoblar to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Yuridik shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha shaxsiy kartochkalaridan nusxa berish</li> <li>- Yuridik shaxslarga solishtirma dalolatnomalarini taqdim etish</li> <li>- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha to'lov topshiriqnomasini shakllantirish</li> <li>- Yuridik shaxsning soliq qarzi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etish</li> <li>- Yuridik shaxsning asosiy bank hisob raqamini yopish uchun soliq qarzi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etish</li> <li>- Yuridik shaxsning ortiqcha to'langan soliqlari va boshqa majburiy to'lovlarini hisobga olish va qaytarish</li> </ul>
	<p><b><u>Byudjet bilan o'zaro hisob-kitoblar Soliq qarzi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma berish</u></b> <b><u>Jismoniy shaxslar uchun.</u></b> Jismoniy shaxs-soliq to'lovchining «Shaxsiy kabinetida» mol-mulk solig'i, yer solig'i, xususiy tadbirkorlarning soliqlari bo'yicha berilgan sanaga shakllantirilgan shaxsiy kartochkalarning nusxalari ko'rinishida o'zaro hisob-kitoblar to'g'risida shaxsiy ma'lumot taqdim etiladi.</p>







	<p>ERI mavjud bo'lgan taqdirda, soliqlar va to'lovlar bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini avtomatik tarzda shakllantirish amalga oshiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha shaxsiy kartochkalaridan nusxa berish</li> <li>- Jismoniy shaxslarga solishtirma dalolatnomalarini taqdim etish</li> <li>- Jismoniy shaxslarning soliqlarni to'lash bo'yicha to'lov kvitantsiyasini shakllantirish</li> <li>- Jismoniy shaxsning soliq qarzi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etish</li> <li>- Yakka tartibdagi tadbirkorning asosiy bank hisob raqamini yopish uchun soliq qarzi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etish</li> <li>- Yakka tartibdagi tadbirkorning ortiqcha to'langan soliqlari va boshqa majburiy to'lovlarini hisobga olish va qaytarish</li> </ul>
	<p><b><u>Jismoniy shaxslar soliqlari bo'yicha maslahatchi</u></b>  <u>Jismoniy shaxslar uchun.</u> Mazkur xizmat orqali jismoniy shaxslar yer va mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqlar to'lash muddatlari, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Jismoniy shaxslarning soliqlari bo'yicha maslahatchi</li> <li>- Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori</li> <li>- Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori</li> <li>- Jismoniy shaxslarning yer solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori</li> <li>- Jismoniy shaxslarning suv resurslaridan foydalanish solig'ini hisoblash elektron kalkulyatori</li> <li>- Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badalini hisoblash elektron kalkulyatori</li> </ul>

	- Uchastka davlat soliq inspektorlari to'g'risida ma'lumot berish
	<p><b><u>Elektron soliq hisobotlari</u></b>  <b><u>Yuridik shaxslar uchun.</u></b> ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko'rinishidagi soliq hisob-kitoblari va moliyaviy hisobotni qog'ozdagi nusxalarini olmagan holda soliq to'lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo'natish hamda davlatsoliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Soliq solishning umumbelgilangan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotini yuborish</li> <li>- Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llagan yuridik shaxslarning soliq hisobotini yuborish</li> <li>- Yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlarini yuborish</li> <li>- Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar bo'yicha soliq hisobotlarini yuborish</li> </ul>
	<p><b><u>Elektron soliq deklaratsiyalari</u></b>  <b><u>Jismoniy shaxslar uchun.</u></b> ERI bilan tasdiqlangan elektron hujjat ko'rinishidagi soliq deklaratsiyalarini qog'ozdagi nusxalarini olmagan holda soliq to'lovchilar tomonidan avtomatlashtirilgan holda shakllantirish, jo'natish hamda davlat soliq xizmati organlari tomonidan qabul qilish.</p>
	<p><b><u>Yakka tartibdagi tadbirkorlarning elektron h'isobotlari</u></b>  Mazkur xizmat yakka tartibdagi tadbirkorlardan h'isobotlarni elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash uchun qaratilgan.</p>
	<p><b><u>Soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish - STIRni aniqlash</u></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Soliq to'lovchilarni hisobga olish</li> <li>- Yuridik shaxslarning ro'yxatga olish ma'lumotlarini taqdim etish</li> <li>- Jismoniy shaxslarning ro'yxatga olish ma'lumotlarini taqdim etish</li> <li>- STIRni aniqlash va guvohnomasini shakllantirish</li> </ul>

	<p>-Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish bo'yicha elektron arizalarni qabul qilish</p>
	<p><b><u>Tovarlarni olib keluvchi tabdirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish</u></b></p> <p>«Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni internet tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazish» interaktiv davlat xizmati O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladi, unda tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish internet tarmog'i orqali amalga oshiriladi.</p>
	<p><b><u>Tashqi iqtisodiy faoliyatni olib boruvchi soliq to'lovchilarning arizalari</u></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-Erkin muomaladagi valyutaga eksport qilinganda imtiyoz va preferentsiyalar berilishining asoslanganligi bo'yicha ariza-ma'lumotnoma qabul qilish</li> <li>-Chet elda ochilgan hisob raqamlardagi mablag'lar harakati bo'yicha axborot qabul qilish</li> <li>-Valyuta tushumiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotnoma qabul qilish</li> </ul>
	<p><b><u>Kichik biznes toifasiga mansubligi to'g'risidagi ma'lumotnoma berish</u></b></p> <p>-Soliq solish tartibini belgilash bo'yicha xulosalar berish -Yagona soliq to'lovini to'lash muddatini uzaytirish yuzasidan arizalarni qabul qilish -Kichik biznes toifasiga mansubligi haqida ma'lumotnoma taqdim etish</p>
	<p><b><u>Rezidentligini tasdiqlash</u></b></p> <p>Interaktiv xizmatidan foydalanganda, davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan Ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha xalqaro Kelishuv qoidalarini qo'llash maqsadida murojaat qilgan</p>

	<p>yuridik yoki jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari ekanliklarini tasdiqlab beradi.</p> <p>Xizmatdan foydalanish uchun elektron raqamli imzo bo‘lishi shart.</p>
	<p><b><u>Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ro‘yxatdan o‘tkazish</u></b></p> <p>Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ro‘yxatdan o‘tkazish</p>
	<p><b><u>Soliq tekshiruvi natijalari</u></b></p> <p>Jismoniy shaxslar uchun. Jismoniy shaxs-soliq to‘lovchining «Shaxsiy kabinet»da ERI mavjud bo‘lgan taqdirda, xususiy tadbirkorlarning soliq tekshiruvlari natijalari to‘g‘risida shaxsiy ma‘lumot taqdim etiladi.</p>
	<p><b><u>QOS to‘lovchilari</u></b></p> <p>Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar to‘g‘risida Soliq kodeksi bilan ruxsat berilgan ma‘lumotlarni elektron ko‘rinishida taqdim etish.</p>
	<p><b><u>Kontragent haqidagi ma‘lumot</u></b></p> <p>Soliq to‘lovchilar so‘roviga asosan ular haqidagi ma‘lumotlarni boshqa soliq to‘lovchilarga taqdim etish. «Kontragent haqida ma‘lumot» interaktiv xizmati soliq to‘lovchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda biznes-hamkorlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.</p>
	<p><b><u>O‘z biznesingni yarat</u></b></p> <p>Interaktiv davlat xizmatini ko‘rsatishdan maqsad, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslarga zarur ma‘lumotlar berish, ularga qulay shart-sharoit yaratish hamda ko‘rsatilayotgan axborot xizmatlari sifatini oshirishdan iborat. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagidagi yuridik va jismoniy shaxslar uchun o‘z</p>

	<p>biznesini yaratish, yuritish, qayta tashkil qilish va tugatishga oid tegishli ma'lumotlar joylashtiriladi.</p>
	<p><b><u>Imtiyozlar ma'lumotnomasi</u></b>  Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq imtiyozlari to'g'risida axborot taqdim etish. Mazkur xizmat Davlat soliq qo'mitasining <a href="http://www.soliq.uz">www.soliq.uz</a> rasmiy saytida soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishga qaratilgan.</p>
	<p><b><u>Soliq nizolarini ko'rib chiqish</u></b>  Mazkur xizmat orqali soliq solish qonunchiligini amalda qo'llash jarayonida soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasida yuzaga kelgan o'ta murakkab va munozarali masalalar hamda ushbu nizoning yechimi yuzasidan Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Ekspert kengashi qarorlari taqdim etiladi.</p>
	<p><b><u>Ko'p uchraydigan savollar</u></b>  Mazkur xizmat orqali jismoniy va yuridik shaxslar soliq solish masalalariga oid eng ko'p uchraydigan savollar va ularga berilgan javoblar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.</p>
	<p><b><u>STIRingizni aniqlang</u></b>  Jismoniy shaxslar uchun. Soliq to'lovchiga o'zining soliq to'lovchining individual raqami (STIR)ni bilish imkoni taqdim etiladi. Soliq to'lovchi (jismoniy shaxs) DSIda ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladigan ro'yxatdan o'tkazish hujjatlari, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar, shuningdek pul-hisob-kitob to'lov hujjatlarida o'z STIRni aniq yozishi shart.  Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan «STIRingizni aniqlang» yangi interaktiv xizmati joriy etilgan va har bir jismoniy shaxs uchun o'z STIRini mustaqil ravishda aniqlab olish imkoniyati yaratilgan.</p>

DSQning 2005 yil 5 avgustda «Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan komp'yuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to'g'risida»gi 148-sonli buyrug'iga asosan joriy qilingan dasturiy

mahsullar. Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, soliqqa oid ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash bo'yicha kompyuter dasturiy mahsullarini amalga joriy etish maqsadida DSQning 2005 yil 5 avgustda «Davlat soliq xizmati organlarida avtomatlashtirilgan komp'yuter dasturiy mahsullarni amalga joriy etish to'g'risida»gi 148-sonli buyrug'i chiqdi. Buyruqda O'zbekiston Respublikasi DSQ da ishlab chiqilayotgan dasturiy mahsullar bo'yicha tuzilgan mas'ul ishchi guruh a'zolarining ro'yxati hamda dasturiy mahsullar texnik topshiriqlarini ishlab chiqish, dasturiy mahsullarni ishlab chiqish va quyida keltirilgan dasturiy mahsullarni tajribaviy ishga tushirish muddatlari belgilab berildi. Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 1 martdagi «Davlat soliq qo'mitasida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni WEB texnologiyasi asosida takomillashtirish, ma'lumotlar bazasini Oracle platformasiga o'tkazish va umumlashtirish chora-tadbirlar rejasi»ga muvofiq, hamda 2012-yil 11-fevraldagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishni tartibga solish hamda interaktiv Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 64-sonli buyrug'iga asosan Davlat soliq xizmati organlarida joriy etilgan dasturiy mahsullarni takomillashtirish va birlashtirilishi natijasida dasturiy mahsullar joriy qilindi. Shuningdek, Davlat soliq qo'mitasining 2015 yil 12 iyuldagi «Davlat soliq xizmati organlarida axborot tizimlarini ishlab chiqish, ularning toifasini belgilash, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda axborot tizimlarini topshirish va qabul qilish tartibi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash xaqidagi 226-somli buyrug'iga asosan quyidagi dasturiy mahsullar joriy qilindi.

Barcha qayd etilgan dasturiy mahsullar soliq tizimining barcha bosqichlarida muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelinmoqda hamda mutaxassislar tomonidan yuzaga kelayotgan o'zgarishlar e'tiborga olinib, takomillashtirilib borilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan dasturiy mahsullar soliq tizimining barcha bosqichlarida, shu jumladan, soliq tizimi o'quv muassasalarining o'qitish tizimini takomillashtirish maqsadida DSQ ning 2007 yil 29 iyundagi 153-sonli buyrug'iga asosan o'quv jarayoniga joriy qilindi. O'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassislar soliq tizimida axborotlarni ishlash va tahlil qilishning yagona kompyuter tizimida ishlatiladigan dasturiy mahsullarni ishlatish texnologik jarayonlarini o'rganadilar.

**22-jadval**

**Soliq solish bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq solish obyektlarni aniqlash, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliqdan qochish va shu kabi qo‘shimcha manbalarni aniqlashga xizmat qiluvchi dasturiy mahsullar ro‘yxati:**

1.	«Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-4)» dasturiy majmuasi
2.	«Qayta ishlash va tahlil» dasturiy mahsuli
3.	«To‘lovlar monitoringi» dasturiy mahsuli
4.	«Eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish» dasturiy mahsuli
5.	«Soliq to‘lovchilarning egaligidagi yer fondi (STEYEF)» dasturiy mahsuli
6.	«Tahlil» («Risk analiz») dasturiy mahsuli
7.	«Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish» dasturiy majmuasi
8.	«Soliq deklaratsiyalarini qayta ishlash» dasturiy mahsuli
9.	«Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haqlar va ijara to‘lovlari hisobini yuritish va nazorat qilish» dasturiy mahsuli

**23-jadval**

**Ma’lumotlar bazasini shakllantirish, ro‘yxatga olish, soliq to‘lovchilar va soliq obyektlari hisobini yuritish hamda statistik ma’lumotlarni tayyorlash ish jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ro‘yxati**

1.	«Davlat byudjeti va maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritish (1-N)»
2.	«Bank-DSQ»
3.	«Jamg‘arib boriladigan pensiya badali kunlik tushumlarini qayta ishlash»
4.	«Kompyuter texnikasini hisobga olish tizimi»
5.	«Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan dasturiy mahsullarni fiydanish darajasini aniqlash»
6.	«Davlat soliq xizmati organlarida interaktiv xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha mas’ul hodimlar hisobini yuritish»
7.	«Soliq to‘lovchilar tarixi»



8.	«Interaktiv xizmatlardan foydalanish statistikasi»
9.	«Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzlari hisobini yuritish»
10.	«Soliq qarzini yuritish hisoboti »
11.	«Yuridik shaxslar imtiyozlari hisobini yuritish»
12.	«Elektron tarzda yuborilgan hisobotlarini qabul qilish (WEFOINS)»
13.	«Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarni tugatish tartibi»
14.	«Yuridik shaxslar bo'yicha statistic ma'lumot»
15.	«Qo'shilgan qiymat solig'I to'lovchilarini aniqlash»
16.	«Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulklar hisobini yuritish»
17.	«Yakka tartibdagi tadbirkorlardan hisobotlarni electron shaklda qabul qilish va qayta ishlash»
18.	«Davlat boji»
19.	«Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar haqida ma'lumot»
20.	«Soliq tekshiruvlari hisobini yuritish»
21.	«Tekshiruvchi xodimlarning xizmat safari hisobini yuritish »
22.	«Nazorat kassa mashinalarining ro'yxati va nazoratini olish»
23.	«Naqd pul tushumlari hisobini yuritish»
24.	«Ma'muriy amaliyotni hisobga olish»
25.	«Moliyaviy sanksiyalarni sud tartibida qo'llash to'g'risida davlat soliq xizmati organlarining murojaatlari va ularning natijalari hisobini yuritish»
26.	«Tekshirishlarni muvofiqlashtirish»
27.	«Ichki idoraviy hujjatlar elektron axborot tizimi»
28.	«Hujjatlar bajarilishini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi»
29.	«Kadrlarga oid ma'lumotlar bazasi»
30.	«Quyida davlat soliq xizmati organlari faoliyatini masofadan turib nazorat qilish tizimi»

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliq sohasida dasturiy mahsullarning o'rni?
2. Dasturiy mahsullar deganda nimani tushunasiz?



3. Elektron hisob-fakturalarning amalga joriy etilishi qanday naf beradi?

4.«Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (SIAIJ-5)» dasturiy majmuasi haqida nimalarni bilasiz?

5. Soliq sohasidagi eng so‘nggi interaktiv xizmatlar turalarini sanab, ularga sharh bering?

## 6. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

### **Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo‘lgan davlat boshqaruv organlari**

Davlat soliq xizmati organlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqa boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko‘maklashishlari shart.

Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar soliqlar bo‘yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar, o‘tkazilayotgan tekshiruvlar to‘g‘risida o‘zaro kelishuv bo‘yicha aniqlanadigan tartibda bir-birini xabardor qiladi, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda xabardor qiladi, shuningdek o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.


Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek soliq huquqiy munosabat subyektlari bo‘lib soliq to‘lovchilar va vakolatli davlat organlari hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabat sohasida vakolatli bo‘lgan davlat organlari quyidagilardir:

- 1) Davlat soliq xizmati organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi soliq inspeksiyalari;
- 2) Bojxona organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;
- 3) Moliya organlari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkentshahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari;

- 4) Boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

## 7-chizma

### Vakolatli davlat organlari



O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Soliq to'lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida banklar:

1) xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar;

2) xo'jalik yurituvchi subyektlar byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, bunday subyektlarning hisob-kitob raqamlari va boshqa hisobvaraqlarini sudning qaroriga binoan yopadilar.

3) davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi mijozlardan belgilangan muddatda to'lanmagan soliqlar va jarimalarni so'zsiz undirish to'g'risidagi farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lashga doir, shuningdek hayot va sog'liqqa etkazilgan zararning o'rnini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag'lari o'tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo'yicha mutanosib ravishda bajaradilar;

4) soliq to'lovchi mijozning mablag'lari bo'lsa, uning hisob-kitob yoki boshqa hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini byudjet daromadiga o'tkazadilar;

6) soliq to'lovchi — mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag'lari berish, o'tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir operatsiyalarni davlat soliq xizmati organlarining yozma talabi bo'yicha to'xtatib qo'yadi. Banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish sud tartibida amalga oshiriladi, (Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonunning 5-moddasi birinchi qismining 8-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

7) davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga: yuridik shaxslarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlari; jismoniy shaxslarning depozit va boshqa hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni tekshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yadilar;

8) davlat soliq xizmati organlarining so'rovnomasiga ko'ra ularga so'ralayotgan davr mobaynida soliq to'lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar va ana shu hisobvaraqlarda pul mablag'larining bor-yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar;

9) davlat soliq xizmati organlarining so'rovnomasiga ko'ra eksport-import kontraktlarining ijrosiga doir ma'lumotlarni va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni taqdim etadilar.

10) olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik korxonalari esa - uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul operatsiyalari o'tkazish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi munosabati bilan korxonalarining hisobvaraqlari yopilgan sanadan e'tiboran ularning faoliyatni davom ettirishi maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish uchun axborotni ularni hisobga olgan joydagi davlat soliq xizmati organiga uch ish kuni mobaynida taqdim etadilar.

11) qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat soliq xizmati organlariga boshqa axborotni ham taqdim etadilar.

Banklar soliq to'lovchi mijozlarning soliqlar, shuningdek jarima summalarini o'tkazish haqidagi topshiriqlarini bajarishni kechiktirishi taqiqlanadi.

Bank aybi bilan soliq to'lovchi mijozning yoki davlat soliq xizmati organining soliqlarni o'tkazish haqidagi topshirig'i bajarilmagan (bajarish kechiktirilgan) taqdirda bank va boshqa moliya-kredit tashkilotidan har bir kechiktirilgan kun uchun o'tkazilmagan soliqlar summasining 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda Soliq kodeksining 84-moddasida “Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida soliq idoralariga axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar hamda ularning majburiyatlari” belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar (Soliq kodeksining 80-moddasining ikkinchi qismida ko‘rsatilganlar bundan mustasno) ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga ushbu yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reestridan ko‘chirma topshirishi shart. Mazkur organlar davlat soliq xizmati organiga tegishli yuridik shaxslarga taalluqli davlat reestriga kiritilgan har qanday o‘zgartishlar to‘g‘risida ham bunday o‘zgartishlar kiritilgan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay ma‘lum qilishi shart.

Litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan organlar bunday hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga shunday hujjatlar berilganligi hollari haqida ma‘lum qilishi, shuningdek mazkur hujjatlar bekor qilinganligi, ularning amal qilishi to‘xtatib turilganligi yoki tugatilganligi to‘g‘risida ma‘lumot berishi shart.

Ichki ishlar organlari pasportlar berilganligi, shu jumladan yo‘qotilgan yoki amal qilish muddati o‘tgan pasportlar o‘rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, bekor qilingan pasportlar to‘g‘risida o‘zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, shuningdek turar joyni ijaraga berish shartnomasi, tekin foydalanishga berish shartnomasi mavjud emasligining yoki davlat soliq xizmati organlarida ijaraga berish shartnomasining majburiy hisobga qo‘yilishiga rioya etilmaganligining aniqlangan faktlari haqida o‘zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga uch ish kuni ichida ma‘lum qilishi shart.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar har yili 1 fevralgacha o‘zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga tegishli hududda joylashgan er uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to‘g‘risida 1 yanvar holatiga ko‘ra ma‘lumot berishi, shuningdek er uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar yil davomida yuzaga kelganda — mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida ma‘lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga oluvchi organlar suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga 1 fevraldan kechiktirmasdan o'tgan yil yakunlari bo'yicha o'lchov asboblarisiz foydalanilgan suv hajmlari to'g'risida xabar qilishi shart.

Davlat notarial idoralari tegishincha ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori, shuningdek meros qilib olish yoki hadya tarzida fuqarolarning mulkiga o'tayotgan mol-mulk qiymati to'g'risida ko'rsatilgan notarial harakatlar amalga oshirilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Er resurslarini hisobga olishni amalga oshiruvchi organlar er uchastkasiga bo'lgan huquqi yuzaga kelgan (tugatilgan) shaxslarni ko'rsatgan holda er uchastkasiga bo'lgan huquq berilganligi (tugatilganligi) to'g'risida, shuningdek er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatsiz yoki hujjatda ko'rsatilganiga nisbatan katta hajmdagi er uchastkalaridan foydalanilganlik va er uchastkasiga bo'lgan egalik qilish, foydalanish, ijara va mulk huquqining ro'yxatdan o'tkazilmaganligi hollari haqida er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga mazkur hollar aniqlangan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ma'lum qilishi shart;

Er resurslarini hisobga olishni amalga oshiruvchi va (yoki) baholovchi organlar har bir qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi bo'yicha qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga har yili yanvar oyining birinchi o'n kunligida, yil davomida normativ qiymat o'zgargan taqdirda, qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymati aniqlangan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda elektron shaklda axborot taqdim etadi;

Foydalanishga berilgan er qa'ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi va (yoki) er qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar o'zlari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga er qa'ri uchastkasi joylashgan er hamda mazkur er qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi berilgan shaxs to'g'risidagi axborotni er qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazilgan (hisobga olingan) kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi

Davlat soliq qo‘mitasiga o‘zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro‘yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Banklar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga faqat ular davlat soliq xizmatining tegishli organida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatgan taqdirda bank hisobvaraqlari ochishi mumkin va hisobvaraqlar ochilganligi to‘g‘risida o‘sha organga keyingi kundan kechiktirmay ma‘lum qilishi shart. Qonunda nazarda tutilgan hollarda banklar davlat soliq xizmati organlariga boshqa ma‘lumotlarni ham taqdim etadi.

Bojxona organlari har oyda eksport-import operatsiyalari, shuningdek tovarlarni olib o‘tish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o‘tish haqidagi ma‘lumotni davlat soliq xizmati organlariga ma‘lum qilishi shart.

Internet jahon axborot tarmog‘i milliy segmentining domen nomlari tizimini belgilovchi organ tegishli ma‘lumotlar bazasiga ulanish uchun dasturiy vositalarni taqdim etish orqali davlat soliq xizmati organlariga domen nomlari administratorlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanish imkoniyatini beradi.

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etish tartibi ushbu organlar bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

**O‘zbekiston  
Respublikasi  
vazirligining  
maqomi**

**Moliya  
huquqiy**

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi 1992 yil 23 noyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Moliya vazirligi haqidagi Nizomda belgilab qo‘yilgan. Ushbu


nizomda soliq sohasidagi bir qator maqsad va vazifalari belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta‘minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul

resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi. Moliya vazirligi respublika budjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

## 8-chizma

### O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tashkiliy tuzilmasi



Ana shu maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini kelishilgan Yagona moliyaviy, soliq, valyuta va narx-navo siyosatini shakllantirish ishlarini olib borishga, oltin zaxirasini ko'paytirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga, respublika iqtisodiyotini sog'lomlashtirishga, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida narx-navoni tartibga solishning iqtisodiy usullari rolini kuchaytirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi.



**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi  
Markaziy apparat bo‘limlarining ro‘yxati**

<b>№</b>	<b>BOSHQARMALAR NOMI</b>
1.	Davlat byudjeti bosh boshqarmasi
2.	Valyuta aktivlari va majburiyatlari bosh boshqarmasi
3.	Sanoatning bazaviy tarmoqlari, yoqilg‘i-energetika majmui va geologiyani rivojlantirish moliyasi va tarifni tartibga solish bosh boshqarmasi
4.	Moliya bozori va davlat aktivlari bo‘yicha daromadlar tushumini nazorat qilish boshqarmasi
5.	Soliq va bojxona tarif-siyosati boshqarmasi
6.	Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi
7.	Narxni shakllantirish va QQS bo‘yicha ortiqcha summani qaytarishni muvofiqlashtirish jamlanma boshqarmasi
8.	Agrosanoat majmuasi moliyasi boshqarmasi
9.	Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi
10.	Investitsiyalar boshqarmasi
11.	Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi
12.	Hududlarni obodonlashtirish va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ta‘minlashni moliyashtirish boshqarmasi
13.	Iste‘mol bozori, transport, aloqa va turizm sohalarini moliyaviy tartibga solish boshqarmasi
14.	Ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqarmasi
15.	Boshqaruv organlarini moliyalashtirish boshqarmasi
16.	Ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha byudjetdan tashqari jamg‘armasi
17.	Moliya vazirligi G‘aznachiligi
18.	Nazorat-taftish bosh boshqarmasi
19.	Mudofaa majmui, huquq-tartibot organlari va boshqa sohalarni moliyalashtirish boshqarmasi
20.	Yuridik boshqarma
21.	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi
22.	Jamlanma axborot-tahlil boshqarmasi
23.	Birinchi bo‘im
24.	Buxgalteriya
25.	Ma‘muriy-xo‘jalik bo‘limi

Moliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta‘sir ko‘rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o‘shirishini ta‘minlash, moliya-kredit vositalarining xo‘jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash; moliya, budjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag‘ bilan ta‘minlash usullarini takomillashtirish; soliq solish, narx belgilash, sug‘urta, valyuta-moliya, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek soliq maslahati bo‘yicha faoliyat sohasida qonunchilik va me‘yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish; moliya, soliq, narx belgilash, sug‘urta, valyuta, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek soliq maslahati bo‘yicha faoliyat sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish; budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta‘minlash; budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning, ayniqsa pensiyalarni va boshqa tegishli to‘lovlarni tayinlash va to‘lashning belgilangan qoidalarini qo‘llash yuzasidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2847-son Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorda Respublika moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko‘rib chiqish maqsadida:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda uning bo‘linmalari faoliyatining ustuvor vazifalari hamda yo‘nalishlari etib belgilandi:

iqtisodiy o‘shirishning barqaror yuqori sur‘atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta‘minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo‘naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, mineral-xom ashyo, er-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to'lovlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo'li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o'zini o'zi qoplay olishini ta'minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida Davlat byudjetiga qo'shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me'yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarini kamaytirishga jamlash;

iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash;

byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat'iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torojlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko‘paytirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

fuqarolarning pensiya ta‘minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta‘minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to‘lovlarni tayinlash va o‘z vaqtida to‘lash bo‘yicha o‘rnatilgan qoidalarning qo‘llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik hollariga yo‘l qo‘ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o‘z vaqtida e‘tibor qaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas‘uliyatini oshirish.

## 2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibidan:

Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg‘armasi hamda Sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi — Vazirlar Mahkamasining Qishloq va suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste‘mol tovarlari masalalari kompleksi bo‘ysunuviga;

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va uning hududiy bo‘linmalari — O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufiga;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi hamda uning hududiy bo‘linmalari zimmasiga ehtiyojmand oilalar va fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar hamda moddiy yordam tayinlanishi va to‘lanishi ustidan monitoringni amalga oshirish vazifalari yuklatilgan holda ehtiyojmand oilalar va fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar hamda moddiy yordam tayinlanishi va to‘lanishi ustidan monitoringni amalga oshirish bo‘yicha moliya organlari tuman va shahar bo‘linmalaridagi sho‘balar — O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tasarrufiga belgilangan tartibda o‘tkazish tartibi belgilandi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloqni qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan jihozlashni davlat tomonidan rag‘batlantirish jamg‘armasi tugatilib, uning funksiyalari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg‘armasi zimmasiga yuklatildi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida:

Byudjetdan tashqari umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi, shuningdek Oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi negizida Byudjetdan tashqari ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi;

Byudjetdan tashqari Orolbo‘yi hududlarini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil qilinsin.

**O‘zbekiston Respublikasi Bojxona organlari va boshqa vakolatli organlarning hamkorligi.**

Davlat bojxona xizmati organlari va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi. Davlat bojxona xizmati organlarining huquqiy maqomi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan

belgilab berilgan. Davlat bojxona qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o‘tkazilishini, bojxona ishlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi.

DBQ o‘ziga yuklatilgan vazifalarni muvofiq bojxona qonunchiligiga va o‘z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;bojxona tartibga solish vositalari qo‘llanilishini ta‘minlaydi,

bojxon-tarif mexanizmi ham shu jumlagi kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi;bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi.

Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat organlarining oxirgi turiga boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar kiradi. Ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat bojini undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar tushuniladi. Jumladan, Davlat boji quyidagilardan undiriladi: sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyasiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun; da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyasiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyasiya va kassatsiya

shikoyatlaridan; notariuslar va O‘zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to‘g‘risida takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o‘zgartishlar, qo‘shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun; chet eldan O‘zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilish to‘g‘risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risida beriladigan arizalardan; O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatlarni, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun; O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik, turgan joyi bo‘yicha hisobga olganlik uchun, shuningdek chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro‘yxatdan chiqarganlik uchun; yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun; faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun; o‘v qilish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risida ruxsatnoma berganlik uchun.


Bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✚ yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- ✚ O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o‘z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash;
- ✚ bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- ✚ bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- ✚ bojxona to‘lovlarini undirish;
- ✚ bojxona nazoratidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o‘tkazilishini ta‘minlash;
- ✚ bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo‘yish;

- ✚ tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;
- ✚ O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash.

## 9-chizma

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining TASHKILY TUZILMASI



Umuman olganda, har qanday davlat iqtisodiyotini rivojlanishida soliq va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘rni kattadir. Shuningdek, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘rnatish, undirish va budjetlarga kelib tushishini ta’minlashning samarali mexanizmini tashkil qilish, vakolatli davlat organlarining bu boradagi mas’uliyatini oshirish hozirgi kundagi muhim bo‘lgan masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5690-sonli Farmoniga muvofiq tadbirkorlik subyektlari huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini



mustahkamlash, ularning faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, respublikada investitsiya iqlimini va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, shuningdek prokuratura organlariga xos bo'lmagan vazifa va funksiyalarni chiqarib tashlash yo'li bilan ularning faoliyatini optimallashtirish maqsadida:

1. 2019-yil 1-apreldan:

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish va nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarning qonuniyligi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (keyingi o'rinlarda — Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil) tomonidan amalga oshiriladi;

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakilning tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarga oid qarorlari nazorat qiluvchi organlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi;

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarning qonuniyligi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakilning tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish sohasidagi faoliyatini ta'minlashda ishtirok etadi.

2. Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tasarrufidan Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil tasarrufiga o'tkazilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi bilan birgalikda bir oy muddatda Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimining ishlash imkoniyatini ta'minlovchi axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarning beg'araz o'tkazilishini;

Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlanishi belgilandi.

3. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil o'z vakolatlarini amalga oshirish doirasida:

nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qiladi;

nazorat qiluvchi organlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish to'g'risidagi buyurtmalarini ko'rib chiqadi va ularning asosliligini o'rganadi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishga rozilik berish yoki rad etish, shuningdek, ularning muddatlarini uzaytirish yoki ko'chirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish sohasidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun nazorat qiluvchi organlarning aybdor mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish bo'yicha choralar ko'radi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish sohasida yagona hisob va hisobot yuritilishini, shuningdek ushbu sohada nazorat qiluvchi organlarning yagona huquqni qo'llash amaliyoti yuritilishini ta'minlaydi;

nazorat qiluvchi organlar va tadbirkorlik subyektlariga tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish sohasidagi qonunchilik normalari qo'llanilishi yuzasidan maslahat yordamini ko'rsatadi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazish sohasidagi normativ bazani ishlab chiqish va takomillashtirishda ishtirok etadi.

#### 4. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari lavozimlarining ikkita shtat birligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Tadbirkorlik va investitsiyalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi hamda uning hududiy bo'limlari;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Soliq va bojxona islohotlarini amalga oshirish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi hamda uning hududiy bo'limlari;

soliq va bojxona islohotlarini amalga oshirish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat qilishga mas'ul Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorining o'rinbosarlari, tumanlar (shaharlar) prokurorlarining o'rinbosarlari va yordamchilari lavozimlari;

tumanlar (shaharlar) prokurorlarining tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga mas'ul o'rinbosarlari hamda katta yordamchilari lavozimlari;

Boshqaruv xodimlarining umumiy soni — 94 nafar.

\* Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tadbirkorlikni himoya qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limi tugatilishi belgilandi.

5. Mazkur Farmonga muvofiq prokuratura organlarining qisqartirilayotgan 1 198 ta shtat birliklaridan:

87 tasi — Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonini;

470 tasi — O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bo'linmalarini to'ldirish uchun yo'naltiriladi.

6. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonining yangilangan tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni shtatlar jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakilga, zaruratga ko'ra, o'z devonining tashkiliy-shtat tuzilmasiga belgilangan umumiy shtatlar soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berildi.

**25-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonining shtatlar jadvali**

<b>T/r</b>	<b>Lavozimning nomlanishi</b>	<b>Birliklar soni</b>
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil	1
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil o'rinbosari —	1

	devon rahbari	
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil o‘rinbosari	1
Murojaatlarni ko‘rib chiqish va tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat sho‘basi		
4.	Bosh inspektor	1
5.	Etakchi inspektor	5
Tadbirkorlik sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish va takomillashtirish sho‘basi		
6.	Bosh inspektor	1
7.	Etakchi inspektor	2
Tadbirkorlik subyektlari faoliyati tekshiruvlarini muvofiqlashtirish sho‘basi		
8.	Bosh inspektor	1
9.	Etakchi inspektor	7
Xalqaro aloqalar bo‘yicha bosh inspektor		
10.	Bosh inspektor	1
Jamoatchilik bilan ishlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish sho‘basi		
11.	Bosh inspektor	1
12.	Etakchi inspektor	2
Kadrlar bilan ishlash bo‘yicha bosh inspektor		
13.	Bosh inspektor	1
Moliya sho‘basi		
14.	Buxgalter	1
15.	Moddiy buxgalter (kassir)	1
Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devoni xodimlari		
16.	Bosh inspektor	1
17.	Etakchi inspektor	5
Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devoni xodimlari		
18.	Bosh inspektor	1
19.	Etakchi inspektor	4
Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining		

huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
20.	Bosh inspektor	1
21.	Etakchi inspektor	4
Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
22.	Bosh inspektor	1
23.	Etakchi inspektor	3
Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
24.	Bosh inspektor	1
25.	Etakchi inspektor	4
Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
26.	Bosh inspektor	1
27.	Etakchi inspektor	3
Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
28.	Bosh inspektor	1
29.	Etakchi inspektor	4
Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
30.	Bosh inspektor	1
31.	Etakchi inspektor	4
Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
32.	Bosh inspektor	1
33.	Etakchi inspektor	4
Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		

34.	Bosh inspektor	1
35.	Etakchi inspektor	3
Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
36.	Bosh inspektor	1
37.	Etakchi inspektor	4
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
38.	Bosh inspektor	1
39.	Etakchi inspektor	4
Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
40.	Bosh inspektor	1
41.	Etakchi inspektor	3
Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni xodimlari		
42.	Bosh inspektor	1
43.	Etakchi inspektor	4

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Soliq solish sohasidagi vakolatli organlar qaysilar?
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining mamlakat byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqishdagi o'rni qanday?
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari faoliyatida soliq undirish tartiblari haqida ma'lumot bersangiz?
4. Soliq idoralari faoliyatida soliq nazoratining o'rni qanday?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil faoliyatining huquqiy asoslari haqida gapirib bering?

## 7. Soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar, soliq kontseptsiyasi

### Soliq va byudjet siyosatining 2021 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi 2021 yil uchun belgilangan soliq islohotlari quyidagi me'yoriy va huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-657-son, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-659-son Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4938-son Qarorlari joriy yildagi mamalakatimiz soliq siyosatini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

2021 yilgi soliq siyosati Soliq kodeksining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini, eksport qiluvchilarni yanada qo'llab-quvvatlashni, soliq yukining adolatli taqsimlanishini va tabiiy resurslaridan samarali foydalanilishini oshirilishini ta'minlashni nazarda tutuvchi soliq islohotlarini davom ettiriladi.

Soliq kodeksi tarkibiga aksiz solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalarini, shuningdek ushbu stavkalarni qo'llash bilan bog'liq ayrim normalar kiritilishi nazarda tutilgan.

2020 yil uchun ushbu stavkalar «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan edi.

2021 yil uchun ushbu stavkalar quyidagi tarzda o'zgartirildi:

### Aksiz solig'i

Aksiz solig'i bo'yicha import va ishlab chiqarish uchun aksiz solig'i aksariyat stavkalarini tenglashtirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, mutlaq miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalari indeksatsiya qilingan (2020 yil 1 apreldan ularning nazarda tutilgan indeksatsiyasini bekor qilinganini hisobga olgan holda).

Shu munosabat bilan, aksiz solig'i stavkalari 2021 yil 1 fevraldan boshlab indeksatsiya qilinmoqda. Bunda, alkogolli mahsulotlar, shu jumladan pivoga, shuningdek tamaki mahsulotlari uchun 2 bosqichda: 2021 yil 1 fevraldan boshlab — 2020 yilda ularni indeksatsiya qilinishi rad etilganligini hisobga olgan holda, hamda 2021 yil 1 sentyabrdan — o'rtacha 7,5 foizga indeksatsiya qilinmoqda.

Alkogol mahsulotlariga soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari			
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan (1 dal tayyor mahsulot uchun)		
			2021-yil 1-yanvardan	2021-yil 1-fevraldan	2021-yil 1-oktabrdan
1.	Oziq-ovqat xomashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi	70%	10 800 so'm	12 500 so'm	13 500 so'm
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	50 000 so'm/1 litr uchun	98 000 so'm	116 400 so'm	125 100 so'm
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	70 000 so'm/1 litr uchun	162700 so'm	192 300 so'm	206 700 so'm
3.	Vino:				
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	35000 so'm/1 litr uchun	7 700 so'm	8 300 so'm	8 700 so'm
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	50000 so'm/1 litr uchun	14 500 so'm	16 800 so'm	18 000 so'm
4.	Pivo	50%, biroq 1 litr uchun/15000 so'mdan kam bo'lmagan	10 600 so'm	11 700 so'm	12 600 so'm

Import bo'yicha 73 ta tovar pozitsiyasiga aksiz solig'ini bekor qilindi, oziq-ovqat mahsulotlari (20 turdagi tovarlar — sharbatlar, pishloq, tvorog, margarin, unli qandolat mahsulotlari, kolbasa va shunga o'xshash go'sht mahsulotlari va h.k.), elektrotexnika tovarlari bo'yicha (35 turdagi tovarlar — muzlatgichlar, televizorlar, gaz plitalari, changyutgichlar, kir yuvish mashinalari va h.k.) va boshqalar.

Tamaki mahsulotlariga soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	400 000 so'm/1000 dona +	2021-yil 1-yanvardan:



		10 foiz	163 500 so‘m/1000 dona + 9 foiz 2021-yil 1-fevraldan: 172 000 so‘m/1000 dona + 10 foiz 2021-yil 1-oktabrdan: 185 000 so‘m/1000 dona + 10 foiz
2.	Sigara	4 700 so‘m/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	280 000 so‘m/kg	
4.	Chekiladigan, o‘rama tamaki	280 000 so‘m/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimiladigan tamaki	280 000 so‘m/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo‘lgan o‘xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	280 000 so‘m/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	112 000 so‘m/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)	500 so‘m/ml	

Mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizgacha pasaytirilmoqda.

### **Yer solig‘i**

Yer solig‘i bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, respublika hududlari kesimida mutlaq kattalikda, ularni 15 foiz indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda, bazaviy soliq stavkasi belgilanmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i stavkalarini har yillik indeksatsiya qilinishi stavkalar mutlaq kattalikda (so‘m) belgilanganligi bilan izohlanadi va yer solig‘ining byudjet umumiy tushumlaridagi ulushini saqlab qolishga imkoniyat beradi.

Bunda, soliq stavkalarining aniq miqdori mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ularning nufuzli tuman va iqtisodiy rivojlanishiga qarab oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda Soliq kodeksida belgilangan stavkalar asosida aniqlanadi.

### **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha soliq stavkasi soliq to‘lovchilarning toifalari kesimida, shuningdek belgilangan maqsadlarda ishlatiladigan suv hajmi qismida belgilanmoqda, bu soliqni hisoblab chiqarish maqsadida har xil maqsadlar uchun ishlatiladigan suv resurslari hajmining hisobini alohida yuritishni taqozo etadi. Ushbu chora-

tadbirlar suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq stavkalari 15% ga, ushbu stavkalarni sanoat korxonalarini uchun belgilangan yagona soliq stavkasiga bosqichma-bosqich yetkazish maqsadida, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun 30 foizga indeksatsiya qilinmoqda. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2020 yil darajasida saqlab qolinmoqda, qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish uchun ishlatiladigan suv hajmi va baliqlarni o'stirish (yetishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha esa 1 kub metri uchun 40 so'm yagona soliq stavkasi belgilanmoqda.

### **Qo'shilgan qiymat solig'i**

Qonun loyihasi bilan tushum hajmidan qat'iy nazar quyidagilar hisobiga QQS to'laydigan korxonalar doirasini kengaytirish nazarda tutilgan: alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shahobchalari, shuningdek, bozorlar va savdo komplekslari. Bu faoliyatni amalga oshirishga teng sharoitlarni yaratish va soliq bo'yicha QQS to'lovchi korxonalardan foyda ulushini ushbu soliqni to'lamaydigan shaxslarga taqsimlab o'tkazish hisobiga tushumlarni pasaytirishni oldini olishga imkon yaratadi.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida prezidentning 2020 yil 3 apreldagi PF-5978-sonli Farmoni bilan 2020 yil 1 apreldan 31 dekabrga qadar bo'lgan davrda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi oyiga 1 mlrd. so'mdan oshmaydigan va elektron hisob-fakturalarni qo'llaydigan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar ushbu soliqni har choraklik asosida hisoblash va to'lash huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan.

Valyuta tushumi summasi tushishidan qat'iy nazar haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan (to'lanadigan) QQSni hisobga olish imkoniyati nazarda tutilmoqda. Bu konsignatsiya (to'lovni kechiktirish) shartlari bilan eksportga tovarlarni jo'natishni amalga oshiruvchi eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlashga va aylanma mablag'larini band qilishni oldini olishga imkon beradi. Ushbu huquq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 maydagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-

tadbirlar to'g'risida"gi PF- 5989-sonli Farmoniga muvofiq faqatgina to'qimachilik korxonalarida mavjud edi.

### **Ijtimoiy soliq**

Pensiyalarni hisoblash tartibini soddalashtirish maqsadida jismoniy shaxslarning ayrim toifasi uchun ijtimoiy soliq stavkalarini unifikatsiya qilish taklif etiladi.

Shunday qilib, Qonun loyihasida o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar, «Usta-shogird» maktablari o'quvchilari — ular 25 yoshga to'lguniga qadar ishlagan davri, dehqon xo'jaliklari, shuningdek mehnat shartnomasi asosida chet elda yollanib ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan), O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) tashkilotlarda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun yiliga kamida 1 bazaviy hisoblash miqdorida ijtimoiy soliq tulanishini nazarda tutilgan.

### **Yer va mol-mulk solig'i**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha kamaytirilgan stavkaning 0,2 dan 0,4 foizgacha va alohida obyektlar va yer uchastkalariga nisbatan yuridik shaxslarning yer solig'i stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsiyentning 0,1 foizdan 0,25 foizgacha oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Bu ularni mol-mulk solig'i va yer solig'ining bazaviy stavkaga bosqichma-bosqich yetkazish imkonini beradi.

2021-yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarida QQS (15 foiz), foyda solig'i (15 foiz, alohida toifalar uchun 20 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12 foiz), yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i (2 foiz), qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i (0,95 foiz), ijtimoiy soliq (xo'jalik yurituvchi subyektlar — 12 foiz va budget tashkilotlari — 25 foiz), aylanmadan olinadigan soliq (bazaviy stavka 4 foiz) stavkalarini saqlab qolinishi nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, 2021-yilgi soliq siyosati Soliq kodeksining to'g'ridan to'g'ri amal qilishini, eksport qiluvchilarni yanada qo'llab-quvvatlashni, soliq yukining adolatli taqsimlanishini va tabiiy resurslaridan samarali foydalanilish oshirilishini ta'minlashni nazarda tutuvchi soliq islohotlarini davom ettirishga qaratilgan.

Soliq Kodeksining 306-moddasining qisqartma jadvalidagi:

**26-jadval**

**“Binolar, imoratlar va inshootlar” bo‘limi**

<b>№</b>	<b>BINOLAR, IMORATLAR VA INSHOOTLAR</b>	<b>Foiz</b>
1	Binolar, imoratlar	3
2	Neft va gaz quduqlari	5
3	Neft-gaz omborlari	
4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
5	Ko‘priklar	
6	Dambalar, to‘g‘onlar	
7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
8	Korxonalarining temir yo‘llari	
9	Qirg‘oqni mustahkamlovchi, qirg‘oqni himoyalovchi inshootlar	
10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig‘imlar	
11	Ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i	
12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog‘i	
13	Havo kemalarining uchish-qo‘nish yo‘llari, yo‘laklari, to‘xtash joylari	
14	Bog‘larning va hayvonot bog‘larining inshootlari	
15	Sport-sog‘lomlashtirish inshootlari	
16	Issiqxonalar va parniklar	
17	Boshqa inshootlar	

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-sonli Qarorda nazarda tutilgan va kiritilgan o‘zgartirishlar**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086-sonli Qarorda nazarda tutilgan va kiritilgan o‘zgartirishlar.

## 27-jadval

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari  
quyidagi miqdorlarda belgilanadi:**

<b>T/r</b>	<b>To‘lovchilar</b>	<b>Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda</b>
1.	Yuridik shaxslar (2 va 3-bandlarda nazarda tutilganlari bundan mustasno)	12
2.	Tijorat banklari	20
3.	Yuridik shaxslar: sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatishdan iborat bo‘lganlar	20

## 28-jadval

**Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning  
soddalashtirilgan tartibiga o‘tgan soliq to‘lovchilar uchun qo‘shilgan  
qiymat solig‘ining farqlangan stavkalari**

<b>T/r</b>	<b>To‘lovchilar</b>	<b>Soliq stavkalari soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda</b>
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, 2 — 6 bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno	7
2.	Qurilish tashkilotlari	8
3.	Chakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalar	6
4.	Umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo‘jaligi korxonalar	10
5.	Kasbiy xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar)	15

6.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, realizatsiya qiladigan yuridik shaxslar o‘zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno	4
----	--	---

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi”;

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, bundan dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlar mustasno, 12 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi”;

Agar ushbu Soliq Kodeksining 38-bobida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasiga 20 foizli stavka bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi”. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining turli farqlangan stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar ushbu faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish hamda soliq to‘lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli Qarorb bilan, yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar uchun faoliyat turlaridan kelib chiqib 2019 yilda soliq stavkalariga quyidagicha o‘zgartirishlar kiritildi

## 29-jadval

### Yagona soliq to‘lovi stavkalari

T/r	To‘lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, 2–12-bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno	4*
2	Bojxona rasmiylashtiruv bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan (bojxona brokerlari)	5
3	Lombardlar	25

4	Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (nerezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar	5
5	Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar	25**
6	Qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xom ashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	13**
7	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	30

Shu bilan birga, joriy yilning 29 noyabrida qabul qilingan "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5587-sonli Prezident farmoniga muvofiq, 2019 yil 1 yanvardan boshlab tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksport ulushi umumiy tushumning 15 foizdan yuqori bo'lgan eksportchi korxonalar uchun tovar (ish, xizmat)lar eksportidan olingan foyda soliq solishdan ozod qilinadi.

Masalan, "SHarq" MCHJning mahsulot sotishdan umumiy tushumi 2 500,0 mln.so'm, shundan eksportga sotilgan mahsulotlar hajmi 1 300,0 mln.so'm, soliq solinadigan foydasi 500,0 mln.so'mni tashkil qilgan.

Bunda, eksport ulushi 52 % ( $1\,300,0/2\,500,0 \times 100\%$ ) ni tashkil qilganligi sababli korxonada yuqoridagi imtiyozdan foydalanish huquqiga ega bo'ladi va soliq solinadigan foyda 500,0 mln.so'mning eksportga to'g'ri keladigan qismi, ya'ni 260,0 (52 %) mln.so'm foydasi soliq solishdan ozod etiladi. Natijada, 240,0 mln.so'mdan (500-260) 12 % stavkada 28,8 mln.so'm foyda solig'i to'laydi yoki imtiyoz natijasida korxonada ixtiyorida 31,2 mln.so'm mablag' qoladi.

## 30-jadval

## Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun faoliyat turlaridan kelib chiqib belgilangan soliq stavkalari

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Umumiy ovqatlanish korxonalari joylashgan joyiga qarab:	
2.	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8
3.	boshqa aholi punktlarida	6
4.	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4
5.	umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	joylashgan joyiga qarab belgilangan stavkaning 75%i
6.	Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar	
7.	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
8.	boshqa aholi punktlarida	2
9.	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
10.	alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni realizatsiya qilishdan tovar oboroti bo'yicha	4
11.	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari	4
12.	Dorixonalar aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
13.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar oborotining 4%i yoki yalpi daromadning 25%i



Agar ushbu Soliq Kodeksining 311-moddasida va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

**31-jadval**

**Yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari**

<b>T/r</b>	<b>To‘lovchilar</b>	<b>Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda</b>
<b>1.</b>	Budjet tashkilotlari va davlat korxonalarini, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxslar; qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ko‘proq qismi davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq bo‘lgan yuridik shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari	25
<b>2.</b>	1-bandda nazarda tutilmagan boshqa to‘lovchilar	12

**32-jadval**

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining solishtirma stavkalari**

<b>Eng kam oylik ish haqining darajasi</b>	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016-2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019 yildan</b>
1 barobari		0%	0%	0%	12 %*
5 barobari	7,5%	8,5%	7,5%	7,5%	
6 barobari					
7 barobari					
8 barobari					
9 barobari					
10 barobari	16%	17%	17%	16,5%	
10 barobaridan yuqori	22%	23%	23%	22,5%	

Pensiya jag'armasiga 8 fozlik sug'urta badalini to'lash bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo'yicha soliq solinishi belgilandi.

**33-jadval**

**Mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda		
			Toshkent sh.	Nukus shahri va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
<b>1.</b>	<b>Uy-joylar:</b>				
1.1.	Turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	10000	6500	3000
1.2.	Noturar joy		21000	13000	6000
<b>2.</b>	<b>Avtomobil transporti:</b>				
2.1.	Yengil avtomobil (o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	480 000		
2.2.	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		940 000		

Soliq kodeksining 370-moddasida kiritilgan o'zgarishlar bo'yicha bir kalendar yili davomi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdor 100 mln. so'mdan

oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar hisoblanishi

bir kalendar yil davomida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdor 100 mln. so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdor oshgan oyning keyingi oyidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishlari.

Prezidentimizning PQ-4086-sonli qarori bilan, 2019 yil 1 yanvardan boshlab, yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari quyidagicha belgilandi.

### 34-jadval

#### Qat'iy belgilangan soliq stavkalari

Faoliyat turlari	Bir oydagi eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda			
	Toshkent shahri	Nukus sh., viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo	1 000 000 sum	750 000 sum	400 000 sum	300 000 sum
dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan chakan savdo (uy xo'jaligida va dehqon xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlarni sotish bundan mustasno)	400 000 sum	200 000 sum	100 000 sum	50 000 sum
gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo	500 000 sum	250 000 sum	200 000 sum	50 000 sum
Maishiy xizmatlar	350 000 sum	200 000 sum	100 000 sum	50 000 sum
Boshqa faoliyat turlari	300 000 sum	200 000 sum	100 000 sum	50 000 sum

Kalendar yili davomida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdor 1 mlrd.so‘mdan oshganda, yuridik shaxs maqomida ro‘yxatdan o‘tib, umumbelgilangan tartibda soliqlarni to‘lashlari belgilangandi

Soliq kodeksining 350-moddasidagi kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan 2019 yildan yagona soliqto‘lovchilar

soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar:

soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan: meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi va Elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan oilaviy korxonalar

notijorat tashkilotlar daromadlarining soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan qismi bo‘yicha, soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari bir milliard so‘mdan oshmasligi sharti bilan

Yer uchastkalari obyektlari va maydonlaridan samarasiz foydalanilganligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlangan taqdirda, ushbu er uchastkalari obyektlari va maydonlari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘ini Kodeks 2691-moddaning uchinchi qismida hamda 283-moddasining uchinchi qismida belgilangan tartibda to‘lashliklari belgilandi.

Unga muvofiq, er uchastkalari obyektlari va maydonlaridan samarasiz foydalanilganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 sentyabrdagi PQ-3928-son qaroriga asosan,qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqarilgan xulosa asosidafoydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlariga nisbatan mol-mulk va er soliqlarini ikki karra miqdorda to‘lash, 6 oy o‘tgandan so‘ng -besh karra, 12 oy o‘tgandan so‘ng va keyinchalik - o‘rnatilgan stavkaga nisbatan o‘n karra miqdorda to‘lanishi ko‘zda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-sonli qarori bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari o‘rtacha 1,2 barobarga indeksatsiya qilindi.

**O‘zbekiston  
Respublikasining soliq  
siyosatini takomillashtirish  
konseptsiyasining asosiy  
yo‘nalishlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi  
“O‘zbekiston Respublikasining soliq  
siyosatini takomillashtirish  
kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-  
son Farmoniga muvofiq 2017-2021  
yillarda O‘zbekiston Respublikasini  
rivojlantirishning beshta ustuvor

yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida belgilangan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

**KONSEPSIYA** (лат. conceptio — majmua, tizim) — 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai-nazar tushuniladi.

Barchamizga yaxshi ma‘lumki, 2018 yilning 29-iyunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsyepstiyasito‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda, soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning invyestitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘shishga, ishbilarmonlik va invyestitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatdi, xususan:

birinchidan, umumbyelgilangan soliqlarni to‘lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbyelgilangan tizimida soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning syezilarliligi;

ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini jalb qiladigan, shuningdek, istye‘mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib kyeladigan hamda yirik va kichik biznyes o‘rtasidagi koopyeratsiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan majburiy to‘lovlarning mavjudligi;

uchinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning ryeal sonini va myehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib kyeluvchi myehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

to'rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining kyeng tarqalganligi;

byeshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish myexanizmlarining, elyektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarning takomillashmaganligi;

oltinchidan, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

yettinchidan, mahalliy soliq va yig'implarning ma'muriyatchiligi myexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdyek, ko'chmas mulk va yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini ob'yektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning byeshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar stratyegiyasida byelgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdyek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertyrlarning tavsiyalaridan kyelib chiqib:

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsyepsiyasining asosiy yo'nalishlari etib byelgilansin:

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdyek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbyelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdyek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, opyeratsion xarajatlarni minimallashtirish;

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash;

soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada chyeqlagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodyeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash, shu jumladan kodyeksda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarining miqdorlarini byelgilash;

xorijiy invyestorlar va invyestitsiyalar uchun qulay ryejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

soliq nazoratining shakl va myexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob‘yektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya tyexnologiyalarini kyeng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfyer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq opyeratsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

2. Ma’lumot uchun qabul qilinsinki, O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsyeyptsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab:

a) birinchidan, myehnatga haq to‘lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytiriladi:

barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etish, shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo‘naltirish. Bunda, ayrim toifadagi fuqarolarning eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolindi;

fuqarolarning myehnatga haq to‘lash turidagi daromadlaridan byudjyetsdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ushlab qolinadigan sug‘urta badallarini bekor qilindi;

pensiya tizimining barqarorligini ta’minlash maqsadida byudjyet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq miqdorda bo‘lgan yuridik shaxslar, ustav

jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tyegishli yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida byelgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi;

b) ikkinchidan, oborot (tushum)dan soliqlarni optimallashtirgan holda umumbyelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish myezonlari quyidagilar orqali takomillashtirildi:

davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni bekor qilindi;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabyellik darajasidan kyelib chiqib ular uchun qo'shimcha foyda solig'i hisoblash tartibini byekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirildi;

dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi;

o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida byelgilangan chyegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbyelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish. Bunda, yillik oborot (tushum)ning 1 milliard so'm etib byelgilangan chyegaraviy miqdori 3 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqish belgilandi;

barcha tadbirkorlik sub'yektlari, shu jumladan oboroti (tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv ryesurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etildi;

qo'shimcha foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibini, shu jumladan royalti to'lashni joriy etish orqali takomillashtirildi;

v) uchinchidan, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish choralari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan ilgari xususiyashtirilgan ob'yektlardan



samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun oshirilgan stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda, 5 foizdan 2 foizga pasaytirildi;

yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan soliq to‘lovchilar uchun oborotdan (tushumdan) soliqni 4 foiz miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to‘lash tartibini hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘lash imkoniyatini byelgilandi;

yagona yer solig‘i to‘lovchilar uchun soliq solish tartibini saqlab qolindi.

g) to‘rtinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aktsiz solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi quyidagilar orqali takomillashtirildi:

qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘liq hisobga olish tizimini joriy etish, soliq solish bazasini aniqlashtirish va imtiyozlar sonini kamaytirish, shuningdek, 2019 yil yakuni bo‘yicha mazkur soliq stavkasi miqdorini pasaytirish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdordagi amaldagi stavkasini saqlab qolindi;

hozirgi vaqtda sotib olinadigan asosiy vositalar, qurilishi tugallanmagan ob‘yektlar va nomoddiy aktivlar narxiga kiritiladigan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olish summalariga kiritish huquqini berildi;

tegishli tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni ryepublika byudjyeta o‘tkazgan holda, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun har bir ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga o‘rnatilgan aktsiz va yig‘imlarni birlashtirildi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish hamda samarasiz soliq va bojxona imtiyozlari va pryefyeryentsiyalarini byekor qilish bo‘yicha ishchi komissiyaning yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2019 yilgi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjyeti loyihasini taqdim etish bilan bir vaqtda Vazirlar Mahkamasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjyeti parametrlarining 2020-2021 yillarga mo‘ljallangan o‘rta muddatli byudjyet yo‘nalishlarini kiritilishi belgilandi.

2019-2021 yillarga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjyetini ishlab chiqishda xorijdan jalb qilinadigan mablag‘lar hisobiga moliyalashtiriladigan sarf-xarajatlarni inobatga olmagan holda uning mutanosibligini ta‘minlanishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimizda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, tadbirkorlikni va sog‘lom raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish va rag‘batlantirish hamda

ichki bozorni sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan soliqqa tortish va bojxona-tarif tizimini tartibga solish samarali tizimini shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-sonli Farmonida iqtisodiyotning ayrim sektorlarida tadbirkorlik subyektlariga sezilarli miqdorda imtiyoz va preferensiyalar berilganini hisobga olgan holda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashning amaldagi tartibidagi mavjud bo'lgan nomutanosibliklar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng sharoitlarni ta'minlashda qo'shilgan qiymat solig'ining to'laqonli zanjirini yaratish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini bermayotganligi tahlil qilindi.

Mamlakatimizning investitsiyaviy muhitini yanada yaxshilash, adolatli raqobat tamoyillarini joriy etishni ta'minlash hamda soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berish amaliyotini tartibga solish maqsadida:

1. 2019 yil 1 avgustdan boshlab:

yagona er solig'i to'lovchisi hisoblangan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tishi mumkin;

kalendar yili davomida xizmatlarni realizatsiya qilishdan olgan tushumi 100 million so'mdan oshgan, biroq bir milliard so'mdan ko'p bo'lmagan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar xizmat haqi summasidan 25 foiz stavkada yagona soliq to'lovini to'lashga o'tadi.

2. Belgilandiki, 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab:

a) benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yoqilg'i quyish stansiyalari orqali oxirgi iste'molchilariga sotadigan yuridik shaxslar, ushbu tovarlarni sotishdan tushumning miqdoridan qat'i nazar, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadi;

b) tovarlarni import qiluvchi tadbirkorlik subyektlari, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan tushum miqdoridan qat'i nazar, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadilar. Bunda tovarlarni birinchi marta import qiluvchi tadbirkorlik subyektlari import shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oyning 1 sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida hisobga turishi shart;

v) quyidagilar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idan, shu jumladan, import qilinganda ham imtiyozlar bekor qilinadi:

asbest, ko‘mir, yog‘och materiallari, yog‘och va undan tayyorlangan buyumlar, ulevodorod xom ashyosi;

soya danagi, kungaboqar va kunjut urug‘lari, moyli xom ashyo va shakar xom ashyosi;

qishloq xo‘jaligi texnikasi, avtotransport vositalari, avtotransport vositalarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan butlovchi buyumlar, materiallar va texnologik asbob-uskunalar;

g) yuridik shaxslarning tijorat banklariga joylashtirgan mablag‘laridan foiz ko‘rinishida olingan to‘lov manbaini foyda solig‘idan ozod qilish bo‘yicha imtiyozlar bekor qilinadi.

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘laqonli zanjirini yaratish va barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng sharoitlarni ta‘minlash maqsadida belgilansinki:

2019 yil 1 oktyabrdan boshlab o‘zi ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga va O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan belgilangan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar bekor qilinadi;

2019 yil yanvar oyidan sentyabr oyigacha 1 milliard so‘mdan ortiq pul aylanmasi (tushumi)ga ega bo‘lgan yoki 50 gektardan ortiq qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan er maydonlariga ega bo‘lgan yagona er solig‘i to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari hisoblanadilar va belgilangan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tishlari shart. Bunda 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab belgilangan pul aylanmasi (tushumi) chegaraviy darajasiga etgan yagona er solig‘i to‘lovchilar ushbu darajaga erishilgan oydan keyingi oyning 1 sanasidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tadi;

paxta xom ashyosini ishlab chiqaruvchilar 2019 yil hosilidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tadilar. Bunda ularga 2018 yilning 1 oktyabridan ilgari bo‘lmagan vaqtda haqiqatda olingan va paxta xom ashyosini etishtirish uchun ishlatilgan tovarlar (ish, xizmatlar) uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini hisobga olish huquqi beriladi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari qismi bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘idan imtiyozga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga imtiyozdan voz kechish to‘g‘risida xabarnoma berish asosida, ushbu xabarnoma berilgan oydan keyingi oyning 1 sanasidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash huquqi berilmoqda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan fermer xo‘jaliklariga buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish

uchun maxsus dasturiy mahsulot ishlab chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi bilan birgalikda qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisoblash va hisobga olish imkoniyatlarini nazarda tutgan holda dasturiy mahsulotni qayta ishlab chiqilishi belgilandi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda qo'shilgan qiymat solig'ining kiritilishi munosabati bilan paxta xom ashyosining 2019 yil hosili uchun yangi xarid narxlarini tasdiqlanishi belgilandi.

6. 2019 yil 1 avgustdan boshlab jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslarga hayotini uzoq muddatli sug'urtalash (barcha toifadagi hayot sug'urtasi sohasi) bo'yicha sug'urta shartnomasining har bir amaldagi yili uchun sug'urta mukofotini to'lashga yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlari soliqqa tortilmaydi. Bunda sug'urtalangan shaxsning hayoti uchun sug'urta to'lovlari shartnoma bo'yicha sug'urta muddati boshlangan kundan boshlab kamida o'n ikki oydan keyin amalga oshirilishi shart.

Uzoq muddatli hayotni sug'urtalash shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan va sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalangan shaxsga sug'urta mukofoti qisman yoki to'la qaytarilgan taqdirda, qaytarilgan sug'urta mukofotining summasi jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan jami daromadiga kiritiladi. Bunda to'lov manbaidan jismoniy shaxslarning daromad solig'ini ushlab qolish va byudjetga o'tkazib berish majburiyati sug'urtalovchiga yuklatiladi.

7. Belgilandiki, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan asbob-uskunalar va (yoki) butlovchi buyumlar etkazib berish bo'yicha import shartnomalari yuzasidan muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun, agarda asbob-uskunalar va (yoki) butlovchi buyumlarni etkazib berish muddati ularning texnik xususiyatlari va o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda 180 kundan ortiq bo'lsa, moliyaviy jazo choralari qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bir oy muddatda asbob-uskunalar va (yoki) butlovchi buyumlar etkazib berish bo'yicha import shartnomalari yuzasidan muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun

tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibini belgilash to'g'risida takliflar kiritilishi belgilandi.

8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda 2019 yil 1 oktyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qo'shilgan qiymat solig'ining hisobga olingan summasining uni hisoblanganidan oshgan summasini majburiy qoplab berish tartibini joriy etish bo'yicha takliflar kiritilishi belgilandi.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasi boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari konsultantlari va mustaqil ekspertlarni jalb qilgan holda 2019 yil 1 avgustga qadar bojxona imtiyozlarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ilgari berilgan imtiyozlarni bekor qilish bo'yicha quyidagilarga alohida e'tibor qaratgan holda kiritilishi belgilandi.:

qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga tovarlarni olib kirkanda, shuningdek, ish (xizmat)larni import qilganda import qilingan tovarlar (ish, xizmatlar) uchun qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyoz o'rniga 120 kungacha bo'lgan muddatga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni kechiktirish mexanizmlaridan foydalanishni;

texnologik asbob-uskunalar uchun bojxona imtiyozlarini berish mexanizmini takomillashtirish va optimallashtirishni.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-sonli "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-sonli "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-sonli O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari asosida 2020 yil 1 yanvardan qator o'zgarishlar kiritildi.

Aksiz solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari, mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan miqdori, mahalliy yig'implarning chegaraviy stakalari, avtotransport vositalarini sotib olinganda va (yoki) vaqtinchalik olib kirilganda ichki ishlar organlarida ularni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'implar

va xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston hududiga kirishi va hududdan tranzit o'tishi uchun yig'imlar stavkalari 2019 yil 9 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi Davlat byudjeti to'g'risida»gi qonun bilan tasdiqlangan.

Ma'lumki yurtimizda 2020 yil 1 yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi kuchga kirdi. Aytib o'tish joizki, mazkur hujjat soliq qonunchiligini maksimal darajada soddalashtirishga yo'naltirilgan konseptual o'zgartirishlardan iborat va uning asosiy maqsadi - insofli soliq to'lovchilar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Ushbu hujjatga asosan, davlat soliq xizmati organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar shakllari hamda mexanizmlarini takomillashtirish ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririda hisobvaraqa-fakturalar qoida tariqasida elektron ko'rinishda rasmiylashtirilishi belgilangan.

2020 yil 1 yanvardan boshlab tovarlarni (xizmatlarni) sotishda xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobvaraqa-fakturalarni elektron shaklda taqdim etishi va qabul qilishi shart. Soliq to'lovchilar elektron hisobvaraqa-fakturalar operatorini o'z xohishlariga ko'ra tanlashlari mumkin. Shu bilan birga, elektron hisobvaraqa-fakturalarning alohida operatorlari 2020 yil boshida o'z xizmatlarini bepul taqdim etadilar. Ko'p sonli soliq to'lovchilarni elektron hisob operatorlariga ulash zarurati tufayli, 2020 yil 1 iyulga qadar soliq organlari belgilangan tartibni buzganlik uchun javobgarlik choralari qo'llamaydilar. Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda hisobvaraqa-fakturalarni rasmiylashtirishning, shu jumladan ularni qog'ozda rasmiylashtirish mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olgan holda, yangi tartibi yetkaziladi.

Hisobvaraqa-fakturalarni taqdim etish tartibi huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazilganiga qadar soliq to'lovchilar 2019 yilda amalda bo'lgan tartibni qo'llashlari kerak (ro'yxat raqami 3126, 2019 yil 21 yanvar). Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqish va to'lash bo'yicha o'zgarishlar ko'zda tutilgan bo'lib, bunda 2020 yil 1 yanvardan quyidagilar bekor qilinadi: a) QQSni hisoblab chiqish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi. Bunda, soliq to'lovchilar QQSni hisoblab chiqish va to'lashning soddalashtirilgan tartibidan umumbelgilangan tartibga o'tganda, ular 2020 yil 1 yanvar holatidagi tovar-moddiy zaxira qoldiqlari bo'yicha QQS so'mmasini hisobga olishi mumkin. Masalan, 2019 yilda soddalashtirilgan tartibda QQSni to'lovchi korxonalar 2020 yilda 15 foizlik

stavkada to'lovchi bo'ladi. 2020 yilning 1 yanvar holatiga korxonaning balansida qo'yidagilar mavjud: QQS bilan sotib olingan 100 mln.so'mlik tovar-moddiy zaxiralari, shu jumladan, oxirgi 12 oyda sotib olingan tovar-moddiy zaxiralari, ya'ni 2019 yilning 1 yanvaridan 31 dekabrighacha 80 mln.so'mni tashkil etadi; QQS bilan sotib olingan qoldiq qiymati 200 mln. so'mlik asosiy vositalar, shu jumladan, 2019 yilda sotib olingan asosiy vositalar qoldiq qiymati 50 mln. so'mni tashkil etadi; 300 mln.so'mlik qurilishi tugallanmagan obyekt, shu jumladan 2019 yilda mazkur qiymatga kiritilgan QQS bilan sotib olingan tovar va xizmatlar 150 mln.so'mni tashkil etadi. 2020 yil 1 yanvar holatiga korxonaga 80 mln. so'mlik tovar-moddiy zaxiralari qoldiqlari, 50 mln. so'mlik qoldiq qiymat bilan asosiy vositalari va 150 mln.so'mlik qurilishi tugallanmagan obyekt qiymatiga kiritilgan tovar va xizmatlariga to'g'ri keladigan QQS so'mmasini hisobga olishi mumkin: Bunda QQS so'mmasi tovar-moddiy boyliklar va xizmatlar sotib olinganda mol yetkazib beruchilar tomonidan ko'rsatilgan stavkaga muvofiq ular qiymatini kamaytiradi. b) aylanmadan soliq to'lovchilarning QQSni ixtiyoriy ravishda to'lash imkoniyati.



Quyidagilar tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromad miqdori ko'rsatkichidan qat'iy nazar QQS to'laydilar: O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar; aksiz osti tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi va (yoki) foydali qazilmalarni qazib oluvchi yuridik

shaxslar; qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar – ularda 50 gektar va undan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari mavjud bo'lganda; benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar; lotereyani tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar; oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha – oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi; vakolatli organning xulosasi chiqarilgan tugallanmagan ishlab chiqarish obyektlari va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar; markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlarni qurilishini (joriy va mukammal ta'mirlashdan tashqari) bajaruvchi yuridik shaxslar.

Uzoq muddatli aktivlar bo'yicha bir martalik hisobga olish, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uzoq muddatli aktivlar bo'yicha ularni sotib olishda QQSni aylanma mablag'lardan foydalanishni cheklovchi 12 va 36 oylik davrlarga ajratmasdan, to'liq hisobga olishi mumkin. Bunda, sotib olingan uzoq muddatli aktivlar bo'yicha hisobga olinmagan va 2020 yil 1 yanvardan 4410 "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha avans to'lovlari (turlari bo'yicha)" debeti bo'yicha QQS so'mmasi 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (turlari bo'yicha)" debetiga to'liq hisobga olinadi. Ushbu qoida faqat 2019 yilda sotib olingan uzoq muddatli aktivlarga nisbatan qo'llaniladi (QQS bo'yicha hisobga olish huquqi 2019 yil 1 yanvardan keyin berilgan). Foyda solig'i bo'yicha ham o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, unga ko'ra endilikda zararlarni taqsimlab ko'chirish muddati 5 yildan 10 yilga, zararlarni taqsimlab ko'chirish chegaraviy miqdori soliq solinadigan bazaning 50 foizdan 60 foizgacha o'sgan. Shu bilan birga, 2020 yil 1 yanvarga qadar soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni ushbu zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o'tkazishni amalga oshirishga haqlidir. Taqsimlab o'tkazilayotgan zararining har bir navbatdagi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi joriy soliq davrining hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Qayd etish lozimki, Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha quyidagi o'zgarishlar kiritildi: Jismoniy shaxslarning alohida toifalarining (yakka tartibdagi tadbirkorlar, hunarmandlar, oilaviy tadbirkorlik sub'yektlari a'zolari) qat'iy belgilangan soliqni to'lash o'rniga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashi ko'zda tutilgan.



Shu bilan birga, ularga yillik daromad deklaratsiyasi asosida soliq to‘lashni tanlash huquqini berish rejalashtirilgan. Bunda “Hunarmand” uyushmasi a’zosi bo‘lgan va hozirda qat’iy belgilangan soliqni to‘lashda imtiyozlarga ega bo‘lgan hunarmandlar uchun, hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha daromad solig‘ini to‘lashdan ozod qilishni nazarda tutadigan imtiyozli soliq tartibi amal qiladi. Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini aniqlash tartibi qayta ko‘rib chiqilmoqda. Jumladan, hozirgi vaqtda jismoniy shaxsning jami daromadiga kiritilgan va keyinchalik soliq solinadigan bazani aniqlashda chegirilgan (pensiya, stipendiya, ijtimoiy nafaqa, aliment va boshqalar) daromadlarning ayrim turlari, 2020 yil 1 yanvardan boshlab soliq to‘lovchining jami daromadlariga kiritilmaydi. Bundan tashqari, jismoniy shaxsning bank hisobvarag‘iga o‘tkazilgan pul mablag‘lari va naqd pul ko‘rinishidagi daromadlar va (yoki) tashkilotning sodiqlik dasturida jismoniy shaxsning ishtirok etishi natijasida olingan tashkilot tomonidan tovarlar va (yoki) xizmatlarning to‘liq yoki qisman to‘lanadigan daromadlar soliq to‘lovchining daromadi hisoblanmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni quyidagi yo‘llar bilan optimallashtirish rejalashtirilgan:

a) O‘zbekiston Respublikasida hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish, shuningdek ipoteka kreditlari va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha imtiyozlar berish tartibini qayta ko‘rib chiqish (soliq davri davomida soliq chegirmalarining maksimal miqdori belgilanadi);

b) ta’lim to‘lovlari uchun ajratilgan mablag‘ (o‘zi yoki uning yigirma olti yoshgacha bo‘lgan bolalari uchun), shuningdek, yigirma olti yoshga to‘lmagan turmush o‘rtog‘i uchun to‘lovlar bo‘yicha taqsimlanishi;

v) xususiy korxonaga egasi, oilaviy korxonaga a’zosi va fermer xo‘jaligi rahbari ixtiyorida qolgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan keyingi foyda miqdori, mehnat shartnomasi bekor qilinganda eng kam ish haqining o‘n ikki baravari miqdorida to‘lanadigan ta’til nafaqasi, ixtiyoriy ravishda tugatilgan xo‘jalik yurituvchi sub’yekt - yuridik shaxsga o‘z majburiyatlarini bajarish uchun yo‘naltirilgan yuridik shaxs ta’rischilari (qatnashchilari) daromadlarining miqdori va aksiyadorlik jamiyatlarining chet ellik ishchilarining boshqaruv kadrlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari uchun qo‘llaniladigan soliq to‘lashdan ozod qilish tarzidagi imtiyozlarning bekor qilinishi Ijtimoiy soliq bo‘yicha kiritilgan

o'zgarishlar sirasiga ijtimoiy soliq stavkasi davlat korxonalariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga, shuningdek ustav fondida 50 yoki undan ortiq foiz davlat ulushi bo'lgan yuridik shaxslarga va ularning tarkibiy bo'linmalariga nisbatan 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirilganligi kiradi.

Yangi tahrirdagi soliq kodeksiga asosan yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha soliq stavkasi 2 foiz miqdorida saqlab qolinmoqda, qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanmoqda. Bunda bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, noturar-joy binolar, shuningdek qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali choralar qo'llanilishi mumkin va mol-mulk solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari ularga nisbatan tatbiq qilinmaydi. Quyidagi ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ilgari berilgan imtiyozlar o'rniga 0,2% miqdorida pasaytirilgan soliq stavkasi joriy etilmoqda: umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konservatsiya qilish to'g'risida qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va qurilishi tugallanmagan obyektlar. O'z vaqtida ishga tushirilmagan uskunalarda soliq solish obyektidan chiqarib tashlanmoqda. Qurilish tashkilotlarining yoki quruvchilarning balansida ularni keyinchalik sotish uchun hisobida turgan ko'chmas mulk obyektlari ushbu obyektlar foydalanishga topshirilgandan boshlab olti oy o'tgandan so'ng soliq solish obyektiga kiritilmoqda. Ular bo'yicha soliq bazasi ushbu obyektlarning o'rtacha yillik qiymatidan (realizatsiya qilinmagan qismidan) kelib chiqib aniqlanadi. To'liq amortizatsiya qilingan binolarga har uch yilda bir martadan ko'p bo'lmagan qayta baholangan (bozor) qiymatidan kelib chiqib mol-mulk solig'i solinishi belgilanmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va saqlash uchun ishlatiladigan, qishloq xo'jaligi korxonalarida balansidagi mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz joriy etilmoqda.

**Soliq konsepsiyasining 2021 yil uchun o'ziga xos yo'nalishlari:**

### **QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I**

Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek soliq stavkasi 15 foiz miqdorida saqlab qolinmoqda.

Tushum hajmidan qat'iy nazar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi korxonalar doirasi quyidagilar hisobiga kengaytirilmoqda: alko gol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo'yicha turg'un savdo shaxobchalari;bozor va savdo komplekslari.

Tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish bo'yicha aylanmasi oyiga bir milliard so'mdan oshmaydigan soliq to'lovchilar uchun soliq davri **chorak** etib belgilanmoqda.

Umumiy foydalanishdagi yo'lovchi tashish shahar transportida va yo'lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo'nalishli taksi mustasno) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatishda imtiyozlarni qo'llash tartibiga o'zgartishlar kiritildi.

Imtiyoz agar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yagona tarif o'rnatilgan va tashish ushbu tarif bo'yicha amalga oshirilsa tashuvchilar tomonidan qo'llaniladi.

Xalqaro moliya institutlari va horijiy hukumat moliya tashkilotlarining qarzlari hisobiga sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar)ni realizasiya qilish bo'yicha aylanma va ularni olib kirish, agar ozod qilish qonunda nazarda tutilgan bo'lsa ozod qilinadi.Shundan kelib chiqib, Soliq kodeksining 243 va 246-moddalariga o'zgartishlar kiritildi.

### **AKSIZ SOLIG'I**

Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Aksiz solig'i stavkalari Soliq kodeksi bilan belgilanmoqda (289<sup>1</sup> - 289<sup>3</sup>-moddalar).

Bunda olib kirishda aksiz solig'ini hisoblab chiqarishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori tasdiqlangunga qadar PQ-3818- sonli Prezident qaroriga muvofiq amal qiladigan TIF TN kodlari qo'llaniladi.

289<sup>1</sup>-289<sup>3</sup>-moddalarda tovar pozitsiyalari mavjud bo'lmaganda mos ravishda mavjud bo'lmagan tovar pozitsiyalariga aksiz solig'i hisoblanmaydi.

73 turdagi tovarlar bo'yicha aksiz solig'i bekor qilinmoqda, shu jumladan elektrotexnika mahsulotlari (muzlatgichlar, kondisionerlar, kir yuvish mashinalari), traktorlar va yarim tirkamalar, oziq-ovqat mahsulotlari (margarin, qandolat va boshqa mahsulotlari) bo'yicha va h.k.

Yakuniy iste'molchiga sotiladigan, olib kirilgan (import qilingan) aksiz to'lanadigan tovarlarni (benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan va siqilgan gaz) o'z ehtiyojlari uchun ishlatilganda, soliq to'lovchilari

bo‘lib ushbu tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun olib kirishni amalga oshirgan shaxslar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik yo‘nalishlarda tashkil etilgan degustasiya hududlarida (joylarida) realizasiya qilinadigan tabiiy vino (shisha idishdagilardan tashqari) mahsulotlari soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

### **FOYDA SOLIG‘I**

Foyda solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning 2020 yilda amalda bo‘lgan tartibi, shuningdek soliq stavkalari saqlanib qolinmoqda.

2021-yil 1-yanvardan boshlab Soliq kodeksi 304-moddasining 8, 9, 14, 15 va 17-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan), shuningdek soliq va bojxona imtiyozlari berilganligi natijasida bo‘shagan mablag‘lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan) mol-mulklar amortizasiya qilinadigan aktivlar deb e‘tirof etilmaydi va amortizatsiya qilinmaydi.

Amortizasiyalanadigan aktivning qiymati qayta baholashni hisobga olmagan boshlang‘ich qiymatidan hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari orqali xarajatlar jumlasiga kiritiladi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra buxgalteriya hisobi ma‘lumotlariga asosan soliq to‘lovchida mavjud bo‘lgan, ilgari o‘tkazilgan qayta baholashni hisobga olgan holda amortizasiyalanadigan aktivlar qiymati soliq solish maqsadida boshlang‘ich qiymat hisoblanadi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab, soliq to‘lovchi tomonidan keyingi hisobot (soliq) davrlarida amortizasiyalanadigan aktivlar qiymatini qayta baholashi amalga oshirilganda, amortizasiya ajratmalarini hisoblashda soliq solish maqsadlari uchun bunday qayta baholash natijasi hisobga olinmaydi.

Soliq organlari tomonidan oldingi hisobot davri asosida bo‘nak to‘lovlarini hisoblanishi saqlanib qolinmoqda.

Shu bilan birga, soliq to‘lovchi kelgusi chorakning birinchi oyi 10 sanasiga qadar joriy chorakda kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqqan holda, bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risida soliq organlariga ma‘lumotnoma taqdim etish huquqiga ega. Ushbu norma ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5978-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan edi.

## **JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek 12 foiz miqdorida soliq stavkasi saqlab qolinmoqda.

Qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lovchi soliq to'lovchilar uchun quyidagilar nazarda tutilgan: ushbu toifadagi soliq to'lovchilari uchun soliq stavkalari Soliq kodeksida belgilanmoqda. Bunda, 2020 yilda amalda bo'lgan soliq stavkalari miqdori saqlanib qolinmoqda; O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" Qonunida nazarda tutilgan, ushbu soliq stavkalari qo'llanilishi bilan bog'liq alohida normalar Soliq kodeksiga o'tkazilmoqda; jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olgan daromadiga 12 foiz miqdordagi soliq stavkasida soliq solinadi. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliq summalarini yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini amalga oshiradigan joyl xususiyatlarini, shuningdek amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining mavsumiy tusdaligini hisobga olgan holda 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan oraliqdagi kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar belgilash huquqi saqlab qolinmoqda.

Yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq to'lov manbaida soliq agenti — yakka tartibdagi tadbirkor — tomonidan soliq to'lovchiga daromad to'langanda hisoblab chiqariladi va ushlab qolinadi.

### **IJTIMOIIY SOLIQ**

Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek 2020 yilda amalda bo'lgan yuridik shaxslar uchun 12 foiz va byudjet tashkilotlari uchun 25 foiz miqdorida soliq stavkalari saqlanib qolmoqda.

Quyidagi toifadagi jismoniy shaxslar uchun quyidagilar nazarda tutilmoqda:

1) mehnat staji hisoblanishi uchun yiliga kamida 1 bazaviy hisoblash miqdorida soliq to'lanishi qo'yidagicha amalga oshiriladi:

**a) ixtiyoriy tartibda:** o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar; mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan (ochilgan) savdo uylarida, vakolatxonalarda (shu jumladan yuridik shaxs

tashkil etmasdan), tashkilotlarda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan;

**b) majburiy tartibda:** “Usta-shogird” maktablari o‘quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to‘lguniga qadar ishlagan davrida; dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, maydoni to‘rt sotixdan kam bo‘lmagan dehqon xo‘jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo‘lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo‘lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar. Bunda dehqon xo‘jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to‘laydi, boshqa a‘zolari va ko‘rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to‘laydi;

2) ushbu toifadagi jismoniy shaxslar uchun soliq to‘lash muddati hisobot yilining 1 dekabrigacha belgilanadi. Bunda soliqning miqdori to‘lov kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qolgan jismoniy shaxslar uchun 2020 yilda amalda bo‘lgan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi saqlanib qolinmoqda.

### **AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ**

Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi saqlab qolinmoqda. Ayrim toifadagi to‘lovchilar uchun majburiy tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lanishi joriy etilishini inobatga olgan holda aylanmadan olinadigan soliq tatbiq etilmaydigan shaxslar ro‘yxati to‘ldirilmoqda. Quyidagi shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo‘llash huquqiga ega emas: alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivoni chakana sotish bo‘yicha turg‘un savdo shoxobchalari; bozor va savdo komplekslari.

Rieltorlik xizmatini ko‘rsatuvchi shaxslarga soliq stavkasi 25 foizdan 13 foizgacha kamaytirilmoqda.

Qolgan soliq to‘lovchilar uchun 2020 yilda amalda bo‘lgan soliq stavkalari saqlab qolinmoqda.

### **MOL-MULK SOLIG‘I**

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi, shuningdek, yuridik shaxslar uchun bazaviy soliq stavkasi 2 foiz miqdorida saqlab qolinmoqda.

Jismoniy shaxslar uchun 2020 yilda amalda bo‘lgan soliq stavkalari 1,15 baravariga indeksasiya qilindi. Ushbu, jismoniy shaxslar uchun soliqqa tortish obyektlarining (soliq bazasi) ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organi tomonidan 2018 yilda belgilangan kadastr qiymati miqdori saqlab qolinishi bilan

izohlanadi. Bunda, 2021-yilda jismoniy shaxslar uchun 2018 yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan soliq summasi, 2020-yilda hisoblangan soliq summasiga nisbatan 30 foizdan ko'p oshirilishi mumkin emas.

Turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilinmoqda. Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yerlar uchun mol-mulk solig'ini kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki ushbu soliqlarni to'lashdan ozod qilish vakolati berildi.

Ko'p kvartirali uylariga bevosita bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq obyektiga kiritilmoqda. Bunday obyekt soliq bazasiga nisbatan 0,23 foiz miqdoridagi soliq stavkasida soliqqa tortiladi.

Misol uchun, avtomashina turar joy kadastr qiymati 12 mln.so'm miqdorida belgilangan, ushbu qiymatga nisbatan 0,23 foiz miqdorida soliq stavkasi qo'llaniladi, natijada bir avtomashina turar joyi uchun yillik jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soliq summasi **27,6 ming** so'mni tashkil etadi.

Bunda, ushbu norma quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi: turar joyi hovlisida o'zining avtomashinasi uchun joyni obodonlashtirishga qaror qilgan jismoniy shaxslarga; yuridik shaxslarning avtotransport vositalarini saqlash xizmatidan (pullik avto turargoh) foydalanuvchi jismoniy shaxslarga. Bu holda, soliq to'lovchi bo'lib yuridik shaxs hisoblanadi.

## **YER SOLIG'I**

Yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95 foiz soliq stavkasi saqlab qolinmoqda.

Dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq organlari yer uchastkasining joylashgan joyi bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatini aniqlovchi organlar ma'lumotiga asosan soliq solinmaydigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni chegirgan holda yer solig'i hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga yakka tartibda uy-joy qurish va yashash uylarini obodonlashtirish uchun berilgan tomorqa yer uchastkalariga, yakka

tartibda uy joy qurish bilan band bo'lgan yer uchastkalariga jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkasi qo'llaniladi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun hududlar kesimida (mutlaq miqdorda) bazaviy soliq stavkasi belgilanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkasining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi: Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalarini belgilaydi;

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo'yicha esa Soliq kodeksida belgilangan yer solig'i stavkalariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritadi.

Bunda, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari alohida yer uchastkalariga, shuningdek turistik zonalarda joylashgan jismoniy shaxslar foydalanishida bo'lgan 1 gektardan ortiq yer uchastkasiga yer solig'ini 3 baravargacha miqdorda oshiruvchi stavkasini belgilash huquqiga ega.

Tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari 2021-yil uchun yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq stavkalarini 2020-yilning 31-dekabriga taqdim etadilar.

Yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq stavkalarini 5 kun davomida yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yer solig'ini hisoblash uchun mazkur soliq stavkaslarini soliq to'lovchilarga yetkazishi shart.

Bunda, yuridik shaxslar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha 2021-yil uchun soliq hisobotlarini 2021 yilning 10 yanvariga qadar soliq organlariga taqdim etadilar.



2021 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2020 yil uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan 30 foizdan ko'p oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan soliq stavkalarini qo'llash bilan bog'liq alohida normalar Soliq kodeksiga o'tkazilmoqda.

Soliq kodeksining 429-moddasida nazarda tutilgan alohida obyektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan yuridik shaxlar uchun soliq stavkasining kamaytiruvchi koeffitsientini 0,1 dan 0,25 ga oshirish yo'li bilan kamaytiruvchi soliq stavkasini bosqichma-bosqich bazaviy stavkaga yetkazish davom ettirilmoqda. Yer solig'i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsient 2020-yil 1-yanvardan boshlab avval soliq imtiyozlari berilgan obyektlarga nisbatan joriy etilgan.

Barcha turdagi chiqindilarni saqlash va ularni utilizatsiya qilish uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i uchun soliq solish obyektidan chiqarilmoqda.

Yuridik shaxslar uchun quyidagilar egallagan yer qismi bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilinmoqda: turistik zonalarda joylashgan, sanatoriy-kurort obyektlari; onalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari.

Bunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga turistik zonalarda alohida sanatoriy-kurort obyektlari egallagan yerlar uchun yer solig'ining kamaytirilgan stavkalarini qo'llash yoki yer solig'inini to'lashdan ozod qilish vakolati berilmoqda.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni joriy etish bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarni kirtish hisobiga kengaytirilmoqda. 2021-yilning 1-yanvarigacha faqatgina tomchilatib sug'orish tizimidan foydalanayotgan soliq to'lovchilar soliq imtiyozidan foydalanishi mumkin edi.

2021-yilning 1-yanvaridan boshlab boshqa turdagi suvni tejaydigan sug'orish (yomg'irliq, diskret va boshqa (shu jumladan tomchilatib) texnologiyalarini joriy etilgan yerlar — suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oynning boshidan e'tiboran besh yil muddatga yer solig'ini to'lashdan ozod etilmoqda. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi.

Agarda, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yoki demontaj qilingan bo'lsa, soliq imtiyozlari butun soliq davri uchun soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi.

Qonunchilikda oshirilgan soliq stavkalarini belgilash orqali ta'sir ko'rsatish choralari nazarda tutilishi mumkin bo'lgan va soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydigan obyektlar jumlasiga samarali foydalanilmayotgan, baliq ko'paytirish (etishtirish) uchun mo'ljallangan sun'iy suv havzalarini kiritish bilan yer uchastkalari ro'yxati kengaytirilmoqda. Bu yerlar uchastkalariga yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilmaydi.

### **SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksasiya qilinishini hisobga olgan holda, Soliq kodeksida belgilanmoqda.

Bunda, soliq stavkalari kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun 2020 yil darajasida saqlab qolinmoqda, qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv hajmi qismi va baliqlarni o'stirish (etishtirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklari uchun yagona soliq stavkasi 1 kub.m. uchun 40 so'm miqdorida belgilanmoqda.

Elektr stansiyalar uchun soliq stavkalari kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun belgilangan stavkalar bilan tenglashtirilmoqda.

Kollektor va drenaj tarmoqlaridan ishlatiladigan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaliklarida suvdan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq bazasini aniqlash tartibi quyidagilarni nazarda tutgan holda o'zgartirilmoqda: Suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ har yili quyidagilar tomonidan ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmi to'g'risida ma'lumot taqdim etadi: joriy soliq davrining 10 dekabridan kechiktirmay qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliqchilik xo'jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga soliq bazasini aniqlash uchun; dehqon xo'jaliklari bo'yicha soliqni hisoblash uchun — soliq organlariga suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish joyi bo'yicha hisobot yilidan keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay.

Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo'jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun'iy suv obyektlaridan olingan va ushbu suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi mustasno, o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo'jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste'mol qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste'molining normativlariga ko'ra aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliq yetishtirish (o'stirish), shu jumladan dehqon xo'jaliklarida suv o'lchash uskunalari mavjud bo'lganda, soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffisientni hisobga olgan holda, suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish jarayonida suvni maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun ishlatadigan soliq to'lovchilar soliq bazasini tabiiy suv obyektlaridan maxsus uskunalarni (turbinalarni) sovitish uchun olingan va tabiiy suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi o'rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydi. Ushbu norma suvning haqiqiy hisobi yoki suvdan maxsus foydalanish ruxsatnoma mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Soliq solish obyekti va (yoki) soliq stavkasi turli xil bo'lgan bir necha turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar bunday faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari shart va tegishli soliq stavkalari bo'yicha soliq to'lash tartibi kiritilmoqda.

Masalan: soliq to'lovchining asosiy faoliyati turi savdo bo'lib, uning avtotransport vositalarini yuvish shaxobchasi mavjud. Bu holatda, soliq to'lovchi bu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi va soliq hisoblaydi: savdo faoliyati uchun foydalangan suv hajmi bo'yicha soliq stavkasi 1 kub metr uchun 182 so'm (yer usti suv resurslari) va 1 kub metr uchun 221 so'm. (yer osti suv resurslari); avtotransport vositalarini yuvish uchun suv hajmi bo'yicha soliq stavkasi 1 kub metr uchun 1 990 so'm.

## **YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda.

Quyidagi foydali qazilmalar uchun 5 foiz miqdorida, biroq 1 kub. m uchun 7 500 soʻmdan kam boʻlmagan miqdorda yagona soliq stavkasi belgilanmoqda: qurilish qumlari, qum-shagʻal aralashmasi, qumtoshlar, qurilish mayda toshlar (karbonat jinslari), qurilish mayda toshlar (granitlar, porfirritlar va slanes jinslari). “Navoiy kon-metallargiya kombinati” DK va “Olmaliq kon-metallargiya kombinati” AJ uchun oltin, kumush, palladiy va mis boʻyicha soliq stavkasi 15 foiz miqdorda belgilanmoqda.

Boshqa foydali qazilmalar boʻyicha soliq stavkalari 2020-yil darajasida saqlab qolinmoqda.

### **BOSHQA OʻZGARISHLAR**

Oltindan yasalgan zargarlik buyumlarini chakana savdoda sotganlik uchun yigʻim miqdori 1 gramm uchun 1 000 (bir ming) soʻm miqdorida saqlab qolinmoqda.

2021-yil 1-yanvardan mulkchilik shaklidan qatʻiy nazar barcha xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun asosiy vositalarni har yillik majburiy qayta baxolash bekor qilinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5978- son Farmoniga 1- ilovada nazarda tutilgan Oʻzbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda 20 ta turdagi tovarlar (oq va boshqa shakardan tashqari) boʻyicha bojxona bojining nol' darajali stavkasini qullash muddati 2021-yilning 31-dekabrgacha uzaytirildi.

### **Oʻz-oʻzini nazorat qilish uchun savollar**

1. Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yoʻnalishlari nimalardan iborat?

2. Mamlakatimizda soliq va byudjet siyosatining 2020 yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlarida nimalarga eʻtibor qaratilgan?

3. Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda OʻRQ-599-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuni asosida kuchga kirgan Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining oʻziga xos jihatlari nimada?

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrda Oʻzbekiston Respublikasining «2021 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida»gi Qonuni ijrosini taʻminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi PQ-4938-son Qarorida nimalar bayon etilgan?

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5755-sonli Farmonida qanday belgilab berilgan?

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**№** \_\_\_\_\_

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘QUV-USLUBIY BO‘LIM**

**REKTOR**

\_\_\_\_\_ **T.Teshaboyev**

**2021 yil \_\_\_ avgust**



**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” TA‘LIM YO‘NALISHI  
BO‘YICHA**

**TANISHUV AMALIYOTI  
DASTURI**

**OLIV TA‘LIMNING**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	230000 – Iqtisod
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	5230800 – Soliqlar va soliqqa tortish

**TOSHKENT-2021**

## KIRISH

Hozirda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni va 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori hamda 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarorlari qabul qilindi. Mazkur qarorlarda belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi.

Ushbu amaliyot dasturi 1-kurs "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun tayyorlangan bo'lib, mutaxassislik fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabridagi 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida" Nizom talablari asosida ishlab chiqilgan.

Tanishuv amaliyotini o'tishdan asosiy maqsad talabalarda soliqlar va soliqqa tortish bo'yicha muayyan darajada egallagan nazariy bilimlarini amaliy tajribalar bilan boyitish, talabalarda amaliy ko'nikmalarni hosil etish nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda iboratdir.

### **I. TANISHUV AMALIYOTINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

Soliq tizimining rivojlanishi yuqori malakali soha kadrlari bilan to'liq ta'minlanganligi bilan bog'liq. Talabalar ongini hozirgi zamon nazariy bilimlari bilan boyitish va bu nazariy bilimlarni respublika hududidagi soliq inspeksiylarida amaliyot o'tash yo'li bilan mustahkamlash yuqori malakali soliqchi kadrlarini tayyorlashning asosini tashkil qiladi.

Amaliyotni o'tkazishdan asosiy maqsad talabalarining o'qish jarayonida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirilgan holda rivojlantirishdir.

Shu bilan birga soliq tizimida bo'layotgan eng so'ngi o'zgarishlarni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hamda soliq tizimiga oid me‘yoriy hujjatlarni chuqur o‘rgangan holda mamlakatimiz soliq tizimining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shishi amaliyot maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Amaliyotning asosiy vazifasi mamlakatimiz soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini anglash, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari, xususan soliq inspeksiya strukturasini, yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish bo‘limlari hamda soliq va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma‘lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limining ish faoliyatini o‘rganish va soliq to‘lovchilar bilan ishlarni samarali amalga oshirishni tashkil etilishini hamda ular asosida nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishni o‘rganishdan iboratdir.

## **II. TANISHUV AMALIYOTINING MAZMUNI, MAVZULARI VA ULARNI AMALIYOT KUNLARI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI**

Tanishuv amaliyotining dastlabki kuni soliq inspeksiya boshqaruvchisi, soliq inspeksiya boshqa rahbarlari hamda soliq inspeksiya tashkiliy strukturasini bilan tanishishdan boshlanadi. Soliq inspeksiya boshqaruvchisi yoki alohida belgilangan soliq inspeksiya xodimi amaliyotchiga soliq inspeksiya ichki intizomi, soliq inspeksiya bo‘limlarining ish faoliyati va jamoat ishlari to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot beradi.

Tanishuv amaliyoti asosan soliq inspeksiya bo‘limlarida o‘tkaziladi. Talabdan amaliyot o‘tish davomida amaliyot o‘tiladigan har bir ish o‘rniga oid amaldagi me‘yoriy hujjatlar va ularda foydalanilayotgan axborot-kommunikatsiya vositalari hamda amaliy va soliq inspeksiya foydalaniladigan dasturlar bilan tanishib chiqish talab etiladi.

Alohida ish o‘rinlari bo‘yicha tanishuv amaliyoti ish kunlari quyidagicha taqsimlanadi.

<b>№</b>	<b>Tanishuv amaliyoti mavzulari</b>	<b>Ish kuni</b>
1.	Soliq inspeksiya ish faoliyati bilan tanishish	2
2.	Soliq inspeksiya kadrlar bilan ishlash sho‘basi ish faoliyati bilan tanishish	2
3.	Soliq inspeksiya bo‘limlari ish faoliyati bilan tanishish	4

4.	Soliq inspeksiyasidagi axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan tanishish	2
5.	Kafedradan biriktirilgan amaliyot rahbari bilan ishlash	2
<b>JAMI</b>		<b>12</b>

### **III. TANISHUV AMALIYOTINING YO‘NALISHLAR BO‘YICHA TAQSIMLANISHI**

#### **1. Soliq inspeksiyasi ish faoliyati bilan tanishish**

Amaliyot davrida amaliyotchi soliq inspeksiyasida xodimlar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti, ularning vazifalari va majburiyatlari, ishdan bo‘shatilish va boshqa ishga o‘tishi, ularning faoliyatini nazorat qilish uslubi bilan tanishishi kerak.

*Hisobotga quyidagilar ilova qilinadi:*

- soliq inspeksiyasi strukturasi chizmasi;
- soliq inspeksiyasi pasporti va nizomi;
- yuqori tashkilotlarning tekshirish dalolatnomalari.

#### **2. Soliq inspeksiyasi kadrlar bilan ishlash sho‘basi ish faoliyati bilan tanishish**

Soliq inspeksiyasi kadrlar bilan ishlash sho‘basida ishlatiladigan quyidagi ish hujjatlari bilan tanishadi:

- kadrlar bilan ishlash sho‘basining nizomi;
- inspeksiyaga kadrlarni ishga qabul qilish buyruqlari;
- kadrlar toifasini belgilash mezonlari hamda ularni attestasiyadan o‘tkazish qoidalari;
- inspeksiya xodimlariga mukofot hamda moddiy yordam hisoblash tartiblari.

*Hisobotga quyidagilar ilova qilinadi:*

- kadrlar bilan ishlash sho‘basi nizomi;
- inspeksiyaga kadrlarni ishga qabul qilish buyruqlari;
- kadrlar toifasini belgilash mezonlari hamda ularni attestasiyadan o‘tkazish qoidalari.

#### **3. Soliq inspeksiyasi bo‘limlari ish faoliyati bilan tanishish**

Berilgan mavzu bo‘yicha amaliyotchi ushbu bo‘limga tegishli bo‘lgan quyidagi sho‘balar bilan tanishadi:



1. Hisobni yuritish va byudjet daromadlarini prognozlashtirish bo'limi (sho'bas);
2. Yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limi (sho'bas);
3. Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limi (sho'bas);
4. Soliq solish bo'yicha maslahat bo'limi (sho'bas);
5. Soliq qarzini undirishni tashkil qilish bo'limi (sho'bas);
6. Kameral nazorat bo'limi (sho'bas);
7. Soliq tekshiruvlari va mavzuli ekspres-o'rganishlar bo'limi (sho'bas);
8. Soliq sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (sho'bas);
9. Soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash bo'limi (sho'bas) faoliyati, maqsad va vazifalari hamda ish yuritish tartiblari bilan atroflicha tanishib chiqadi.

*Hisobotga quyidagilar ilova qilinadi:*

- *bo'lim (sho'ba)larning nizomi;*
- *yo'riqnoma ma'lumotlari;*
- *soliq to'lovchilar tarkibi va to'langan soliq summalarini qayd qiluvchi hujjatlar;*
- *turli xil mulkchilik shaklidagi hamda faoliyat turlariga ko'ra soliq hisob-kitoblari (oylik, choraklik, yillik);*
- *tekshiruv dalolatnomalari (turli xil mulkchilik shaklidagi korxonalar bo'yicha);*
- *bo'lim (sho'ba) faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobot (choraklik, yillik).*
- *Yuridik shaxslar bilan ishlash sho'bas;*
- *Jismoniy shaxslar bilan ishlash sho'bas;*
- *Profilaktik tadbirlarni o'tkazish sho'bas;*
- *Xronometraj, ko'zdan kechirish va so'rov o'tkazish sho'bas faoliyati, maqsad va vazifalari hamda ish yuritish tartibi bilan tanishib chiqadi.*
- *yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning solikli to'lovlari bo'yicha reja (prognoz) ma'lumotlari va tushumlari;*
- *soliq to'lovchilar tarkibi va to'langan soliq summalarini qayd qiluvchi hujjatlar;*
- *soliq hisob-kitoblaridan nusxalar;*
- *hisobotlarni va balanslarni tekshirish dalolatnomalari;*

- deklaratsiya asosida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish bo'yicha ma'lumotlar nusxalari;
- bo'lim faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobot (choraklik, yillik).

#### **4. Soliq inspeksiyasidagi axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan tanishish**

Berilgan mavzu bo'yicha amaliyotchi ushbu bo'limga tegishli bo'lgan quyidagi sho'balarda bilan tanishadi:

- soliq tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriyati;
- davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni;
- davlat soliq xizmati organlarini avtomatlashtirish holati;
- davlat soliq xizmati organlarida yagona komp'yuter tizimi;
- davlat soliq xizmati organlarida joriy qilingan dasturiy mahsulotlar.

*Hisobotga quyidagilar ilova qilinadi:*

- soliq inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi elektron dastur nizomi;
- yuridik shaxslar topshiradigan elektron hisobot bo'yicha nizomni;
- jismoniy shaxslar topshiradigan elektron hisobot bo'yicha nizomni;
- davlat soliq xizmati organlarida joriy qilingan dasturiy mahsulotlar.

#### **IV. AMALIYOTNI O'TASH JARAYONIDA TALABANING MAJBURIYATLARI**

Amaliyotni o'tish davrida talaba soliq inspeksiyasida o'rnatilgan ichki ish tartibiga rioya qilishi va soliq inspeksiyasining jamoat ishlarida faol ishtirok etishi kerak.

Amaliyot o'tayotgan talaba dasturda ko'rsatilgan barcha vazifalarni bajarishi, soliq inspeksiyasining yo'riqnoma, xatlari va boshqa barcha me'yoriy va huquqiy hujjatlar, ularga kiritib borilayotgan eng oxirgi o'zgarishlar bilan tanishib borishi lozim.

Talabalar amaliyotni o'tash davrida quyidagilarni bajarishi lozim:

1. Soliq inspeksiyasi tomonidan belgilangan rahbar bilan birgalikda amaliyot obyekti va mavzusi, amaliyotni o'tish va ish joyini belgilovchi kalendar ish rejasini tuzishi;

2. Soliq organlari xodimlari bilan teng huquqda soliq inspeksiyasining ichki tartibiga to'liq rioya qilishi hamda bajarilayotgan ish va uning natijasi uchun to'liq javobgar bo'lishi;

3. Inspektsiyada mustaqil ish olib borish: soliq hisob-kitoblari bilan tanishish, xulosa va takliflar qilish, hisobotlar uchun belgilangan kunda va belgilangan muddatlarda materiallar yig'ish. (Soliq inspektsiyasi rahbarining roziligi bilan talabaga har juma kuni hisobot uchun ma'lumotlar yig'ishga ajratiladi);

4. Kundalik daftari yuritilishi va uni muntazam to'ldirib borilishi;

5. Soliq organidagi rahbar tomonidan amaliyot natijalarini ifodalovchi tavsifnomani va bajarilgan ishlarni ko'rsatuvchi yozma hisobotni talaba kafedraga taqdim etishi; (Agar talaba o'z vaqtida amaliyotni o'tamagan yoki belgilangan vazifalar yuzasidan olib borgan ishlari salbiy xulosalangan bo'lsa kursdan kursga o'tkazilmaydi);

Amaliyot davomida talaba institut dekanati tomonidan berilgan kundalikni yuritib, unda har kuni bajargan ishlarini yoritib borishi lozim. Kundalikda bajarilgan ishlar quyidagi shaklda yozib boriladi.

Har bir ish kunining oxirida shu kungi amaliyot uchun rahbarlik qilgan inspektsiya xodimi talabaning bajargan ishlarini kundalik daftariga o'z imzosini qo'yishi orqali tasdiqlaydi.

Sana	Amaliyotdagi ish joyi	Bajarilgan ishlar	Rahbarning imzosi

Talaba soliq inspektsiyasida amalga oshirgan kunlik amaliyot ishlarini umumlashtirib, amaliyot muddati tugagach qo'lda hisobot yozishi kerak. Hisobotning hajmi kamida 25 betni tashkil etishi lozim. Tayyor bo'lgan hisobot kafedra tomonidan ro'yxatga olinadi.

Hisobot tarkibi quyidagilardan iborat:

- kirish;
- har bir bo'limda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan savollar to'liq ochib berilgan amaliyot natijalari;
- amaliy ma'lumotlar;
- soliq inspektsiyasida ishlatiladigan hujjatlardan namunalari;
- ilovalar.

Talaba amaliyot joyidan quyidagilarni olishi va tasdiqlatishi kerak:

- kundalik (amaliyot joyiga kelganligi va amaliyot bo'yicha yakuniy xulosani mas'ul xodim imzosi va muhr bilan tasdiqlatishi):
- tavsifnoma;
- amaliyot o'tash bo'yicha buyruqdan ko'chirma yoki farmoyish.

## **V. AMALIYOT BO‘YICHA SOLIQ INSPEKTSIYASIDAN VA INSTITUT TOMONIDAN TAYINLANGAN RAHBARNING MAJBURIYATLARI**

Talabalar amaliyot o‘tishi uchun soliq inspeksiyasi buyrug‘i bilan tegishli soliq inspeksiyasi bo‘limiga qabul qilinadilar va ularga amaliyot rahbari tayinlanadi.

Amaliyot o‘tash jarayonida har bir amaliyotchi uchun alohida rahbar tayinlanadi. Amaliyot bo‘yicha rahbar amaliyot boshlanishi bilan uch kun ichida amaliyot grafigini tuzishi va shu grafik asosida talabanning amaliyot o‘tishini nazorat qilib borishi talab qilinadi.

Soliq inspeksiyasi rahbariyati tomonidan talabanning amaliyoti uchun ma’sul javobgar rahbar biriktirilishi to‘g‘risida buyruq chiqariladi. Tanishuv amaliyoti bo‘yicha rahbar amaliyot boshlanishi bilan amaliyotchini nazorat qilib borishi talab qilinadi.

Malakaviy amaliyotga soliq inspeksiyasidan tayinlangan rahbarning majburiyati:

- amaliyotni o‘tash uchun tegishli shart-sharoit, talabanning ish joyini tayinlash, tegishli hujjatlar bilan ta’minlash;

- talabanning ishga kelishi va ish vaqtdan foydalanishi ustidan kunlik nazorat qilib borish;

- har bir bo‘limda amaliyot o‘tashdan oldin talabaga uni bajarish lozim bo‘lgan ish tartibi va usullar xususida tushuntirish ishlarini olib borish, amaliyotni o‘tash davomida maslahatlar berib borish;

- talabanning inspeksiya bo‘limlarida amaliyot o‘tashini tashkil etish va unga malakali rahbarni biriktirib qo‘yish;

- talabadan dasturda belgilangan ishlarni o‘z muddatida bajarilishini talab etish;

- bajarilgan ishlar yuzasidan kundalikda aks ettirilgan yozuvlarning to‘g‘riligini tekshirish va soliq inspeksiyasining muhri bilan tasdiqlash.

Institutdan tayinlangan rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- talabanning amaliyotga chiqishidan avval suhbat o‘tkazish va amaliyot o‘tish tartibini tushuntirish;

- amaliyotni o‘tash holati, talabanning bajarayotgan ishi, amaliyotga qatnashish davomatini nazorat qilib borish;

- dasturni to‘liq hajmda bajarilishi, amaliyotni o‘z muddatlarida o‘tishini nazorat qilish, kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- kundalikning to'liq va to'g'ri to'ldirayotganligini nazorat qilib borish;

- kundalikning alohida ajratilgan joyida talabaning amaliyotni o'tashi va olgan ko'nikmalari haqida raxbar o'z yozma xulosasini beradi;

- amaliyot so'nggida hisobotni tekshirib, unga taqriz hamda xulosa berish.

## **VI. TALABANING AMALIYOT BO'YICHA HISOBOTI, UNI HIMOYA QILISH TARTIBI VA BAHOLASH MEZONLARI**

Barcha mavzular bo'yicha amaliyotchi o'z amaliyotini o'tib bo'lganidan so'ng, to'plangan barcha hisobot ma'lumotlarini tartib bilan ketma-ket taxlaydi. Hisob-kitoblar bo'yicha tushuntirishlar, izohlar va hulosalar yozadi, raqamlab, ish papkasiga mahkamlaydi. Shu bilan o'z amaliyotini yakunlaydi. Tanishuv amaliyoti yakuni bo'yicha tayyorlangan hisobotda talaba dasturda keltirilgan mavzular yuzasidan 25 bet hajmidagi ma'lumot, tahlil va jadvallarni o'z husnixati bilan rasmiylashtiradi. Shuningdek, tanishuv amaliyoti hisobotida dastlab dastur mavzulari bo'yicha ma'lumotlar ketma-ket yoritiladi, so'ng amaliyot joyidan olingan amaliy ma'lumotlar ilova qilinadi.

Amaliyot tugagandan so'ng, talaba amaliyot o'tash buyrug'ida belgilangan muddatlardan kechikmasdan buyruqdan ko'chirma, talaba tomonidan to'ldirilgan va soliq inspeksiyasidagi amaliyot rahbarining xulosasi ko'rsatilgan kundalik, amaliyot dasturida ko'rsatilgan har bir bo'lim bo'yicha bajarilgan va o'rganilgan ishlar bo'yicha yozma hisobot topshirilishi lozim.

Hisobot tituli dastur ilovasida keltirilgan namunadagi kabi rasmiylashtirilishi lozim. Talabaning hisoboti institutdan tayinlangan rahbar tomonidan tekshirilib, yozma ravishda yozilgan taqriz bilan birga 3 kun ichida talabaga qaytariladi. Taqrizda o'tilgan amaliyot bo'yicha hamda tekshirish uchun qabul qilingan hisobotning kamchiliklari, xatolari shu bilan birga yutuqlari ham ko'rsatiladi. Talaba hisobotni kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan komissiya oldida himoya qilgunga qadar taqrizda ko'rsatilgan barcha kamchiliklarni bartaraf etish zarur.

**Talabaning amaliyot hisobotini himoya qilish bo'yicha baholash mezonlari:**

<b>BAHO</b>	<b>TALABANING BILIMIGA QO'YILGAN TALABLARNING ASOSLANISHI</b>
<b>5 (a'lo)</b>	talaba tanishuv amaliyoti bo'yicha mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, dastur mavzularining mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda dastur mavzulari bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;
<b>4 (yaxshi)</b>	talaba tanishuv amaliyoti bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, dastur mavzularining mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda dastur mavzulari bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;
<b>3 (qoniqarli)</b>	talaba tanishuv amaliyotida olgan bilimni amalda qo'llay oladi, dastur mavzularining mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda dastur mavzulari bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;
<b>2 (qoniqarsiz)</b>	talaba tanishuv amaliyoti dasturini o'zlashtirmagan, dastur mavzularining mohiyatini tushunmaydi hamda dastur mavzulari bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

Hisobot kafedra tomonidan belgilangan muddatlarda hisobot qabul qiluvchi komissiya oldida og'zaki himoya qilinadi.

Amaliyot bo'yicha hisobotning himoyasini qabul qilishda talabaning nazariy jihatdan olgan bilimlari, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, uning dunyoqarashi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay olishi, amaliy bilim darajasi alohida hisobga olinadi. Tanishuv amaliyot natijalarini baholash kafedra tomonidan belgilangan rahbarning ijobiy tavsiyasi va hisobot himoyasini qabul qilish komissiyasi tomonidan quyidagi keltirilgan mezonlar asosida baho tizimida amalga oshiriladi.

Tanishuv amaliyoti davrida amaliyotga to'liq qatnamagan, amaliyot dasturini to'liq bajarmagan, amaliyot bo'yicha salbiy taqriz olib, hisobotni qayta ishlamagan talabalar hisobot himoyasiga qo'yilmaydi. Shuningdek, hisobot himoyasidan qoniqarsiz baho olgan talaba kursdan-kursga o'tmay, 1-kursda qoldiriladi va kelasi o'quv yili talaba amaliyotni qayta o'taydi.

## TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR

1. Bilish
2. Idrok
3. Kasb
4. Kasbga yo‘naltirish
5. Kasbiy axborot
6. Kasbiy maslahat
7. Ko‘nikma
8. Mahorat
9. Qobiliyat
10. Hunar
11. To‘lovlar
12. Soliqlar
13. Soliqqa tortish
14. Davlat byudjeti
15. Soliq to‘lovchilar
16. Davlat soliq xizmati
17. Soliq tizimi
18. Solikli va soliqsiz to‘lovlar
19. Byudjet daromadlari
20. Yuridik shaxs
21. Jismoniy shaxs
22. To‘g‘ri soliqlar
23. Egri soliqlar
24. Inflyatsiya
25. Soliq tamoyillari
26. Soliq tizimi
27. To‘lov xabarnomasi
28. Foyda solig‘i
29. Soliq stavkasi
30. Soliq obyekti
31. Soliq subyekti
32. Rezident
33. Soliq imtiyozlari
34. Soliqni to‘lash muddatlari
35. Yagona soliq to‘lovi
36. Tovar oboroti

37. Qo'shilgan qiymat
38. Nollik stavka
39. Schyot-faktura
40. Qo'shilgan qiymat solig'i
41. Aksiz solig'i
42. Mol-mulk solig'i
43. Mol-mulklar qiymati
44. O'rtacha yillik qoldiq qiymat
45. Yer maydonlari
46. Norezident
47. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
48. Deklaratsiya
49. Suv resurslari
50. Yer osti qazilma boyliklari
51. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
52. Mahalliy soliqlar va yig'imlar
53. Yig'im
54. Majburiy ajratmalar
55. Dasturiy mahsullar.



## KASBIY KOMPETENTLIKKA OID GLOSSARIY

**Bilish** - dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan subyekt va obyektning o‘zaro ta’sirini, voqelikning ruhiyatida qayta ta’sir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

**Idrok** – mazkur muddatda sezgi organlarining yoki bir butun hodisalarning inson ongidan aks etishidir.

**Kasb** - (lot. professio - rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) - maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi.

**Kasb** - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan: vrachlik kasbida xirurg , oftalmolog , dermatolog va b.). Kasblar odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.

**Kasb tanlashga yo‘llash (proforentatsiya)** – yo‘naltirish, ajrata bilish, belgilash hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlash degan ma’noni bildiradi.

**Kasb tanlashga yo‘llash tushunchasi** – talabalarni ongli to‘g‘ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo‘lini tug‘ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

**Kasb so‘zining ma’nosi** – insonlarning hunari, faoliyat turi va xayot kechirishlari uchun manba xizmatini o‘taydigan mashg‘ulotni bildiradi.

**Kasbga yo‘naltirish ishlarini mohiyati:** yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitidir.

**Kasbga yo‘naltirish** – talabaning o‘z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga ketishining pedagogik jarayoni bo‘lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy bog‘liq bo‘lgan tafakkuri va hatti – harakatlarini ongli ravishda o‘z-o‘zini boshqaruvchidir.

**Kasbiy axborot** – yoshlarni zamonaviy ishlab chikarish turlari va kasblari, xujalik majmuasining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o‘zlashtirishning shakllari va sharoitlari mexnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy usish va o‘z o‘zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish.

**Kasbiy maslahat** - yoshlarning pedagogik psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy yo‘lini tanlash bo‘yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o‘zligini aniqlashda yordam ko‘rsatish.

**Kasbiy tanlash pedagogik** – psixologik psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o‘zining psixologik-fiziologik xususiyatlarga ko‘proq mos bo‘lgan turli kasbiy yo‘nalishlar to‘g‘risida tavsiyalar berish.

**Kasbiy saralash** - insonning ma‘lum kasbga tegishli me‘yoriy talablariga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash.

**Kasbni to‘g‘ri tanlash** – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvofaqiyat ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlashiga bog‘liq.

**Ko‘nikma** - malakaning tarkibiy qismi bo‘lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq bajarish qobiliyatlaridir.

**Kasbiy bilimlar** - ma‘lum kasb-hunar sohasidagi avlodlar tomonidan orttirilgan tajribalar.

**Kasbiy ko‘nikma** - kasb bo‘yicha zaruriy, maqsadli harakatlarning egallanishi va bajarilishi.

**Kasbiy malaka** - kasbiy harakatlarning avtomatlashgan darajasi.

**Kasbiy maslahatlar** - talabalarni o‘rganishga asoslangan, kasb tanlashga yordam ko‘rsatish tadbirlari.

**Mahorat** – kasbiy malakalarni rivojlantirishning yuqori darajasi.

**Xarakter** - hatti-harakatlarning sifat jihatlarining o'ziga xosligini, mustahkamligini ko'rsatib turadigan, maxsus munosabatlarni paydo bo'lish jarayonida o'zining izini qoldiradigan xususiyatlari majmuasidir.

**Tafakkur** - bilish, anglashning yuqori shakli bo'lib o'zida obe'tiv dunyodagi xodisalar bilan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni namoyon etishdir.

**Erk** - o'z oldiga maqsadlarni qo'yish va qabul qilish bilan, shu bilan birga, ularni hal etish, amalga oshirish yo'lida ichki va tashqi to'sqinliklarni yengib o'tishdir.

**Qiziqish** – bu voqyelikdagi predmetlar va va hodisalarning bilish yo'nalishini belgilaydigan, biror narsaga berilish, qoniqish tuyg'usi orqali uyg'onadigan faoliyati tushuniladi.

**Qobiliyat** – qaysi bir faoliyatni muvoffaqiyatli bajarishga ta'lluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

**Hunar** - kishining biror foydali maqsadli faoliyat bilan shug'illanishi.

## MUTAXASSISLIKKA OID GLOSSARIY

**Aksioner** – aksionerlik jamiyatining aksiyalariga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Aksiyalar turli shakllarda bo'lishi mumkin.

**Aksiya** – aksionerlik jamiyatining kapitaliga hissa qo'shilganligi to'g'risida guvoxlik beruvchi qimmatbaho qog'oz. Aksiya o'zining egasiga dvident shaklida foydani bir qismini olish (o'zlashtirish) huquqini beradi.

**Amortizatsiya** – kelgusida asosiy fondalarni to'liq qayta tiklash uchun pul mablag'larini jamg'arish va ularning qiymatini tiklash maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatga asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatining ularning eskirishiga qarab o'zluksiz o'tkazish jarayoni. Ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhitning ta'siri natijasida asosiy fondlar asta-sekinlik Bilan eskiradi, ularning moddiy va

ma'naviy eskirishi sodir bo'ladi. Bunda mehnat vositalarining qiymati uzluksiz qismlarga bo'linib, amortizatsiya hisoblash yo'li bilan normativ xizmat qilish muddati davomida tayyor mahsulotga o'tkaziladi.

**Asosiy ish joyi** – ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi.

**Asosiy faoliyat turi** – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati

**Balans qiymati** - buxgalteriya balansida asosiy fondlar va aylanma mablag'larning pulda ifodalangan bahosi.

**Balans foyda** – mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha harajatlar va chiqimlar hamda majburiy to'lovlar chegirilganidan so'nggi korxonaga yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortulguncha qadar bo'lgan yalpi foydadir.

**Byudjet profitsiti** - muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Byudjet tizimi** – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, ularni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, shuningdek byudjet jarayonida paydo bo'ladigan ular o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

**Byudjet tashkilotlari** – Davlat byudjetida unga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lgan byudjetdan mablag' ajratish nazarda tutilgan vazirlik, dalat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

**Bojlar** – iste'mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo'lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq ho'jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy siyosatining dastagi sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlarning bahosi bilan ichki bozordagi xudi shunga o'xshash tovarlarning bahosini tenglashtirish lozim.

**Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot** – birgalikdagi faoliyat natijasi bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

**Vakolatli organlar** - vakolatli organlar quyidagilardir:

1) davlat soliq xizmati organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

2) bojxona organlari — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

3) moliya organlari — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar xokimliklarining moliya bo‘limlari;

4) boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari. quyidagilardir:

**Grant** — davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk.

**Davlat byudjeti daromadlari** – o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliqsiz boshqa tushumlar; 2) davlatning moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotishga berilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslar va xorijiy

davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

**Davlat byudjeti** – davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) markazlashtirilgan fondi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Davlat soliq xizmati organlari** - davlat soliq xizmati organlari quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari

**Daromadlar to'g'risida deklaratsiya** – Dividendlar – taqsimlashga mo'ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxonada sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma'lum davrdan so'ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to'lanadigan daromad.

**Doimiy muassasa** - norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi. Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e'tirof etiladi.

**Imtiyoz** - ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to'liq) ozod etish, ma'lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo'lish, masalan, soliq imtiyoziga.

**Yig'imlar** – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan mahalliy byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari jamg'armalarga o'tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim

turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im, Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar kiradi.

**Kurs bo'yicha farq** - milliy valutaga nisbatan chet el valutasida kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

**Kameral nazorat** - soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazorat.

**Moddiy xarajatlar** - xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materillar, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat. Moddiy resurslarning qiymati ularni sotib olish bahosi (qo'shilgan qiymat solig'isiz), ta'minot va tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan ustamalar, komission mukofotlar, boj to'lovlari, tovarlar birjasining xizmat qiymatlari, tashish, saqlash va etkazib berish haqlarining yig'indisidan tashkil topadi.

**Mahalliy soliqlar va yig'imlar** – mahalliy byudjetga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im

**Mahalliy byudjet** - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Progressiv soliq** - soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkasining ko'tarilishi xarakterlidir. Progressiv soliqlarning orasida eng ko'p uchraydigani jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqdir.

**Proporsional soliq** – soliq shaklida olinishi mumkin bo‘lgan summa soliqqa tortish bazasining o‘lchamiga (miqdoriga, hajmiga) proporsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

**Penya** – fuqarolik huquqida jazo choralarning (jarimalarning) ko‘rinishlaridan biri, qonun yoki shartnomaga muvofiq to‘lovlar muddatini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jazoning shakli. Uning miqdori qonunga ko‘ra to‘lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan summaga nisbatan foizda belgilanadi. Korxonada to‘langan penya summasi noishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

**Preferensiya** – investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozini ko‘rinishida belgilangan (o‘rnatilgan) imtiyoz, afzallik.

**Regressiv soliq** – soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (og‘irligi) boylarga nisbatan kambag‘al qatlamlar uchun og‘irroq deb sanaladi. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash uchun kambag‘allar boylarga nisbatan o‘z daromadlarining ko‘proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proporsional soliq ham regressiv bo‘lishi mumkin.

**Rezidentlar** – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar e‘tirof etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs;
- O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

**Soliqlar** – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari.



**Soliq inspeksiyalari** – Davlat soliq qo‘mitasiing yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzilishi funksional belgiga ko‘ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo‘jalik faoliyatining turi, to‘lovlar hajmi, soliqlarning turlari va h.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo‘lgan hudud uchastkalarga bo‘linadi.

**Soliq davri** - u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

**Soliq majburiyati** - soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e‘tirof etiladi.

**Soliq stavkasi** – soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat‘iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan qat‘iy summalarida o‘rnatiladi.

**Soliq tizimi** - mamlakat doirasida (hududida) to‘lovlardan (yuridik va jisoiy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig‘indisi.

**Soliq qonunchiligi** – davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me‘yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.

**Soliq to‘lovlari** – soliq qonunchiligi bo‘yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, hisoblangan yoki qat‘iylashtirilgan summalaridir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo‘yicha qonunga binoan aniqlanadi.

**Soliq tushumlari** - Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to'lovlarga mo'ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolotli banklarning hisob-kitob raqamiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq to'lovlari va moliyaviy sanksiyalar.

**Soliq hisoboti** - soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

**Soliq nazorati** - soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimi.

**Soliq to'lovchilar** – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

**Soliq agentlari** – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

**Soliqqa tortish obyektlari** – qonunga muvofiq foyda (daromad), ma'lum bir tovarlar qiymati, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, mol-mulkni berish, (meros, taqdim etish), qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, faoliyatning ayrim turlari va boshqalardan iborat. Soliqqa tortishning bir obyekti bir turdagi soliq bilan belgilangan muddatda (oy, chorak, yarim yil, yil) bir marta soliqqa tortilishi mumkin.

**Soliqqa tortish prinsiplari** – soliq siyosatini amalga oshirishni belgilab beradigan va soliqlar bo'yicha byudjet topshiriqlarini tuzish orqali realizatsiya qilinadigan mustahkam o'rnashib qolgan qoidalar yig'indisi.

**Soliq elementlari** – davlatning qonun hujjatlari asosida aniqlangan soliqlarning tuzilishi (qurilishi) prinsiplari va ularni undirishni tashkil qilish, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o‘zida aks ettiradi.

**Savdo faoliyati** - qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** - soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq qarzi** - soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq kodeksida belgilangan muddatida to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

**Sof tushum** - tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

**Sof foyda** - soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

**Soliq siri** - davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchi to‘g‘risida olingan har qanday ma‘lumot.

**Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)** - muayyan soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganda unga beriladigan raqam.

**Soliq tekshiruvi** - davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirish.

**Soliqqa oid huquqbuzarlik** - soliq to‘lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g‘ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi).

**Tannarx** - mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

**Tovarlarni eksport qilish** - O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**To'lov manbai** - soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

**Umidsiz qarz** - sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

**O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri** - soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi.

**Qo'shilgan qiymat** – sotilgan (realizatsiya qilingan) tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymati bilan ishlab chiqarish va muomala xarajatlarining tarkibiga kiritilgan moddiy xarajatlarining qiymati o'rtasidagi farq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me‘yoriy-hujjatlar

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2018
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi /yangi tahrirda/. – Toshkent, 2020 <https://lex.uz/docs/4674902>
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. –T.: “Adolat”, 2019 <https://lex.uz/docs/2304138>
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, 1997 yil 29 avgust
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrda gi “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/5186044>
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 30 dekabrda gi “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘RQ-659-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/5193212>
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda gi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599 sonli Qonuni
- 1.8. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda gi “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589 sonli Qonuni
- 1.9. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrda gi “Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-508-son Qonuni.
- 1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda gi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
- 1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 dekabrda gi O‘zbekiston Respublikasining «2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash

chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4938-son Qarori,  
<https://lex.uz/docs/5193227>

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PF-5116-son Farmoni.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrdaagi "O'zbekiston Respublikasining 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4555-son Qarori

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdaagi "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdaagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5969-son Farmoni

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldaagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5978-son Farmoni

1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 apreldaagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5986-son Farmoni

1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 iyuldaagi "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6029-son Farmoni

1.18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 maydaagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdaagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5996-son Farmoni

1.19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyuldaagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida" gi PF-5468-sonli Farmoni.

1.20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdaagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida" gi 4086-son Qarori

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.**

2.1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent shahri 2020 yil 24 yanvar', <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent shahri 2021 yil 29 dekabr', <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

2.2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 61 b.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 88 b.

2.4. Mirziyoyev Sh.M. “Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish- islohotlar samaradorligining bosh mezoni”//Xalq so‘zi, №107 (7337). 2019 yil 29 may.

2.5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2.6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

2.7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 32 b.

2.8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

## **3. Kitob va turkum nashrlar**

3.1. Alimardanov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho‘lpon” nomidagi NMIU, 2013. – 296 b.

3.2. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Akademnashr», 2011. – 472 b.

3.3. Гадоев Э.Ф. и др. Косвенные налоги. Учебно-практическое пособие. – Т.: «Норма», 2011. – 220 с.

3.4. Гадоев Э.Ф. и др. Налог на прибыль. Учебно-практическое пособие. – Т.: «Норма», 2011. – 356 с.

3.5. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. –203 b.

3.6. Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik.–T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. -408 b.

3.1. Jo‘rayev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Monografiya. –T.: «Fan», 2004. – 243 b.

3.2. Jo‘rayev A., Safarov G‘., Meyliev O. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. –376 b.

3.3. Jo‘rayev A.S., Usmanova M.S., Amanov A.M., Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik, –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 432 b.

3.4. T.Malikov. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: «Akademiya», 2002

3.5. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: «G‘afur G‘ulom», 2000

3.6. Gataulin SH. Soliqlar va soliqqa tortish. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1996

3.7. O‘lmasov A., SHarifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: «Mehnat», 1995

3.8. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО /Л.И.Гончаренко и др. 2-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -524 с.

3.9. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО / под ред. Д.Г.Черника, Ю.Д.Шмелева. -3-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -408 с.

3.10. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для СПО /В.Г.Пансков. -6-е изд., перераб. и доп. -М.: Издательство «Юрайт», 2019. -436 с.

3.11. Налоги и налогообложение: учебное пособие /А.Н.Романов, С.П.Колчин. -М.: Инфра-М, 2018. – 391 с.

3.12. Налогообложение организаций. /под науч. ред. Гончаренко Л.И., -М.: «КноРус», 2018. -512 с.

3.13. Налоги и налогообложение. Учебник. /под общ. ред. Владыка М.В., Сапрыкина Т.В. -М.: «КноРус», 2018. -496 с.

3.14. Налоги и налогообложение. Учебник. /Гончаренко Л.И. –М.: «КноРус», 2018. -240 с.

3.15. Налоги и налогообложение. Учебник. //под ред. И.А. Майбурова –М.: «Юнити-Дана», 2016. - 487 с.



3.16. Черник Д.Г., Шмелев Ю.Д. Теория и история налогообложения. Учебник. –М.: «Юрайт», 2016. - 364 с.

3.17. Налоговое право: учебник для бакалавров/ отв. Ред. Е.Ю.Грачева, О.В.Болтинова. –М.: «Проспект», 2017. - 312 с.

3.18. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 Т. Пер. с англ. II-го изд. Т1. –М.: Республика, 1993

3.19. Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. –М.: «Госполитиздат», 1955

#### **4. Journallardagi maqolalarga va konferensiya ishlariga havolalar**

4.1. Jo‘rayev A. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ayrim masalalari. //Moliya. 2017, №1. –63 b.

4.2. Abdurahmonov X. Soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish. //Moliya. 2015, №6. –80 b.

4.3. Гимранова О. Налоговое стимулирование в Узбекистане на этапе углубления экономических реформ. //Молия. 2015, №5. –71 с.

4.4. Зарипов Х.Б. Налоговое планирование предприятий в Республике Узбекистан // Журнал Общество и экономика, 12, 2019, с 75-82, DOI: 10.31857/S020736760007837-9. (08.00.00; №20)

4.5. Зарипов Х.Б. Налоговое стимулирование развития базовых отраслей экономики // Бозор, пул ва кредит №6, 2011 йил, с. 44-46. (08.00.00; №4)

4.6. Зарипов Х.Б. Налог на добавленную стоимость как налог, обеспечивающий непрерывности производства //“Инновационные подходы в управлении финансовыми ресурсами хозяйствующих субъектов”. Сборник тезисов и докладов международного круглого стола, а также Международной научно-практической видеоконференции, Екатеринбург-Петропавловск -Ташкент 2020, с. 689-693

4.7. Зарипов Х.Б. Оценка показателей деятельности предприятия в условиях использования цифровых технологий //“Рақамли иқтисодиётни шакллантиришнинг хориж тажрибасидан самарали фойдаланиш йўллари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари., Т.: 2020 йил 20 май, 310-313 б

4.8. Jo‘rayev A. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. –2004. –№5–6. –В. 61.

4.9. Jo‘rayev A. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash va uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati //Bozor, pul va kredit. –2004. –№4(83). –В. 28–29.

4.10. Jo‘rayev A. Daromad, byudjet va soliqlar //Soliq to‘lovchining jurnali. –2004. –№4 –B. 21–23.

4.11. Zaripov X.B. Foyda solig‘i: natijaga yo‘naltirilgan soliq sifatida //Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali, III son. may-iyun, 2020 <http://journal.bfa.uz/> (08.00.00; №17)

4.12. Zaripov X.B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha islohotlar: ishlab chiqarish hamda iqtisodiy zanjir uzluksizligining kafolati sifatida // “Moliya” ilmiy jurnali, 1/2020, 99-106 b. [www.tfi.uz/Issues/Jmoliya](http://www.tfi.uz/Issues/Jmoliya), e-mail: [moliya@tfi.uz](mailto:moliya@tfi.uz). (08.00.00; №12)

4.13. Zaripov X.B. Foydadan olinadigan soliqlarning aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy faoliyatiga ta‘siri //“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil. [www.tfi.uz/Issues/Jmoliya](http://www.tfi.uz/Issues/Jmoliya), e-mail: [moliya@tfi.uz](mailto:moliya@tfi.uz). (08.00.00; №19)

4.14. Zaripov X.B. Mol-mulkdan samarali foydalanishda soliqlarning rag‘batlantiruvchanlik ta‘sirini oshirish masalalari//Moliya jurnali. №2, 2011 yil, 65-69 b. (08.00.00; №12)

4.15. Zaripov X.B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha islohotlar: xo‘jalik yurituvchi subyektlar manfaatlari yo‘lida //“Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to‘plami. – Toshkent, 2020 yil 15 may, 76-78 b.

4.16. Zaripov X.B. Iqtisodiy taraqqiyotning yangi davrida tijorat banklarini soliqqa tortishning amaldagi holati //“Banklarga moliyaviy mablag‘larni jalb qilish va ularning innovatsion xizmatlari samaradorligini oshirish” respublika miqèsida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2020 yil 06 iyun, 460-462 b

## **5. Xorijiy tilda yozilgan adabiyotlar.**

6.1. Pratt and Kulsrud, Corporate, Partnership, Estate and Gift Taxation, 2015 Edition, Van-Griner Publishing, 2015. USA

6.2. Murphy and Higgins, Concepts in Federal Taxation 2015, Twenty-Second Edition, South-Western College Publishing, 2015. USA

6.3. Examples & Explanations: Federal Income Taxation by Joseph Bankman Paperback, July 21, 2014 Wolters Kluwer. Law and Business. 636 pages

6.4. Federal Income Tax: Code and Regulations--Selected Sections (2014-2015) Perfect Paperback – July 2, 2014 by Martin B. Dickinson

- 6.5. Federal Taxation: Comprehensive Topics (2015), 2015 Edition, CCH INC., 2015. USA
- 6.6. Pratt and Kulsrud, Individual Taxation, 2015 Edition, Van-Griner Publishing, 2015. USA
- 6.7. Am P. La fiscalite en France. –Hachette, 1998, p. 186
- 6.8. Hofer A. La fraude fiscale en Suisse. –Editions Grounauver. Geneve, 1978. p. 141
- 6.9. Tanzi V. Taxation an Integrationg World. –Washington.: The Brooklngs Institut, 1995
- 6.10. Farmer P., Lyal R. EC Tax Law. -Oxford.: Clarendon Press, 1994
- 6.11. Sauvageot G. Precis de fiscalite. – Nathan, 1990
- 6.12. Mariette D. Bercy report a zero sur le dossier du Gredit Jonciur. //Tribune. -P., 1998
- 6.13. Steinbery A. An innovatori package for financial sector reforms // Joural of Banking and finance. 2001.

## **6. Elektron ta'lim resurslari**

- 7.1. <http://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
- 7.2. <http://www.soliq.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
- 7.3. <http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- 7.4. <http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi
- 7.5. <http://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi
- 7.6. <http://www.ziyonet.uz> - Jamoat axborot ta'lim tarmog'i
- 7.7. <http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati
- 7.8. <http://www.fmc.uz> - «FINMANCONSULT» kompaniyasi
- 7.9. <http://www.norma.uz> - «NORMA HAMKOR» MCHJ
- 7.10. <https://www.sciencedirect.com> (ScienceDirect Elsevier Tadqiqotchilarning xalqaro axborot bazasi)

**JO‘RAYEV ABDUG‘AFFOR SAFAROVICH  
AMANOV AKRAM MIRZAYEVICH  
ZARIPOV XUSAN BAXODIROVICH**

# **SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH**

**(I QISM)**

**KASBIY FAOLIYAT ASOSLARI**

**Toshkent – «NIHOL PRINT» OK – 2021**

Muharrir: A.Tog‘ayev  
Tex. muharrir: F.Tog‘ayeva  
Musavvir: B.Esanov  
Musahhiha: O.Muxammadiyeva  
Kompyuterda  
sahifalovchi: G.Tog‘ayeva

9323



№ 7439-765f-47f1-7ea1-a683-4648-1314.  
Bosishga ruxsat etildi: 17.06.2021. Bichimi 60x841 /16.  
Shartli bosma tabog‘i 18,25. Nashr bosma tabog‘i 18,0.  
Adadi 100. Buyurtma № 83.

«Nihol print» Ok da chop etildi.  
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.